

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

SANOAT TEXNOLOGIYA FAKULTETI  
KIMYOVİY TEXNOLOGIYA KAFEDRASI

YUQORI MOLEKULALI BIRIKMALAR  
ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI

fanidan

# ELEKTRON MODULLI MAJMUA



Qarshi-2022

**YUQORI MOLEKULALI BIRIKMALAR ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI FANI**  
**BO‘YICHA**

**ANNOTATSIYA**

Ushbu ma`ruzalar matni 5320400- Kimyoviy texnologiya (YuMB, plastmassa va elastomerlar kimyoviy texnologiyasi) yo`nalishida ta`lim olayotgan talabalarga o`qilayotgan "Yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi" fanidan bo`lib, ma`ruzalar matnnini yozishda, muallif asosiy maqsad qilib, matn mazmuni talabalar tomonidan engil egallab olinadigan qilib va keyinchalik matnni kengaytirib yangi darslik yaratishni qo`ygan.

Ma`ruza matni talabalardan yuqori molekulali birikmalarni uzoq yillardan beri ishlatib kelinishi va bu sohaning O`zbekistonda rivojlanish tarixi bilan qisqacha tanishtiradi. Yuqori molekulali birikmalarni o`ziga hos atamalari, xossalari bilan tanishtiradi. Matnda qisqacha qilib yuqori molekulali birikmalarni sintez qilish reaktsiyalari - polimerlanish, polikondensatlanish va polimeranaloygik o`zgarish reaktsiyalari to`g`risidagi tushunchalar, turlari, mexanizmlari keltirilgan. Polimerlar sintez qilishni sanoatda ishlatiladigan asosiy texnologik usullari - blokda (massada), suspenziyada, erituvchida polimer olish texnologiyalarini mazmuni, yantuqlari, kamchiliklari keltirilgan.

Matnni asosiy qismi to`yinmagan alifatik uglevodorodlar va ularning xosilalari asosidagi polimerlar, to`yinmagan aromatik uglevodorodlar asosidagi polimerlar, galogensaqlovchi to`yinmagan uglevodorodlarning polimerlari, akril va metakril kislotalarining xosilalari asosidagi polimerlar, oddiy va murakkab vinil efirlarini polimerlari, oddiy poliefirlar, poliuretanlar, fenolformaldegid, mochevina-formaldegid, melamin-formaldegid oligomerlari, polimerlar asosida turli-tuman plastik massalar olish texnologiyalari, getero zanjirli murakkab poliefirlar, epoksid polimerlari, poliamidlar, poligetererotsiklo zanjirli polimerlar, polimerlarda polimeranaloygik reaktsiyalar o`tkazib olinadigan polimerlarni ishlab chiqarishni qisqacha texnologik jarayonlarini yoritishga bag`ishlangan. Matnda olinayotgan polimer va plastmasalarni xossalri va asosiy ishlatilish sohalari ham keltirilgan.

## Fanning mazmuni

### Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarni sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar va plastik massalarni ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik jarayonlari bilan tanishtirish, turli texnologik jarayonlarni tahlil qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** - o‘quv rejasida rejajashtirilgan matematik va tabiiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining jumladan “Materialshunoslik”, “Yuqori molekulali birikmalar kimyosi va fizikasi” fanlari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikma ega bo‘lgan talabalarga ma’ruza va o‘quv – laboratoriya mashg‘ulotlarida turli usullarda polimerlar va plastik massalarni ishlab chiqarishni texnologik tajribalarini o‘tkazishni o‘rgatishdan iborat.

### Talabalar uchun talablar:

- talaba kiyinish madaniyatiga rioya qilishi shart
- o‘qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- institut ichki tartib-intizom qoidalariga rioya qilish;
- uyali telefonni dars davomida o‘chirish;
- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;
- ko‘chirmachilik (plagiat) qat’iyan man etiladi;
- darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o‘zlashtirilishi shart;
- darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirot etish;
- talaba o‘qituvchidan so‘ng, dars xonasiga - mashg‘ulotga kiritilmaydi;
- talaba reyting ballidan norozi bo‘lsa e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida apellyasiya komissiyasiga murojat qilishi mumkin

### Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi:

Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqtiga soat 08.30 dan 11.30 gacha

## M U N D A R I J A

<b>Kirish .....</b>	<b>8</b>
<b>1.“Yuqori molekulali birikmalar ishlab chiqarish texnologiyasi” fanini o‘qitishdagi innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalar.....</b>	<b>9</b>
<b>2.“ Yuqori molekulali birikmalar ishlab chiqarish texnologiyasi” modulini elektron o‘quv moduli ishlanmasi.....</b>	<b>18</b>
<b>    2.1. O‘quv moduli dasturining qisqacha tavsifi .....</b>	<b>18</b>
<b>    2.2. Ma’ruza matni.....</b>	<b>39</b>
<b>    2.3. Amaliy mashg’ulotlari.....</b>	<b>179</b>
<b>    2.4. Laboratoriya mashg’ulotlari.....</b>	<b>189</b>
<b>    2.5. Modul bo‘yicha keyslar to‘plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar, nazorat va test savollari va mustaqil ta’lim yuzasidan ko‘rsatmalar.....</b>	<b>212</b>
<b>        Foydali maslahatlar va tavsiyalar.....</b>	<b>228</b>
<b>        Foydalaniman adabiyotlar ro’yhati.....</b>	<b>229</b>
<b>    Glossariy.....</b>	<b>230</b>

## **KIRISH**

Qadim zamonlardan odamlar turli moddalarning plastik xususiyatlaridan foydalanib kelganlar. Sopol va chinni olish, loyning plastik xususiyatiga asoslangan. Tabiiy asfal't, tropik smolalar va to`ldirgichlardan olinadigan presslanuvchi materiallar, bitumning toshlarni bir-biriga bi-riktiluvchi sifatida ishlatilishi bizning eramizdan 3000-2500 yil avval ma`lum bo`lgan.

Plastmassalarning plastmassa ko`rinishida ishlatilishi 1820 yildan boshlangan. Masalan: 1827 yilda dunyo bo`yicha 3 t tabiiy kauchuk ishlab chiqarilgan bo`lsa, 1929 yilda tabiiy kauchuk olish 890 ming t ga etdi. 1830 yilda Angliyada kauchuk, probka kukuni va mineral kraska asosida kamptulikon nomi bilan xozirgi linoleumga o`xhash material ishlab chiqarila boshlangan. 1839 yilda kauchukning oltingugurt yordamida vulkanlanishi (qotishi) aniqlanganidan so`ng ebonit nomi bilan yangi tur plastmassa ishlab chiqarila boshlangan.

1865 yili Parker tomonidan nitrotsellyuloza (100 og'.q.), kamfora (40 og'.q.) va etil spirti asosida tselluloid nomli plastmassa kashf etildi. Selluloidning sanoatda ishlab chiqarilishi 1877-1878 yillari Angliyada, keyinchalik esa Frantsiya, Olmoniya mamlakatlari yo`lga qo`yildi.

1877 yilda Edison tomonidan fonografning kashf etilishi ovozni yozib oluvchi plastmassa grammoplastinkalarga ehtiyoj tug'dirdi va 1897 yilda grammonfonlar uchun plastinkalar ebonitdan, keyinchalik esa shellak va mineral to`ldirgichlar – og'ir shpat, kaolin asosida ozgina maydalangan tsellyuloza qo`shib val'tslash usulida olinadigan plastmassa asosida ishlab chiqarila boshlandi.

Plastmassalarni zamonaviy turlarini ishlab chiqarish fenolni al'degidlar bilan kondensatlanishi natijasida hosil bo`ladigan smolalardan quyma va presslangan fenoplastlar olishdan boshlangan. Bunday plastmassalar 1900 yillarda Angliyada ishlab chiqarila boshlandi. Elektrotexnika, galantereya va kimyo sanoati uchun fenoplastlarni ko`plab ishlab chiqarish 1909 yildan boshlab Bakeoland va Lebaxlar tomonidan ko`plab o`tkazilgan ilmiy ishlar asosida amalga oshirila boshlandi.

Rossiyada fenoplastlar 1918 yildan boshlab Oxta kimyo kombinatida ishlab chiqarila boshlangan.

O`zbekistonda polimerlar kimyosi va texnologiyasi 1958 yildan boshlab rivojlana boshladi. 1958 yili paxta tsellyulozasi texnologiyasi ilmiy tekshirish instituti, Toshkent politexnika institutida "Plastmassalar texnologiyasi" kafedrasi va polimer muammolari laboratoriyalari tashkil etildi. 1960 yildan Farg'ona gidroliz zavodida furan smolalari (FA, FAM monomerlari, FM-2 smolasi va b.) ishlab chiqarila boshlandi va furan birikmalari laboratoriysi tashkil etildi. xozirgi vaqtida shu korxonada mochevina-formal'degid smolalari, poliuretanlar olish uchun turli xil poli-**efirpoliollar** ham ishlab chiqarilayapti. CHirchiq "Elektroxim" kombinatida chiqarilayotgan kaprolaktamdan polikaprolaktam (Poliamid-6) olish Farg'ona sintetik tolalar zavodida yo`lga qo`yildi. SHu zavodda diatsetattsellyuloza tolalari ham ishlab chiqariladi. Navoiazotda epoksid smolalari, poliakrilonitril va uning asosida kimyoviy tola ishlab chiqariladi. **Farg'onaazotda** diatsetattsellyuloza, Namangan kimyo zavodida karboksimetiltsellyuloza olish yo`lga qo`yilgan.

O`zbekistonning ko`p korxonalari asosan polimerlarni qayta ishlash bilan shug'ullanadilar. Bunday korxonalarning eng kattalari "Sovplastital", Angrendagi "O`zbekrezinotexnika", Jizzax plastmassani qayta ishlash, qarshi plastmassalarni qayta ishlash, Samarqand polimer trubalari va plastmassalardan eshik-rom ishlab chiqarish zavodi, Andijondagi plastmassa-lardan avtomobil detallari ishlab chiqarish va lok-bo`yoq korxonlari, Toshkent va Farg'onadagi sintetik teri ishlab chiqarish korxonalari, Oxangaron va Sergelidagi plastmassalardan qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari, Toshkent lok-bo`yoq ishlab chiqarish korxonasi kabilar hisoblanadi. Undan tashqari O`zbekistonda biron-bir katta korxona yo`qki unda plastmassalarni olish yoki qayta ishlash tsexi bo`lmasa. Bu tsexlarda shu korxonalarni o`ziga kerakli plastmassa mahsulotlari ishlab chiqariladi.

2001 yildan boshlab SHo`rtangaz kimyo majmuasini ishga tushirilib yiliga 125 ming t chiziqli polietilen, Farg'ona, Toshkent shaharlarida qurilgan 3 ta tsellyuloza ishlab chiqaruvchi korxonalarda esa 2000 yildan 30 ming tonnadan ortiq tsellyuloza ishlab chiqara boshladilar.

O`zbekistonda kimyo sanoatini rivojlantirishni 2010 yilgacha ko`zda tutilgan rejasida Qoraqalpog'iston AR-sida ishlab chiqarish unumdarligi bo`yicha SHo`rtangaz kimyo majmuasidan ham kattaroq polimerlar ishlab chiqarish majmuasi qurilishi mo`ljallangan. Yangidan-yangi polimerlar ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirilishi Respublikamizda polimerlarni qayta ishlash bo`yicha ham bir necha zamonaviy korxonalarni ishga tushirishga olib keldi. Bularga turli rangdagi masterbatch tipidagi plastmassalarni ishlab chiqarish, polipropilenning sopolimerlaridan, gaz va suvlar uchun quvurlar ishlab chiqarish, polivinilxloriddan quvurlar va turli profillar ishlab chiqarish korxonalarini misol qilib keltirish mumkin.

Aytiganlardan shu narsa ayon bo`lib turibdiki, o`zida polimer saqlovchi moddalar va polimerlarni ishlab chiqarish ularni tayyor mahsulotlarga aylantirish O`zbekistonda kundan-kunga rivojlanayapti va bundan keyin shu rivojlanish davom etadi.

## 1. ”Yuqori molekulalari birikmalar ishlab chiqarish texnologiyasi” fanini o‘qitishdagi innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalar

Oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari o‘quv fanlari bo‘yicha yaxlit ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirish va amalga oshirish ishlarini keng qamrovli olib bormoqdalar. O‘qish jarayonida taqdim etiladigan ta’lim texnologiyalarida yangi o‘qitish modeli qo‘yidagilarga asoslangan [11]:

- ta’limning har bir shaxsga yo‘naltirilganlik va tizimli yondashuv, ta’lim subektlari munosabatlarini demokratlashtirilishi va insonparvarlashtirilishiga;
- ta’limda talabalar roli o‘zgarishiga: o‘quv faoliyatini mustaqil olib boruvchi ta’lim jarayonining teng huquqli subekti;
- ta’limda o‘qituvchining roli o‘zgarishiga: mustaqil o‘quv faoliyatining tashkilotchisi, talabalarining savodli maslahatchisi va yordamchisi. Talabalar bilimi, ko‘nikmalari, mahoratlarining nazoratini hamda ehtimolli og‘ishlarni o‘z vaqtida to‘g‘rilash maqsadida ularning bilim darajasi diagnostikasini ta’mindaydi;
- ta’limning uslublari va vositalarining o‘zgarishiga: (1) muammoli holatlar, faol ijodiy-tadqiqiy faoliyatni yaratishga asoslangan, muammolarni qidirish va yechish, bilimlarni amalda qo‘llashga yo‘naltirilgan faol va interfaol usullar an‘analni bo‘lib qolmoqda; (2) jamoa va guruh ishlarini keng qamrovli ta’lim shakliga nisbatan ko‘paymoqda; (3) axborot texnologiyalari ta’limning an‘anaviy vositalari bilan bir qatorda keng qo‘llanmoqda; o‘quv materiallari ta’lim olayotganlar tomonidan bilimlarni mustaqil qidirish uchun foydalanimoqda;
- pedagogik boshqarish uslublari va vositalarining o‘zgarishiga: o‘qituvchi muammolarni aniqlashga, g‘oyalarni regeneratsiya qilishga, qarorlarni qabul qilishga qodir va ularning amalga oshishiga mas’ulor menejeriga aylanmoqda. U nafaqat pedagogik balki talabalarning o‘quv faoliyatini ham bashoratlaydi, loyihalashtiradi va rejalashtiradi, ya’ni qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va o‘quv faoliyatining rejalashtirilgan natijalariga erishish bo‘yicha qo‘shma faoliyat tizimi va mazmunini ishlab chiqadi, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirishda va o‘quv faoliyatini tashkillashtirishda talabalarni qo‘llab-quvvatlaydi, ta’lim jarayonini o‘quv dialogi va polilogi sifatini tuzadi.

Shu bilan birga, o‘qituvchilar – loyihalashtiruvchilar talabalarning yangi ta’lim modellari bo‘yicha qurilgan ta’lim jarayoniga tayyor emasligiga duch kelashadi. Bu talabalarning ta’lim subekti sifatida ta’sir etmasligida va o‘qituvchilar tomonidan taklif etiladigan o‘quv faoliyatining uslub va vositalarini amaliy qo‘llash qo‘nikmalarining yo‘qligida namoyon bo‘ladi.

Shu munosabat bilan zamonaviy pedagogika texnologiyalarini amalga oshirish sharoitlarida talabalar quyidagi qo‘nikma va mahoratlarni egallab olishlari zarur:

- leksiya, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda mustaqil faoliyat ko‘nikmalari;
- taqdimot ko‘nikmalari;
- kommunikativ ko‘nikmalar;
- hamkorlikdagi ishlar ko‘nikmalari;
- muammoli holatlar tahlil qilish ko‘nikmalari, o‘quv vazifasini yechish, g‘oyalarni generatsiya qilish va qarorlarni qabul qilishning nostandard usullarini topish, bu o‘z navbatida o‘qituvchinig muammoli leksiya, tahlilda va o‘quv holatlarini (Keys stadi) hal etish faol ishtirok etishini ta’mindaydi;
- ma’lumotlarni qidirish, yig‘ish, ishlov berish va saqlash uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalana olishning amaliy ko‘nikmalari.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida, 30 yillarda AQSH da dunyoga kelgan, XX asrning 80 yillariga kelib deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab olgan va YUNESKO tomonidan tasdiqlangan texnologiyalashtirish bosqichi faollik bilan amalga oshirilmoqda. Ta’limni texnologiyalashtirish – bu keng ko‘lamdagagi mutaxassislarining nazariy va amaliy to’plamlarini tadqiqot qiluvchi va ta’minlovchi pedagogika fanining yangi yo‘nalishi xisoblanadi. Uning ilmiy imkoniyatlari mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlarida kundan-kunga ortib bormoqda [12].

Pedagogik amaliyotda ta’limning yangi yo‘llari va vositalarini tez suratlarda yo‘lga qoyish kuzatilmoqda. Shubxasiz bunda faol ta’limning ayrim shakl va usullari o‘rniga bir butun o‘qitish

texnologiyalari kelishi lozim. Ta’lim jarayonini texnologik loyixalashtirish va rejalashtirishni faqatgina texnologik bilim, malaka va ko’nikmaga ega bo’lgan pedagoggina qilishi mumkin. Texnologik bilimlarning asosi bu qonun-qoidalarni bilish xisoblanadi: texnologiyalashtirish qonuniyatları va yo’l-yo’riqlari, qoyilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish uchun va rejalashtirilgan samarali natijani olish uchun optimal yo’l va vositalarni tanlash.

Ta’limni texnologiyalashtirish fikri bu yangilik emas. Yan Amos Komenskiy ta’limning shunday umumiy tartibini topishga xarakat qilgan-ki, u inson tabiatining umumiy qonuniyatları boyicha amalga oshiriladi. Shunda Komenskiy «og’irligi tenglashgan soatning yurishidek hamma narsa aniq va ravshan rivojlanib boradi va bu shu turdag'i avtomat moslamasiga yoqimli va quvondan bilan qaragandek yoqimli va quvonchlidir» deb taxmin qiladi [6].

Didaktik mashina uchun 1) aniq qoyilgan maqsad; 2) bu maqsadni amalga oshirish uchun kerak bo’ladigan vositalar, 3) va albatta, maqsadga erishish uchun bu vositalardan qanday foydalanishning aniq qonun-qoidalari»ni topish zarur deb yozgan edi Komenskiy. Ya’ni 300 yil oldin **ta’limni texnologiyalashtirishning asosiy yondashuvlari** shakllangan edi:

1.ta’lim maqsadini aniqlashtirish;

2.bu maqsadlarga erishishning optimal (oson) yo’l va vositalarini tanlash;

3.qo’ylgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan ta’lim modelini loyihalashtirishni belgilovchi qonun-qoidalalar hajmi

**Hozirgi kunda ta’lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiyalar doirasiga o’tkazish** degani bu maktab amaliyotida pedagogik jarayonni ixtiyoriy tuzishni va uni amalga oshirishni xal qiluvchi o’zgartirishlarga olib kelinishini bildiradi.

An’anaviy o‘qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo‘ravonlik pedagogikasi, o‘qitishning tushuntiruv-ko’rgazmali usuli, ommaviy o‘qitish. An’anaviy o‘qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo‘ladi: o‘quvchi bu hali to‘la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs.

**Zamonaviy an’anaviy o‘qitish** esa, o‘qitishning texnik vositalarini qo‘llab, didaxografiyadan foydalanishdan iborat bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda, o‘quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O‘zbekiston Respublikasidagi ta’lim tizimining **milliy modeliga** alohida e’tibor qaratilgan. Bu model 5 tarkibiy qismidan iborat: **shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish** [3]. Bu yerda ta’lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismi - «shaxs» birinchi o‘rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta’lim tizimi, shu jumladan, o‘qitish shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Shuning uchun **zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim**.

Hayot dialektikasi shundan iboratki, doimo yangi avlod, oldingi avloddan ko‘ra rivojlanganroq bo‘ladi. Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrigacha, fan, texnika va texnologiyalar rivoji evolyusion, past sur’atlarda amalga oshar edi.

Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrida fan, texnika, texnologiyalar yuqori sur’atlarda rivojlanayotgan davrda, bir avlod hayoti davomida fanning rivoji insoniyatning butun tarixidagidan ko‘ra ko‘proq bo‘lgan bu davrda, o‘qitishning an’anaviy tizimi (shu jumladan zamonaviy an’anaviy o‘qitish) o‘z umrini oxiriga yetdi.

Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur’ati oldingilardan ko‘ra ancha yuqori bo‘lganligi sababli, o‘qitishning an’anaviy tizimi, rivojlanishga to‘sqinlik qila boshladi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallashga moyilligi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o‘qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. **O‘qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning o‘quvchiga bo‘lgan munosabati «sardor»likdan, uning «sherigiga aylanishi zarur** [7].

O‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo‘ladi:

• **insonparvarlik**, ya’ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo‘rlashdan to‘la voz kechish;

• **hamkorlik**, ya’ni pedagog va o‘quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

• **erkin tarbiyalash**, ya’ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda o‘quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

### **Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo‘ladi:**

- pedagogik jarayonda shaxs obekt emas, subekt hisoblanadi;
- har bir o‘quvchi qobiliyat egasi, ko‘pchiligi esa iste’dod egasi hisoblanadi;
- yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustivor xislatlari hisoblanadi.

**Munosabatlarni demokratlashtirish** quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish,
- o‘quvchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo‘l qo‘yish huquqi;
- o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi
- pedagog va o‘quvchilar munosabati zayli: taqiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

### **Muammoli o‘qitish texnologiyasi**

Muammoli o‘qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.Dyunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarda tarqala boshladi. Dj.Dyun o‘qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so‘z, san’at asarlari, texnik qurilmalar, o‘yinlar va mehnat [8,9].

Muammoli o‘qitish, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs subekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyg‘otishdir.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy, bayon etish o‘quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchini uni yechishga yo‘naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o‘qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo‘lishi individual holat bo‘lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

O‘quvchi noma’lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo‘luvchi, subekt-obekt-subekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Ush bu modulni o‘qitish jarayonida ishlab chiqarish korxonalarimizdagi real muammoli vaziyatlarni aniqlab, ularning yechimini talabalar yordamida muhokama qilish va topish amaliy yordam beradi.

### **Tabaqalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi**

Tabaqalashtirilgan o‘qitish o‘quv jarayonining tashkil etishni bu shakli umumiy didaktika tizimiga asoslangan bo‘lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruqlarida, o‘quv jarayonini maxsuslashtirishni ta’minlaydi [9].

O‘qitishni tabaqalash (bu tushuncha o‘qitish jarayonini o‘zi bilan bog‘liq) – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o‘qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Oliy, o‘rtalik maxsus va kasb-hunar ta’lim tizimida gomogen guruhlari, talabalarning individual-psixologik xususiyatlari, avvalo aqliy rivojlanish darajasi asosida tuziladi. Hozirgi paytda oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi 100 % dan 25 % gacha tashkil etadi. Bunday sharoitda davlat ta’lim standartlari talabiga mos oliy malakali kadrlar tayyorlash maqsadida o‘qitishni

tabaqlashtirish davr taqozosidir. Ayniqsa mutaxassislik fanlarni o‘qitishda bunday usuldan foydalanish maqsadga muvofoqdir.

### **Individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi**

Talabaning mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishini ta’minlash, zamonaviy o‘quv jarayoniga qo‘yiladigan jadallashgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining talabidir. Bunga individual va individuallashtirilgan o‘qitish orqali erishish mumkin.

Individual o‘qitish – bu o‘quv jarayonining tashkil etishning shakli bo‘lib, bunda pedagog talabalar bilan yakkama-yakka shug‘ullanadi, talaba o‘quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzlusiz mustaqil ta’lim oladi.

**Individual o‘qitishning afzalliklari:** pedagogik jarayonning talaba qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda talabaning bilim olish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirish va zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida optimal pedagogik jarayonni tashkil etiladi [9].

**Individual yondashish** – bu pedagogik tamoyilga ko‘ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o‘zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Individuallashtirilgan o‘qitish bunday o‘quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o‘qitish yo‘llari, usullari, sur’ati tanlanadi va turli o‘quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta’milanadi.

Individuallashtirilgan o‘qitishning asosi, talabaning individual-pedagogik xususiyatlarini o‘rnatish hisoblanadi. Olingan natijalar asosida, o‘qitish usuli tanlanadi.

### **Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi**

Kompyuterlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o‘qitishdir. O‘qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir. Axborot texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televideeniye, video va boshqalar) ishlatalishi mumkin. Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o‘qitish g‘oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qitishning mutlaqo yangi hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi. Telekommunikatsion tizimlar, shu jumladan kompyuterlar hozirgi zamон ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi.

Kompyuterli o‘qitish texnologiyasida quydagilar zarur hisoblanadi: individual o‘qitish; muntazam ravishda kompyuter yordamida diagnostik testlar o‘tkazish; o‘quv maqsadlariga erishilganligini baholash.

Bu o‘qitish texnologiyasida pedagogning funksiyasi quydagilardan iborat bo‘ladi: dasturiy vositalarni tayyorlash; o‘quv jarayonining (o‘quv jarayoni grafigi, diagnostika, nazorat) guruh, fan miqyosida tashkil etish; ishchi o‘rinlarini tashkil etish, yo‘l-yo‘riqlar berish, tarmoqni boshqarish; talabalar bilan muloqotda bo‘lish, individual o‘qitishni ta’minalash.

Kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv mashg‘ulotlarda animatsiyalarni, videomateriallarni namoyish qilish mumkin.

### **Ishbilarmonlik o‘yinlari texnologiyasi**

Ta’lim jarayonidagi o‘quvchining faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridagi biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib koladi. O‘quvchining faolligi, maqsadli yo‘naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta’sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. O‘quvchilarning faolligini ta’minlovchi, o‘qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik ishbilarmonlik o‘yini hisoblanadi. O‘yin faoliyatiga qiziqish, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini ifoda etish, ro‘yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta’milanadi. O‘yinning ajoyib xususiyati shundaki, u bir vaqtning o‘zida ham rivojlanish ham o‘rganish hisoblanadi.

Pedagogik o‘yinlar o‘yin uslubiga ko‘ra quydagicha tavsiflanadi: fanlar bo‘yicha; syujetli; ishbilarmonlik, imitatcion, dramalashtirilgan o‘yinlar [22].

### **Modulli o‘qitish texnologiyasi**

“Modulli o‘qitish” termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog‘liq bo‘lib («modul», lat. modulus), uning bitta ma’nosи faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o‘qitish asosan inson bosh miysi to‘qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi.

O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so'z yuritilgan edi. Modulli o'qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarping umumiy nazariyasidan kelib chiqadi [8,9].

Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallash va tizimlash dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbiy motivatsiya asosida, o'qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Turli konsepsiylar doirasida, modulli ta'lim dasturlari, turli xil tarkib va tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'ladi, turli shakldagi hujjatlarda taqdim etiladi, ammo ularning barchasi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismni majburiy ravishda o'z ichiga oladi: maqsadli mazmuniy dastur; turli ko'rinishlarga taqdim etilgan axborotlar banki; o'quvchilar uchun uslubiy ko'rsatmalar.

### **Modul turlari:**

- 1.Nazariy modullar (nazariy bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan modullar).
- 2.Amaliy modullar (amaliy ko'nikmalarni va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan modullar).
- 3.Texnologik yoki aralash modullar (nazariy bilim, amaliy kunikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan modullar).

Modul dasturlarning maqsadi albatta malakali mutaxassisni yetishtirishga xizmat qiladi. Modul dasturning maqsadini tuzishda ana shu mutaxassisiga qanday talabalar tizimi qo'yilayotgan ekanini aniqlab olishdan boshlanadi. Bugungi kunda Rossiyada mutaxassisiga qo'yiladigan umumiy talabalar tizimi o'rganilib ularni uch asosiy guruhga ajratilmoqda. Mutaxassisni komponentligini aniqlovchi kriteriyalarni quyidagi kategoriyalarga bo'lish mumkin:

- instrumental komponentsiyalar;
- komunikativ komponententlik;
- tizimli komponententlik.

Modullarni ishlab chiqishda uchta asosiy komponentga e'tibor qaratish lozim:

1. Modul spetsifikatsiyasi.
2. Modulning nazorat blokini ishlab chiqish.
3. Modulning o'quv materialini ishlab chiqish.

"Yuqori molekulali birikmalar kimyoiy texnologiyasi" fani o'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog'liqligi, shu modulni o'rganishdagi o'quvchilarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega. O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog'liqligi, shu modulni o'rganishdagi talabalarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

**Masofaviy o'qitish.** Ilmiy texnik taraqqiyotning xususiyatlari mustaqil ishslash kunikma va malakalarini shakllantirish va uzlusiz, ijodiy bilimlarni egallahshi talab qiladi. Bunday ta'lim xizmatlarini ko'rsatish istiqbolli, zamonaviy o'quv tizimlariga quyiladigan talablardan biridir. Masofaviy o'qitish – bu masofadan turib o'qitish, qaysiki o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar asosida olib boriladi [23-26] .

Masofaviy o'qitish, ayniqsa:

- o'qitishning an'anaviy usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bulmagan, bu jarayon imkoniyatlarining chegaralanganligi tufayli o'qish va ishlashni birgalikda amalga oshira olmaydiganlar uchun;
- turg'un sharoitda o'qish imkoniyatlariga ega bulmagan, imkoniyatlari tibbiy shart- sharoitlar tufayli chegaralanganlar uchun;
- o'quvvchilar va boshka soha mutaxassislarining qayta tayyorlash va malakasini oshirishda;
- chet el o'quv muassasalarida ta'lim olishni istaydiganlar uchun;
- ikkinci mutaxassislikni egallahshi istaydiganlar uchun juda dolzarb bo'lishi mumkin.

Istiqbolli zamonaviy o'qitish tizimlari har bir shaxsning o'zi istagan ta'lif olish huqiqidan foydalana olish imkoniyatini berishi kerak. Masofaviy o'qitish aynan shunday o'qitish shakli bo'la oladi.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi bo'yicha barcha topshiriqlar masofadan turib bajariladi, imtihonlar esa oliy o'quv yurtida topshiriladi. Masofaviy o'qitish Yaponiya, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Iroq, Koreya, Finlyandiya, Avstraliya va Rossiyada rivojlanmoqda.

Masofaviy o'qitish tizimida, xuddi an'anaviy o'qitish tizimidagidek, o'qitishning besh metodi qo'llaniladi: axborot – retseptiv, produktiv, muammoli bayon, evristik va tadqiqot.

O'qitish vositalari quyidagilardan iborat: kitoblar (qog'oz va elektron shaklda); tizimdagi o'quv materiallar; kopyuter o'quv tizimlari oddiy va multimedia variantda; audio o'quv axborotlari; video o'quv axborotlari; masofaviy laboratoriya amaliyotlar va virtual stendlar; trenajyorlar; uzoqdagi bilim bazalari; ekspert o'quv tizimidagi va geoaxborot tizimidagi didaktik materiallar. O'qitish vositalari - o'qitishning texnik vositalari: videomagniton, kinoproyektor, diaproyektor, kodoskop, videoproyektor, kompyuterlar orqali amalga oshiriladi.

Masofaviy o'qitishning o'ziga xos tamoyillari quyidagilardan iborat:

- interfaollik tamoyili
- boshlang'ich bilimlar tamoyili
- individuallik tamoyili
- identifikatsion tamoyil
- o'qitish reglamenti tamoyili.
- yangi axborot texnologiya vositalarini qo'llashning pedagogik maqsadliligi tamoyili
- ta'liming oshkoraliq va o'zgaruvchanligini ta'minlash tamoyili.

Masofaviy o'qitish tizimida kuyidagi ta'lif texnologiyalarini ishlatish mumkin:

– video-ma'ruzalar; multimedia-ma'ruzalar va laboratoriya amaliyotlari; elektron va multimedia-darsliklari; kompyuter test tizimlar; imitatsiya modellari va kompyuter trenajyorlar; telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi konsultatsiya va testlar; videokonferensiyalar.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomonidan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Hozirgi vaqtida ta'lif-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko'lamining ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotganayni davrda ta'lif sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugun masafaviy ta'liming yana bir turi «webinar» (1998 yilda bu termin muloqatga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o'qitishni web –texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni yetkazadi balki, ular bilan muloqatga kirishish (og'zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya'ni seminar ko'rinishida fikrlarni almashish, o'z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog'i asosida tashkil etiluvchi ta'lif ham subekt-subekt paradigma o'tmoqda.

Bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'liming o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi – pedagogik innovatika jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Innovatsion ta'luming asosiy maqsadi ta'lif oluvchilarda kelajakkha mas'uliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdir. Ilm-fan va ishlab chiqapishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqticodiy tapaqqiy ettirish bilan bir qatopda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o'zgapishlapning po'y berishiga zamin yapatmoqda. Shuningdek, iqtisodiy sohada bo'lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta'lif sohasida ham **texnologik yondashuvni** tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

“Pedagogik texnologiya – bu ta'lif shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir” (YUNESKO).

## 2.2. Ma'ruza matni

### MA`RUZA - 1

#### SINTETIK VA TABIIY POLIMERLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Yuqori molekulali birikmlar (YuMB) o`z xossalari jihatidan quyi molekulali birikmalardan tubdan farq qiladi. Bu hol yuqori molekulali birikmalar molekulalarining juda uzunligi va demak molekula massasining kattaligi bilan tushuntiriladi.

Odatda molekula massasi (MM) 5000 dan bir necha milliongacha bo`lgan birikmalar YuMB lar hisoblanadi. MM 500 dan 5000 gacha bo`lgan, xossalari quyi molekulali birikmalarga ham, yuqori molekulali birikmalarga ham o`xshaydigan birikmalar oligomerlar deb ataladi.

YuMB ning molekulalari bir necha yuz, xatto minglab atomlardan tuzilganligi sababli - makromolekulalar deb ataladi.

Yuqori molekulali birikmalar sintetik va tabiiy polimerlarga bo`linadi.

YuMB tirik tabiatning asosini tashkil etadi. O'simliklar organizmlarining asosiy tarkibiy qismlari - tsellyuloza, kraxmal, lignin, pektin va hayvon organizmidagi oqsil, garmon, ferment kabilar YuMB lardir. Muskul, teri, soch, shox, tirnoq va shu kabilar aminokislotalardan sintez qilingan oqsillar - polimerlardir.

SHunday qilib o'simlik va hayvon organizmlarining hayoti YuMB lar-ning hosil bo`lishi, ularning turdan-turga o'tishi va parchalanishi jarayonlari bilan bog'liq ekan.

Texnikada ko`plab ishlatiladigan tabiiy polimerlardan yana biri kauchukdir.

Xozirgi zamon texnika taraqqiyotida kauchuk va undan olinadigan rezinasiz hech bir sohani rivojlantirib bo`lmaydi. Faqat so`ngi 60-70 yil ichida o`z xossalari jiqatidan tabiiy kauchukdan qolishmaydigan sintetik kauchuklar ishlab chiqarila boshlandi.

YuMB texnikada keng ishlatilishi bilan bir qatorda inson hayoti va faoliyatida ham ishlatiladi. Kiyim-kechak, jun, teri, paxta, yog'och, oziq-ovqatlar - go`sht, sut, don, sabzavotlar, tsellyuloza, oqsil hamda kraxmal kabi polimerlardan tashkil topgan.

Tabiiy polimerlarning xususiyatlari va strukturalarini o'rganish sintetik polimerlar kimyosi va texnologiyasini ham tez sur`atlar bilan rivojlanishiga olib keldi. Yuqorida aytganimizdek tabiiy polimerlarning turli turlari uzoq davrlardan ishlatilib kelsada, sintetik polimerlarni olish va ishlatish asosan 1900 yillardan, keng rivojlanishi esa 1930-1940 yillardan boshlandi.

#### YUQORI MOLEKULALI BIRIKMALARNING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Polimerlar deb makromolekulalari bir xil atomlar gruppasi - elementar halqa (zveno) lardan tashkil topgan moddalarga aytiladi (Masalan: polietilen).



Polimerlarni sintez qilishda ishlatiladigan quyi molekulali birikmalar monomerlar deyiladi. Formuladagi n indeksi makromolekuladagi elementar halqlar soniga teng bo`lib, odatda, YuMB ning polimerlanish darajasi (P) ni ifodalaydi.

Tarkibi turlicha bo`lgan elementar halqlardan tashkil topgan polimerlar ham ko`plab ishlatiladi:



Tabiiy polimerlar - oqsil, pektin, nuklein kislota va ba`zi polisaxaridlar shunday tuzilishga ega. Bular sopolimerlardir.

Polimerlarning xususiyatlarini quyi molekulali birikmalardan ko`plab farqi bor.

Masalan, quyi molekulali qattiq birikmalar mustahkam bo`lib, bir ozgina qaytar deformatsiyali bo`ladi. Suyuq jismlar esa, aksincha, mustahkamlikka ega bo`lmay cheksiz (qaytmas) deformatsiyalanadi. Polimerlar qattiq va suyuq jismlarning xususiyatlarini o`zida namoyon qila oladi. Bu farqlarning asosiy sababi polimer makromolekulalarining uzunligini eniga nisbatan **mingla** barobar kattaligi, ya`ni

makromolekulalarning egiluvchanligidir. Polimer makromolekulalarining egiluvchanligi makromolekulalarning molekula gruppalarining o`zaro ichki va molekulalararo ta`siriga bog'liqdir.

Chiziqsimon poliuglevodorodlar makromolekulasi eng katta egiluvchanlikka ega, chunki  $\text{CH}_3-$  va  $\text{CH}_2=$  gruppalarida bir-biriga ta`sir kuchi ozligidan aylanish potentsial to`sinq ko`rsatkichi uncha katta bo`lmaydi. Polietilen, polipropilen, tabiiy divinil kauchuklar, poliizobutilen shular jumlasidandir.

Ikkinchchi o`rinda yon zanjiridagi qutbli gruppalarini bir-biridan uzoq turgan karbozanjirli polimerlar (polipropilen, nitril kauchuklar) turadilar.

Agar makromolekula tarkibida -Cl, -OH, -CN, -COOH kabi qutbli o`rinbosarlar o`zaro yaqin joylashgan bo`lsa, bu o`rinbosarlarning o`zaro ta`siridan energetik to`sinq ko`rsatkichi oshib ketadi. Qutbli o`rinbosarlar molekulaning ichki energetik to`sig`ini oshiribgina qolmay, qo`shni makromolekulalar qutbli gruppalarining bir-biriga ta`sirini ham oshiradi. Bularning hammasi polimer zanjiri egiluvchanligini kamaytirib, polimerning qattiqligini oshiradi.

O`rinbosarlarni zanjir bo`ylab taqsimlanish xarakteri ham makromolekula egiluvchanligiga ta`sir qildi. Masalan, polivinilklorid va polixloropren xlorli polimerlar bo`lsada, xloroprenda xlor atomlari bir-biriga ta`sir eta olmaydigan masofada joylashganligidan unda potentsial to`sinq kichik va, demak makromolekulaning egiluvchanligi katta.

Makromolekulaning tarmoqlanganligi ham egiluvchanlikka ta`sir etadi. Yon tarmoq qisqa bo`lib, teztez takrorlansa, alohida halqalarning energetik to`sig`i ortadi, natijada makromolekulaning egiluvchanligi kamayadi. Yon tarmoqlar uzun bo`lib, kam takrorlansa, makromolekulaning egiluvchanligi ortadi.

Bir polimerning o`zida makromolekulalarning egiluvchanligi ularning molekula massasiga qarab o`zgaradi. halqalar (zvenolar) soni ortishi bilan makromolekulalarning konformatsion shakl o`zgarishlari ortadi. Demak, uzun zanjirning egiluvchanligi xuddi shunday kimyoviy tuzilishga ega bo`lgan qisqa zanjir egiluvchanligidan katta bo`ladi.

O`z-o`zidan ma`lumki, polimerning molekulasi katta bo`lgani uchun uning qaynash harorati juda yuqori bo`ladi. Mavjud polimerlarning qaynash harorati parchalanish haroratidan yuqori bo`ladi, shuning uchun ularni bug` holiga o`tkazish mumkin emas. Demak, polimerlar o`z fizik agregat qolatining ikki ko`rinishida - qattiq va suyuq holatda bo`ladi.

Ma`lumki, qattiq modda kristall yoki amorf holatda bo`lishi mumkin.

## POLIMERLARNING AMORF HOLATI

Oddiy jismlarning amorf holati yaxshi o`rganilgan. Erigan shakarning tez sovutib olingan amorf holati yoki quiy haroratdagagi glitserinni qolatlarini amorf jismlarga misol qilib keltirish mumkin. Bular tiniq va mo`rt bo`ladi va shishani eslatadi. Qattiq jismlarning bunday holati shishasimon qolat deyiladi.

Amorf jismlar ham bir qator fizik xususiyatlari va tashqi ko`rinishi bilan oddiy shishaga o`xshab ketadi. Ular kuch ta`siridan faqat ozgina deformatsiyaga uchraydi, ma`lum sharoitda (past haroratlarda) mo`rt. SHuning uchun polimerning bu fizik holati shishasimon holat deyiladi.

Suyuq holatdagi polimer ham amorf tuzilishda bo`lib, ko`p xususiyatlari bilan oddiy suyuqliklarni eslatadi. Ular ham ozgina mexanik kuch ta`sirida shaklini qaytmas darajada o`zgartiradi. Ammo oddiy suyuqliklarga qarama-qarshi o`laroq YuMB lar suyuqliklarining qovushqoqligi juda katta bo`ladi. SHuning uchun ham polimerlarning oquvchanligi oddiy suyuqliklar oquvchanligidan tubdan farq qiladi. Polimerlarning bunday holati qovushqoq-oquvchanlik qolati deyiladi.

Amorf polimerlar yuqorida keltirilgan ikki holatdan tashqari oddiy jismlarda uchramaydigan uchinchi holatga ham ega. Bu holat polimerning yuqori elastiklik holati deyiladi. Yuqori elastik holatdagi polimerlar uncha katta bo`lmagan kuch ta`siridan katta qaytar deformatsiyaga uchraydi. Bu holat polimerning qovushqoq-oquvchan holati bilan shishasimon holati orasida vujudga keladi.

SHunday qilib, amorf jismlarga uch fizik holat: shishasimon, yuqori elastiklik va qovushqoq-oquvchanlik holatlari xos. Yuqori elastiklik holat faqat polimerlardagina uchraydi.

Bir holatdan ikkinchi holatga o`tish harorati oralig`i termomexanik usul bilan aniqlanadi.

Chiziqsimon amorf (I) va kristall (II) polimerning termomexanik egri chizig`i, ya`ni polimer deformatsiyasining haroratga bog'liqligi.

Amorf polimerlardan tashqari kristall polimerlar ham mavjud. Makromolekulaning tuzilishi bilan kristallanish orasida ma'lum bog'lanish bor. Molekulasi chiziqsimon bo'lgan polimerlar kristall polimerlardir. Masalan, polietilen, polietilentereftalat.

Markomolekula tuzilishining chiziqsimonligining ozgina buzilishi, masalan, polietilen zanjirining ozgina tarmoqlanishi, polimerning kristallanishini birmuncha chegaralab qo'yadi. Masalan, yuqori bosimda olingen polietilen makromolekulalari past bosimda olingen polietilen makromolekulalariga nisbatan tarmoqlanganroq bo'lganligi sababli yuqori bosimda olingen polietilenning kristallanish darajasi pastroq bo'ladi. SHuning uchun ham yuqori bosimda olingen polietilendenan **plenkalar**, past bosimda olingen polietilendenan trubalar ishlab chiqariladi.

Polimer makromolekulalarining juda katta bo`lishi, ularning turli konformatsiyalarga ega bo`lishi ulardagi deformatsiyaning o`ziga xosligini aniqlaydi. Masalan, ulardagi deformatsiyalanish vaqtidagi qaytar jarayonlar ancha vaqtini talab qiladi.

Bilamizki, vaqt oralig'ida muvozanatga keluvchi jarayonlar relaksatsion jarayonlar deb ataladi.

Polimerlarning o`ziga xos xususiyatlardan biri yana shundan iboratki, agar quyisi molekulali moddalarning makromolekulalarining kattaligi, ya`ni mokula massasi bir xil bo`lsa, ( $\text{NaCl}$  - molekulalarining  $\text{MM}=58.5$ ,  $\text{H}_2\text{O}=18$  va h.k.) polimerlarda makromolekulalar har xil kattalikka va molekula massaga ega bo`ladilar. Ya`ni birorta polimer bo`lakchasi olib undagi makromolekulalarni bir-biri bilan solishtirsak, makromolekulalarning kattaligi har xilligini ko`ramiz. Polimer makromolekulalarining har xil molekula massaga ega bo`lishi ularni polidispersligi deb ataladi.

Polidisperslik tajribada polimerni fraktsiyalarga ajratib aniqlanadi. Polimerni fraktsiyalarga ajratishda molekula massasining ortib borishi bilan eruvchanlikning kamayishidan foydalaniladi. Ya`ni polimerga ma'lum miqdorda erituvchi qo'shilsa, biringchi navbatda molekula massasi kichik bo`lga polimer gomologlari eriydi. Aksincha, polimer eritmasiga cho`ktiruvchi qo'shilsa, eng avval molekula massasi yuqori bo`lgan fraktsiyalar cho`kmaga tushadi.

SHu sababli polimerlarni fraktsiyalashda fraktsiyalab cho`ktirish hamda fraktsiyalab eritish usullaridan foydalaniladi.

Masalan, fraktsiyalab cho`ktirish usulida polimer ko`p miqdordagi erituvchida yaxshilab eritib olinadi. Polimer eritmasiga ozgina cho`ktiruvchi qo'shiladi va bunda eng yuqori MM ga ega bo`lgan fraktsiya cho`kmaga tushadi.  $\text{CH}_2\text{kma}$  fil'trlab ajratib olinadi. Yana ozroq cho`ktiruvchi qo'shiladi. Eritma tarkibida qolgan fraktsiyalarning eng yuqori MM ga ega bo`lgani cho`kmaga tushadi. Bu fraktsiya ham fil'trlab ajratib olinadi. Yana ozroq cho`ktiruvchi qo'shiladi va h.k. shu jarayon 20-30 marotaba takrorlanib polimer har xil MM ga ega bo`lgan 20-30 xil fraktsiyaga bo`linadi. Eritish yoki cho`ktirish jarayonlari orqali tarkibida bir xil uzunlikka ega bo`lgan molekula fraktsiyalarini ajratib olish mumkin emas, chunki zanjirlar uzunligi orasidagi farq kamayishi bilan eruvchanlikning bu farqqa seziluvchanligi juda pasayib ketadi. Polimerlarning polidispersligi odatda grafikaviy ifodalanadi.

Molekula massaviy taqsimlanishning differentsiyal (1) va integral (2) egri chiziqlari.

Fraktsiyalashdan olingen ma'lumotlar asosida molekula-massaviy taqsimlanish **grafigi** chizish uchuń ordinata o`qiga har xil fraktsiya massasining polimer massasiga nisbati  $m_i/m$ ; abstsissa o`qiga esa shu fraktsiyaning molekula massasi qo'yiladi ( $M_i$ ). Bunda **har alohida** fraktsiyaga to`g'ri to`rtburchak ifodasi to`g'ri keladi. U  $M_{i-1}$  dan  $M_i$  gacha bo`lgan molekula massasiga ega makromolekulalarning nisbiy og'irlik qismini bildiradi.

SHu sababli YuMB ning MM i haqida gap bo`lganda ularni o`rtacha MM ining qiymati nazarda tutiladi. Odatda ikki xil: o`rtacha raqamiy  $M_n$  va o`rtacha massaviy  $M_w$  molekula massasi aniqlanadi.

Polimerning ma'lum kontsentratsiyali eritmasidagi makromolekulalar sonini aniqlash bilan o`rtachà raqamiy MM topiladi.

U quydagicha ifodalanadi:

$$\bar{M}_n = \frac{\sum n_i M_i}{\sum n_i}$$

Bunda  $M_i$  molekula massasi,  $n_i$  molekulalar soni. Osmotik bosim va kimyoviy usullar yordamida topilgan MM o`rtacha raqamiy MM ko`rsatkichlaridir, chunki topilgan kattaliklar ma`lum eritma kontsentratsiyasidagi makromolekulalar soniga bog'liq.

Yorug'lik sochilishi va sedimentatsiya muvozanati yordamida aniqlangan MM polimerning o`rtacha massaviy MM to`g'risida ma`lumot beradi, chunki bu kattaliklar faqat kontsentratsiyagagina bog'liq bo`lmay, balki polimer molekulalarining massasiga ham bog'liq.

$$\bar{M}_w = \frac{\sum w_i M_i}{\sum w_i} = \frac{\sum n_i M_i^2}{\sum n_i M_i}$$

Bunda  $W_i$  - alohida fraktsiya massasi.

Demak hamma usullarda ham MM ning o`rtacha qiymati ikki xil ifodalanadi. Bunday o`rtacha qiymatlar monodispers mahsulot uchun o`zaro teng  $M_n=M_w$ . Ammo polidispers moddalar, ya`ni polimerlar uchun hamma vaqt o`rtacha raqamiy qiymat o`rtacha massaviy qiymatdan kichik, chunki o`rtacha massaviy qiymat MM polidisperslik ortib borishi bilan ko`tariladi.

Alohida fraktsiyalarning MM lari bir-biridan qancha ko`p farq qilsa va fraktsiyalarning o`zaro nisbatlari qancha katta bo`lsa, o`rtacha raqamiy va o`rtacha massaviy MM lar orasidagi farq shuncha katta bo`ladi. SHuning uchun YuMB ning polidispersligini ifodalash uchun  $M_w/M_n$  nisbatidan foydalilanadi. Bu nisbat polidisperslik darajasi yoki polidisperslik koeffitsienti deb ataladi.

## POLIMERLARNING ERITMALARI

Polimerni erituvchilarda erish jarayonining o`ziga xos xususiyatlarini makromolekulaning zanjirli tuzilishi vujudga keltiradi. CHiziqsimon polimer quyi molekulali moddalaridan farq qilib, erishdan avval bo`kadi. Bo`kish jarayonida polimer erituvchini o`ziga yutadi, bunda uning hajmi va og`irligi ortadi, o`zining mikroskop bir jinsliligini yo`qotmagan holda u yumshoq va cho`ziluvchan bo`lib qoladi.

Bo`kish nima? Ma`lumki ikki suyuqlik aralashganda birining molekulalari ikkinchisining molekulalari orasida tarqaladi. CHunonchi, probirkadagi suvga spirt qo`shilganda, spirt molekulalari suvda, suv molekulalari spirtda tarqala boshlaydi va bu jarayon suv bilan spirt molekulalari to`la aralashib bo`lguncha davom etadi. har ikkala suyuqlikning molekulalari o`lchami va harakatchanligi bir-biriga yaqin bo`lganligidan bu suyuqliklarni birini ikkinchisida va ikkinchisini birinchisida aralashish tezliklari ham bir xil bo`ladi.

Polimer quyi molekulali moddada eriyotganda, suyuqlik molekulasi polimer molekulasiga nisbatan harakatchan bo`lganligidan, kichik molekulalarning makromolekulalar orasiga diffuziyalanishi roy beradi, polimer bo`kadi.

Diffuziyalanish polimerning tuzilishiga bog'liq: agar polimer amorf bo`lsa, egiluvchan makromolekulalar segmentlarining issiqlik harakati natijasida ularda bo`shliq paydo bo`ladi, suyuqlikning yutilishi ortadi. Bunda suyuqlik molekulalari bo`shliqlarni to`ldirib polimer molekulasini bir-biridan ajrata boshlaydi. Bu hol makromolekulalarning bir-biridan uzoqlashishiga, yangi-yangi bo`shliqlar hosil bo`lishiga olib keladi. hosil bo`lgan bo`shliqlarni yana erituvchi molekulalari kelib to`ldiradi. Natijada jism kattalashadi. Bu jarayon polimer makromolekulalari bir-biridan etarli darajada uzoqlasha boshlab, so`ng makromolekulalar bir-biridan ajralguncha, ya`ni eritmaga o`tguncha rivojlanadi. SHunday qilib cheksiz bo`kish erishdir.

Polimerning bo`kishi va erishi uning molekula massasiga bog'liq. Molekula massasi qancha katta bo`lsa, bo`kish va, demak, erish ham shuncha qiyin bo`ladi. Molekula massasning kamayishi bilan polimerning erishi, quyi molekulalari birikmalarning erishiga o`xshab boradi (oligomerlarning erishi).

Polimerning chegarali bo`kishi ham bo`ladi. CHegarali bo`kish eritmaga o`tmaydigan bo`kishdir. Boshqacha aytganda, polimer ma`lum darajagacha bo`kkach, jarayon to`xtaydi va erish sodir bo`lmaydi. Polimer makromolekulalari orasida "ko`prik bog'", ya`ni tikuvchi kimyoviy bog'larning bo`lishi ham yuqori molekulali birikmaning chegarali bo`kisiga sabab bo`ladi. Makromolekulalarni tikuvchi bog'larni ko`payishi bilan polimerning bo`kish darajasi ham kamaya boradi.

Makromolekulaning o`lchami katta bo`lganligidan polimerning bo`kish va erishi uzoq vaqt cho`ziladi. Polimerni ma`lum vaqt oralig'ida tortish, yoki uning hajmini o`zgarishini o`lchash yo`li bilan polimerning bo`kish kinetikasini o`rganish mumkin.

Polimer eritmalarining qovushqoqligi odatda quyi molekulali birikmalar eritmalarining qovushqoqligidan ancha yuqori bo`ladi. Bunday moddalarning suyuq eritmalarigina N'yuton va Puayzel' qonunlariga bo`ysunadi, ya`ni ularning qovushqoqligi bosimga bog'liq bo`lmaydi. Yuqori molekulali birikmalar eritmalarining qovushqoqligi kontsentratsiya ortishi bilan ortib boradi.

Polimerlarni bo`kishini ma`lum bir darajada saqlab unga boshqa erituvchi qo`shilmasa, ya`ni polimerni yuqori kontsentratsiyali eritmasi hosil qilinsa, bunday jarayon polimerni plastifikatsiyalash deb ataladi. Plastifikatsiyalashda, aniqroq aytildigan bo`lsa, quyi molekulali moddaning polimerdagি eritmasi olinadi. Polimerni plastifikatsiyalashdan maqsad ularni egiluvchanlik, bukiluvchanlik va cho`ziluvchanligini, sovuqqa chidamlilagini oshirishdir.

## SINTETIK POLIMERLARNING OLINISHI

YuMB lar bir necha usul bilan hosil qilinishi mumkin. Buning uchun dastlabki mahsulot sifatida quyi molekulali tabiiy va sintetik birikmalardan foydalaniladi. Dastlabki mahsulot monomerlar deb ataladi.

YuMB lar monomerlardan, asosan polimerlanish va polikondensatlanish reaktsiyalari orqali olinadi. Agar polimer hosil qilish uchun bir xil monomer ishlatsa, u holda reaktsiya gomopolimerlanish va gomopolikondensatlanish reaktsiyasi deyiladi. Ikki yoki undan ortiq monomerlardan polimerning hosil bo`lishi sopolimerlanish va sopolikondensatlanish reaktsiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Tabiiy va sintetik polimerlarni kimyoviy usullarda modifikatsiyalash yoki polimer-analogik o`zgarishlar reaktsiyalari asosida ham yangi polimerlar sintez qilish mumkin.

## POLIMERLARNISH REAKTSIYALARI

Bir necha quyi molekulali moddalarning o`zaro kovalent bog' bilan bog'lanib (birikib) yuqori molekulali birikma hosil qilish reaktsiyasi polimerlanish deb ataladi.

Tarkibida qo'shbog' bo`lgan yoki tsiklik tuzilishidagi ko`pchilik to`yinmagan moddalar polimerlanish reaktsiyasiga kirisha oladi. Misol tariqasida, tarkibida qo'shbog' tutgan olefinlar va ular hosilalarining polimerlanishini ko`rsatish mumkin:



Polimerlanish reaktsiyasiga o`z tarkibida ikki va undan ko`p qo'shbog'li polienlar, atsetilen va uning hosilalari ham kirishadi. Agarda tarkibida 2 ta qo'shbog'li monomer reaktsiyaga kirsa, hosil bo`lgan polimer o`z tarkibida qo'shbog'lar saqlaydi. Masalan, butadien polimerlanib polibutadien hosil bo`lish reaktsiyasini ko`raylik:




To`yingan moddalar ichida tarang, beqaror tsiklik tuzilishga ega bo`lgan ba`zi birikmalargina polimerlanishi mumkin. Etilen oksididan polietilenoksid, kaprolaktamdan polikaprolaktam olinishi bunga misol bo`la oladi:

Polimerlanish reaktsiyasi tezligiga qarab zanjirli va bosqichli bo`ladi. Bosqichli polimerlanishda monomer molekulalarining o`zaro birikishi kichik tezlikda davom etadi. Bunday reaktsiyani istalgan vaqtida to`xtatish va hosil bo`lgan dimer, trimer, tetramer va shu kabi birikmalarni sof holda ajratib olish mumkin.

Polimerlarning ko`pchiligi zanjirli polimerlanish reaktsiyasi yordamida olinadi. Bunday reaktsiya bilan olingen polimerlar molekulalarining o`lchami uzun bo`lib, ularning MM si bir necha yuz ming xatto millionlarga teng bo`ladi. har qanday zanjirli reaktsiya singari polimerlanish jarayoni ham uch qismidan - elementar reaktsiyadan aktiv markazning paydo bo`lishi, zanjirning o`sishi va uzilishidan iborat.

1. Aktiv markazning paydo bo`lishi katta energiya talab qiladi va kichik tezlikda boradi. Tashqaridan berilgan energiya yordamida aktivlantirilgan monomerning bir qismi birikish, ya`ni o'sish qobiliyatiga ega bo`lib qoladi.



Zanjirli polimerlanishda aktiv radikallar yoki ionlar (musbat va manfiy zaryadlangan zarrachalar) aktiv markaz sifatida hosil bo`ladi.

SHuning uchun ham aktiv markazning kelib chiqishi tabiatiga qarab reaktsiyalar radikal va ionli polimerlanish reaktsiyalariga bo`linadi.

2. Polimer zanjirining o'sishi kichik aktivlash energiyasi talab qiladi va juda katta tezlik bilan boradi:

Bu erda:  $A_1$ - monomer molekulasi;

$A_1$ - monomerning aktiv markazi;

$A_2, A_3$ - o'sayotgan radikallar;


$A_{n-1}, A_n$  - o'sayotgan makroradikallar;

3. Makroradikal zanjirining uzilishi katta **aktivlash** energiyasi talab qilmaydi va nisbatan katta tezlikda boradi.

### Radikal polimerlanish


Radikal polimerlanishda aktiv markaz erkin radikallar ta`sirida vujudga keladi.

Polimerlanish reaktsiyasi harorat ta`sirida olib borilganda aktiv markazning paydo bo`lishi qo'shbog' uzilishi hisobiga sodir bo`ladi. Bunday polimerlanish termik polimerlanish deb ataladi.



Biroq termik polimerlanish juda sust boradi. Ko`pgina monomerlar (vinilatsetat, vinilidenxlorid, akrilonitril) faqat harorat ta`sirida umuman polimerlanmaydi. Stirol, metilmekatrilit qizdirilganda polimerlanadi.

Yorug'lik nuri ta`sirida polimerlanish fotokimyoviy polimerlanish deb ataladi. Bunda monomer molekulasiga kvant nur energiyasi yutilishi natijasida erkin radikal hosil bo`ladi.



$h\nu$  - nuring bir kvant energiyasi bo`lib, u Plank doimiysi ( $h$ ) ni to`lqin tebranish tezligi ( $v$ ) ga ko`paytmasiga teng.

Tarkibida galoid atomi bo`lgan monomerlarning ushbu usul bilan aktiv markaz hosil qilishi oson. Masalan, issiqlik ta`sirida mutlaqo polimerlanmaydigan vinilxlorid ul'trabinafsha nur ta`sirida  $-35^{\circ}C$  da ham polivinilxlorid hosil qiladi. Ko`pincha fotopolimerlanish tezligini oshirish maqsadida sistemaga nur ta`sirida oson parchalanib, radikal hosil qiluvchi sensabilizatorlar qo'shiladi.

Monomer molekulalarini  $\alpha, \beta, \gamma$  - nurlar, rentgen nurlari, tezlashtirilgan elektronlar va boshqa yuqori energiyali zarrachalar yordami bilan ham radikalga aylantirib polimerlash mumkin. Bunday polimerlash radiatsion polimerlanish deyiladi.

Harorat va nurlar ta`sirida polimerlanish jarayonlaridan initsiatorli polimerlanish o'zining osonligi va kam energiya talab qilishi bilan ajralib turadi. SHu sababli deyarli barcha monomerlarni polimerlashda reaktsiya maxsus initsiatorlar ishtirokida olib boriladi. Initsiatorlar-ning ahamiyati ularning osonlik bilan parchalanib, erkin radikal hosil qilishidir. Reaktsiyani boshlab bergen initsiator zarrachalari polimer molekulalarining tarkibida kimyoviy bog' bilan ulanib qoladi. Initsiatorlarga misol qilib benzoil peroksid, vodorod peroksid, azo-bis-izobutironitril va natriy, kaliy, ammoniy persulfatlarni ko`rsatish mumkin. Polimerlanish jarayonini boshlab yuborish uchun reaktsiya muhitigà monomer og'irligining 0,1 1 %-i miqdorida initsiator qo'shish kifoya.

Masalan, benzoil peroksidi  $60^{\circ}C$  va undan yuqori qaroratda qizdirilganda ikkita benzoat gruppali erkin radikal hosil qiladi.

Benzoat radikallar parchalanishi davom etib, fenil gruppali erkin radikallar hosil qilishi mumkin:

Har ikkala radikal monomer molekulalari bilan birikib, polimerlanishning aktiv markazlarini hosil qila oladi.

Ular ta'sirida metilmekratilat molekulalari quyidagicha aktiv markaz hosil qiladi:


Ba'zi polimerlanish reaktsiyalarini past haroratlarda olib borishning muhim ahamiyati bor, chunki harorat qanchalik past bo`lsa, polimer sifatini pasaytiruvchi qo`shimcha reaktsiyalar shunchalik kam sodir bo`ladi. Bu maqsadda oksidlovchi-qaytaruvchi initsiatorlardan foydalilanadi, chunki ularning aktivlashtirish energiyasi kichik bo`lib, 40-60 kJ/mol' ga tengdir. Oksidlovchi sifatida vodorod peroksid va persul'fatlar olinsa, qaytaruvchi sifatida ikki valentli temir tuzlari va tiosul'fatlar ishlataladi. Sistemada reaktsiyani boshlab beruvchi agent sifatida hosil bo`ladigan erkin radikal - gidroksil gruppaning ahamiyati muhimdir:

Demak, aktiv markaz hosil qilishning turli-tuman usullari bor ekan.

Polimerlanish jarayonida o`sayotgan erkin radikal yo`qolsa zanjir uziladi, ya`ni polimerlanish to`xtaydi. Masalan, o`sayotgan ikki polimer zanjiri o`zining erkin radikallari bilan uchrashib, o`sishdan to`xtashi mumkin (rekombinatsiya).

O`sayotgan makroradikallarning biridan ikkinchisiga bir vodorod atomining o`tishi va bir makroradikalda qo`shbog' hosil bo`lishi bilan ham zanjir uzilishi mumkin (disproportsiya):

Zanjirning o`sishdan to`xtashi - aktiv markaz yoki o`sayotgan makroradikallarni reaktsiya muhitidagi ikkilamchi birikmalar bilan to`qnashib, o`sish markazini behuda uzib yuborishi natijasida ham sodir bo`lishi mumkin. Masalan, muhitda to`yingan modda molekulasi AB bo`lsin. Agar polimer ~~radikali~~ etarli energiyaga ega bo`lsayu, AB bilan to`qnashsa, uni parchalab yuborishi mumkin. Natijada makroradikal to`yingan moddaning bir qismini o`ziga biriktirib so`nadi. To`yingan moddaning qolgan qismi esa radikal qoliga o`tadi. U yana monomerga ta'sir qilib, uni o`sish markaziga aylanadi:



Natijada polimerning o`sayotgan molekulasi bir necha zanjirga bo`linadi va uning MM si kamayadi. Harorat ko`tarilgan sari kuchayadigan bu jarayon tez-tez uchrab turadi. Misol tariqasida, etilenning tetraxlormetan ishtirokida polimerlanishini ko`rsatish mumkin.

Demak, bu jarayondan foydalanib, etilen bilan tetraxlormetanning o`zaro miqdoriy nisbatlarini o`zgartirish bilan polimerning MM sini oshirish yoki kamaytirish mumkin. Bunday moddalar odatda regulyatorlar (rostlagichlar) deb ataladi.

Agarda muhitdag'i to`yingan AB molekuladan hosil bo`lgan erkin radikal B" qaytadan o`sish markazini hosil qila olmasa, buning natijasida polimerlanish reaktsiyasi sekinlashadi yoki ma`lum vaqtgachà butunlay to`xtab qoladi.

Polimerlanish reaktsiyasini butunlay to`xtatuvchi moddalar ingibitorlar deb ataladi. Ingibitorlarga hidroxinon misol bo`la oladi. U o`sib borayotgan polimer zanjiridan yoki hosil bo`lgan monomerning radikalidan vodorodni tortib olib, semixinonga aylanadi, zanjirda esa qo`shbog' hosil bo`ladi:

Hosil bo`lgan semixinon gruppasi yana bir makroradikal yoki aktiv markaz bilan birikib, ularni ham o'sishdan to`xtatadi, ya`ni zanjir uziladi.

Ingibitorlar sifatida ko`p atomli fenollar - gidroxinon, pirokatexin, aromatik aminlar, nitrobirikmalar ishlatalidi.

Monomerlarni saqlashda, uzoq joylarga jo`natishda ingibitorlar qo`llaniladi. Monomerlarning o`z-o`zidan polimerlanishini oldini olish uchun 0.5-1.5 foyiz ingibitor qo`shish kifoya.

Radikal polimerlanishning borishi haroratga bog'liq. Haroratning ko`tarilishi muhitda aktiv markazlarni ko`paytiradi va binobarin, ular harorat ta`sirida serharakat bo`lib qolganlardan polimerning o'sish tezligi ortadi. harorat ta`siridan o'sayotgan zanjirlarning bir-biri bilan yoki aktiv markaz bilan to`qnashish tezligi, ya`ni makroradikalning uzilish tezligi ham ortadi. Demak bir tomondan polimerlanish tezligi ortsas, ikkinchi tomondan, zanjirning uzilish tezligi oshib, molekula massaning qisqarishiga sabab bo`ladi. SHuning uchun ham polimerlanish jarayoni yuqori haroratda o'tkazilganda aktiv markazlar ko`payib polimerning MM si kamayadi. Reaktsiya muhitida aktiv markazlar qancha ko`p bo`lsa, makromolekulaning o'lchami shuncha qisqa bo`ladi, aksincha aktiv markazlar qancha kam bo`lsa, makromolekulalarning soni shuncha kam bo`ladi va ular uzatishiga ancha imkoniyat yaratiladi.

Polimerlarning hosil bo`lish tezligi va MM si radikal polimerlanishda initsiator miqdoriga bog'liq. Initsiatorning miqdori ortganda uning parchalanishi natijasida aktiv markazlar soni ko`payib, polimerlanish tezlashadi, polimerning MM si esa kamayadi. Demak polimerlanish tezligi initsiator kontsentratsiyasini ildiz ostidagi qiymatiga to`qri proportionaldir:

$$V = K * \sqrt{i}$$

bu tenglikda: V - polimerlanish tezligi;

K - reaktsiya tezligi konstantasi; i - initsiator kontsentratsiyasi.

Polimerlanish darajasi esa initsiator kontsentratsiyasining ildiz ostidagi qiymatiga teskari proportionaldir:

$$P = K * 1/\sqrt{i}$$

bu erda: P - polimerlanish darajasi.

## TAYANCH SO`ZLAR

Yuqori molekulali birikmalar. Molekula massasi. Oligomerlar, polimerlar, makromolekula. Elementar halqa, monomer, polimer, polimerlanish darajasi. Sopolimer. Makromolekulaning egiluvchanligi. SHishasimon, yuqori elastik va qovushqoq oquvchanlik. Molekula massa bo'yicha polidisperslik.

Makromolekula kattaligining erishga ta`siri. Bo`kish, chegarali va chegarasiz bo`kish. CHiziqli va to`rsimon polimerlar. Polimerlanish, zanjirli polimerlanish. Aktiv markaz, zanjirni o'sishi, zinjirni uzilishi. Radikal polimerlanish, termik fotokimyoviy, radiatsion, initsiatorli polimerlanish. Oksidlanish-qaytarilish initsiatorlari.

## QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Plastmassalar qachondan amaliy hayotda ishlatalib kelinadi?
2. Plastmassalarni zamonaliviy turlari qachondan va qanday polimer ishlab chiqarishdan boshlangan?
3. O`zbekistonda qaerda va qanday plastmassa ishlab chiqarish hamda qayta ishslash korxonalari bor?
4. Polimerlarning molekula massasining kattaligi nima bilan belgilanadi?
5. Polimer makromolekulalarini nima uchun makromolekulalar deymiz?
6. Polimerlar nima sababli gaz holatida bo`lmaydilar?
7. Polimerlarning yuqori elastiklik holati uning qanday xossalariiga va kattaliklariga bog'liq?
8. Molekula massasi bo'yicha polidisperslik deganda nimani tushunamizq
- 9.
10. Polimer nima sababdan past molekulali erituvchida bo`kadi?
11. Polimerni erituvchida erish jarayoni qanday bosqichlarda amalgalashadi?
12. Chegarali va chegarasiz bo`kish deganda nimani tushunasiz?

13. Zanjirli polimerlanish deb qanday reaktsiyalarga aytamiz?
14. Zanjirli polimerlanish bosqichlarini yozib ko`rsating.
15. Radikal polimerlanish. Radikallarni hosil qilish usullarini tushuntirib bering.
16. Oksidlanish-qaytarilish initsiatorlari nima sababdan polimerlanishni tezlatadi?
17. Rostlagich va ingibitorlar qanday moddalar va ular qanday vazifani bajaradilar?

## ADABIYOTLAR

1. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi. T., O`zbekiston 2004 y.
2. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V.Korshaka. Moskva, "Ximiya", 1985, s.13-


## MA`RUZA - 2

### IONLI YoKI KATALITIK POLIMERLANISH

Monomerlarning katalitik yoki ionli polimerlanishi katalizatorlar ishtirokida boradi. Bu turdag'i polimerlanishda o'sayotgan zanjir uchida kation yoki anion bo`ladi. Ular o'zining musbat yoki manfiy zaryadlarini zanjir bo`ylab uzatishi orqali molekulaning o'sishiga imkoniyat tug'diradi. Ionli polimerlanish zanjir uchida katalizatorning qanday ion hosil qilishiga qarab kationli va anionli polimerlanishga bo`linadi.

#### **Kationli polimerlanish**


Kationli polimerlanish kuchli kislotalar va Fridel'-Krafts katalizatori ishtirokida boradi, bunday katalizatorlar elektronlarning kuchli aktseptorlari hisoblanadi. Fridel'-Krafts katalizatorlarining polimerlanish jarayonidagi aktivligini quyidagicha ifodalash mumkin:



Kationli polimerlanishni past haroratda amalga oshirish uchun ba`zan katalizatorni aktivlanish energiyasini kamaytiruvchi moddalar - sokatalizatorlar ishlatiladi. Sokatalizatorlar sifatida suv va mineral kislotalardan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Bunda katalizator bilan sokatalizator reaktsiyaga kirishib, vodorod protoni ajralib chiqadi. Proton monomer molekulasi bilan birikib, kationli polimerlanishning aktiv markazini, ya`ni karbonil ionini hosil qiladi.

Keyingi monomer molekulalari bilan birikish natijasida zanjir o`sadi:

Reaktsiyadan katalizatorlarning ajralib chiqishi natijasida zanjir uziladi:




Kationli polimerlanish jarayonining aktivlanish energiyasi radikal polimerlanish aktivlanish energiyasidan ancha kam. SHu sababli tarmoqlanmagan tuzilishga ega bo`lgan MM si yuqori polimerlar (-50)-(-40)°C haroratda kationli polimerlanish usuli bilan sintez qilinadi.

#### **Anionli polimerlanish**


Anionli polimerlanish katalizatorlari sifatida ishqoriy metallar va ularning amidlari metall-organik birikmalar, yuqori valentli metall oksidlari va elektronodonor xossaga ega moddalar ishlatiladi.

Anionli polimerlanishga misol tariqasida akrilonitrilning natriy amid ta'sirida ammiakli muhitda polimerlanishini ko`rib chiqamiz.





Zanjirning o`sishi:



Zanjirning uzilishi, masalan, ammiak ishtirokida:

Metallorganik birikmalar ta`sirida anionli polimerlanish qutblangan metall bilan uglevodorod orasidagi bog’ning ( $\text{Me-Al}_k$ ) xususiyatiga bog’liq bo`lib qoladi. Polimerlanish jarayonida metall ioni karbanionga bog’lanib, uning o’sishiga ta`sir ko`rsatadi. Alkil metallar ishtirokida anionli polimerlanish katalizatordagi bog’larning va erituvchi molekulalarining qutblanishiga bog’liq.

Aktiv markazning paydo bo`lishi:

Zanjirning o`sishi:

Monomer molekulasining o`sayotgan zanjir tarkibga kirishi ancha murakkab jarayon. Masalan, izoprenning litiy-organik katalizator ishtirokida koordinatsion bog’li aktiv markaz kompleksi hosil qilishi quyidagicha ifodalanadi:

Bunday kompleksli aktiv markaz hosil qilinishidan boshlanadigan jarayon anion koordinatsion polimerlanish deyiladi.

Monomer katalizator kompleksiga fazoviy orientatsiya ta`sirida kirdi uchun stereoregulyar polimer hosil bo`ladi.

Tsigler va Natta tomonidan kompleks katalizatorlarining kashf etilishi anionli polimerlanish sohasida qo`lga kiritilgan eng katta yutuqlardan biri bo`ldi. O`rinbosarlari fazoda tartibli joylashgan kristall strukturalik polipropilen va boshqa shunga o`xshash poliolefinlar xuddi shunday kompleks katalizatorlar ishtirokida olinadi. Bunday polimerlar izotaktik va sindiotaktik polimerlar deb ataladi.

Stereospetsifik katalizatorlar Mendeleev davriy sistemasining II va III gruppasi dagi metallarning organik birikmali bilan IV, V va VI gruppa metallarining galogenli tuzlari aralashmalaridan iborat. Bunday katalizatorlardan eng ko`p tarqalgani trialkilalyuminiy va titan xloridning har xil mollar nisbatdagi aralashmlaridir. Alyuminiy va uning organik birikmali titan xlorid bilan kompleks birikmalar hosil qiladi. Polimerlanuvchi monomer bu kompleksdagagi Al-C bog’i bilan koordinatsiyalanib, zanjirning o’sish reaksiyasini boshlaydi.

Kompleksdagagi aktiv Al-C bog’ katalizator sirtida bo`ladi va shu sirtda xemosorblangan monomer molekulalari bilan uchrashadi. O`sayotgan zanjirga kelib birikayotgan yangi-yangi monomer molekulalarining holati o`zidan ilgari birikkan monomerlarning holatiga o`xshash bo`ladi. Bu hodisa izo- va sindiotaktik tuzilishdagi makromolekulalar hosil bo`lishida katta rol’ o`ynaydi.

Polipropilen, polistirol va boshqa ba`zi polimerlar o`zining fazoviy tuzilishiga qarab, izotaktik va sindiotaktik polimerlarga bo`linishini yuqorida aytib o`tgan edik.

Quyida polimer zanjirining uch fazoviy joylanishini ko`ramiz:

1. Izotaktik polipropilen:

2. Sindiotaktik polipropilen:

3. Ataktik polipropilen:

## SOPOLIMERLANISH

Ikki va undan ortiq tur monomerlarining birligida polimerlanish reaktsiyasi sopolimerlanish reaktsiyasi deb, qosil bo`lgan polimer esa sopo-limer deb ataladi.

Sopolimerlanish reaktsiyasi, kerakli talabga javob bera oluvchi poli-merlar sintez qilishning asosiy usullaridan biri qisoblanadi, chunki bunda polimerlanuvchi monomerlarning soni va turlarini qamda ularning o`zaro miqdoriy nisbatlarini o`zgartirib, turli qossalarga ega bo`lgan sopolimer olish mumkin.

Polimerlanish qobiliyati qar xil bo`lgan ikki monomer aralashmasining sopolimerlanishidan qosil bo`lgan makromolekulalar tarkibida qar ikkala monomer qalqalarini uchratish mumkin, ya`ni bunda o`savotgan zanjir reaktsiyada ishtirok etuvchi monomerlarning qar ikkalasi bilan qam reaktsiya-ga kirishgan bo`ladi. Demak, makroradikalning xossasi, asosan, uning uchida-gi monomer qalqasi xususiyati bilan xarakterlanadi.

Misol uchun sopolimerlanish jarayonida A va V monomerlardan erkin radikal qosil bo`lish tezligi  $K_A$  va  $K_B$  bilan belgilansin. Ularning qiymati A va V monomerlardan aktiv markaz qosil bo`lish ( $V_{iA}$  va  $V_{iB}$ ) tezligiga boq`liq.

Sopolimerlanish jarayonida zanjirning o`sishi oddiy polimerlanishdagidan farq qiladi. U qar biri o`ziga qos tezlik konstantasiga ega to`rtta reaktsiya bilan xarakterlanadi. Bu reaktsiyalar quyidagicha ifodalanadi.

Bu reaktsiyalarda sistemada sodir bo`layotgan qar bir reaktsiyaning tezlik konstantasi  $K$  bilan belgilangan, jumladan:

$K_{a\bullet a}$  - uchida A monomerli aktiv markazi bo`lgan, o`savotgan makroradikal bilan A monomer molekulasi orasidagi reaktsiyaning tezlik konstantasi;

$K_{a\bullet b}$  - uchida A monomerli aktiv markazi bo`lgan, o`savotgan makroradikal bilan B monomer molekulasi orasidagi reaktsiyaning tezlik konstantasi;

$K_{b\bullet b}$  va  $K_{b\bullet a}$  - uchida aktiv B monomerli makroradikalning B va A monomer molekulalari bilan reaktsiyalari tezligi konstantalari.

Reaktsiyalardan qaysi birining tezligi kattaroq bo`lsa, qosil bo`la-yotgan sopolimerning tarkibi, o`sha reaktsiyaga muvofiq tez birikayotgan mo-nomer qalqasi bilan boyigan bo`ladi.

Sopolimerlanishda qam zanjirning uzilishi gomopolimerlanishdagagi kabi quyidagi reaktsiyalar bilan sodir bo`ladi.

Bularda:

$K_{pa}$  - uchida A monomerli aktiv markazi bo`lgan, o`savotgan ikki makroradikal o`zaro uchrashganida zanjirning uzilishi tezligining konstantasi;

$K_{pb}$  - uchida V monomerli aktiv markazi bo`lgan, o`savotgan ikki makroradikal o`zaro uchrashganida zanjirning uzilishi tezligining konstantasi;

$K_{pab}$  - uchida aktiv A va V monomerlar bo`lgan ikki xil makroradikalning o`zaro uchrashib, o`savotgan zanjirni uzish tezligi konstantasi.

Sopolimerlanishning boshlanqich davrida V, VI, VII uzilish reaktsiyalari o`sish reaktsiyalariga qaraganda shunchalik sust boradiki, ular makromolekulaning qosil bo`lishiga shartli ravishja ta`sir ko`rsatmaydi deyish mumkin.

SHuning uchun qam A va B monomerlarning makroradikalga birikish tezligini quyidagi tenglamalar bilan ifodalash mumkin:

Agar sistemada vaqt birligi ichida paydo bo`layotgan va sarflanayotgan A radikallar miqdori o`zaro teng bo`lsa, ya`ni A radikallar soni muayyan vaqt ichida o`zgarmasa, bu radikal uchun statsionarlik tenglamasi quyidagicha yozi-ladi:

Xuddi shunday shart bilan V radikalning statsionarlik tenglamasi tu-ziladi:

Bu tenglamalarda:

$V_{iA}, V_{iB}$  - A va B monomerlardan aktiv markaz qosil bo`lish tezligi

Makroradikal o`sayotganda aktiv markazning A radikaldan B radikalga va B radikaldan A radikalga o`tishi eqtimolligi (II va IV reaktsiyalarga binoan), shu zanjirlarning uzilishi eqtimolligidan ancha ustun. SHuning uchun qam statsionarlik tenglamalari (3) va (4) dagi zanjirning uzilshini ifodalovchi qismlarni tushirib qoldirish mumkin.

SHuningdek, aktiv A radikaldan B ga va B radikaldan A ga o`tish tezligi A va B monomerlardan aktiv markaz paydo bo`lishi tezligiga qaraganda ancha ustun; boshqacha aytganda A monomerning B radikalga, B monomerning A radikalga birikishi tezligi tashabbuslanish reaktsiyasi (initsiator parchalanishi natijasida qosil bo`lgan aktiv radikallar ta`sirida monomerdan aktiv markaz qosil bo`lishi reaktsiyasini tashabbuslanish reaktsiyasi deyiladi) tezligidan ancha ortiqdir.

$$V_{iA} \ll K_{ba}(B^\bullet)(A) \text{ va } V_{iB} \ll K_{ab}(A^\bullet)(B)$$

SHu muloqazalardan keyin (3) va (4) tenglamalardan tashabbuslanish tezliklari  $V_{ia}$  va  $V_{ib}$  ni tushirib qoldirsak, quyidagi tenglama qosil bo`ladi:

$$K_{ab}(A^\bullet)(B) = K_{ba}(B^\bullet)(A) \quad (5)$$

Bu tenglamada  $A^\bullet \rightarrow B^\bullet$  ga va  $B \rightarrow A^\bullet$  ga o`tishi tezliklari o`zaro teng deb qabul qilingan va bu tenglik sopolimerlanish reaktsiyasining asosiy shartlaridan biridir. Agar bu shart saqlanmasa, ya`ni (3) v (4) tenglamalar (5) tenglama qoliga keltirilmasa, unda fizik ma`noda, sopolimerlanish reaktsiyasi sodir bo`lmay, balki polimerlanuvchi bir monomer ikkinchisiga ingibitor bo`lib xizmat qiladi, ya`ni polimerlanish to`xtaydi.

SHunday qilib, (5) tenglamadagi o`zaro tenglikni nazarda tutgan qolda (1) va (2) tenglamalarni o`zaro nisbatini topsak, qosil bo`lgan sopolimerlar tarkibini aniqlash imkoniyatini beruvchi yangi tenglamaga ega bo`lamiz:

$$\begin{aligned} d(A)/dt &= K_{aa}(A^\bullet)(A) + K_{ba}(B^\bullet)(A) && \text{bundan} \\ d(B)/dt &= K_{bb}(B^\bullet)(B) + K_{ab}(A^\bullet)(B) \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} d(A) &= [A] \cdot ([A^\bullet] + [B^\bullet]) K_{aa}/K_{ba} \\ &= \\ d(B) &= [B] \cdot ([B^\bullet] + [A^\bullet]) K_{bb}/K_{ba} \end{aligned} \quad (6)$$

Demak monomerlarning nisbiy reatsion qobiliyatini ularning o`zaro reaktsiyaga kirishish tezligè konstantalari nisbati orqali ifodalash mumkin. Masalan, A monomerning nisbiy reaktsion qobiliyatini quyidagi nisbatdan:

$$r_1 = K_{a\bullet a}/K_{a\bullet b}$$

B monomerniki esa:  $r_2 = K_{b\bullet b}/K_{b\bullet a}$  a nisbatdan topiladi va bu ifoda sopolimerlanish konstantasi deb ataladi.

Sopolimerlanish konstantalari yoki monomerlarning nisbiy reaktsion qobiliyati  $r_1$  va  $r_2$  lar qar o`sayotgan radikalning qanday tezlikda "o`z" monomeri va "begona" monomer bilan birika olishini xarakterlaydi. Bu konstantalar bir xil sistemalar uchun o`zgarmas qiymatga ega.

quyida  $r_1$  va  $r_2$  larning turli qiymatlariga boqliq 4 xususiy qolni ko`rib chiqamiz.

1-hol.  $r_1=1$ ;  $r_2=1$ ; bunda uchida ikkala monomerdan to`qri kelgan birini tutgan, o`sayotgan makroradikal qar ikki monomer molekulalarini bir xil tezlik bilan biriktirib ola oladi. Demak, reaktsiya davomida qar bir mono-merning erkin radikali "o`z" monomerini qam "begona" monomerni qam bir xil tezlik bilan biriktiradi. Sopolimerning tarkibi dastlabki monomer-lar aralashmasi tarkibidan farq qilmaydi.


**-ABBAABABAABBA-**

2-hol.  $r_1<1$ ;  $r_2<1$ ; ikkala sopolimerlanish konstantasi birdan kichik bo`lganda har ikkala monomer radikali faqatgina "begona" monomer moleku-lasini oson biriktiradi. Sopolimer zanjirida A va V monomerlar qalqa-larining soni bir xil bo`ladi. Bunda sopolimerning tarkibi monomerlar dastlabki

aralashmasining tarkibiga boqliq bo`lmaydi, monomerlar qalqa-larining makromolekula tarkibidagi takrorlanuvi quyidagi tartibda bo`ladi:



3-hol.  $r_1 > 1$ ;  $r_2 > 0$ ; ya`ni A<sup>\*</sup> va B<sup>\*</sup> bilan tugovchi makroradikallar faqat-gina A monomer molekulalarini biriktirishga ishlatiladi. Bu qoda mono-merlarning dastlabki aralashmasida V monomerning miqdori ortiq bo`lsa qam sopolimer zanjiri A monomer qalqlari bilan boyigan bo`ladi.



4-hol.  $r_1 > 1$ ;  $r_2 > 1$ ; ya`ni har ikkala xil makroradikal "begona" monomer molekulasiga qaraganda "o`z" molekulasini tezroq biriktirib oladi. Bunda qar ikkala monomer o`zining gomopolimerini qosil qiladi va sistema ikka-la gomopolimerning oddiy aralashmasidan iborat bo`ladi.

Ba`zi moddalar oddiy sharoitda polimerlanmasa qam sopolimerlanish reaktsiyasiga kirisha oladi. Jumladan, shu vaqtgacha malein angidridining oddiy usulda olingan gomopolimeri ma`lum ems, ammo u stirol bilan quyidagicha sopolimer qosil qiladi:

quyidagi rasmida  $r_1$  va  $r_2$  qiymatlari qar xil bo`lgan bir necha polimer sistemalarining tarkibi ifodalangan.

SHuni qam ta`kidlab o`tish kerakki bir xil monomerni o`zi qar xil so-monomerlar bilan sopolimerlanganda turli kattalikdagi sopolimerlanish konstantasiga ega bo`ladi, ya`ni qar xil somonomerlar bilan turlicha tezlik-da sopolimerlanadi.

### **Sopolimerlanuvchi monomerlar va ularning sopolimerlanish konstan-talari**

A	B	$r_1$	$r_2$
Stirol	Butadien	0.78	1.39
Akrilonitril	Butadien	0.05	0.35
Vinilxlorid	Vinpilatsetat	1.68	0.23
Stirol	Metilmekrilat	0.52	0.46
Vinilidenxlorid	Vinilkloid	4.5	0.2

### **BOSQICHLI POLIMERLANISH**

Monomer molekulasidagi biror qarakatchan vodorod yoki boshqa atom-ning ikkinchi molekulaga o`tishi natijasida molekulalarning o`zaro biri-kib, polimer qosil qilish jarayoni bosqichli polimerlanish deyiladi. Migratsion polimerlanish deb qam ataladigan bosqichli polimerlanish o`zining sodir bo`liq qonuniyatlarini jihatidan polikondensatlanish reaktsiyalariga o`xshab ketadi.

Misol tariqasida kaprolaktamdan polikaprolaktam qosil bo`lish reaktsiyasini ko`rib chiqamiz. Bosqichli polimerlanish boshlanishi uchun ozgina suv yoki aminokapron kislota qo`shish lozim. Kaprolaktamning suv ishtirokida polimerlanish jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin.

SHu turdagи reaktsiyalar orqali poliformaldegid turli markali poli-uretan polimerlari sintez qilinadi.

### **POLIKONDENSATLANISH REAKTSIYALARI**

Har bosqich reaktsiyadan so`ng suv, spirt, ammiak, vodorod xlorid va shunga o`xshash quyi molekulali moddalar ajralib chiqishi bilan boradigan YuMB qosil bo`lish reaktsiyasi polikondensatlanish deyiladi.

Reaktsiya natijasida qosil bo`lgan YuMB lar elementar tarkibi reak-tsiya davomida ?óée molekulali moddalar ajralgani sababli, dastlabki olingan monomerlar tarkibidan farq qiladi. Polikondensatlanish reaktsiyasiga tarkibida ikki yoki undan ortiq turli funktsional gruppalarini bor moddalar kirisha oladi. Agar


bir moddaning o`zida ikki xil funktsional gruppa bo`lsa-yu, ular o`zaro reaktsiyaga kirishib, polimer qosil qilsa, bunday reaktsiya gomopolikondensatlanish deyiladi. Bu jarayonni quyidagi umumiy tenglama bilan ifodalash mumkin:



Bunda: a-A-b - monomer;

a va b - monomerning funksional gruppaları;


a, b - reaksiyada ajralib chiqqan quyi molekulali birikma. Misol ta-riqasida aminokapron kislotadan polikaprolaktam qosil bo`lishini ko`rib chiqaylik:




Har qaysi elementar reaktsiyadan so`ng ikki xil funktsional gruppali barqaror oraliq modda qosil bo`ladi. Bu oraliq moddani reaktsiya muqitidan ajratib olish mumkin.

Agar reaktsiyada funktsional gruppalari bir xil bo`lgan bifunktsional gruppali ikki xil modda qatnashsa, bu reaktsiya geteropolikondensatlanish deyiladi.

Geksametilendiamin bilan adipin kislotasining polikondensatlanish reaksiyasi bunday reaksiyaga misol bo`ladi:



Bifunksional birikmalarni polikondensatlanishi natijasida faqat chiziqsimon polikondensatlar qosil bo`ladi. Bunday reaktsiyalar chiziqsimon polikondensatlanish deyiladi. Reaktsiyaga kirishayotgan monomerlarning birida uch va undan ortiq funktsional gruppalar bo`lishi polikondensatlanish reaktsiyasini murakkablashtiradi va fazoviy to`rsimon tuzilishga ega makro-molekulalar qosil qiladi. Bunday reaktsiyalar fazoviy polikondensatlanish deb ataladi. Misol tariqasida glitserin va para-ftal kislotaning kondensatlanishini ko`rsatish mumkin. Bu reaktsiyada glitserin avval bifunksional gruppali modda sifatida qatnashib chiziqli polikondensat - gliftal hosil qiladi.



Provardida, yuqori qarorat ta'sirida glitserinning uchinchi funktsio-nal gruppasi qam reaktsiyaga kirishib, fazoviy to`rsimon tuzilishga ega po-limer qosil qiladi:

Hozirgi paytda YUMB-poliamidlar, poliefirlar, epoksid, fenol-formaldegid, mochevina-formaldegid, kremniyorganik polimerlar sin-tez qilishda polikondensatlanish reaksiyalaridan foydalilanildi.

Moddalar tarkibidagi funktional gruppalar miqdorining polikondensatlanish jarayoniga ta'sirini quyqidagicha izoqlash mumkin:

Agar funksionallik, ya`ni molekula tarkibidagi funksional gruppalar soni  $f$ , boshlanqich modda molekulalarining sonini  $No$ , reaktsiyaga kiri-shuvchi moddadagi funksional gruppalarning umumiy sonini  $N_{of}$ , reaktsiyaga kirishmay qolgan molekulalar sonini  $N$  bilan belgilasak, reaktsiyaning tu-galanish darajasi ( $P$ ) quyidagicha ifodalanadi.

$$P = 2(N_0 - N)/N_0 f$$

O`rtacha polikondensatlanish koeffitsienti  $No/N$  ni n bilan belgilasak, tenglama quyidagi qolga keladi:

$$P = 2/f - 2/nf$$

Polikondensatlanish koeffitsienti n ning qiymati juda kattaligini qisobga olsak tenglama quyidagi qolga keladi:

*Bu erda R- reaktsiyani funksional guruqlar bo`yicha tugallanish darajasi.*

Demak, moddaning funksionalligi  $f=2$  yoki  $P=1$  bo`lganda, faqat chiziqli makromolekula qosil bo`lishi kerak. Moddaning funksionalligi  $f=3$  yoki  $f=4$  bo`lganda, reaktsiyani tugallanish darajasining qiymati  $2/3$  yoki  $1/2$  bo`lib, uch o`lchamli to`rsimon makromolekula qosil bo`ladi.

Polikondensatlanish reaktsiyasining o`ziga qos xususiyatlaridan biri, uning bosqichli borishi va qaytar xususiyatlarga egaligidir. Polikondensatlanish reaktsiyasining qar bir bosqichi bir tartibdagi o`rin almashinish reaktsiyasidan iborat bo`lib, qar bir bosqichning sodir bo`lishida bir qil miqdorda energiya surf qilinadi. SHuning uchun qam polikondensatlanish reaktsiyasining tezligini reaktsiya muqiti qaroratini oshirish yoki kamytirish orqali o`zgartirish mumukin. Istalgan bosqichda reaktsiyanè sekinlashtirish uchun reaktsion idishni sovutish kifoya.

Polikondensatlanish reaktsiyasining asosiy qonuniyatlaridan yana biri shundaki, komponentlardan (monomerlardan) birining molyar nisbati ikkinchisindan ortiq bo`lganda polikondensatlanish reaktsiyasiga kirishuvchi funksional gruppalar miqdoriy nisbatlarining tenglik sharti buzilib, reaktsiya tez orada to`xtab qoladi va past molekulali moddalar qosil bo`ladi.



Ýkvimolekulyar nisbatdagi monomerlar aralashmasidan sintez qilingan chiziqsimon polimerlarning o`rtacha polikondensatlanish darjasini P quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$P = 1/(1-P)$$

bunda: P - reaktsianing tugallanish darjasini.

### **POLIMERANALOGIK O`ZGARISHLAR**

Barcha yuqori molekulali birikmalar o`z makromolekulasining tuzilishiga qarab, organik kimyodagi quyi molekulali moddalar kabi gidrogenlash, xlorlash, sulfolash, nitrolash, alkillash va boshqa reaktsiyalarga kirisha oladi. Bunday reaktsiya asosida polimerning xossalari tubdan o`zgaradi, bu esa o`ç navbatida bir tur polimerdan, xossalari sanoat talabla-riga javob beruvchi ikkinchi tur polimerlar hosil qilishga imkon beradi.

Masalan, polivinilatsetatni ishqoriy muqitda gidrolizlab, polivinil spirti olinadi:

Olingan polivinil spirtining polimerlanish darjasini polivinilatsetatnikidan farq qilmaydi.

### **POLIMERLARNI SINTEZ QILISHNING TEXNOLOGIK USULLARI**

Texnikada polimerlarni sintez qilishning uch xil usuli, ya`ni massada polimerlanish, erituvchi muqitida polimerlanish va emulsion polimerla-nish usullari keng tarqalgan.

### **MASSADA POLIMERLANISH USULI (BLOK USULI)**

Suyuq qoldagi monomerlarni qech qanday erituvchisiz o`z qolida poli-merlanish usuli massada polimerlanish deyiladi. Bu usulda yaxlit va qattiq polimer bloki qosil bo`ladi, uning shakli esa reaktsiya olib borilgan idish-ning shakliga kiradi.

Odatda, massada polimerlanish reaktsiyasi, ko`pincha organik peroksidlar ishtirokida, qisman, issiqlik va nur ta`sirida olib boriladi.

Bu usulning asosiy kamchiligi shundaki, bunda reaktsiya natijasida ajralib chiqayotgan issiqliknini qosil bo`lgan polimer blokidan o`z vaqtida yo`qotish qiyin. Buning natijasida polimerlanish reaktsiyañe sistemaning qar xil nuqtalarida turli qarorat va turlichcha tezlik bilan davom etadi. qaroratning qaddan tashqari ortib boishi, ayniqsa, idishning o`rta qismida polimer zanjirlarini destruktсиyalaydi (parchalaydi) va ularning o`rtacha molekula massasini kamaytiradi.

Usulning yana bir kamchiligi shuki, reaktsiya natijasida qosil bo`lgan qattiq va yaxlit polimer namunalarini ajratib olish qamda ularni qayta ishlab buyum olish anchagini texnologik jarayonlarni

qo'llashni talab qila-di. SHuning uchun qam blok usulidan polimerni qayta ishlash talab qilin-maydigan qollardagina foydalaniladi.

Jumladan, metilmekrilatdan polimetilmekrilat (organik shisha) olishda, stirolni polistirolga aylantirishda bu usul qo'llaniladi. Masalan, samolyotsozlikda ko'p qo'llaniladigan material - organik shisha massada polimerlash usuli bilan qosil qilinadi.

### ERITUVCHI MUHITIDA POLIMERLANISH

Ýrituvchi muqitida polimerlanish ikki xil bo`ladi. Birinchi usulda olingan erituvchida monomer qam va hosil bo`ladigan polimer qam yaxshi eriydi (lok usuli).

Ikkinci usulda, olingan erituvchida monomer eriydi, ammo qosil bo`lgan polimer erimaydi va, natijada, polimer cho`kmaga tushadi.

Ýrituvchi muqitida olib boriladigan polimerlanish jarayonida qaro-ratni rostlash imkoniyati bor. SHunday bo`lsa qam, amalda bu usul unchalik ko'p ishlatilmaydi, chunki birinchidan, bunda erituvchi molekulalari reaktsiyada qatnashib, zanjirning tez uzilshiga yoki aktiv markazni uzatilishiga olib keladi. Natijada qosil bo`lgan polimerning o`rtacha molekula massasi kamayadi. Ikkinchidan, qosil bo`lgan polimer tarkibidan erituvchi muddani yo`qotish ancha qiyin.

### EMULSION POLIMERLANISH

Bu usul sintetik polimerlar sanoatida ko'p qo'llaniladigan usuldir. Uning afzalligi shundaki, emulsion polimerlanish reaksiyasi past qaro-ratda qam katta tezlik bilan boraveradi.

Hosil bo`lgan polimer molekulaviy taqsimlanishi boshqa usullar bi-lan olingandagiga qaraganda monodispersroq bo`ladi. Bunday polimerlanish jarayonida dispersion muqit sifatida, asosan, suv ishlatilib, unda mono-merning 7-50%-li emulsiyasi tayyorlanadi. Monomerning suvdagi emulsiya-sini barqaror qilish uchun unga emulgatorlar qo'shiladi.

Monomerning suvdagi emulsion zarrachalari shakliga va kattaligiga qarab sistema lateks yoki suspenzion bo`ladi. Ýmulgatorlar sifatida deyarli barcha sovunlar, jumladan ishqoriy metallarning oleat, palmitat, laurat tuzlari, aromatik sulfokislotalarning natriyli tuzi, ayniqsa, natriyizo-butilnaftalin monosulfat ko'p ishlatiladi. Ýmulgatorlar uglevodorod (mo-nomer) bilan suv chegarasidagi sirt taranglik kuchini kamaytiradi va mono-merning suvda emulsiyanishini osonlashtiradi. Monomer tomchilarini yupqa emulgator pardalar bilan o`ralishi emulsiyaning barqarorligini oshi-radi.

Emulsion polimerlanishning initsiatorlari sifatida suvda eruvchan persulfat, perborat, vodorod peroksid va shunga o`xshash muddalar ishlatiladi. Jarayonning regulyatori sifatida (ya`ni muqitning rN turqunligini va emulsiyaning barqarorligini oshiruvchi muddalar sifatida) bikarbonatlar, fosfatlar va atsetat tuzlari ishlatiladi. Yuqorida aytib o'tilganlarga binoan, polimerlanishdan avval monomerning suvdagi emulsiyasi qosil qilinadi. So`ngra polimerlanish natijasida polimer lateksi qosil bo`ladi. Latekslar texnikada to`qridan-to`qri ishlatilishi qam mumkin (PVA ning suvdagi emulsiyasi). Lateksdan polimerni ajratib olish uchun unga maxsus muddalar - elektrolitlar qo'shiladi.

Emulsion polimerlanish usulining ikkinchi turi suspenzion polimerlanish deyilib, lateks polimerlanish usulidan qosil bo`ladigan po-limer zarrachalarining yirikligi bilan farqlanadi. Bunday reaksiyalardà initsiator sifatida ishlatiladigan benzoil peroksid va diazobirkimlar ayni monomerda eritilgan qolda ishlatiladi. Suspenziyaning barqarorligini oshirish uchun suvda eruvchan stabilizatorlar, jumladan, polivinil sperti yoki jelatina qo'llaniladi.

### TAYANCH SO`ZLAR

Kationli polimerlanish. Fridel-Krafts katalizatorlari, sokatali-zatorlar. Kationli polimerlanish bosqichlari. Anionli polimerlanish, ka-talizatorlar. Stereoregulyar polimerlar, stereospetsifik katalizatorlar. Sopolimerlar, sopolimerlanish konstantalari, sopolimer tarkibi.

Gomopolikondensatlanish, geteropolikondensatlanish, funksional guruqlar, past molekulali muddanining ajralib chiqishi. CHizishdi polikon-densatlanish, to`rsimon polikondensatlanish. Polierlanish - blokda, emulsiyada, suspenziyada, erituvchida.

### QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Ionli polimerlanish deb qanday polimerlanishga aytamizq
2. Kationli va anionli polimerlanishda qanday katalizatorlar ishlatila-diq
3. Kationli va anionli polimerlanishni misollar yozib tushuntiringq
4. Nima sababli Tsigler-Natta katalizatorlari stereospetsifik kataliza-torlar deb ataladiq

5. Sopolimerlanish reaktsiyalari nima sababdan o`tkaziladiq
6. Sopolimerlanish kinetikasini yozib tushuntiring.
7. Sopolimerlanish konstantalari r<sub>1</sub> va r<sub>2</sub> larning son qiymatlari sopolimer tarkibiga qanday ta`sir etadiq
8. Polikondensatlanish reaktsiyalarida polimerdan tashqari past molekula-li moddalar qosil bo`lishining sababi nimadaq
9. Polikondensatlanish reaktsiyalarida funksional guruqlarning aqamiya-tini tushuntaring.
10. Polikondensatlanish reaktsiyalari turli xil funksional guruqlar saq-lagan bir xil monomerlarni reaktsiyaga kirishishi natijasida sodir bo`lsa, qanday polikondensatlanish deyiladi?
11. Geteropolikondensatlanish reaktsiyasini yozib ko`rsating.
12. CHiziqli polikondensatlanish va to`rsimon polikondensatlanish qanday monomerlar ishtirokida amalga oshadiq
13. Nima sababdan bir funksionallik monomerlardan polimer qosil bo`lmaydiq
14. To`rsimon polimerlanishda reaktsiyani qanday darajagacha olib borish mumkinligini qanday tenglama orqali aniqlaymizq
15. Polimerlarni blokda (massada) sintez qilishning qanday kamchiliklari borq
16. Nima sababli emulsiyada yuqori molekula massasiga ega polimer olinadiq
17. Lok usulida polimer qanday sharoitlarda sintez qilinadiq

#### ADABIYOTLAR

1. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi. T., O`zbe-kiston 2004 y.
2. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985.

#### MA`RUZA - 3

### **TO`YINMAGAN ALIFATIK UGLEVODORODLAR VA ULARNING HOSILALARI ASOSIDAGI POLIMERLAR**

Bu guruq polimerlariga polietilen, polipropilen, poliizobutilen, ularning sopolimerlari va boshqa - olefinlarning polimerlari kiradi. Bu polimerlar katta sanoat aqamiyatiga egadir.

Hozigi paytda dunyo bo`yicha va shu jumladan O`zbekistonda katta quvvatli sanoat korxonalarini ishga tushirish orqali poliolefinlar ishlab chiqarish qajmini oshirish ko`zda tilimoqda.

#### POLIÝTILEN

Polietilen past qaroratda (110-130°S) yumshaydigan termoplastik po-limer bo`lib, xona sharoitida bironta qam erituvchida erimaydi. Aromatik va xlorlangan uglevodorodlarda 70oS dan yuqorida bo`kadi va eriydi. Poli-etilen kontsentrlangan kislota va ishqorlar, tuzlarning suvdagi eritmalari ta`siriga qam chidamli. Atmosfera ta`siriga qamda issiqlikda oksidla-nishga chidamliligin oshirish maqsadida polimer tarkibiga turli xil sta-bilizator-antioksidantlar qo`shiladi. Polietilen radiotexnikada va tele-vizor qismlarini olishda elektroizolyatsiya materiali sifatida, korroziyaga chidamli qoplamlar, turli maqsadlarda ishlatiluvchi plenkalar, idishlar olishda, qoqoz, yoqoch, matolarni shimdirishda va q.k. ishlatiladi. Mexanik va fizik-kimyoviy xususiyatlarini yaxshiligi, qayta ishlashning osonligi qamda arzonligi dunyo bo`yicha ishlab chiqarilayotgan sintetik polimerlar orasida polietilenni birinchi o`ringa chiqib olishiga sabab bo`ldi. qozirgi kunda polietilen yuqori bosimda, past bosimda, o`rta bosimda, qamda "SKLEARTECH" texnologiyalari bo`yicha ishlab chiqariladi.

#### YUQORI BOSIMLI POLIÝTILEN (PAST ZICHLIKLI)

Sanoatda yuqori bosimli (YuBPÝ) polietilen etilenni 200-280oS da 150-300 MPa bosim ostida kondensirlangan gaz fazasida radikal polimerlanish initsiatorlari ishtirokida polimerlab olinadi. Olingan polimer 920-930 kg/m<sup>3</sup> zichlikka, 80000-500000 o`rtacha massaviy molekulyar oqirlilikka va 50-65% kristallik darajasiga ega bo`ladi.

#### YUQORI BOSIMLI POLIÝTILEN OLISH JARAYONINING JIHOZLARI

Sanoatda YUB polietilenni ishlab chiqarish uchun bir-biridan konstruktsiyalari bilan farqlanuvchi ikki xil reaktor qo`llaniladi. Bulardan biri ideal siqib chiqarish printsipida ishlovchi quvur ko`rinishidagi apparat bo`lsa, ikkinchisi aralashtirgichli vertikal tsilindr apparatiidel aralashtirish printsipida ishlovchi, aralashtirgichli avtoklavlardir.

## QUVUR KO`RINISHIDAGI APPARATDA YuqORI BOSIMLI POLIÝTILENN ISHLAB CHIQARISH

Sanoatda ishlatiladigan quvurli polimerlovchi reaktorlar, quvur ichida quvur tipidagi ketma-ket ulangan issiqlik almashgichlardan iboratdir. Reaktor quvurlari o`zgaruvchan diametrli bo`ladi (50-75 mm). quvurlarning bir xil bo`limlari retubrent yoki kalach deb nomlanuvchi massiv ichi bo`sh plitalar yordamida biriktiriladi. quvur va kalachlar bir-biri bilan ketma-ket biriktirilgan qobiq bilan o`ralganlar. Ýtilenni qizdirish qamda ajralib

Chiqayotgan issiqliknin ortiq qismini reaktsiya muqitidan olib chiqib ketish uchun issiqlik tashuvchë sifatida 190-230oS li o`ta qizdirilgan suv ishlatiladi. O`sha qizdirilgan suv quvurli reaktor qobiqiga reaktsiya massasi qamda etilen qarakatiga qarama-qarshi tomondan yuboriladi. Yuqori qaroratlari o`ta qizdirilgan suv quvur devorlarida polimer pardasini qosil bo`lishini oldini olishni maqsadida ishlatiladi.

Rasm.1 da quvurli reaktorda yuqori bosimli polietilenni uzluksiz usulda olishni umumiy sxemasi keltirilgan.

Rasm.1 Gaz fazasida yuqori bosimli polietilenni ishlab chiqarish jarayonining sxemasi: 1-kollektor; 2-past bosimli etilenni aralashtirgichi; 3-birinchi kaskad kompressori; 4-yuqori bosimli etilenni aralashtirgichi; 5-ikkinchi kaskad kompressori; 6-quvurli reaktor; 7-yuqori bosimli ajratgich; 8-past bosimli ajratgich; 9-granulalovchi jixoz; 10-tebranma elak; 11,14-tsiklonli separatorlar; 12,15-sovitgichlar; 13,16-filtrlar; 17-dastlabki sikish kompressori

Gazlarni ajratish tsevidan yangi etilen 0.8-1.1 MPa bosim ostida kollektorga (1) va undan keyin aralashtirgichga (2) kelib tushadi. Bu erda u past bosimli qaytma etilen bilan aralashtiriladi. Bu aralashmaga kislород qo`shilib birinchi kskaddagi uch poqonali kompressorga uzatiladi va bu erda 25 MPa bosimgacha siqiladi. Ýtilen qar poqonada siqilganidan keyin sovitgichlarda sovitilib, separatorlarda yoqdan ajratiladi va undan keyin aralashtirgichga (4) uzatiladi. Bu erda u ajratgichdan (7) kelayotgaí yuqori bosimdagini qaytma etilen bilan aralashtiriladi. Keyin aralashma ikkinchi kaskaddagi ikki poqonalik kompressorga (5) uzatiladi va bu erda u 245 MPa bosimgacha siqiladi. Birinchi siqilgan etilen sovitgichlarda sovitilib, separatorlarda yoqlardan tozalansa, ikkinchi poqonada (bosqichda) siqilganidan keyin 70oS da (sovitmasdan) polimerlash uchun quvurli reaktorni (6) uchta bo`limiga uzatiladi.

Polimerlovchi-reaktor uch bo`linmadan tashkil topgan bo`lib, qar bir bo`limdan oldin ishlatilayotgaí initsiator turiga qarab gaz va reaktsion aralashmani 120-190oS gacha isitish uchun issiqlik almashgichlar o`rnatalgan. Uchinchi bo`lim oxirida sovitgich o`rnatalgan bo`lib, unda reaktsiya massasè 200-250oS gacha sovitiladi (sxemada issiqlik almashgichlar va sovitgich ko`rsatilmagan).

Quvurli reaktorda etilenni polimerlanishi quyidagi sharoitlarda olib borila-di.

Harorat, °C	190-200
Bosim, Mpa	245
Kislород kontsentratsiyasi, %	0.002-0.008
Ýtilenni bir tsiklda (aylanishda) polimerga o`tish darajasi, %	26-30
Ýtilenni polimerga o`tish umumiy darajasi, %	95-98

Quvurli reaktordan (6) reaktsiyaga kirishmagan etilen polimer bilan aralashma qolida reduktsiya ventilè orqali 24.5-26.3 MPa bosim ostida yuqori bosimli ajratgichga (7) tushadi. Bu erda etilen va polietilen bir-biridan ajratiladi. Ajratgichni yuqori qismidan reaktsiyaga kirishmagan etilen tsiklonli separatorlar qamda sovitgichlarga (12) yo`naltiriladi. Bu erda etilen bilan birga olib ketilgan polietilen ajratiladi. Keyin etilen sovitiladi va yangi etilen bilan aralashtirish uchun aralashtirgichga (4) va undan tsiklgà qaytariladi.

Suyuqlantirilgan polietilen yuqori bosimli ajratgichning pastki qismidan drosseli ventil orqali past bosimli ajratgichga (8) yo`naltiriladi. Past bosimli ajratgichda bosim 0.15-0.59 MPa atrofida ushlanadi. Ýrigan etilen qoldiqlaridan toza-langan 180-190oS polietilen suyuqlanmasi shtutser orqali granulalovchi dastgoqlarga (9) yo`naltiriladi.

Granulalovchi dastgoqlarga barqarorlovchi aralashma (fenil-naftilamin dife-nil-n-fenlendiamin bilan) va boshqa qo`shiluvchi moddalar uzlusiz berib turiladi. Barqarorlovchi bilan aralashtirilgan polietilen granulalashga yo`naltiriladi. Granulalarni tez sovitish maqsadida granulalovchi shakl tuzsizlantirilgan suv bilan sovitiladi. 60-70oS gacha sovitilgan polietilen granulalari suv bilan tebranma elakka (10) olib chiqiladi. Tebranma elakka suvdan tozalangan granulalarni quritish maqsadida is-siq qavo beriladi. Tayyor polietilen qoplarga joylanadi.

YUB polietilen qanday bo`lsa o`shandoq yoki turli ranglarga bo`yalgan qolda chiqariladi.

### **YUQORI BOSIMLI POLIÝTILENNI ARA LASHTIRGICHLI AVTOKLAVDA ISHLAB CHIQARISH**

Sanoat avtoklavlari uzlusiz ishlovchi qalin devorli vertikal apparat bo`lib, apparat balandligi bo`yicha tashqi sovitgichi bo`lgan vintsimon aralashtirgich bilan jiqozlangan. Odatda bunday reaktorlar 0.5 m<sup>3</sup> qajimga ega bo`lib, balandligi 6 m gacha va diametri taxminan 300 mm atrofida bo`ladi. Ularni max-sus yuqori sifatli po`latdan tayyorlaydilar. Reaktorlarni ishlab chiqarish unum dorligi yiliga 15000 t po`lietilenni tashkil etadi.

YuB polietilenni aralashtirgichli avtoklavda olishda polimerlash initsiatorlari sifatida di-tret-butil peroksidi, lauril va tret-butilperbenzoat peroksidlari ishlatiladi. Ular reaksiya muqitiga tozalangan parafin yoqlaridagi 4-25% li eritmalar sifatida kiritiladi. Ýtilenni polimerlash quyidagi sharoitlarda o`tkaziladi:

Harorat, °C	250	270
Bosim, Mpa	196	245
Initsiator kontsentratsiyasi, %	0.2	0.4
Ýtilenni polietilenga aylanish darajasi, %	15	19

### **PAST BOSIMLI POLIÝTILEN (YUQORI ZICHLIKDAGI)**

Sanoatda past bosimli (PB) polietilen gaz va suyuq fazalarda ionli yoki koordinatsion ionli polimerlash orqali olinadi. Jarayonni (0.3-0.5) - (2 2.5) MPa bosimda (70-80)oS - (90-105)oS qaroratda, Tsigler-Natta yoki xromorganik, xrom oksidlari kabi katalizatorlar ishtirokida olib boriladi.

Bu usulda olingan polietilennen molekula massasi, olish usuli va ishlatilgan katalizator xiliga boqliq bo`ladi. Tsigler-Natta katalizatorla-ri ishtirokida molekula massasi 2-3 mln ga teng polimerlar olish mumkin.

Sanoatda asosan 80000-500000 molekula massasiga ega polietilen ish-lab chiqariladi. Molekula massasi juda yuqori bo`lgan polietilenni qayta ishlashni maxsus usullari ishlab chiqilgan.

### **SUYUQ FAZA VA PAST BOSIMDA (YuqORI ZICHLIKLI) POLIÝTILEN OLİSH**

Past bosimdagisi (PB) polietilen bu usul bilan etilenni 0.3 0.5 MPa bosimda, 70-80oS da, organik erituvchilar (benzin va sh.k.) muqitida polimerlab olinadi. Polimerlanish Tsigler-Natta katalizatorlari (detti-lalyuminiyxlorid va titantetraxloridi) ishtirokida olib boriladi.

Alkilalyuminiyi titan to`rtxloridga nisbati 1:1 dan 1:2 gacha olinadi.

Bu katalizator kompleksi qavodagi kislород va namlik ta`sirida par-chalanib ketishi sababli, polimerlanish suvsizlantirilgan eritma muqitida va azot atmosferasida olib borilishi shart.

Past bosimda polietilen ishlab chiqarish texnologik jarayoni (rasm. 2) quyidagi bo`limlardan iborat: katalizator kompleksini tayyorlash, eti-lenni polimerlash, polimerni yuvish, ajratish va quritish. Ushbu sxema bo`yicha qamma bo`limlarda jarayonlar uzlusiz amalga oshiriladi.

Sanoatda polietilen Al(C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>)<sub>2</sub>Cl/TiCl<sub>4</sub> katalitik kompleksi ishtirokida yarim uzlusiz usulda olinadi. Uchetilalyuminiya nisbatan polimerlanishda dietilalyuminiyxloridni ishlatish ancha qulay. CHunki dietilalyuminiyxlorid oson tozalanadi, ancha arzon va eng muqimi yonish qamda portlashga moyilligi ancha kam.

Katalizator kompleksi 25-50oS da (1) va (2) o`lchagichlardan uzatilayotgan dietilalyuminiyxlorid bilan tetraxlor titanni benzindagi eritmalarini 3chi aralashtirgichda aralashtirib olinadi. Olingan kompleks 15 minut ushlab turilgach, 4chi apparatda qisoblagich orqali tushayotgan benzin bilan 1 kg/m<sup>3</sup> kontsentratsiyagacha suyultiriladi.

Katalizatorning tayyor suspenziyasi 5chi oraliq idishga uzatiladi va u erdan me`yoriy nasos bilan uzlusiz 6chi polimerlanish apparatiga berib turiladi. Polimerlanish apparatiga rostagich yok` qisoblagich orqali toza etilenni vodorod bilan ara-lashmasi qam uzatib turiladi.

Etilenni polimerlash quyidagi sharoitlarda olib boriladi:

Harorat, °C	70-80
Bosim, Mpa	0.15-0.2
Benzindagi katalizator kontsentratsiyasi, kg/m <sup>3</sup>	1 ga yaqin
Etilenning polietilenga aylanish darajasi, %	98 ga yaqin
1 m <sup>3</sup> apparat qajmidan olinadigan polietilen miqdori, kg	100

Polimerlanishdan ajralib chiqayotgan issiqlik 345 kDj/kg ni tashkil etadi. Reaktor devorlari polietilenning yopishib qolishi natijasida, issiqliknii yomon o'tkazadi. SHu sababli reaktsiyada ajralia chiqayotgan issiqlik gaz puflagich (7) yordamida aylanib turgan etilen-benzinning par-gaz aralashmasi orqali qamda 8chi nasos yordamida aylanib turgan benzin orqali olib chiqib ketiladi. qizigan par-gaz aralashmasi, 9chi skrubberga uzatiladi v u erda sovuq benzin bilan sovitiladi qamda polimerlanish apparatidan (6) olib chiqib ketilgan polimer zarrachalaridan tozalanadi.

Skrubberdan (9) benzin 8chi nasos yordamida sovitgich (10) orqali yana skrubber va polimerlanish apparatiga qaytariladi. Sovitilgan etilen esa 9chi skrubberdan 11chi gaz ajratgich orqali 6chi polimerlanish apparatiga qaytariladi. Toza etilenni miqdori polimerlanish apparatidagi bosim yordamida muvofiqlashtirib turiladi.

Polietilenni benzindagi suspenziysi 13chi apparatga uzatiladi va u erda katali-zator qoldiqlarini parchalash maqsadida izopropil spirti bilan ishlanadi. Kataliza-tor komponentlari alkogolyat ko`rinishida eritmaga o`tadi va erituvchi bilan tsentrifu-gaga uzatiladi. Uzluksiz ishlovchi tsentrifugada (14) polimer suyuqliklardan ajratib olinadi. Spirt-benzin aralashmasidan iborat suyuqlik esa 14chē tsentrifugadan 15chi ap-paratga uzatiladi va u erda izopropilat natriyni 20%-li eritmasi yordamida neytralla-nib regeneratsiyaga beriladi.

Polietilen pastasi 14chi tsentrifugadan 16chi apparatga uzatiladi va u erda yuvi-ladi. Polimer oxirgi marotaba 17chi tsentrifugada regenirlangan ertuvchi yoki suv yorda-mida kul miqdori 0.05% qolgunicha yuviladi va quritishga uzatiladi. quritish 18chi uz-luksiz ishlovchi quritgichda, qaynash qatlamida issiq azot yordamida, polimer tarkibida 0.1% dan kam namlik qolgunicha amalga oshiriladi. quritilgan polimer granullanadi va qoplarga solinadi.

### O`RTACHA BOSIMDA OLINADIGAN POLIÝTILEN (YUQORI ZICHLIKLI)

O`rtacha bosimda (O`B) polietilen, etilenni 130-150oS da, 3.5-4 MPa bosimda erituvchi muqitida alyumosilikat yuzasiga o`tkazilgan o`zgaruvchan valentli metall (Cr, Mo, V) oksidlaridan iborat katalizatorlar ishtiroti-da polimerlab olinadi. Katalizator tashuvchisi sifatida ishlatiladigan alyumosilikatni 75-90% i kremniyini ikki oksididan iborat.

Xrom oksidi asosidagi katalizator, alyumosilikat tashuvchini xrom uch oksidini ( $\text{CrO}_3$ ) suvdagi eritmasi bilan shimdirlab tayyorlanadi. Xrom ok-sidi bilan shimdirligani tashuvchi 100-200°C da quritiladi. Xrom oksidla-rini optimal miqdori 5-6 % ni tashkil etadi.

Katalizatorni faolligini oshirish maqsadida ishatishdan avval uni 500-550oS da 5 soat davomida quruq qavo bilan qizdiriladi. Ushbu sharoitda ishlov berilgan katalizator tarkibidagi 80-90% xrom olti valentli qolda bo`ladi. Faollashtirilgan katalizator sovutilib yaxshilab berkitilgan idishda saqlanadi.

O`rtacha bosimda polietilen olishni yutuqlari sifatida ishlatilayotgan metal oksid katalizatorlarini kam zaqarliligi va xavfsizligi qamda bu katalizatorlarni regeneratsiya qilish mumkinligini ko`rsatish mumkin.

Usulni kamchiligi sifatida, polimerni ajratib olish va tozalash bi-lan boqliq qo'shimcha jarayonlarnè ortishi, qamda erituvchining ko'p xarj bo`lishi va uni regenerlash bilan boqliq yangi jarayonlarnè qiyinligini ko`rsatish mumkin.

### SKLEARTECH TEKNOLOGIYaSI BO`YICHA TURLI MARKALI POLIÝTILEN OLISH

Bu texnologiya bo`yicha polimerlanish jarayoni reaktorlarda tsiklogeksan erituvchisi muqitida 17 MPa bosimda, 300qS xaroratda va Tsigler-Natta kompleks katalizatorlari ishtirotida amalga oshiriladi. Ushbu texnologiyaning o`ziga xosligi shundaki, texnologiya bo`yicha sintez qilingan polietilen qar qil zichlikka va strukturaga ega bo`ladi. Ushbu texnologiya bo`yicha chiziqsimon Past zichlikli (LLDPE), chiziqsimon O`rta zichlikli (MDPE) va chiziqsimon Yuqori zichlikli (HDPE) polietilen turlarini ishlab chiqarish mumkin. Polimerlanish reaktsiyasi juda katta tezlikda borishi sababli, reaktorlarni xajmi uncha katta bo`lishi shart emas, chunki monomerni reaktorda polimerga aylanishi uchun bir necha sekund etarlidir ( texnologik jarayon aniq bir rejimda ishlaganida bir minutda 270 - 290 kg. polimer ishlab chiqariladi). Ushbu texnologiya bo`yicha olinayotgan polietilenni zichligini berilayotgan somonomer

buten-1 ni miqdorini o`zgartirish yordamida, molekul massasi va molekula massaviy taqsimotini esa polimerlanish reaktorlariga uzatilayotgan vodorodni berilish joylari va miqdorini o`zgartirish orqali rostlanadi.

### **SKLEARTECH texnologiyasi bo`yicha polietilen ishlab chiqarish.**

Ushbu texnologiya bo`yicha polietilen ishlab chiqarishning umumiy texnologik jarayoni rasm. 3 da keltirilgan. Jarayon asosan 3 ta bo`limdan tashkil topgan:

Birinchi bo`lim polimerni sintez qilish bo`limi bo`lib, bu bo`limda xom-ashyo tayyorlanadi, monomer tsiklogeksanda eritiladi va polimerlanish o`tkaziladi. So`ngra polimerni katalizatorlardan tozalab, ajratib olinadi (1-14 ).

Ikkinci bo`lim ( retsikl bo`limi) eritmani qayta tiklash bo`limi bo`lib, ushbu bo`limda reaktsiyagà kirishmagan xom-ashyo va materiallarni qayta ajratib tozalanadi, ularni toza xolda yana polimerlanish jarayoniga qaytariladi( 15-20).

Uchinchi bo`limda polimerni ekstruziyalash, granulaga aylantirish, granulalarni tozalash, quritish, aralashtirish va qadoqlash amalga oshiriladi (21-29)

Asosiy erituvchi tsiklogeksan tozalanganidan so`ng, qaytma somonomer buten-1 bilan aralashtirilib, maqsus nasos orqalisovutuvchi absorberga uzatiladi. Sovutuvchi absorberda toza etilen va buten-1 aralashmasi qaytma erituvchida eritilib, asosiy erituvchida erigan buten-1 bilan aralashtiriladi va bu eritma reaktor uchun "xom-ashyo" eritmasi qisoblanadi.

**Rasm 3. SKLEARTECH texnologiyasi bo`yicha chiziqli polietilen ishlab chiqarishning texnologik jarayoni sxemasi:** 1,2 - adsorber; 3 - nasos; 4 - o`lchagich; 5 - reaktor<sup>13</sup>; 6 - reaktor<sup>11</sup>; 7 - Trimmer reaktor; 8 - aralashtirgich; 9 - isitgich; 10 - adsorber; 11 - PG saqlagich; 12 - PD saqlagich; 13 - IPS separa-tori; 14 - LPS separatori; 15 - kondensator; 16 - LB kolonna; 17 - FE kolonna; 18 - HB kolonna; 19 - RB kolonna; 20 - SM kolonna; 21 - ekstruder; 22 - granulyator; 23 - klassifikator; 24 - isitib beruvchi; 25 - buqlatish kolonnasi;

26 - quritgich; 27 - aralashtirgich; 28 - bunker; 29 - qadoqlash.

**SKLEARTECH texnologik jarayonida ketma ket joylashgan 3 qil polimerlash reaktorlaridan foydalanildi:**

- 1. Reaktor<sup>11</sup> - aralashtirgichli avtoklav**
- 2. Reaktor<sup>13</sup> - quvursimon adiabatik reaktor**
- 3. Uchinchi reaktor quvursimon reaktorga o`xshash bo`lib, quvursimon rektordan ancha qisqa bo`ladi va trimmer reaktori deb ataladi.**

Uchta reaktordan turli kombinatsiyalarda foydalanish orqali turli molekula - massaviy taqsimotga, strukturaga va xossalarga ega polietilen ishlab chiqariladi.Buning uchun reaktorlarni uch qil rejimda ishlatiladi:

**1) Reaktor №1** rejimi bo`yicha asosiy polimerlanish jarayoni avtoklav re-aktorida amalga oshiriladi. Avtoklav reaktorining aralashtirgichi kurakchalar bilan jixozlangan bo`lib, xom-ashyoning asosié qismi reaktorning tag tomonidan purkab beriladi. Lekin 50% ga yaqin xom-ashyo reaktor aralashtirgichi 4-chi kurakchasi balandligida purkab berilishi mumkin. Katalizator reaktorni tag tomonidan purkab beriladi. Ushbu rejimda reaktor<sup>11</sup> (6) dan oldin turgan<sup>13</sup> (5) quvurli reaktor oddiy quvur vazifasini bajaradi. CHunki quvurli reaktordan xom-ashyo katalizatorsiz o`tadi. Xom-ashyoni me`yorlab, reaktorni turli joylaridan berilishi orqali reaktordagi xaroratni nazorat qilinib, reaktorning tepa va pastki qismidagi farqini 5-40qS bo`lishiga erishiladi. Reaktor<sup>11</sup> da polimerlanish 200-300qS xaroratda, 13.4 - 16.9 MPa bosimda amalga oshiriladi. Olinayotgan polietilenni molekulyar massasi xarorat va berilayotgan vodorodni miqdori orqali rostlab turiladi. Polimerni zchligi esa buten-1 miqdorini o`zgartirish orqali rostlanadi.

Monomer va somomerni polimerlanishi uzlucksiz ravishda, tsiklogeksan eritmasida, aralashtirgichli reaktorda metall kompleks katalizatorlari ishtirotkida ketadi. qoldiq monomer, faol katalizator ishtirotkida trimmerda qo`shimcha polimerlanadi va undan so`ng reaktsiya massasi faolsizlantiriladi (kta-lizator

faolsizlantiriladi). Bu rejimda olingan polietilen tor molekula-massaviy taqsimotga ega bo`lib, uning "Kuchlanish ko`rsatgichi" 1.15 - 1.37 atrofida bo`ladi.

2) **3+1 reaktori sistemasi rejimi** o`z ichiga quvursimon (5) va aralash-tirgichli reaktorlarni (6) qamrab oladi. Bu rejimda "xom-ashyo" ning bir qismi quvursimon reaktorda polimerga aylansa, ikkinchi qismi to`qridan-to`qli birinchi rektorni o`rta qismiga beriladi. Katalizator purkash yo`li bilaq quvursimon reaktor(5)ga qam reaktor 11 (6)ga beriladi va u erda xom-ashyo bilan aralashadi. Ikala reaktorda qosil bo`lgan polimer aralashtirgichli reaktorda (6) bir qil aralashma qosil qiladi.

Polietilenni molekula massasi reaktorlardagi xaroratni, vodorod va xrm-ashyo miqdorini ikala reaktorga berish nisbatini nazorat qilish orqali rostlab turiladi. Molekula-massaviy taqsimoti esa katalizator tarkibi va uni quvursimon reaktorga kiritish xarorati, qamda etilenni polietilenga shu reaktorda aylanish darajasini nazorat qilish orqali rostlanadi. Ushbu rejim bo`yicha "Kuchlaniø ko`rsatgichi" 1.4-1.6 bo`lgan, o`rtacha molekula-massaviy taqsimotga ega bo`lgan polimer olinadi. Ikala reaktorga qam xom-ashyo va katalizator aloqida-aloqida berilganidan, ikkala reaktor bir-biriga boqlanmagan qolda ishlaydi. Reaktor 11 dan chiqayotgan aralashma trimmerga uzatiladi va bu erda polimerlanish davom ettirilib, etilenni polietilenga aylanish darjasini ko`payadi.

3) **Reaktor 3 →1** (uchdan birgacha) rejimi bo`yicha asosiy jarayon uchinchichi (5) quvurli reaktorda olib boriladi. Bu rejimda ikkala reaktor (5 va 6) quvursimon avtoklav ko`rinishida ishlaydi va 11 avtoklavni aralashtirgichi ishlatilmaydi. Xom-ashyo va katalizator 13 raektorga (5) beriladi. Odadta quvurli reaktorga(5) berilayotgan xom-ashyoning xarorati 120qS dan pastga tushib ketmasligi kerak. Reaktor 13 dan polimer eritmasi reaktor 11 ga o`tadi va u erda polimerlanish davom etadi. Reaktor 11 ga kirayotgan aralashmaning xarorati 200qS , chiqayotgan aralashmaning xarorati esa 300qS ni tashkil etadi. Odadta quvurli reaktorda 60% etilen polietilenga aylanadi va monomerni polimerga aylanish darjasini reaktor 11 da qamda trimmerda ortadi. Ushbu rejimda sintez qilingan polietilen keng molekula-massaviy taqsimotga ega bo`lib, uning "Kuchlanish ko`rsatgichi" 1.652 ni tashkil qiladi.

**Yuqorida keltirilgan** barcha rejimlarda polimerlanish tugaganidan so`ng, katalizator tezlikda faolsizlantirilishi kerak, chunki yuqori xaroratda polimerlanishni davom etishi ko`pgina qo`shimcha ña yordamchi reaktsiyalarni ketishiga va polimerni struktura qamda qossalalarini o`zgarib ketishiga olib keladi. Faolsizlantiriuvchilar sifatida ikki qil moda ishlatiladi: Birinchi faolsizlantirgich sifatida ishlatiladigan pelargon kislotasi (PG) :

CH<sub>3</sub>-(CH<sub>2</sub>)-COOH polimer eritmasiga aralashtirgich (8)dan qo`shiladi. Pelargon kislotasi katalizator bilan kuchsiz sovun ligandini qosil qiladi. Ligandni qosil bo`lishi qoldiq katalizator ni isitgich(9) devorida cho`kma qsil qilishini oldini oladi. Ushbu isitgichda polimer eritmasi 285-300qS gacha isitiladi. PG ning suyuqlanish xarorati anchagina past bo`lganligi tufayli faolsizlantiruvchi modda normal ish sharoitida yuqori qovushqoqlikka ega bo`ladi. SHuning uchun PG berilganidan so`ng, isitgichda isitilib, normal oqim ta`minlanadi. So`ngra keyingi aralashtirgichga (8) o`tkaziladi. Bu erda unga ikkinchi faolsizlantiruvchi modda atsetilatseton (PD) H<sub>3</sub>C-CO-CH<sub>2</sub>-CO-CH<sub>3</sub> qo`shiladi. Ikkinci faolsizlantiruvchi modda atsetilatseton katalizator qoldiqi bilan xelat modda qosil qiladi va eritma adsorberi (10) da katalizator qoldiqlarini adsorbsiyalanishiga yordam beradi.

Katalizator faolsizlantirilganidan so`ng, uni polimer eritmasidan ajra-tib olish kerak. Polimer eritmasi adsorberlari (10) faollashtirilgan Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> bi-lan to`ldirilgan bo`lib, faolsizlantirilgan katalizatorlarni oddiy filtrlash va fizik-kimyoviy adsorbsiyalanish qisobiga ajratiladi.

Katalizator qoldiqlaridan tozalangan 285-310qS xarorat va yuqori bosim ostidagi aralashmadan polimerni ajratib olish uchun ajratuvchi separatorlarga uzatiladi. Bu separatorlar ikki qil bo`lib, birinchisi o`rta bosimli IPS (13) , ikkinchisi past bosimli LPS (14), separatorlari deyiladi. O`rta bosimli separa-torda polietilen reaktsiyaga kirishmagan etilen va buten-1 dan ajratiladi. Bu separatorda bosim 9-11 MPa dan 3 MPa gacha pasayadi (polimer markasiga qarab).

O`rta bosimli separatordan chiqayotgan maqsulot 50% atrofida polietilen saqlaydi. Past bosimli separator (14) ikkiga bo`lingan idishdan iborat bo`lib, yuqori qismi 1chi bosqich va past qismi 2chi bosqich separatori qisoblanadi. Ikkala bosqich o`rtasiga filtr o`rnatilgan.

Past bosimli separatorda polietilen tsiklogeksandan ajratiladi. Separa-tor tagidan chiqayotga polietilenda tsiklogeksan miqdori 2% dan oshmasligi ke-rak. Past bosimli separatorda xarorat 200qS ni, bosim birinchi bosqichda 0.5 MPa, ikkinchi bosqichda 0.07 MPa ni tashkil etadi. Ajralib chiqqan barcha engil uchuvchi moddalar distilyatsiya kolonnalariga (16,17,18,19,20) uzatilib, u erda tozalangach yana tsiklga qaytariladi.

Past bosimli separator tagidan polietilen ekstruder (21)ga tushadi va u erda zichlantirilib, granulyator (22) ga uzatiladi. Turli qil qattiq xoldagi qo`shimchalar (antiadgeziv va boshq.) asosiy ekstruderga qo`shimcha ekstruder yorda-mida uzatiladi. Antioksidantlar, barqarorlovchi moddalar, sirqanishni oshiruvchi moddalar polimerga suyuq xolatida qo`shiladi. Granulyatorda bir qil kattalik-ka ega granulalar olinib, suv yordamida klassifikator (23)ga uzatiladi. Klassifikatorda polietilen granulalari qoldiq tsiklogeksandan tozalanadi. Buning uchun (25) buqlatgichdan chiqayotgan buq granula yo`nalishiga teskari qilib beriladi va polietilen tarkibidagi tsiklogeksaknni miqdorini 2% dan 0.05% gacha kamaytiriladi. Yuqori zichlikka ega bo`lgan polietilenni tozalash uchun buq xarorati 108qS gacha, past zichlikka ega polietilen uchun esa 102-103qS dan oshmasligi lozim. Tozalangan polietilen granulalari quritgich (26)da qurilib, xavo yordamida aralashtiruvchi aralashtirgich (27)ga uzatiladi. Bu erda xavo o`zi bilan engil uchuvchi moddalar, polietilenni 3x3 mm. dan kichik bo`lgan granula va bo`lakchalarini olib chiqib ketadi. Aralashtiruvchida olingan bir qil o`lchamli granulalar bunkerlarga (28) va u erdan qadoqlashga uzatiladi.

## TAYANCH SO`ZLAR

Yuqori bosimli polietilen. Initsiator - qavo kislorodi, quvurli re-aktorlar, etilenni peroksid yoki gidroperoksidlari, tarmoqlanish. Past bo-simli polietilen. Tsigler-Natta katalizatorlar, yuqori molekula massali polietilen. O`rtacha bosimli polietilen. O`zgaruvchan valentli metall ok-sidlari, SLEARTECH texnologiyasi , buten-1, somonomer, molekula-massaviy taqsimot, "Kuchlanish ko`rsatgichi".

## QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

- 1.Polietilenni qanday usullarda ishlab chiqarish mumkinq
- 2.Nima sababli polietilen yuqori bosimda olinganida, makromolekulalari tarmoqlangan, zichligi pastroq bo`ladiq
- 3.Polietilenni quvurli reaktorda ishlab chiqarish texnologik jarayonini tushuntiring.
- 4.Polietilenni aralashtirgichli reaktorda ishlab chiqarish texnologiyasi.
- 5.Polietilenni quvurli va aralashtirgichli reaktorlarda ishlab chiqarish texnologiyalarini solishtiring va farqini aytib Bering.
- 6.Past bosimli polietilenni suyuq fazada ishlab chiqarish texnologiyasi.
- 7.O`rtacha bosimli polietilen ishlab chiqarish va unda ishlatiladigan katalizatorlar.
8. Tsigler-Natta katalizatorlari ishtirokida olingan polietilenni zichligini qamda krisallik darajasi yuqori bo`lishini sababini tushuntirib bering.
9. SKLEARTECH texnologiyasi buyicha polietilen ishlab chiqarishni texno-logik jarayoni.
10. SKLEARTECH texnologiyasi buyicha polietilenni zichligi qanday usulda rostlanadiq
11. SKLEARTECH texnologiyasi buyicha polietilenni molekula-massaviy taqsimoti qanday usulda rostlanadiq

## ADABIYOTLAR

- 1.Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.32-61.
- 2.Golosev A.P., Dintses A.I. Texnologiya proizvodstva polietilena i poli-propilena. M., "Ximiya", 1978, 263 s.
3. Andreeva I.N. i dr. Sverxvisokomolekulyarniy polietilen visokoy plotnosti. L., "Ximiya", 1982, 80 s.
4. Abdurashidov T.R., Magrupov F.A. Poliolefinlar texnologiyasi, T., ToshKTI nashriyoti , 2005 y. , 129 v.

## MA`RUZA- 4 TURLI TEXNOLOGIK USULLARDA OLINGAN POLÝTILENNING XOSSALARI

Polietilen zichligi 910-970 kg/m<sup>3</sup>, yumshash qarorati 110-130oS bo`lgan termoplastik polimerdir.

Sanoatda turli usullarda ishlab chiqarilayotgan polietilen bir-biridan zichligi, molekula massasi va kristallik darajasi bilin farqlanadi.

	Quyi zichlikli polietilen (YuB)	Yuqori zichlikli polietilen (PB va O`B)
Zichlik, kg/m <sup>3</sup>	910-930	950-970
Molekula massasi	80000-500000	80000-800000
Kristallik darajasi, %	50-65	75-90

Xossalari va ishlatilish joyiga qarab polietilen bir-biridan zich-ligi, suyuqlanmasini oquvchanlik ko`rsatkichi, barqarorlovchi qo`shilgan va qo`shilmaganligi bilan farqlanuvchi turli markalar ostida chiqariladi.

quyida polietilenlarni asosiy fizikaviy-mexanik xususiyatlari kel-tiriladi:

	Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen
Buzilish kuchlanshi, MPa		
cho`zilishda	9.8-16.7	21.6-32.4
egilishda	11.8-16.7	19.6-39.2
Uzilishdagi nisbiy uzayish, %	500-600	300-800
CHO`zilishdagi qayishoqlik moduli, MPa	147-245	540-981
Ýgilishdagi qayishoqlik moduli, MPa	118-255	636-735
Brinell bo`yicha qattiqlik, MPa	13.7-24.5	44.2-63.8
180o ga egilish soni	3000	1500-2000

Doimiy (statistik) oqirlikni uzoq ta`siri natijasida polietilen deformatsiyalanadi. quyi zichlikli polietilenni uzoq vaqtli baquvvatlik chegarasi 2.45 MPa, yuqori zichlikli polietilenni esa 4.9 MPa ga teng.

Uzoq vaqt kuchlanish qolatida ishlatiladigan polietilen maqsulotlarini yorilish eqtimoli bor.

Molekula massasini ortishi, kristallik darajasini va polidisperslikni kamayishi bilan polietilenni yorilishga chidamliligi ortadi.

Polietilenni issiqlik xossalari quyida keltirilgan.

	Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen
Suyuqlanish qarorati, oS	105-108	120-130
qaroratbardoshlik, oS	108-115	120-135
Issiqlik o`tkazuvchanlik, Vt/(m*K)	0.29	0.42
Issiqlik ta`sirida chiziqli kengayish koeffitsienti 0-100oS o`rtasida, 1/grad	(2.2-5.5)*10-4	(1-6)*10-4
Issiqlik ta`sirida qajmiy kengayish koeffitsienti 50-100oS o`rtasida, 1/grad	(6.0-16.0)*10-4	(5-16.5)*10-4
Mo`rtlik qarorati (sovubardoshlik), oS	-80 dan -120 gacha	-70 dan -150 gacha

Polietilen zichigini ortishi bilan uning suyuqlanish qarorati ortadi.

quyi zichlikli polietilenden olingan maqsulotlar 60oS gacha, yuqori zichlikli polietilenden olinganlari esa 100oS gacha ishlatilishi mumkin. Polietilen -70oS da mo`rt bo`ladi va shuning uchun undan olingan maqsulotlar qattiq sovuq sharotlarida qam bemalol ishlatiishi mumkin.

Polietilen yuqori suvgaga chidamlilik xossalarini namoyon etadi. quyi zichlikli polietilen 20oS da 30 kun davomida 0.04%, yuqori zichlikli poli-eten esa 0.01-0.04% suv shimiadi.

Polietilen yaxshi dielektrik qisoblanadi.

quyida uning elektr xususiyatlari keltirilgan.

Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen	
1 MGts da dielektrik singdiruvchanlik	2.2-2.3	2.1-2.4
Dielektrik yo`qotishning tangens burchagi (1 MGts va 20oS da)	(2-3)*10 <sup>-4</sup>	(2-5)*10 <sup>-4</sup>
Solishtirma elektr qarshiligi sirt, Om	<10 <sup>14</sup>	<10 <sup>14</sup>
qajmiy, Om*m	10 <sup>15</sup>	10 <sup>15</sup>
1 mm qalinlikdagi buyumni o`zgaruvchan tok-ka nisbatan elektr mustaqamligi, kV/mm	45-60	45-60

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki polietilenni zichligi uning elektr xususiyatlariga sezilarli ta`sir ko`rsatmaydi.

Polietilen oddiy sharoitda (xona qaroratida) organik erituvchilarda erimaydi. Faqat 70°C dan yuqorida xlorli va aromatik erituvchilarda bo`kadi qamda eriydi. U kontsentrlangan kislota, ishqor va tuz eritmalarini ta`siriga chidamli.

Kontsentrlangan sulfat va xlorid kislotalari polietilenga umuman ta`sir etmaydi, azot kislotosi va unga o`xshash kuchli oksidlovchilar poli-etenlli parchalab tashlaydi.

Atmosfera, quyosh nurlari ta`siriga va issiqlik ta`sirida oksidlanishga chidamliligin oshirish maqsadida, polietilenga turli xil barqarorlovchilar qo`shiladi.

### POLIÝTILENNI QAYTA ISHLASH VA ISHLATISH

Polietilen termoplastik polimerlarni qayta ishlash usullarini qammasi bilan qayta ishlanishi mumkin: presslash, ekstruziyalash, bosim os-tida quyish va q.k. YuB da ishlab chiqarilayotgan polietilenni yarmi parda olishda ishlatiladi. Polietilenden asosan uy-ro`zqor buyumlari, o`ynichoqlar, santexnikada va boshqa joylarda ishlatiladigan quvurlar, kon-struktsion detallar ishlab chiqariladi. Radiotexnika va televidenieda, ka-bel sanoatida, qurilshda elektr izolyatsiya materiali sifatida korroziyaga qarshè qoplama, mato, qoqoz va yoqochni shimdirlishda ishlatiladi.

Hamma markali polietilenlar fiziologik zararsiz bo`lganligidan, ular meditsinada, uy-joy qurilishida, turli xalq iste`mol mollari ishlab chiqarishda qo`llaniladi.

### POLIPROPILEN

Polipropilen sanoatda turli xil katalizator va erituv-chilar muqitida (Tsigler-Natta Al(C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>)<sub>2</sub>Cl / TiCl<sub>4</sub>) katalizatorlari qamda ekstraktsion benzin va engil erituvchi - propan-propilen fraktsiyasè muqi-tida, o`ta faol katalitik juftlik Al(C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>)<sub>2</sub>Cl / TiCl<sub>3</sub>) va Lyuis asoslari ish-tirokida n-geptan muqitida, monomer massasida propilenni polimerlab olinadi.

Propilenni polimerlanishi suspenziyada, emulsiyada, eritmada, massa-da va gaz fazasida amalgama oshirilishi mumkin. Ýritmada polimerlash ja-rayoni, suspenziyadagiga qaraganda yuqoriroq qarorat va bosimda o`tkaziladi. Gaz fazada polimerlanganda polipropilenni izotaktiklik darajasi, poli-merlanish tezligi suyuq fazadagiga nisbatan pastroq bo`ladi. Suyuq fazada ataktik polipropilen miqdori 10% dan ortmaydi, gaz fazada esa bu katta-lik 25% ni tashkil etadi.

Polipropilen xususiyatlariga katalizatorlarni salbiy ta`sir etishi sababli, ularni parchalab polimer tarkibidan chiqarb tashlash, polipropilendan ataktik qismini ajratish, oqava suyuqliklarni tozalash, erituvchilarni regenirlash, polipropilen olish jarayonlarini assosiy kamchiligidir.

Ishlab chiqarilayotgan polipropilen asosan stereoregulyar tuzilishga ega bo`lgan kristall polimerdir.

Polipropilenni qimmatli xususiyatlari asosan uni kristallik dara-jasini yuqori bo`lishi bilan boqliq bo`lganidan, uni olishda ishlatiladigan katalizatorlar yuqori stereospetsifiklikka ega bo`lishlari kerak.

### POLIPROPILENNI ISHLAB CHIQARISH

Sanoatda polipropilen propilenni Tsigler-Natta kompleks katalizatorida stereospetsifik polimerlash yordamida olinadi. Propilen poli-merlanganda 58.7 kDj/mol yoki 1385 kDj/kg (etilenni polimerlanganidan 2.4 marotaba kam) issiqlik ajralib chiqadi. Bu qol ajralib chiqayotgan issiqliknii reaktor qobiqiga berilayotgan suv yordamida bermalol reaktsiya muqitidan olib chiqib ketish imkonini beradi. Polimerlanish erituvchilar (benzin, n-geptan, uayt-spirit) muqitida olib boriladi.

Polipropilen olish texnologiyasi (rasm 4) ushbu bosqichlarni o`z ichiga oladi: katalizator kompleksini tayyorlash, propilenni polimerlash, reaktsiyaga kirishmagan monomerni ajratib olish, katalizator kompleksini par-chalash, polimerni yuvish, polimerdan erituvchini siqib chiqarish, polimer-ni quritish, polipropilenga oxirgi ishlov berish, erituvchini regenirlash.

#### **Rasm 4. Polipropilen ishlab chiqarish jarayonining sxemasi:**

1-katalizator kompleksi aralashtirgichi; 2-oraliq idish; 3-polimerlovchi idish; 4-sovtgich; 5-suspenziyani yiqish jixozi; 6,10-tsentrifugolar; 7-isitgich; 8-katalizatorni parchalash dastgoxi; 9-suspenziya yiqish jixozi; 11-oraliq idish; 12,13-uchib chiquvchi moddlarni ushlagichlari.

1 chi aralashtirgichda dietilalyuminiyxloridni benzindagi 5% li eritmasi bilan titan uchxloridini aralashtirib katalizator kompleksi tayyorlanadi. Katalizator sus-penziyasi 2chi oraliq idishga tushadi va u erdan 3chi polimerlash apparatiga me`yorlab uzatiladi. Polimerlash apparatini qajmi 25 m<sup>3</sup> bo`lib u yakorli aralashtirgich, sovitish va isitish uchun qobiq, 4chi sovitgich bilan ta`minlangan. Polimerlash apparatiga ara-lashtirgichni ishlatib, suyuq propilen, katalizator kompleksi, benzin va vodorod uzluk-siz berib turiladi.

Polimerlash vaqt 70oS va 1.0 mpa bosimda 6 soatni tashkil etadi. Bunda propi-lenni polimerga aylanish darajasi 90% ni tashkil etadi.

Quyida apparatga quyiladigan komponentlarni nisbati keltirilgan (mass.qism):

Propilen	100
Katalizator [Al(C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> ) <sub>2</sub> Cl / TiCl <sub>3</sub> q 3:1]	9
Benzin	225

Polimerlash apparatidan polimer suspenziya ko`rinishida 5chi yiquvchi idishga o`tkaziladi va bu erda bosimni kamayishi qisobiga, benzinda erigan reaktsiyaga kirishma-gan propilen uchirib yuborilganidan keyin suspenziyaga polimer:benzin nisbati 1:10 (mass.qism) bo`lguncha benzin qo`sildi.

Suyultirilgan suspenziya 6chi tsentrifugada izopropil spirtining benzindagi eritmasi bilan 25% li polimer eritmasi qosil bo`lguncha ishlanadi.

8chi apparatda polimer suspenziyasini 60o gacha qizdirilgan izopropil spirtini benzindagi eritmasi bilan katta tezlikda aralashtirib katalizator qoldiqi parchalana-di. Polimer suspenziyasi 9chi yiqish idishi orqali yuvish va siqish uchun 10chi tsentrifu-gaga, keyin 11chi idishga, u erdan quritish, granullash va qopga solishga uzatiladi.

Reaktsiyaga kirishmagan propilen, erituvchi, yuvishga ishlatilgan erituvchilar va azot regenirlangandan keyin tsiklga qaytariladi.

#### **POLIPROPILENNI XOS SALARI VA ISHLATILISHI**

Izotaktik polipropilen zichligi 900-910 kg/m<sup>3</sup>, suyuqlanish qaroroti 165-170oS ga teng bo`lgan qattiq termoplastik polimerdir.

Quyida polipropilenning asosiy fizik-mexanik xossalari keltirilgan:

Molekula massasi	80000-200000
CH <sub>2</sub> zilishdagi buzilish kuchlanishi, MPa	245-392
Uzilishdagi nisbiy uzayish, %	200-800
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup>	78.5
Brinell bo`yicha qattqlik, MPa	59-64
NIIPP usuli bo`yicha issiqbardoshlik, oS	160
Yuksiz ishlatish mumkin bo`lgan qarorat, oS	150

Mo`rtlanish qarorati, oS	-5 dan -15 gachà
Suv shimishi (24 s), %	0.01-0.03
Solishtirma qajmiy qarshilik, Om*m	10 14-10 15
Dielektrik yo`qotishning tangens burchagi	0.0002-0.0005
50 Gts da dielektrik singdiruvchanlik	2.1-2.3

Polipropilen polietilenlarga nisbatan ancha yuqori issiqbardoshlika ega. Dielektrik xossalari keng qarorat chegarasida saqlanadi. Juda kam suv shimganligidan uni dielektrik xossalari nam muqitda qam o`zgarmaydi.

Xona qaroratida organik erituvchilarda erimaydi; 80oS dan yuqorida aromatik (benzol, toluol) va xlorli uglevodorodlarda eriydi.

Polipropilen kislota va ishqorlar ta`siriga yuqori qaroratda qam tuzlarni suvdagi eritmasiga 100oS dan yuqorida, mineral va o`simlik yoqlari (moylari) ta`siriga chidamlidir.

Polipropilen polietilenga nisbatan sekinroq o`z xususiyatlarini yo`qotadi va agressiv muqit ta`sirida yorilishga chidamliroq bo`ladi.

Polipropilenni katta kamchiligi bo`lib, uni nisbatan sovuqqa chidam-liligin pastligidir (-30oS). Bu ko`rsatkich bo`yicha u polietilenden yomon-roqdir. Termoplastlarni qayta ishlash usullarini qammasi bilan polipro-pilenni qayta ishlash mumkin.

Polipropilenni izobutilen bilan modifikatsiyalash (5-10%) materialni qayta ishlanishini yaxshilaydi, egiluvchanligini, kuchlanish ta`sirida yorilishga chidamliligin oshiradi, past qaroratlarda mo`rtligini kamaytiradi.

Polipropilen plenkalar yuqori tiniqlikka ega bo`lib issiqbardoshlik, mustaqkamlik qamda gaz va par singdiruvchanligi bilan ajralib tu-radi. Polipropilen tolalari baquvvat bo`lib, ulardan texnik matolar, arqonlar, qoplar olinadi.

Polipropilendan ko`pik plastiklar olinadi.

### ETILENNI SOPOLIMERLARI

Ýtilenni vinilatsetat bilan sopolimeri (sevilen)



monomerlarni quvurli reaktorda yuqori bosimda, radikal polimerlanish tashabbuskorlari (initsiator) ishtirokida sopolimerlab olinadi. Sopoli-mer 5 dan 50% gacha vinilatsetat qalqalaridan iborat bo`ladi. Sevilen ti-niqligi va elastikligi bo`yicha polietilenden ustun turadi.

Ýtilenni vinilatsetat bilan sopolimerlari plenka, lok, elim olishda ishlatiladi. Ular poligrafiyada, oyo? kiyim va mebel ishlab chiqarishda ish-latiladi.

### ÝTILENNI PROPILEN BILAN SOPOLIMERI

PB polietilen olish sharoitlarida, meta-lorganik katalizatorlar ishtirokida suyuq fazada olinadi.

Qattiq sopolimerlar olish uchun tarkibida 3-10% propileni bo`lgan aralashma sopolimerlanadi. Bunday sopolimerlar kristall strukturaga va yuqori texnik xossalarga ega bo`ladi. Sopolimerlarda propilen qalqalari miqdorini 20% dan ortib ketishi sopolimerni mexanik mustaqkamligini kamaytirib yuboradi.

Ýtilen bilan propilenni stereoblok-sopolimerlari poliallomerlar deb ataladi va ular gomopolimerlarga o`xshab yuqori kristallik darajasiga ega bo`ladilar va polietilen qamda izotaktik polipropilenni ijobiy xususiyatlarini o`zlarida namoyon etadilar.

### TAYANCH SO`ZLAR

Yuqori bosimli polietilen. Initsiator - qavo kislороди, quvurli re-aktorlar, etilenni peroksid yoki gidroperoksidlari, tarmoqlanish. Past bo-simli polietilen. Tsigler-Natta katalizatorlar, yuqori molekulalari.

massali polietilen. O`rtacha bosimli polietilen. O`zgaruvchan valentli metall ok-sidlari. Polietilenning zichligi. Polipropilen; kristallik darajasi, suyuqlanmaga o`tishi, mustaqkamligi.

### QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Turli usullarda ishlab chiqarilgan polietilenlarni xossalari.
2. SKLEARTECH texnologiyasi bo`yicha polietilen strukturasi , zichligi va qossalarini rostlash usullari.
3. SKLEARTECH texnologiyasi bo`yicha yuqori bosimli , past bosimli va o`rtacha bosimli polietilen xossalariiga o`xhash polietilen olish sabablar.
4. Polietilenni xossalariiga qarab ulardan olinadigan buyum shakli va ishlatilish soqlarini o`zgarishi.
5. Izotaktik strukturaga ega polipropilen ishlab chiqarish texnologik jarayoni.
6. Polipropilenni mustaqkamligini polietilennikidan yuqoriroq bo`lish sabablarini tushuntiring.
7. Ýtilenni vinilatsetet bilan sopolimerlarining xossalari va ishlatili-shi.
8. Ýtilenni propilen bilan sopolimerlarining xossalari va ishlatilishi.

### ADABIYOTLAR


1. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.32-61.
2. Golosev A.P., Dintses A.I. Texnologiya proizvodstva polietilena i poli-propilena. M., "Ximiya", 1978, 263 s.
3. Andreeva I.N. i dr. Sverxvisokomolekulyarniy polietilen visokoy plot-nosti. L., "Ximiya", 1982, 80 s.

### MA`RUZA - 5

#### POLISTIROL VA UNING SOPOLIMERLARINI ISHLAB CHIQARISH

Bu sinf polimerlariga polistirol va uning sopolimerlari kiradi. Ishlab chiqarish qajmi bo`yicha polistirol va uning sopolimerlari uchinchi o`rinda turadi (poliolefinlar va polivinilxloriddan keyin). Oxirgi 20 yilda uni ishlab chiqarish qajmi dunyo bo`yicha 2 martadan ko`pga oshdi. Ayniqsa, oxirgi yillarda ABS-plastiklar ishlab chiqarish tez ko`payib bormoqda (stirol, akrilonitril va butadienlarni sopolimeri). qozirgi kunda ABS-plastiklarni ishlab chiqarish qajmi stirol asosidagi polimer-larni 25%-ini tashkil etadi.

#### POLISTIROL

Polistirol  stirolni polimerlab olinadi. Polistirol termoplastik polimer bo`lib u yuqori

dielektriklik xususiyatlariiga ega. Kimyoviy ta`sirlar, suv ta`siriga chidamli, rangsiz, tiniq, aromatik va xlorlangan uglevodorodlarda, oddiy va murakkab efirlarda yaxshi eriydi.

Ammo polistirolni mexanik mustaqkamligi va issiqbardoshligi ancha past.

qavo kislorodi ishtirokida uzoq vaqt 200oS qaroratdan yuqorida ish-lov berish polistirolni destruktsiyaga uchrashiga olib keladi (depolimerlanish darajasigacha).

Polistirolni xususiyatlarini yaxshilash maqsida uni turli xil vinil monomerlari bilan sopolimerlari olinadi. Sopolimerlar ichida, stirolni yuqori zarbiy qovushqoqlikka ega bo`lgan kauchuklar bilan blok va payvand sopolimerlari katta aqamiyatga ega (zarbga chidamli polistirol).

#### STIROLNI POLIMERLANISHI

Stirol radikal va ion polimerlanishiga uchrashi mumkin. Radikal po-limerlanish mexanizmi bo`yichà qosil bo`lgan polimer ataktik strukturaga ega bo`lib amorf polimerdir; ion-koordinatsion mexanizmi bo`yicha olingan polimer, katalizatorlarni xiliga qarab amorf yoki kristall (izotaktik) po-limer bo`lishi mumkin.

Amorf polimer turli usullar bilan massada (blokda), emulsiyada, suspenziyada yoki erituvchi mqitida, initsiatorlar ishtirokida, yoki umuman initsiatorsiz (faqat issiqlik ta`sirida polimerlanish) olinishè mumkin.

Izotaktik polistirol Tsigler-Nattaning stereospetsifik katalizatorlari ishtirokida olinadi. Ammo yuqori (250°C) qaroratda qayta ish-lansa izotaktik polistirol qaytmas amorf qolga o`tadi.

Sanoatda stirolni asosan blokda, emulsiyada va suspenziyada polimer-lash usullari keng tarqalgan. Ýritmada olishning keng tarqalmaganligining sababi, bu usulda olingan polimer nisbatan past molekula massasiga ega bo`lib, polimerni eritmadan ajratib olish katta qiyinchiliklarga olib ke-ladi. SHu bilan

birgalikda polistirolni eritmasidan olingen qoplama yoki elim mo`rt bo`lganidan uni eritma qolida ishlatib bo`lmaydi.

Polistirol olishning eng yaxshi sanoat usullari quyidagilardir:

- 1) monomerni to`liq polimerga o`tkazmasdan stirolni blokda polimerlash (uzluksiz usul);
- 2) stirolni suspenziyada polimerlash (uzlukli usul);
- 3) stirolni blok-suspenziyada polimerlash (uzlukli usul).

## **MONOMERNI TO`LIQ POLIMERGA AYLANTIRMASDAN ARALASHTIRUVCHI REAKTORLAR KASKADIDA UMUMMAQSADLI BLOKLI POLISTIROL ISHLAB CHIQARISH**

Ushbu usulning 2 ta reaktorlar kaskadidan tashkil topgan texnologik sxemasi keng qo`llaniladi. Jarayon o`z ichiga stirolni tayyorlash, I chi va II chi bosqichli reaktorlarda stirolni polimerlash, reaktsiyaga kirishmagan monomerni reaktordan chiqarib rekifikasiya qilish, polistirol suyuqlanmasini bo`yash, polistirolni granulaga aylantirish, granulalarni qadoqlash kabi qismlarni oladi.

Reaktorlar kaskadida polistirol olishni texnologik sxemasi rasm 5 da keltirilgan.

### **Rasm 5. Aralashtirib uzluksiz usulda reaktorlar kaskadida blok polistirolini ishlab chiqarish jarayonè sxemasi.**

1-stirol uchun idish; 2,3-polimerlash reaktorlari kaskadi; 4-sovutgichlar; 5-nasoslar; 6-vakuum-idish; 7-granullovchi ekstruder

Stirol 1-idishdan tagi ingichkalashib borgan 16 m<sup>3</sup> li vertikal tsilindr shakli-dagi birinchi reaktorga (2) uzluksiz uzatilib turadi. Reaktor varaqsimon aralashtirgich (minutiga 30-90 marotaba aylanuvchi) bilan jiqozlangan. Birinchi reaktorda olinayotgan polimerni markasiga qarab polimerlanish 110-130oS da 32-45% monomer polimerga aylangunicha davom etadi. Ajralib chiqayotgan issiqlik bu ɭ lanayotgan stirol yordamida muqitdan olib chiqiladi.

Ikkinci reaktor (3) konstruktsiyasi kattaligi bo`yicha birinchi reaktorga o`xshash, ammo u minutiga 2-8 marotaba aylanuvchi lentali aralashtirgich bilan jiqozlangan. Bun-day aralashtirgichlar yuqori qovushqoqli massalarni yaxshi aralashtirib beradi. Olina-yotgan polistirolni markasiga qarab polimerlanish ikkinchi reaktorda 135-160oS da 75-88% monomerni polimerga aylanishigacha davom ettiriladi.

Polistirolni stioldagi eritmasi ikkinchi reaktordan nasos (5) yordamida 2.25 MPa bosim ostidagi bu ɭ bilan qizdirilayotgan quvurlar orqali 6-vakuum idishga uzati-ladi. SHu jarayonda monomerni polimerga o`tish darajasi 90% gacha ko`tariladi.

Polistirolni suyuqlanmasi 180-200oS gacha qizdirilgan vakuum-kameraga kelib tushadi. Vakuum-kameraning isitgich quvurlarida polistirol suyuqlanmasi 240oS gacha qizitiladi va qajmi 10 m<sup>3</sup> bo`lgan, qoldiq bosimi 2.0-2.6 kN/m<sup>2</sup> li bo`sh kameraga tushadi. Bu erda suyuqlanmadan stirol bu ɭ lanadi va polimerdagi monomerni miqdori 0.1-0.3 % gacha kamayadi. Stirol bu ɭ lari tozdanib, qaytatdan 1chi idishga yuboriladi.

Polistirol suyuqlanmasi ekstruder (7) ga tushiriladi va granulalarga aylantiri-ladi.

Polistirolni suspenziyada ishlab chiqarish texnologiyasè

Polistirolni suspenziyada ishlab chiqarish texnologiyasi o`z ichiga, xom ashyoni tayyorlash (stirolnè gidroxinondan tozalash, barqarorlovchini suvdagi eritmasini tayyorlash, initsiatorni stioldagi eritmasini tayyorlash va b.), komponentlarni aralashtirish, polimerlash, polimerni ajratib olish, polistirolni yuvib tsentrifugada tozalash, quritish, kerak bo`lganda granulaga aylantirish va tayyoð polistirolni qadoqlash jarayonlarini oladi. Suspenziyada uzlukli usulda polistirol olish texnologik sxemasi rasm 6 da keltirilgan.

### **Rasm 6. Suspenziyada polistirol ishlab chiqarish jarayonining sxemasi:**

1-initsiatorlar eritmasini tayyorlash apparatlari; 2-stirol saqlash idishi; 3-polimerlash reaktori; 4-oraliq idish; 5-elak; 6-tsentrifuga; 7-quritgich

Initiatorni eritmasi 1chi apparatlardan, stirol esa 2chi idishdan 3chi polimer-lanish reaktoriga solinadi.

Polimerlanish 12-15 soat davomida 85-130oS qaroratda to`xtovsiz aralashtirib olib boriladi. Jarayon tugaganidan so`ng reaktsiya muqiti 45-50oS gachasovutiladi. Barqarorlovchi sifatida magniy gidrooksidi ishlatilganda reaktsiya muqiti sulfat ki-slotasi yordamida neytrallanadi. So`ngra 5chi elak orqali polistirolni suvdagi suspenziyasi nasos yordamida 4chi oraliq idishga o`tkaziladi. Bu idishda aralashtirgich yordamida polistirol muallaq qolda ushlab turiladi. Keyin polimer 6chi tsentrifugagà tushib, u erda suv fazasidan ajratiladi va suv yordamida yaxshilab yuviladi. Tsentrifuga uzlukli yoki uzluksiz qolda ishlatilishi mumkin. Umuman tsentrifugadan boshlab qolgan jarayonlar uzluksiz qolda o`tkazilishi mumkin. Bu qolda suspenziyada polimerlash kombinir-langan (tsentrifugagacha uzlukli, tsentrifugadan keyin uzluksiz) usulda olib boriladi.

Tsentrifugada suvdan ajratilgan polistirol 4% namlik bilan 7chi quritgichga yuboriladi. Uzlukli usulda barabanli xildagi quritgich, uzluksiz usulda qaynash qatlamli quritgich ishlatiladi.

Kerak bo`lgan qollarda polistirol turli komponentlar bilan aralash-tirilib keyin granula qoliga keltiriladi. Tayyor maqsulot qadoqlash uchun uzatiladi.

## ÝMULSION POLISTIROLNI ISHLAB CHIQARISH

Ýmulsion polistirol olishning texnologik sxemasi rasm 7. da kelti-rilgan.

### Rasm 7. Uzlukli usulda emulsiyada polistirol ishlab chiqarish jarayonining sxemasi.

1-stirol saqlash idishi; 2-o`lchagich; 3-polimerlanish reaktori; 4-quvur qobiqli Sovutgich; 5-oraliq idish; 6-cho`ktiruvchi; 7-polistirolni yuvish idishi; 8-ushlagich; 9-NOGSH tsentrifugasi; 10-qaynash qatlamli Kuritgich; 11-tebrama elak.

Stirol qaytaruvchi Sovutgich va isitish-sovutish qobi i bilan jiqozlangan reaktorga (3) quyiladi. Reaktorga ungacha 50oS darajagacha qizdirilgan distillangan suv, aralashtirib turib emulgator qamda o`yuvchi natriy solingan bo`ladi. Reaktorga solingan moddalar yaxshilab aralashtirilgach, suvda eritilgan initiator qo`shiladi. Aralashma 65-70oS gacha qizdiriladi. Reaktsianing ekzotermik issiqligi qisobiga reaktsiya muqitining qarorati 85-95oS gacha ko`tariladi. Polimerlanish jarayonining umumié vaqt 5-6 soatni tashkil etadi. Polimerdagagi qoldiq monomer miqdori 0.5% dan ko`p bo`lmaydi.

Hosil bo`lgan massa juda qam mayda zarrachalardan tashkil topgan barqaror sus-penziya bo`lib, undan polistirolni ajratib olish uchun, suspenziyaga muqit  $rN=5.5-6.0$  bo`lguncha alyumokaliyli kvastslarni eritmasini qo`shib, polimer koagulyatsiya qilinadi. Buning uchun kvastslarni eritmasi solingan 6chi cho`ktiruvchi reaktsion aralashma sekin-lik bilan quyiladi. Aralashma o`tkir bu bilan ishlanadi va 75-85oS qaroratgacha qizitilib 1.5-2 soat mobaynida aralashtiriladi, so`ngra ammiakli suv qo`shiladi. Polimer ajratib olinib issiq suv bilan yaxshilab yuviladi.

Polimerlanishda ishlatilgan suv qo`shimchalar bilan tozalash sistemasiga quyiladi. Apparat (7) da yuvilgan va 9chi tsentrifugada suvdan siqib olingan polistirol 10chi quritgichga uzatiladi. Polimerni qaynash qatlamli quritgichlarda quritiladi. qoldiq namlik 0.5% dan kam bo`lishi kerak. qizitilgan polistirol tebranuvchi elaklar-da (11) elanib qadoqlashga uzatiladi.

## POLISTIROLNI XUSUSIYATLARI V ISHLATILISHI

Polistirol zichligi 1050-1080 kg/m<sup>3</sup> bo`lgan qattiq amorf polimerdir. Sanoatda ishlab chiqarilayotga polistirolning molekula massasi, uni ish-lab chiqarish usuliga qarab 50000 dan 300000 gacha bo`ladi. Faqat emulsiyada olingan polistirolni molekula massasi ancha yuqori bo`ladi.

Turli usullarda ishlab chiqarilgan polistirolni asosiy xususiyatlari quyidagichadir:

Ko`rsatkichlar		Polistirol	
	blokda olingan	emulsiyada olingan	suspenziya da olingan
Zichlik, kg/m <sup>3</sup>	1050-1060	1050-1070	1050-1060
Bo`linish	kuchlanishi	39.2	39.2-44
			41.1

cho`zilishda), MPa			
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup>	19.6-21.6	21.6	19.6-27.4
Uzilishdagi nisbiy cho`zilish, %	2.0	2.0	2.0
Brinell bo`yicha qattiqlik, MPa	137-157	137-196	137-157
Vika bo`yicha issiqbardoshlik, oS	95-100	100-105	105
Dielektrik yo`qotishning tangens burchagi, 106 Gts da	4*10-4	2*10-4-3*10-4	4*10-4
Dielektrik o`tish, 10 GTs da	2.4-2.7	2.6	2.5-2.6
qoldiq monomerlar miqdori, %	0.5-0.8*	0.15-0.2	0.1-0.5
Suv yutishi (24 soatda), %	0	0.07	0.01-0.02

\* Vakuum-so`rvuchi jihozи bo`lgan ekstruder ishlatilganda qoldiq sti-rolni miqdori 0.2% gacha kamayadi.

Blokda olingan polistirol tiniq, rangsiz bo`lib ko`rinadigan nurning 90% ini o`tkazadi. Ultrafiolet va infraqizil nurlarda polistirolning tiniqligi kamroq. Sinish ko`rsatkichini kattaligi  $n_{D25}=1.5-1.6$  polistirol-dan turli optik shishalar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Polistirolning kamchiligi, uning issiqbardoshligi va zarbiy qovushqoqligini pastligi qamda tez eskirish xususiyatlaridir.

Polistirolni Martens bo`yicha issiqbardoshligi 70-75oS. Y`mulsiyada olingan polistirolni bu ko`rsatkichе 5-10oS ga yuqori. Ammo bu kattaliklar polistirolни keng ishlatishga imkon bermaydi. Polistirol 80-82oS da shi-shalanadi va shu sababli uning ishlatilish qarorati 60oS dan yuqori bo`lmaydi.

Polistirolning zarbiy qovushqoqligi 19.6-27.4 kDj/m<sup>2</sup> bo`lib, ishla-tilish jarayonida uning mo`rtligi eskirishi qisobiga ortib boradi. SHuning uchun qam oddiy polistirol konstruktsion maqsadlarda ishlatilmaydi.

Boshqa termoplastik polimerlarga nisbatan, polistirol sirt qattiq-ligiga ega. Uning cho`zilishdaае qayishqoqlik moduli yuqori bo`lib (12.9\*103 MPa), uzilishdagi nisbiy cho`zilishi past (1.5%).

300-400oS gacha qizdirilganda polistirol monomer qoligacha depolimerlanadi.

Polistirol qayta ishlashning qama usullari bilan engil qayta ishla-nishi mumkin. Asosiy usul bosim ostida quyish qisoblanadi.

Stirolni turli xosilalaridan olingan polimerlar ancha yuqori issiqbardoshlikni namoyon etadilar.

Polistirolni ko`pgina xususiyatlarini uni boshqa monomerlar bilan sopolimerlarini olish orqali yaxshilanadi.

Oxirgi yillarda yuqori zarbiy qovushqoqlikka va mexanik xususiyatlarga ega bo`lgan, stirolni kauchuk bilan tikib olingan sopolimeri ZCHPS (zarbga chidamli polistirol) ko`plab ishlab chiqarilmoqda.

Stirolni akrilonitril va butadien bilan olinadigan sopolimeri (ABS-plastik) yildan-yilga ko`plab ishlaá chiqarilmoqda.

Uchala monomerni birdaniga sopolimerlab sifatli ABS-plastik olib bo`lmaydi. Buning uchun zarbga chidamli sopolimer olgandagiga o`xshab, poli-butadien va butadien-stirol kauchuklari bilan tikilish sopolimerlanishi o`tkaziladi.

### STIROLNI SOPOLIMERLARI

Stirol ko`plab monomerlar bilan sopolimerlanadi. Stirolni metilmetakrilt, akrilonitril, -metilstirol, vinilkarbozol, viniltoluol, butadien, divinilbenzol bilan sopolimerlari amaliy aqamiyatga ega. Ushbu monomerlarni (divinilbenzoldan tashqari) stirol bilan sopolimerlari chiziqli tuzilishga ega (divinilbenzol bilan tikilgan tuzilishga ega). Sti-rolni divinilbenzol bilan sopolimeri turli ion almashgich materiallar olishda ishlatiladi.

Stirolni (10-50% stirol) butadien bilan sopolimerlari yuqori si-fatli kauchuklar olishda ishlatiladi. Bu sopolimerlarni eng keng tarqalga-ni SKS-30 markasi bilan belgilanadi (30 soni sopolimer olish uchuí mono-merlar aralashmasi tarkibidagi stirolni foyizlardagi miqdorini ko`rsatadi).

Stirolni metilmetakrilit bilan sopolimerlari (MS) suspenziyada olinadi. Boshlanqich aralashmada stiroё bilan metilmetakrilit nisbati 40:60 ni tashkil etadi. Bunday sopolimerlardan bosim ostida quyish usuli-da buyumlar olinib, ular polistirol buyumlaridan uzoqroq ishlatilishi mumkin. Ular benzin ta`siriga chidamliroq bo`lganlari sababli avtomobil-ning turli detallarini olishda ishlatiladi.

Stirolni akrilonitril bilan sopolimerlab SN markasida chiqarilayotgan sopolimerlar keng ishlataladi. SN-20 markali sopolimer 80% stirol va 20% akrilonitrilni suspenziyada sopolimerlab olinadi. Sopoli-mer polistioldan yuqori issiqbardoshlikka va mustaqkamlikka ega bo`lishi bilan farqlanadi. SN-20 sopolimeridan turli dastgoqlarni qobiqi, avto-ruchkalar, xirurgik asboblarni korpuslari ishlab chiqariladi.

SN sopolimeri butadien-nitril kauchugi bilan aralashtirilsa, zarbga chidamli polistirol qosil bo`ladi.

Stirolni metilmekatrifikat va akrilonitril bilan uchlamchi sopolimeri MSN markasi ostida ishlab chiqariladi. Sopolimerdagagi qar bir komponent o`ziga qos xususiyatlar beradi. MSN sopolimeri avtomobilning turli qismlarini, radiotexnik buyumlar, kondensatorlarni qismlari, uy-ro`zqor buyumlari olishda ishlataladi. Bu sopolimer egilishga, suv, benzin ta`siriga chidamli, turli ranglarga oson bo`yaladè.

Uchlamchi sopolimer suspenziyada, benzol peroksidi initsiatori ishti-rokida olinadi. Boshlanqich aralashma 52.5% metilmekatrifikat, 40% stirol va 7.5% akrilonitrildan tashkil topgan bo`ladi. Sopolimer bosim ostida quyish usulida yaxshi qayta ishlanadi.

qozirgi vaqtida polistirolni 50% dan ortiq qismi uning sopolimerlariga to`qli keladi. Bundan keyin qam bu nisbatda sopolimerlarni qismi ortib boradi. Stirolni gomopolimeri asosan elektrizolyatsiyasiäà ishlataladigan plenka, tiniq qopqoqlar, ko`pik plastiklar va maxsus xusu-siyatlari buyumlar ishlab chiqarishda o`z mavqeini saqlab qolsa kerak.

Zarb ta`siriga chidamli ZCHPS va ABS-plastiklari ishlab chiqarish keyingi bo`limlarda keltirilgan.

### **KO`PIK POLISTIROL**

Texnikada ko`pik polistirol ikki usulda: presslab va presslamasdan olinadi.

Presslash usulida (PS-1 va PS-2), emulsiyada olingan mayda zarrachali polistirol qattiq qoldagi qovak qosil qiluvchi komponent bilan aralashtiriladi va presslanadi. Presslangan buyumlar maxsus sharoitlarda ko`piklantiriladi.

Presslanmasdan olish usulida (PSV va PSV-S markali ko`pik poli-stiollar) suspenziya usulida olingan polistirolga ko`piklantiruvchi modda qo`shiladi. Bu modda suspenziyada polimer olishning oxirlarida yoki polimerlanish tugaganidan so`ng qam qo`shilishi mumkin.

Texnikada ko`proq presslamay olish usuli ishlataladi.

Presslanmay olingan ko`pik polistirolni tuzilishidagi bo`linish kuchlanishi, presslab olingan ko`pik polistirol (PS-4) kuchlanishini 50-60% ini tashkil etadi.

PS-4 ko`pik plastigi PS-1 ga nisbatan yomonroq dielektrik xususiyatlarga ega.

Konstruktsion material sifatida ko`pik polistirol 60-75oS gacha ishlatalishi mumkin.

quyida turli xil ko`pik polistirollarni xususiyatlari keltirilgan.

PS-1

Siqilishdagi bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas	0.29-4.9*
60oS da 24 soatda chiziqli kattaligini kichiklashishi, %, ko`p emas	0.4
24 soatda suv yutishi, kg/m <sup>2</sup> , ko`p emas	0.3

PS-4

Siqilishdagi bo`linish kuchlanishi, MPa, ko`p emas	0.8-1.0
24 soatda suv yutishi, kg/m <sup>2</sup> , ko`p emas	0.3
Tuyulma zichlik, kg/m <sup>3</sup> , ko`p emas	25

PSV

Ýgilishdagi bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas	0.1
Miqdori, %	
qoldiq monomerniki, ko`p emas	0.25
qovak qosil qiluvchi, kam emas	5
namlik, ko`p emas	1
*tuyulma zichligiga qarab	

Tayyor maqsulot yaxshilab berkitilgan idishlarda saqlanishi kerak, chunki ochiq qolda saqlansa (ayniqsa isitiladigan xonalarda yoki yoz issiqida) polimer tarkibidagi ko`piklantiruvchi moddaning uchib ketishi qisobiga, ko`piklantirish jarayonida uning ko`piklanish darajasi pasayib ketadi. Stiroorni qattoki yaxshi berk idishlarda qam ko`p vaqt saqlash mum-kin emas.

Ko`pik polistirolning tarkibida yonuvchi ko`piklantiruvchi (izopentan) bo`lganligidan u yaxshi yonadi. Bu qol ko`pik polistirolning asosiy kamchiligi qisoblanadi.

Polimerlanishda stirolni xlorli qosilalarini (mono- yoki dixlor-stirol) ishlatalish, yoki surma oksidi kabi antipirenlni qo`shish ko`pik poli-stirolni yonishini ancha kamaytiradi, yoki umuman yonmaydigan qiladi.

Kompozitsiya tarkibiga fosfororganik birikmalar birometilbenzol, tetrabrom-n-ksilol kabi moddalarni qo`shish o`z-o`zidan yonishdan to`xtaydigan ko`pik polistirollar olishga olib keladi.

Ko`pik polistirol qurilishda, muzlatkich texnikasida, transportda, mebel sanoatida issiqlik- va tovush o`tkazmaydigan material sifatida keng ishlatiladi. Ko`pik polistioldan issiqlik o`tkazmaydigan qurilish konst-ruktsiyalari uchun plitalar ishlab chiqariladi. Ko`pik polistirolning quruq qoldagi issiqlik o`tkazish koeffitsienti  $0.0326 \text{ Vt}/(\text{m}^{\circ}\text{K})$  ni tashkil etadi.

Kam issiqlik o`tkazish, yaxshi amortizatorlik xususiyatlari, engilligi, ko`pik polistirolni juda yaxshè qadoqllovchi material sifatida ishlatish im-konini beradi (zarbdan qo`rquvchi shisha idishlari, farfor, radioapparatlai, televizorlar va q.k.).

## TAYANCH SO`ZLAR

Stirolni blokda polimerlash. Ýkzotermik issiqlik, molekula massa-si, forpolimer usuli. Suspenzion polistirol, tor molekula-massaviy bo`linish, barqarorlovchi modda, emulgator, suv, eritma. Polistirol pardalari, optik xususiyatlari, ko`pik polistirol. Polistirolni zarbiy ta`sir-larga chidamsizligi. Stirolni sopolimerlari, metilmekrilit bilan, ak-rilonitril, butadien bilan.

## QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Stirolni qanday usullarda polimerlash mumkinq
2. Blokda polistirol olishning qanday ustunliklari va kamchiliklari borq
3. To`liq polimerga aylantirmasdan blok usulida polistirol ishlab chiqarish texnologiyasine to`liq polimerga aylantirish texnologik usu-lidan ustunliklarini ko`rsatib bering.
4. Polistirolni suspenziyada ishlab chiqarish texnologik jarayoni.
5. Ýmul'siyada polistirol ishlab chiqarishining texnologik jarayoni.
6. Ýmul'siya usulida ishlab chiqarilgan polistirolning molekula massa-sini yuqori bo`lish sabablarini tushuntiring.
7. Blokda, suspenziyada, emulsiyada olingen polistirollarni qossalari bir-biridan qanday farqlanadiq
8. Turli usullarda ishlab chiqarilgan polistirolning xossalari va ishla-tilish soxalari.
9. Polistioldan qanday usullarda ko`pik polistirol olinadiq
10. Ko`pik polistirolning xossalari va ishlatilish soxalari.

## ADABIYOTLAR

1. Baknell K. Udaroprochnie plastiki. Per. s angl. / Pod.red. I.S. Lishan-skono, L, "Ximiya", 1981, 236 s.
2. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s s. 61-90.

## MA`RUZA – 6

### GALOGEN SAQLOVCHI TO`YINMAGAN UGLEVODORODLARNING POLIMERLARINI ISHLAB CHIQARISH

Yuqori molekulalali galogensaqlovchi uglevodorodlardan polivinilxlorid, politetraftoretilen, poliuchftorxloretilen, poliviniltorid, polivinilidenftorid, poliperftorpropilen va ularning sopolimerlari katta aqamiyatga ega. Bu polimerlar ichida qozirgi kunda ishlab chiqarilish qajmi bo`yicha ikkinchi o`rinda turgan polivinilxloridni o`rnii aloqida.

## POLIVINILXLORID

Polivinilxlorid (PVX) [-CH<sub>2</sub>-CHCl-]<sub>n</sub> elementar qalqasi asosan "bosh dumcha" xilida birikkan, xlor saqlovchi yuqori molekulali birikmadir.

Polivinilxlorid shishalanish qarorati 70-80oS, qovushqoq oquvchan qolga o`tish qarorati 150-200°C (molekula massasiga qarab) bo`lgan termoplastik polimer. Sanoatda ishalb chiqarilayotgan PVX ning polimerlanish darajasi 400 dan 1500 gacha o`zgaradi.

Polivinilxloridning xususiyatlari va ishlatilish soqasi, uni ishlab chiqarish usuliga katta boqliq. PVX ning qossalarni kimyoviy modifikatsiyalab qam o`zgartirish mumkin. Xom ashyoning mo`lligi, polimer olishni oson usularini mavjudligi, qimmatli qossalari PVXni ishlab chiqarishni rivojlanishiga va ko`plab ishlab chiqarilishiga sabab bo`ldi.

Polivinilxlorid asosidagi plastik massalar elektr texnikasida, ki-myo sanoatida, qurilishda ko`plab ishlatiladi.

Polivinilxlorid barcha texnologik usullarda ishlab chiqarilishi mumkin. Ammo sanoatda asosan suspenziya va emul'siyada ishlab chiqarish keng tarqalgan.

### **POLIVINILXLORIDNI SUSPENZIYADA ISHLAB CHIQARISH**

Bu usul bilan qozirgi vaqtida salkam 70% polivinilxlorid ishlab chiqariladi. Polimerlanish 20-200 m<sup>3</sup> qajmli impeller tipidagi aralashtirgich bilan jiqozlangan reaktorlarda o`tkaziladi. qajmi 50 m<sup>3</sup> gacha bo`lgan reaktorlarni ichi emallangan, yoki zanglamaydigan maxsus po`latdan yasalgan bo`ladi. Katta qajmdagi 80-200 m<sup>3</sup> reaktorlar, issiqlikni oson olib chiqib ketish maqsadida, qaytar sovutgichlar bilan jiqozlangan bo`ladi. Jarayon ÝqM yordamida boshqariladi. Reaktorlar ishini unumini oshirish maqsadida, uzluksiz ishlaydigan, unumdoorligi 10 t/soat bo`lgan, ikki poqonali quvur-quritgich tipidagi quritish agregatlari yaratilgan.

Suspenziya barqarorlovchisi sifatida metilsellyuloza, oksietilsellyuloza, vinil spirtini vinilatsetat bilan sopolimerlari ishlatiladi.

Initiator sifatida vinilxloridni massada polimerlash initsiatorlari qamda lauril peroksiidi, benzoil peroksiidi ishlatiladi.

Muqitni rN ini doimiy ushlab turish maqsadida polimerlanishda bufer qo`shimchalar (suvda eruvchi karbonatlar, fosfatlar, gidroksidlar) ishlatiladi.

Suspenziyada polivinilxlorid uzlukli yoki yarim uzluksiz usullarda olinadi. Vinilxloridni suspenziyada polimerlashni namunaviy andozasi quyidagicha (mass. qismlarda):

Vinilxlorid.....	100
Deminerallangan suv.....	150-200
Initiator.....	0.03-0.17
Barqarorlovchi.....	0.03-0.08
rN rostlagich.....	0.01-0.4

### **Rasm 8. Polivinilxloridni suspenziyada uzlucksiz usulda ishlab chiqarish jarayonining sxemasi:**

1-polimerlovchi reaktorlar; 2-barqarorlovchi eritmasi uchun idish; 3-filtr; 4-po`stloq shilgich; 5-suspenziyani gazdan tozalagich; 6-suspenziyani yiqib o`rtacha xolga keltiruvchi idish; 7-tsentrifuga; 8-quritgich; 9-bunker; 10-kukunli elash bo`limi.

Suvni monomerga nisbati 1.5:1 dan 2.0:1 gacha o`zgaradi. Suspenziyada PVX olishning texnologiyasi (rasm 8.), xom ashylarni tayyorlash, vinilxloridni polimerlash, suspenziyani gatsizlantirish (degazatsiya), suspenziyani o`rtacha qolga keltirish, tsentrifugalash, polimerni quritish, elaklash, qadoqlash, polimerlanmagan vinilxloridni rekuperatsiyalash, oqova suvlar-ni qamda gaz chiqindilarini tozalash kabi jarayonlardan iborat.

Xom-ashyoni tayyorlash vinilxloridni tozalash, suvni ionitlar yorda-mida tuzsizlantirish, initsiatorni monomerda eritish va suspenziya barqarorlovchisin suvda eritishdan iborat.

Reaktsiya muqitini isitish va sovutish uchun qobiq qamda aralashtirgich bilan jiqozlangan polimerlovchi-reaktorga qisoblagich yoki tortuvchi o`lchagich orqali mineralsizlanti-rilgan suv, 2chi idishdan 3chi filtr orqali barqarorlovchi eritmasi qamda initsiator eritmasi quyiladi. So`ngra reaktsiya muqitida vakuum qosil qilinadi yoki azot bilan qavosi siqib chiqariladi va doimiy aralashtirilib turib suyuq

vinilxlorid uzatiladi. Komponentlarni solib bo`linganidan so`ng reaktor qobiqiga berilgan qaroratgacha isitish maqsadida issiq suv yubori-ladi. Polimerlanish 45-70oS qarorat va 0.5-1.4 MPa bosimda 5-10 soat davom etadi. Bunda mono-merni konversiyasi 80-90% ni tashkil etadi. Polimerlanish jarayoni reaktorda bosim 0.05-0.2 MPa gacha pasayganida tugatiladi. Reaktsiyaga kirishmagan vinilxlorid avvaliga puflab, keyin esa vakuum qosil qilib reaktordan gazgolderga o`tkaziladi va regenirlashga jo`natiladi. Regenirlangan vinilxlorid yana polimerlanishga jo`natiladi. Polivinilxlorid suspenziyasi po`stloq ajratgich (4) orqali 5chi apparatga, reaktsiyaga kirishmagan vinilxlorid, vodorod xlorid va boshqa qo`shimcha moddalardan ajratish uchun uzatiladi. Vinilxlorid bu erdan qam gazgolder orqali regenirlashga tushadi.

So`ngra suspenziya yiquvchi-o`rtacha qolga keltiruvchi idishga (6) o`tkaziladi. Bu idishga boshqa jarayonlarni o`tgan suspenziyalar qam solinib qammasi o`rtacha qolga keltirilgach, suspen-ziyadan polimerni ajratish maqsadida 7chi tsentrifugaga uzatiladi. Filtrdan o`tgan suyuqlik oqava suvlarni tozalashga jo`natiladi. Kukunsimon polimer 20-30% namlik bilan 8chi quritgichga o`tkaziladi. qaynash qavatida quritishda, quritgichga kirayotgan qavo qarorati 115-120oS, qaynash qavatining turli nuqtalarida 35-65oS bo`ladi. quritilgan polimer tarkibida namlik 0.3-0.5% dan ortiq bo`lmasligi kerak. So`ngra kukunsimon polimer siqilgan qavo yordamida 9chi qajmga, undan elash uchun 10chi idishga uzatiladi. Tayyor polivinilxlorid kukun ko`rinishida qa-doqlanadi, yirikroq fraktsiyasi esa maydalashga jo`natiladi.

### **POLIVINILXLORIDNI ÝMULSIYADA ISHLAB CHIQARISH**

Vinilxloridni emulsiyada (lateksda) polimerlash suv muqitida, suvda eruvchi initsiatorlar, emulgatorlar va boshqa qo`shimchalar ishtirokida o`tkaziladi.

Ýmulgator sifatida sirt-faol moddalar - turli xil sovunlar ishlatiladi (alifatik va aromatik karbon kislotalarning tuzlari, alifatik sulfokislotalarning natriyli va kaliyli tuzlari, alkilsulfonatlar).

Polimerlanish initsiatorlari sifatida suvda eruvchi peroksid va gidrooksidlar (ammoniy, kaliy, natriy persulfatlari, vodorod perokсидi), oksidlanish-qaytarilish sistemalari ishlatiladi.

Muqit rN ini rostagichlari sifatida bufer moddalar - fosfatlar, karbonatlar ishlatiladi.

Rasm 9. Polivinilxloridni emulsiyada ishlab chiarish jarayonining sxemasi:

1- emulgatori eritish apparati; 2,5,12-filtrlar; 3-suv fazasi yi $\square$  ilish idishi; 4-polimerlanish oetkazish apparati; 6-lateksni gazsizlantiruvchi idish; 7-lateksni yi $\square$  ish idishi; 8-soda erituvchi-si; 9-soda eritmasini yi $\square$  ish idishi; 10-lateksni barsarorlash idishi; 11-vakuum nasos

Ýmulsiyada polimerlanish natijasida zarrachalari 0.1 dan 1 mkm kattalikka ega lateks qosil bo`ladi; lateksdan polimer mayda kukun ko`rinishida ajratib olinadi.

Ýmulsion polivinilxlorid olishning texnologiyasi (rasm 9) xom ashyoni tayyorlash (emulgator va initsiator eritmalarini tayyorlab olish), vinilxloridni polimerlash, lateksdan gazlarni chiqarib yuborish, lateksni neytrallash va barqarorlashtirish, polivinilxloridni lateksdan ajratib olish, polimerni quritish va qadoqlash kabi jarayonlardan tashkil topgan.

Ýmulsiyada polimerlashni namunaviy andozasi quyidagichadir (mass. qismlarda):

Vinilxlorid.....	100
Mineralsizlantirilgan suv.....	150-200
Initsiator.....	0.5-1.0
Ýmulgator.....	1.5-2.0
rN ni rostlovchi.....	0.2-0.5

Ýmallangan 4chi reaktorga (kurakli aralashtirgich, isitish vasovutish qobiqi bilan jiqozlangan vertikal tsilindr ko`rinishidagi) uzlusiz suyuq vinilxlorid, emulgator, initsiator va bufer moddasini suvdagi eritmasi tushirib turiladi. Reaktorni yuqori qismida katta kurakli aralashtirgich yordamida monomerni suvdagi emulsiyasi qosil qilinadi. Ýmulsiya pastga tushgani sari 40-60oS da 92-95% monomer polimerlanadi. Polimerlanish bitta yoki bir-biri bilan ketma-ket biriktirilgan ikkita reaktorda amalga oshiriladi. Reaktsiyada ajralib chiqqan issiqlik qobiq orqali olib chiqiladi. Vinilxloridni suvga bo`lgan nisbati 1:1 dan 1:2 gacha bo`ladi.

Polimerlanish jarayoni emulsiyaning zichligi va avtoklavdagi reaktsiya muqitining qarorati yordamida nazorat qilinadi. Polimerlanish to`qri amalga oshirilganda reaktordan chiqayotgan emulsiyaning zichligi 1120 kg/m<sup>3</sup> ga teng bo`ladi.

Polivinilxloridning miqdori 42% gacha bo`lgan lateks 5chi filtr orqali 6chi gazzsizlan-tirgichga uzatiladi. Monomerni qoldiqini lateksdan vakuum qosil qilish orqali ajratiladi. Ajratilgan vinilxlorid gazgolderga jo`natiladi. Gazsizlantirgich (6) dan lateks 7chi yiquvchi idishga, u erdan nasos yordamida 10chi idishga soda eritmasi yordamida barqarorlashtirish uchun uzatiladi. Barqarorlashtirilgan lateks purkab quritiladigan quritgichga quritish uchun yo`naltiriladi. quruq polimer kukuni (0.35% namlik bilan) maxsus mashinalarda qadoqlanadi.

Lateksni o`zi qam tayyor maxsulot sifatida ishlatilishi mumkin. 40-50% polimer saqlagan polivinilxlorid latekslari matolarni, terini, qoqozni va boshqa materiallar yuzasi-ni pardozlash qamda ularni shimdirishda ishlatiladi.

Ýmulsiyada olingan polivinilxloridni asosiy kamchiligi uni xar xil modda qoldiqlari bilan ifloslanganligi qisoblanadi. SHuning natijasida emulsiyada olingan PVX ni kul qosil qilishi 0.3-0.5% bo`lib, bu kattalik suspenzion PVX ning kul qosil qilishidan (0.03-0.08%) ancha katta. Undan tashqari emulsion PVX 5% gacha namlik yutsa, suspenzion PVX faqat 0.5% namlik yutadi. Bu kamchiliklar emulsion polimerni ishlatish soxalarini ancha chegaralab qo`yadi.

### **POLIVINILXLORIDNI XOSSALARI**

Polivinilxlorid zichligi 1350-1460 kg/m<sup>3</sup> bo`lgan oq kukun ko`rinishida bo`ladi. Sanoatda ishlab chiqarilayotgan polivinilxloridlarni molekula massasi 30000-150000. Kristallik darajasi 10%.

Polimerlanish darajasini ortib borishi bilan bir qatorda PVX ning polidispersligi qam orta boradi.

Tarkibida ko`p xlor (56% ga yaqin) saqlaganligidan PVX alanganmaydi va yonmaydi qisob. Polivinilxlorid 130-150oS da sekin-asta, 170oS da esa tez parchalanib, vodorod xlorid ajratib chiqaradi.

Polivinilxlorid monomerda, suvda, spirtda, benzinda va ko`pgina erituvchilarda erimaydi. qizdirilganda u tetragidrofuranda, xlorlangan uglevodorodlarda, atsetonda eriydi. Oddiy sharoitda tsiklogeksanondà yaxshi eriydi.

Polivinilxlorid yaxshi elektr izolyatsiyasi qamda issiqlik o`tkazmaydigan xossalarga ega, u kuchli va kuchsiz kislota qamda ishqorlar ta`siriga, surkovchi moylar ta`siriga chidamli.

Issiqlik va mexanik ta`sirlar ostida polivinilxloridda degidroxlorlanish, oksidlanish, destruktсиya, tikilish kabi jarayonlar keta-di. Polimerni o`z xossalari yo`qotishiga olib keladigan asosiy reaktsiya - HCl ni ajralib chiqishidir.

Parchalanishni oldini olish maqsadida polivinilxloridga barqarorlovchi moddalar qo`shiladi. Oksidlanishni oldini oluvchilar sifa-tida fenol va karbamidni turli xosilalari ishlatiladi.

Xona qaroratida polivinilxlorid qattiq va mustaqkam polimerdir. U turli xil plastifikatorlar bilan yaxshi aralashadi. Texnikada polivinil-xlorid antikorrozion material sifatida ko`plab ishlatiladi. Yaxshi elektr-dan izolyatsiyalash xossasi, uni kabellar ishlab chiqarishda ko`plab ishlati-lishiga sababdir.

### **VINILXLORID SOPOLIMERLARI**

Vinilxlorid ko`pgina to`yinmagan birikmalar bilan oson sopolimer-lanadi. Bu qol polivinilxlorid xossalari modifikasiyalash imkonini beradi (qarorat ta`siriga chidamlilikni, eruvchanlikni yaxshilashni, oquvchanlikni yaxshilashni, adgeziyani o`zgartirishni).

Texnikada vinilxloridni vinilidenxlorid, vinilatsetat, stirol, akrilonitril, akril va metakril kislotalarining efirlari bilan olingan sopolimerlari keng ishlatiladi.

### **VINILXLOID ASOSIDAGI PLASTIK MASSALAR**

Polivinilxlorid asosida plastik massalarni ikki xili ishlab chiqariladi: tarkibida plastifikator saqlamagan, qattiq plastmassalar (viniplastlar), va plastifikator saqlagan yumshoq plastik massalar (plastikatlar va plastizollar).

Viniplastni qossalari va ishlatilishi

Viniplast zichligi 1390 kg/m<sup>3</sup>, rangi och jigarrangdan to`q jigarrang ranggacha bo`lgan, qattiq materialdir. U yuqori mustaqkamlikka, yaxshi dielektrik xususiyatlarga ega.

Viniplast antikorrozion material bo`lib, uning ishlash muddati faolit, tekstolit va boshqa nometall antikorrozion materiallari ishlash muddatidan 2-3 barobar ko`pdir.

Viniplastdan olingan buyumlar texnikada ko`plab ishlatiladi. U turli apparatlar, birlashtiruvchे muftalar, klapanlar, quvurlar, ventillar, ventilyatorlarni korpuslari, kimyoiy apparatlarni qismlari, laboratoriya asboblarini qismlari va boshqa turli buyumlarni olishda ishlatiladi.

## Yumshoq polivinilxloridni (plastikat) olish

Plastikat oddiy qaroratda yumshoq bo`lib, u polimerga ko`p miqdorda plastifikator qo`shish natijasida olinadi.

Plastifikatorlar sifatida ftalatlar, sebatsinatlar, uchkrezilfosfat va boshqa yuqori qaroratda qaynovchi va kam uchuvchi suyuqliklar va ularni aralashmalari ishlatalidi.

Plastifikatorlarni polimerga qo`shish, polivinilxloridni elastikligini yaxshilab, uni sovuqqa chidamliligin oshiradi va shu bilan bir qatorda makromolekulalarni bir-biriga nisbatan qarakatchanligini oshirib polivinilxloridni plastik xususiyatlarni yaxshilaydi.

Plastifikator polivinilxlorid bilan yaxshi aralashishi, past qotish qaroratiga ega bo`lishi, kam uchuvchè, zararsiz, turli ta`sirlarga chidamli, apparatlarni korroziyaga uchratmaydigan, polivinilxlorid, barqarorlovchilarga kimyoviy ta`sir o`tkazmaydigan bo`lishi kerak.

Barqarorlovchilar sifatida kaltsiy, kadmiy stearatlari, kaltsiy karbonati ishlataladi. Plastikatlarni turli qillariga to`ldirgichlar qo`shiladi.

Plenka ko`rinishidagi plastikat valtslash va ekstruziyalash yordamida olinadi.

Tiniq plastikat olishda ishlataladigan komponentlarni nisbatlari quyidagicha (mass.qismlarda):

PVX	100
Dioktilftalat	24
Dibutilftalat	24
Kaltsiy stearati	2

Ýkstruziyalash shnekni aylanish tezligi 12-20 ayl/min da 110-140oS qaroratda amalga oshiriladi.

Komponentlarni aralashishi, plastifikaitsyalanishi, gomogenlanishi ekstruderda amalga oshiriladi va yassi tirqishli kallakdan uzlusiz tasma ko`rinishida siqib chiqariladi. Tasma uzlusiz ravishda to`ró vallik kalandrga uzatilib u erda 140-170oS da kalandrlanadi.

Kalandrlash jarayonida makromolekulalarni vallar aylanish yo`nalishida orientatsiyalani vujudga keladi va plenka qalinligi bir xil qolga keltiriladi.

Kabelda ishlataladigan plastikat valtslash va ekstruziyalash yordamida olinadi.

quyida aralashtirgichga plastikat tayyorlash uchun olinadigan komponentlarni miqdorlari keltirilgan (mass.qismlarda):

PVX	100
Dioktilftalat	50
Parafin	1
Rux karbonati	8
Kaolin	10
Titan dioksidi	2

Komponentlar aralashtirgichda aralashtiriladi. Aralashtirgichdan aralashma plastifikatsiyalashga áà granulaga aylantirishga kelib tushadi. Ýkstruziyalash 110-115oS da amalga oshiriladi. Kallakdan chiqayotgan ekstrudat sovutilib granulaga maydalanadi.

Polivinilxloriddan olingan plastikat yuqori elastik, atmosfera, namlik ta`siriga chidamli, yonmaydigan, benzin va moylarga chidamli, yuqori dielektrikli xususiyatlarga ega.

U kabellarni izolyatsiyasi sifatida, quvurlar, plenkalar olishda keng qo`llaniladi.

## POLIVINILIDENXLORID

Polivinildenxlorid  $[CH_2-CCl_2]_n$  vinildenxloridni radikal polimerlash yordamida olinadi.

Sanoatda polivinildenxlorid vinildenxloridni peroksid initsia-torlari ishtirokida polimerlab olinadi (benzoil peroksiidi, vodorod pe-roksidi).

Polimerlanishni o`tkazish va sovitish qaroratiga qarab amorf yoki kristall polivinildenxlorid olish mumkin. Polimer tez sovutilganda suyuqlanma qolidagi kristall polimer amorf qolga o`tadi, yumshoq bo`lib gayta ishanishi osonlashadi. Kristall polivinildenxloridni suyuqlanmalanish qarorati 185-200oS, Martens bo`yicha issiqbardoshligi 75-90°C. Amorf po-livinildenxloridning shishalanish qarorati -19°C.

Vinildenxloridni emulsiyada, suspenziyada polimerlash eng ko`p tarqalgan usuldir.

Polivinildenxloridni olish texnologiyasi polivinilxloridni olish texnologiyasiga o`xshaydi.

Vinilidenxloridni boshqa monomerlar bilan sopolimerlanishini odatda eritmada o`tkaziladi. Pastroq molekulalı sopolimerlar dixloretan-da, xlorbenzolda va etilatsetatda eriydi, yaxshi adgeziya xossasiga ega va ki-myoviy ta`sirlarga chidamli loklar tayyorlashda ishlatiladi.

Polivinilidenxloridni xossalari

Polivinilidenxloridni zichligi 1875 kg/m<sup>3</sup>, suyuqlanmaga o`tish qarorati 185-200°C, parchalanish qarorati 210-220°C. Polivinilidenxlorid 150°C qaroratdan yuqorida qizdirilganida vodorod xlorid ajralib chiqa boshlaydi va bu jarayon 200°C da tezlashib ketadi. Past qaroratda vodorod xloridini ajralib chiqishi qamda suyuqlanish qarorati bilan parchalanish qaroratlarini yaqinligi polivinilidenxloridni qayta ishlashni ancha qiyinlashtiradi. Yumshagan polivinilidenxlorid sovutib cho`zilganida ori-entatsiyalanib kristall qolga o`tadi.

Polivinilidenxlorid oddiy erituvchilarda (dietilsulfatdan tashqari) erimaydi. U kislota va ishqorlar ta`siriga chidamli.

Ko`proq vinilidenxloridni vinilxlorid va akrilonitril bilan sopolimerlari ishlatiladi.

### POLITETRAFTORÝTILEN

Politetraftoretilen (ftoroplast-4 yoki ftorlon-4) [-CF<sub>2</sub>-CF<sub>2</sub>-]n tet-raftoretilenni peroksid initsiatorlari ishtirokida polimerlab olinadi.

### DISPERS POLITETRAFTORÝTILEN

Dispers politetraftoretilen tetraftoretilenni suv muqitida, emulgatorlar ishtirokida (perforkarbon va monogidropertforkarbon kislotalarining tuzlari) polimerlab olinadi. Initsiator sifatida yantar kislotasining peroksiidi ishlatiladi. Jarayon avtoklavda (arashtirgichli) 55-70°C qaroratda 0.34-2.45 MPa bosim ostida olib boriladi. Polimerlanish natijasida zarrachalari shar ko`rinishidagi polimer qosil bo`ladi. qosil bo`lgan suvdagi dispersiyani kontsentratlanadi yoki undan polimer kukun ko`rinishidà ajratib olinadi.

Polimerni suvdagi 50-60% li suspenziyasiga polimer zarrachalarini bir-biri bilan birikib qolmasligi uchun 9-12% sirt-faol moddalar qo`shiladi.

Dispers politetraftoretilen (ftoroplast-4D yoki ftorlon-4D) mayda zarrachalari kukun ko`rinishidà (0.1-1 mkm), 50-60% polimer saqlovchi suvdagi suspenziya ko`rinishida ishlab chiqariladi.

### POLITETRAFTORÝTILENNI HOSSALARI VA ISHLATILISHI

Politetraftoretilen (ftoroplast-4) zichligi 2250-2270 kg/m<sup>3</sup>, to`kilish (sochilish) zichligi 400-500 kg/m<sup>3</sup> bo`lgan oq rangli kukun. Uning molekula massasi 140000-500000 ga teng. Ftoroplast-4 ni kristallik darajasi 80-85% bo`lib, suyuqlanish qarorati 327oS gacha, amorf qismining shishalaniø qarorati 120oS atrofida bo`ladi. Politetraftoretilenni qizdirilganda uning kristallik darajasi kamayadi va 370oS da u amorf po-limerga aylanadi. Sovutilganda politetraftoretilen yana kristall qolga o`tadi va uning zichligi ortadi. Kristallanishning eng katta tezligi 310oS da kuzatiladi.

Ftoroplast-4 ni ishlatilish sharoitida kristallik darajasi 50-70% ni tashkil etib, Vlik bo`yicha issiqbardoshligi 100-110oS ni tashkil etadi. Ishlatilish qarorati -269 dan +260oS gacha.

Politetraftoretilen 415oS dan yuqorida qizdirilganda suyuqlanmasdan sekin-asta tetraftoretilen va boshqa gaz ko`rinishidagi moddalara parchalanadi.

Politetraftoretilen yonmaydi, -60 dan 200oS gacha bo`lgan qaroratda o`zgarmaydigan juda yaxshi dielektriklik xususiyatiga ega, mexanik va ishqalanishga chidamliligi yuqori, ishqalanish koeffitsienti juda past.

Quyida ftoroplast-4 ni asosiy fizik-mexanik va elektr xossalari keltirilgan:

Bo`linish kuchlanishi, MPa, cho`zilishda	
toblanmagan namuna	13.7-24.5
toblangan namuna	15.7-30.9
statik egilishda	10.8-13.7
qayishqoqlik moduli (egilishda), MPa .	
-60oS da	1290-2720
20oS da	461-834
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup>	98.1
Uzilishdagagi nisbiy cho`zilish, %	250-500

qoldiq cho`zilish, %	250-350
Brinell bo`yicha qattqlik, MPa	29.4-39.2
Solishtirma qajmiy elektr qarshiligi, Om*m	1015-1018
Dielektrik yo`qotishning tangens burchagi, 106 Gts da	0.0002-0.00025
Dielektrik o`tish, 106 Gts da	1.9-2.2

Politetraftoretileni kimyoviy ta`sirlarga chidamliligi qamma ma`lum sintetik polimerlar, maxsus qotishmalar, qimatbaqo metallar, korroziyaga chidamli keramika va boshqa materiallar kimyoviy chidamliligidan kuchlidir.

Politetraftoretilen biron-bir ma`lum organik erituvchi va plastifikatorda bo`kmaydi va erimaydi (u faqat ftorlangan kerosinda bo`kadi).

Suv polimerga qar qanday qaroratda qam ta`sir etmaydi. Nisbiy na-mligi 65% bo`lgan sharoitda politetraftoretilen umuman suvni yutmaydi.

Issiqlik ta`sirida parchalanish boshlanish qaroratigacha politetraf-toretile qovushqoq-oquvchan qolgà o`tmaydi, shuning uchun qam uni tabletka ko`rinishida presslab olib, keyin yarim maxsulotni 360-380oS da pishirish orqali qayta ishlanadi.

Politetraftoretilen - ftoroplast-4 aviatsiyada, kimyo, radiotexnik, muzlatgichlar ishlab chiqarish sanoatlarida zichlantiruvchi buyumlar, elektr va radiotexnik buyumlar, quvurlar, nasoslar, antifriktsion materiallar olishda ishlatiladi.

Ftoroplast-4D, ftoroplast-4 ni qayta ishlash qiyin bo`lgan maxsulotlarni olishda (simlarni qobiqlari va q.k.), ftoroplast-4D suspenziyasi esa metall ustini antikorrozion qoplama bilan qoplashda ishlatiladi.

## TAYANCH SO`ZLAR

Polivinilxloridni suspenziyada va emulsiyada polimerlanishi. Barqarorlovchi moddalar, plastifikatorlar, vinilplast, plastikat. Poli-vinilidenxlorid, uning polivinilxloriddan farqi, sabablari.

Politetraftoretilen, ftoroplast-4, post molekulali politetraftore-tilen, dispers politetraftoretilen, ftoroplast-4 ning zichligi, suyuqlanmaga o`tish-o`tmasligi. Ftoroplast-4 ni ishlatish qaroratlari, kimyo-viy ta`sirlar, erituvchilarini ta`siri, tabletkalash, pishirish. Geksaftor-propilen bilan sopolimeri, ftoroplast-3.

## QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Polivinilxloridni suspenziyada ishlab chiqarish texnologik jarayoni.

2. Polivinilxloridni emulsiyada ishlab chiqarish texnologik jarayoni.

3. Suspenziyada olingan polivinilxlorid qaerlarda, qamda emulsiyada olingan polivinilxlorid qaerlarda ishlatiladiq

4. Viniplast va plastikatni qanday qilib chiqariladi va ularni xossalari bir-biridan nima bilan farqlanadiq

5. Polivinilidenxlorid tarkibida bitta xlor atomining ortiqligi uning qanday xususiyatlarini polivinilxloridnikidan yaxshilashga olib keladiq

6. Politetraftoretilen (ftoroplast-4) qanday usullarda sintez qilinadiq

7. Ftoroplast-4 qanday sharoitlarda kristall va amorf qolatga o`tadiq

8. Nima sababli ftoroplast-4 ni boshqa polimerlarni qayta ishlash usulla-ri bilan qayta ishlab bo`lmaydi?

9. Ftoroplast-4 ni qech qanday erituvchida erimasligi va demak kimyoviy ta`sirlarga o`ta barqarorlik sababini tushuntiring.

10. Ftoroplast-3, qamda tetraftoretilenni sopolimerlari nima sababdan suyuqlanma qoliga o`tishinè tushuntiring.

## ADABIYOTLAR

1. Minsker K.S. i dr. Starenie i stabilizitsiya polimerov na osnove vinil-xlorida. M., "Ximiya", 1982, 272 s.

2. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.91-122.

3. Ftorpolimeri / Per. s angl. Pod red. I.L.Kunyantsa i B.A. Ponomarenko. M., "Mir", 1975, 448 s.

## AKRIL VA METAKRIL KISLOTALARNING HOSILALARI ASOSIDAGI POLIMERLAR (POLIAKRILAT VA POLIMETAKRILATLAR)

Bu guruq polimerlardan eng ko`p tarqalganlari metakril kislotasining efirlari, nitrillari va amidlari asosidagi polimerlardir.

### BLOK POLIMETILMETAKRILATNI ISHLAB CHIQARISH (ORGANIK SHISHA)

Polimetilmekrilit (plastifikatsiyalangan yoki plastifikatsiyalan-magan) initsiatorlar ishtirokida silikat shishalardan yasalgan shakkarda metilmekrilitni blokda polimerlab olinadi. SHakkarda polimerlanish-da ajralib chiqayotgan issiqlikni kamaytirish qamda polimer sovuganda zichlashiø qisobiga kattaligini kichiklashishini kamaytirish maqsadida, shakkarga polimetilmekrilitni monomerdagи 10-30% li eritmasi (si-rop) solinadi. Plastifikatsiyalangan polimetilmekrilit olishda plasti-fikator sifatida ftalatlar (dibutilftalat), fosfatlar va boshqa birikma-lar (monomer miq-dorini 5-15% i miqdorida) ishlatiladi.

Varaq ko`rinishidagi organik shisha olishni uzlukli usulida texnolo-gik jarayon o`z ichiga shishà shakkarni tayyorlash, monomer yoki siropni tay-yorlab shakkarga quyish, polimerlash (monomer yoki siropni), sovutish, shakkarni ochish, tayyor maxsulotga ishlov berib qadoqlash kabi bosqichlarni oladi.

Shakklar kattaligi 1200\*1400, 1450\*1600 va 1600\*1800 mm qalinligi 5-11 mm bo`lgan silikat shishalardan tayyorlanadi. SHisha avvaliga yuvilib maxsus quritgichlarda quritiladi. Silikat shishasine chetlariga plastifikatlangan polivinilxloriddan olingan shlangalar qo`yiladi yoki ularni orasiga polivinil sperti bilan shimdirlilgan qoqoz bilan o`ralgan rezina shlangi qo`yiladi. Silikat shishalari oraliqidagi masofa organik shisha qalinligini aniqlaydi.

Polimetilmekrilitni blokda ishlab chiqarishning texnologik ja-rayoni rasm. 10 .da keltirilgan.

Rasm.10. Varak organik shisha ishlab chiqarishning texnologik jarayoni sxemasi:

1- aralashtirish jixozi: 2-vakuumlovchi jixoz; 3- shakklar; 4-polimerlash kameralari

Aralashtirgich-apparat 1 ga (rasm 10) metilmekrilit, initsiator, plastifikator, polimetilmekrilit chiqindilari va bo`yoq (bo`ylgan organik shisha olishda) solinadi.

Polimer chiqindisi organik shishani brakka chiqarilgan varaqlari, qirqilgan qoldiqlarini maydalagichda maydalab elakdan o`tkaziladi □ amda 1-8 soat davomida 40-150oS □ aroratda ishlov berilib, kerakli molekula massasiga keltiriladi.

Quyida komponentlarni aralashtirgich-apparatiga solinish miqdorlari keltirilgan (mass.qismda):

Metilmekrilit (MMA).....	100
Polimer chiqindisi.....	1-6
Dibutilftalat.....	5-8
Stearin.....	1-2
Benzoil peroksiidi.....	0.12- 0.2
Bo`yoq.....	0.002- 0.5

Yaltiroqmas, perlmutrli shisha olish uchun komponentlarga 6-9 mass.qism polistirol □ am qo`shiladè.

Apparat 1 da avvaliga PMMA ni chiqindisi MMA da 45oS da 2-3 soat davomida aralash-tirilib eritib olinadi va so`ngra plastifikator, initsiator va boshqa komponentlar qo`shiladi. □ osil bo`lgan siropni aralashtirib turib, vakuum □ osilqiluvchi idishga (2) solinadi va bu erda vakum yordamida siropdan erigan □ avo tortib chiqariladi. So`ngra sirop shakkarga (3) solinib, bu shakklar polimerlovchi shkaflargà (4) joylanadi. SHkaflarga caloriferlarda qizdirilgan qavo yuboriladi. Polimerlanish qaroratini olinayotgan varaqni qalinligiga qarab sekin-asta 40oS dan 100oS gacha ko`tariladi.

Polimerlanish vaqtini shishani qalinligiga boqliq bo`lib 20 soatdan 100 soatgacha davom etishi mumkin.

Polimerlash tugaganidan sung shakklar sovitilib ochiladi va ichidan varaqlar yoki blok-lar ko`rinishidagi polimer chiqarib olinadi. Olingan oragnik shisha varaqlari ishlov berish va nazorat qilishga yuboriladi. so`ngra kerakli kattalikda qirqilib ustiga qoqoz yopishtiriladi va taxlanadi. Silikat shishali shakklar yaxshilab yuvilgach qaytadan ishlatiladi.

## **AKRIL VA METAKRIL KISLOTASI ÝFIRLARI POLIMERLARINING XOSSALARI**

Akril va metakril kislotasi efirlarining polimerlari - yaltiroq yoki rangsiz, amorf termoplast polimerlardir. Tuzilishiga qarab xona qaroratida ular qattiq, elastik va yumshoq bo`lishlari mumkin. Polimetilmekrilar, polialkilakrilatlarga nisbatan qattiqroq bo`ladilar.

Poliakrilat va polialkilmetakrilatlarning fizik-mexanik xossalari murakkab efirni xosil qiluvchi spirt radikalining kattaligiga boqliq bo`ladi. Radikal uzunligini ortishi bilan polimerning qattiqligi, zichligi va boshqa mexanik xossalari yomonlashadi, polimerni yumshash qarorati pasayadi. Katta spirt radikallli polialkilakrilatlar qovushqoq suyuqliliklardir.

Polimetilmekrilar molekula massasi 20000 dan 200000 gacha bo`lgan (olish usuli va polimerlash sharoitiga qarab) qattiq polimer.

Blokda olingan polimetilmekrilar (organik shisha) yuqori mexanik baquvvatlikka ega bo`lib, u engil va nurni yaxshi o`tkazish qobiliyatiga ega. Plastifikaitsiyalanmagan polimetilmekrilar 1180-1190 kg/m<sup>3</sup> zichlikka, Vika bo`yicha 105-115oS, Martens bo`yicha 60-80oS issiqbardoshlikka ega bo`lib, uning suv yutishi 0.2%. Plimetilmekrilarini nur sindirish ko`rsatkichi 1.49 bo`lib u nurni inson ko`radigan qismini 91-92% ini, ultra-fiolet nurlarini 75% ini (silikat shisha 0.6-3% ni o`tkazadi), infraqizil nurni anchagina qismini o`tkazish qobiliyatiga ega.

Polimetilmekrilar yuqori dielektrikli xususiyatlarga ega va oddiy sharoitda xossalari barqarorligini yaxshi saqlaydi. Blokda olingan polimetilmekrilar 120oS da yaxshi shakl olish qobiliyatiga ega va cho`zilishga moyil.

Past qaroratda olingan stereoregulyar izotaktik polimetilmekrilarni shishalanish qarorati 45oS va suyuqlanish qarorati 160oS bo`lsa sindiotaktik polimerni shishalanish qarorati 115oS va suyuqlanish qarorati 200oS ga teng.

Tashqi kuchlar, ayniqsa cho`zilish kuchlanishlari ta`siri natijasida organik shishada yorilishlar paydo bo`lishi kuzatiladi. Kumushlanish deb ataladigan bunday qolat organik shishaning sifati va xossalari pasayishiga olib keladi. Plastifikator qo`shib, 140-150oS gacha qizdirilgan polimerni ikkita o`zar perpendikulyar yo`nalishda tortib orientatsiyalash organik shishani yorilishga chidamliligin oshiradi. Undan tashqari organik shishaning zarbiy qovushqoqligini 7-10 marotaba oshirib yuboradi.

Akril va metakril kislotasi efirlaridan olingan polimerlar 160oS gacha qizdirilganda ular suyuqlanadilar, undan yuqori qaroratlarda destruktsiyaga uchray boshlaydilar. Masalan, polimetilakrilat 250oS da destruktsiyaga uchrab past molekulali polimerga aylanadi va bu jarayonda uglerod dioksidi bilan metanol ajralib chiqadi. Polimetilmekrilar esa 300oS da depolimerlanishga uchrab 80% monomer qosil bo`lganicha parchalanadi.

Polibutilmekrilar 250oS dan yuqorida izobutilen va boshqa past molekulali moddalar ajralib chiqishi bilan destruktsiyaga uchraydi.

Akril va metakril kislotasi efirlarining polimerlari murakkab efirlarda, ketonlarda va xlorlangan qamda aromatik uglevodorodlarda yax-shi eriydi, ammo alifatik uglevodorodlar bilan spirlarda yomon eriydi. Past qutblili erituvchilarda polimerni erishi murakkab efir gruppasidagi alifatik radikal uzunligini ortishi bilan yaxshilanadi. Albatta polimer-ni molekula massasini ortishi uni eruvchanligini kamaytiradi. Xona qaroratida bu polimerlar ko`p moddalar ta`siriga chidamli. Nurlanishni polialkilakrilatlarga ta`siri, polimerni qisman destruktsiyaga uchrab, mo-lekulalarini tikilishiga olib keladi.

Poliakrilat va polialkilmetakrilatlar mos bo`yoq va pigmentlar qo`shilganda turli ranglarga bo`yalish xususiyatiga ega.

Polimerlar ichida eng ko`p ishlatiladigan polimetilmekrilar bo`lib - u qam asosan organik shishà olishda ishlatiladi.

Fizik-mexanik xususiyatlari, yuzasini qolati optik xossalari qarab organik shisha turli sort va markalarda chiqariladi.

Polimetilmekrilar elektrotexnikada quruq yuqori voltli razryadniklar konstruktsiyasida ishlatiladi.

Kimyo sanoatida polimetilmekrilarni grafit bilan to`ldirilgan xili ishlatiladi. Bu kompozitsiya, xlorle vannalarni elektrodlarini olishda qamda kimyoviy issiqlik-almashtirgich apparatlari yasashda ishlatiladi.

Polibutilmekrilaridan egiluvchan shlang, simlarni va kabellarni qobiqi olinadi va bo` materiallar yoq, ozon va boshqa atmosfera ta`siriga chidamli bo`ladi.

Akril va metakril kislotasi efirlari polimerlarini modifikatsiyalashda sopolimerlanish keng qo`llaniladi.

Sanoatda butilmetakrilatni metakril kislotasi bilan (BMK-5) sopolimeri ishlab chiqariladi. Bu sopolimer metallga yaxshi adgeziya xususiyatiga ega va nur ta'siriga chidamli.

Metilmekrilatni stirol bilan sopolimeri turli soxalarda ishla-tiladi ( ... qarang).

Akril va metakril kislotasi efirlarini vinilxlorid, vinilidenxlorid, vinilatsetat, oddiy efirlar bilan sopolimerlari ishlab chiqariladi.

### **POLIAKRILONITRIL**

Akril kislotasi nitrilining polimerini (poliakrilonitril) bi-rinch bo`lib Moro 1893 yili etiltsiangidrin va akril kislotasining amidi asosida olgan. Karozers 1931 yili poliakrilonitril asosida lateks olish usulini yaratdi. Keyinchalik, 1940 yilda akrilonitrilni butadien bilan sopolimerlash usuli ishlab chiqildi.

Poliakrilonitril ma`lum erituvchilarda erimagani sababli, undan tola olib bo`lmashdi. Birinchi marotaba tola poliakrilonitrilni dimetilformamiddagi eritmasidan olingan.

Keyinchalik poliakrilonitril kaltsiy va natriy rodanit tuzlarining suvdagi kontsentrlangan eritmalarida erishi aniqlandi. Bu qol poliakrilonitril ishlab chiqarish texnologiyasini mukammallashtirishda kattà aqamiyatga ega bo`ldi.

Poliakrilonitril va uning turli sopolimerlari "nitron" tipidagi tola, butadien-nitril kauchuklari, zARBga chidamli polistirol olishda keng qo`llaniladi.

### **POLIAKRILONITRILNI MINERAL TUZLARNING SUVDAGI ÝRITMASIDA ISHLAB CHIQARISH**

Akrilonitrilni polimerlashda natriy rodanit, natriy, kaltsiy, alyu-miniy va magniyni perxloratlarini suvdagi eritmalarini ishlatiladi. Polimerlanish aralashirgich, sovutish va isitish qobiqi bilan jiqozlangan apparatda uzlusiz usulda 79-80.5oS da atmosfera bosimida olib boriladi. Reaktorga 50.5% li natriy rodanitning suvdagi eritmasi solinib, unga 92% akrilonitril, 6% metilakrilat, 1% itakon kislotasi, 0.1% initsiator - azobisisoyoz kislotasining dinitrili aralashmasi va boshqa zanjirni o'sishini rostlovchi qo'shimchalar solinadi. Reaktsion aralashma apparatga uz-luksiz past tomonidan kiritiladi va polimerni eritmasi yuqori qismidan chiqarib turiladi. Polimerlanish vaqt 1-1.5 soat. Monomerni konversiyasi 78% ni tashkil etadi.

Hosil bo`ladigan polimer natriy rodanidining suvdagi eritmasida eriydi. Polimerlanish natijasida xarakteristik qovushqoqligi 1.2 ga teng bo`lgan poliakrilonitril qosil bo`ladi. Ýritmadan nitron sintetik tolasi va plenkalar olinadi. Bu usulda olingan polimerni molekula massasi 40000-45000 ga teng.

### **POLIAKRILONITRILNI XOSSALARI VA ISHLATILISHI**

Poliakrilonitril suyuqlanmaydigan va qiyin eriydigan amorf polimer. Polimer 220-230°C da yumshaydi va gaz moddalar (asosan ammiak) ajralib chiqish bilan parchalana boshlaydi. Poliakrilonitrildan 170°C da vodorod tsianidi ajralib chiqsa boshlaydi.

Poliakrilonitril oddiy erituvchilarda erimaydi va bo`kmaydi. Polimer dimetilformamidda, yantar kislotasining dinitrilida, bir xil mineral tuzlarning kontsentrlangan eritmalarida eriydi.

Plastifikatsiyalanmagan poliakrilonitril mo`rt bo`ladi. qizitilganda kam yumshaydi va shu sababli uni qayta ishslash ancha qiyin.

Poliakrilonitril ko`pgina kimyoviy reagentlar ta'siriga chidamli. Ishqorlarni kuchsiz eritmalarini umuman t`sir ko`rsatmaydi, ammo qarorat oshirilib ishqorni kontsentratsiyasi qam oshirilsa, poliakrilonitrilni nitril gruppasi sovunlanib avvaliga amid keyin esa amid gruppasini bir qismi karbonil gruppasiga aylanadi.

Poliakrilonitrilni soda eritmasi bilan ishlansa, sovunlanish da-rajası 30-40% ni tashkil etadi. Poliakrilonitrilga sovuqda kontsentrlan-gan sulfat kislotasi (75-95% li) ta`sir ettirilsa imid qoldiqlari saqlovchi modda qosil bo`ladi. qaroratni ortishi bilan imidlanish jarayoni qam orta boradi. Radioaktiv nurlar ta`sirida poliakrilonitrilni parcha-lanishi natijasida turli gaz qolidagi moddalar ajralib chiqadi.

Poliakrilonitrilni katta qismi kimyoviy tola olish uchun ishlatila-di. Bu tola turli xil matolar, baliq tutish to`rlari, transporter tasmalari olishda, qatlama plastiklar olishda esa to`ldirgich sifatida ishlatiladi.

### **POLIAKRILAMID**

Poliakrilamid olish uchun xom ashyo bo`lib akrilamid xizmat qiladi. Akrilamid, akrilonitrilni sulfat kislotasining monogidrati ishtiroki-da gidrolizlab olinadi.

Akrilamidni sulfat kompleksining sovutilgan eritmasidan oqak su-ti yoki ammiak bilan neytrallab ajratib olinadi.

Akrilamidni quruq qolda olish uchun ajratilgan 8% li eritma vakuum ostida buqlantiriladi.

Poliakrilamid akrilamidni radikal mexanizm bo`yicha polimerlab olinadi:

Akrilamidni polimerlanishida 81,7 kDj/mol issiqlik ajralib chiqadi. Polimerlanishni suvli eritmasida (8-10% eritma) oksidlovchi-qaytaruvchi (ammoniy persulfati - kaliy metagidrosulfat) initsiatori ishtirokida o`tkaziladi.

Polimer suvdan vakuumda, past qaroratda suvni buqlantirib yuborish orqali tozalanadi.

Poliakrilamid suvda yaxshi ervuchi oq kukun ko`rinishidagi polimer. U atsetonda, geksanda, metanolda va etanolda erimaydi, etilenglikolda, glitse-rinda, muzli uksus va sut kislotalarda yomon (1% atrofida) eriydi, propi-lenglikol, morfolin, propion kislotasida bo`kadi. Sirt-faol moddalar bi-lan yaxshè aralashadi, suvda ervuchi ko`pgina tabiiy va sun`iy polimerlar bi-lan yaxshi aralashadi.

Poliakrilamidni 100°C dan yuqorida qizdirish unda azot miqdorini kamayishiga olib keladi. Polimerni 150°C da 48 soat qizdirilsa polimer tarkibidagi azotning miqdori 18,8% ga kamayadi.

Poliakrilamid qoqoz sanoatida keng ishlatiladi. qoqozni poliakrilamid eritmasi bilan ishlash uni mustaqkamligini sezilarli darajada oshiradi. U tabiiy kauchuk va polivinilatsetat latekslarini barqarorlovchi modda sifatida qam ishlatiladi. Barqarorlovchilik xususiyati bo`yicha u polivinil spirtidan ustun turadi. Poliakrilamid tuproqni strukturasini juda qam yaxshilash xususiyatiga egà.

Akrilamidni, akril, metakril va kroton kislotalari bilan sopolimerlari tekstil maqsulotlarini pardozlashda ishlatiladi. Akrilamidni, akrilonitril bilan sopolimerlaridan "akrilan" tipidagi tola olinadi.

## ODDIY VA MURAKKAB VINIL ÝFIRLARINING POLIMERLARI

Vinil efirlari turli xil polimer va sopolimerlar olishda ishlati-ladi. Murakkab vinil efirlarining polimerlari ichida, polivinilatsetat katta aqamiyatga ega. Texnikada va boshqa soqlarda suvda 50% polimer saq-lovchi dispersiyalar qamda vinilatsetatni etilen, dibutilmaleinatlar bilan sopolimerlari keng tarqalgan.

Erituvchida olinadigan polivinilatsetatni asosiy miqdori polivi-nil spirti va polivinilatsetallarga qayta ishlanadi.

### POLIVINILATSETAT

Polivinilatsetat

Amorf strukturaga ega tiniq rangsiz polimer. Uni vinilatsetatni po-limerlab olinadi.

Texnikada polivinilatsetat emul'siyada va eritmada ishlab chiqarila-di. Ýmul'siyada ishlab chiqariø texnologik jarayoni polistirol va polivinilxloridlarni ishlab chiqarish jarayoniga o`xshash bo`ladè. SHuning uchun biz quyida polivinilatsetatni eritmada ishlab chiqarish texnologiyasini ko`rib chiqamiz.

#### Polivinilatsetatni eritmada ishlab chiqarishni uzluksiz texnologiyasi.

Polivinilatsetat olish texnologiyasi (rasm 11.), initsiator eritmasini tayyorlash, vinlatsetatni polimerlash, reaksiyaga kirishmagan vinilatsetatni qaydash jarayonlarini o`z ichiga oladi.

Vinilatsetat 1 chi reaktorga uzluksiz uzatilib turadi va bu reaktorga initsiatorni metanoldagi eritmasi qam solinadi.

Rasm 11. Uzluksiz usulda polivinilatsetat ishlab chiqarish jarayonining sxemasi:

1,2 - polimerlovchi reaktorlar; 3,5,7 - issiq almashtirgichlar; 4- kolonna; 6-buqlatuvchè

Reaktorga komponentlar quyidagi miqdorda solinadi:

Vinilatsetat % (umumiyl miqdor).....95

Metanol, % (umumiyl miqdor).....5

Azobisizoyo□ kislotasining dinitrili, mass.qism..... 0.30

Polimerlanish 65-68°C da 4 soat davomida, monomerni 35% i konversiyalanguncha davom ettiriladi.

So`ngra reaktsiya aralashmasi 2 chi reaktorga solinadi va bu reaktorga uzlusiz me-tanol qàïäà initsiatorni metanoldagi eritmasi solib turiladi. Reaktorda metanolni miqdo-ri 25-30% gacha (umumiyl miqdor) va initsiatorni miqdori 0.065-0.075 mass.qismgacha olib borila-di (vinilatsetatga nisbatan). Polimerlanish 68-70°C da 4-5 soat, monomer konversiyasi 60-65% bo`lgunicha davom ettiriladi. Polimerlanish tugaganidan keyin reaktsiya muqiti metanol qo`shib suyultiriladi.

Vinilatsetatni metanoldagi eritmasi vinilatsetatni qaydab olish uchun 4chi rek-tifikatsiya kolonnasiga uzatiladi. Vinilatsetat 6chi bu latgich or- qali berilayotgan me-tanol yordamida qaydaladi. Vinilatsetat, metanol va atsetaldegidarlari bu lari 7chi kondensator orqali regenirlash uchun yuboriladi. Polivinilatsetatni metanoldagi 25% li eritmasi qabul qilish idishiga tushiriladi.

Monomerni metanoldan bitta uch kolonnali apparatda ajratib olinadi. Vinil-atsetat tozalangach yanà tsiklga qaytariladi. Metanol ekstraktli rektifikatsiyadan va qo`shimcha tozalashdan so`ng polivinilatsetat lokini suyultirish uchun ishlatiladi.

#### Ýmulusion polivinilatsetat ishlab chiqarish

Vinilatsetatni emulsiyada polimerlanishi suv muqitida, suvda eruvchi initsiatorlar - vodorod peroksidi, kaly yoki natriyning persulfati ishtirokida amalga oshiriladi. Turli sovunlar, yoqli sulfat kislotalarning tuzlari, polivinil sperti emulgatorlar sifatida ishlatiladi. Kerakli rN ni ushlab turish maqsadida natriy bikarbonati, chumoli kislotosi kabi bufer moddalar qo`shiladi. Ýmulsiyaning sifati ishlatilayotgan komponentlar va emulsiyani olish usuliga boqliq. Ýmulsiya ikki ko`rinishda ishlab chiqariladi: mayda dispersli (lateksli), zarrachalarning kattaligi 0.05 dan 0.5 mkm gacha va yirik dispersli, zarrachalarning kattaligi 0.5 dan 10 mkm gacha. Texnikada ko`proq yirikdispersli polivinilatsetat emulsiyasi ishlatiladi.

Polivinilatsetat emulsiyasi uzlukli va uzlusiz usullarda olinadi.

## POLIVINILATSETATNING XOSALARINI VA ISHLATILISHI

Polivinilatsetat rangsiz, qidsiz, zichligi 1180-1190 kg/m<sup>3</sup> bo`lgan tiniq polimerdir. Polimerni odam organizmiga zararli ta`siri yo`q. Polimerni molekula massasi uni olish usuli va sharoitlariga qarab 10000 dan 1600000 gacha o`zgaradi. Polivinilatsetat amorf sstrukturaga ega. Vika bo`yicha issiqbardoshligi 37-38°C, shishalanish qarorati 28°C.

Polivinilatsetat yoruqlik nuri ta`siriga chidamlari. U 120°C da qovushqoq oquvchan qolatga o`tadi. Polivinilatsetatni 170°C gacha qizdirilganda destruktsiyaga uchraydi va bunda sirkal kislotosi ajralib chiqib, asosiy zanjirda qo`sh boqlar qosil bo`ladi. qosil bo`lgan qo`shboqlar qisobiga yuqori qarorat va qavo kislorodi ta`sirida polimer tikilgan qolga o`tadi.

Polivinilatsetat qutbli polimer bo`lganligidan, u suvda bo`kadi, kuch-li kislota va asoslar ta`sirida parchalanadi. Kislota va ishqorlarni suvda-gi eritmasi ta`siri ostida polivinil spirtigacha oson gidrolizlanadi. Polivinilatsetat ko`p organik erituvchilarda yaxshi eriydi, plastifikatorlar, tselyulozà efirlari, xlorlangan kauchuk, poliefirlar, fenol-formaldejid oligomerlari bilan aralashma qosil qiladi. Yuqorida keltirilgan ko`pgina polimerlar bilan polivinilatsetatni modifikatsiyalash, uni suv ta`siriga chidamliliginini va sirt qattiqligini oshiradi. Polivinilatsetat yaxsh adge-ziya xossalariiga ega. Plastifikatsiyalash polivinilatsetatni adgeziyasini yanada yaxshilaydi.

Qattiq polivinilatsetat, kichik qattiqlikka, past sovuq- va issiqbardoshlikka ega bo`lib, suv va kimyoiy moddalar ta`siriga chidamsiz bo`lganligi sababli juda kam ishlatiladi. To`ldirgichlar kiritish polivinilatsetatni issiqbardoshligini oshiradi va shu ko`rinishda u galantereya buyumlari olishda ishlatiladi.

Polivinilatsetat asosan turli lok, bo`yoq va elimlar olishda ishlatiladi. Polivinilatsetat teri, qoqoz, matolarni sirtiga ishlov berishda, sun`iy teri ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Emulsiyani suvga chidamliligin oshirish maqsadida, emulsiyani vi-nilatsetatni vinilxlorid, akril, metakril va malein kislotalarining efirlari bilan olingan sopolimerlardan tayyorlanadi.

Vinilatsetatni, vinilxlorid, metilmetakrilat, akilonitril bilan sopolimerlari ko`plab ishlatiladi va bu sopolimerlar to`qrisidagi ma`lumotlar boshqa bo`limlarda keltirilgan.

## TAYANCH SO`ZLAR

Poliakril kislotosi, polimetilmekatrilat, poliakrilonitril. Blok-da olingen polimetilmekatrilat, organik shisha, sirop, shakllar. Suspen-ziyada polimetilmekatrilat olish. Lateksli polimerlash. Poliakrilonit-ril, mineral tuzlarning suvdagi eritmasi, natriy rodanit, nitron. Poliak-rilamid. Gidroliz, qoqoz, barqarorlovchi modda.

Murakkab vinil efirlari, polivinilatsetat. Polivinilatsetatni eritmada olish. Polivinilatsetatni suvdagi emul'siyasi, elim, linoleum, xonalar ichini qoplash.

### **QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Akril va metakril kislotalari asosidagi qanday polimerni bilasizq
2. Organik shishani blokda olishning o`ziga qos usuli nimadan iboratq
3. Poliakrilonitrilni ishlab chiqarishda mineral tuzlar eritmalarining roli nimadan iboratq
4. Nitron tolasining qossalari va ishlatilish tarmoqlarini bilasizmiq
5. Poliakrilamid qanday usulda olinadiq
6. Poliakrilamidni xossalari va ishlatilishi.
7. Polivinilatsetatni uzlusiz usulda eritmada ishlab chiqarish texnolo-giyasi.
8. Polivinilatsetatning suvdagi emul'siyalari.
9. Polivinilatsetatning ishlatilishi va xossalari.

### **ADABIYOTLAR**

1. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.123-138.
2. Gudimov M.M., Petrov B.V. Organicheskoe steklo. M., Ximiya, 1981, 260 s.
3. Rozenberg M.Ý. Polimeri na osnove vinilatsetata, L., Ximiya, 1983 g., 252 s.

## **MA`RUZA - 8 ODDIY POLIÝFIRLAR**

Oddiy poliefirlar aldegidlar qamda organik oksid moddalarini polimerlash orqali olinadi. Ularga poliformaldegid (polioksimetilen), poliatsetaldegid, poliatsetallar, polietilenoksidlar, polipropilenoksidlar va ularning sopolimerlari kiradi.


### **POLIFORMALDEGID**

Formaldegidni oligomerlari birinchi marta A.M.Butlerov tomonidan olingan. Ammo texnikada ishlatilishga yaroqli poliformaldegid 1950 yillarning o`rtalarida, yuqori molekulali poliformaldegidlarni (MM-40000) sintez qilishga erishilganidan keyin amalgalash oshdi.

### **PAST MOLEKULALI (OLIGOMER) POLIFORMALDEGID**

Paraform. O`z tarkibida 90-96% formaldegid (qolgani suv) saqlagan, 8-100 molekuladan iborat polioksimetenglikolar aralashmasidan iborat.

Paraform formaldegidni kontsentrlangan suvdagi eritmasini qattiq kub qolgunicha vakuumda quritish orqali olinadi. Suvni miqdori kamaygan sari polikondensatlanish darajasi ortib boradi.



Olingan maqsulot maydalab quritiladi. Paraformni suyuqlanish qa-rorati 120-150°C(parchalanish bilan), kristallik darajasi 100%.

-polioksimetilen. -polioksimetilen formaldegidni polimeri bo`lib  $\text{HO}(\text{CH}_2\text{O})_n\text{H}$  ( $n \geq 100$ ), u 99,3-99,7% formaldegid molekulalaridan tashkil topgan. Uni 37% li metanolsiz formalin va kontsentrlangan sulfat kislotoshi (10:1) aralashmasini uzlusiz sovutib (0-10°C) olinadi. -polioksimetilen sovuq suvda yomon eriganligi sababli cho`kmaga tushadi. qattiq polimer katalizatoridan suv bilan yuviladi va vakuumda quritiladi. Polimerni suyuqlanish qarorati 170-180°C (parchalanish bilan).

### **FORMALDEGIDNI POLIMERLANISHI**

Formaldegid kimyoviy beqaror va shu sababli o`z-o`zidan turli moddalar ishtirokida polimerlanadi. Formaldegidni polimerlanishi uchun ozgina miqdorda aminlar, to`rtlamchi ammoniy asoslari, R, As va Sb larning alkil birikmalari, Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, BF<sub>3</sub>, Lyuis kislotalarining qo`shilishi etarlidir. Formaldegid ozgina suv ishtirokida qam yaxshi polimerlanadi. Polimerlanish jarayoni 100oS dan pastda olib boriladi, chunki 100oS dan yuqorida po-limer tarkibidagi OH gruppalar polimerni katta tezlikda depolimerlanishi olib keladi. SH<sub>2</sub> sababli yuqori qarorat ta`siriga chidamliligin oshirish maqsadida qamda yuqori qaroratda

qayta ishlashni amlga oshirish maqsadida (suyuqlanish qarorati 180oS) poliformaldegidni OH gruppalarini atsetillab berkitiladi.

Poliformaldegidni atsetillash uksus angidridi yordamida 140-150oS da amalga oshiriladi. Buning natijasida atsetat gruppalar bilan berkitilgan OH gruppalar 90-95% ni tashkil etadi. Bunday poliformaldegid 250oS gacha chidamli bo`lib gomopolimerni qayta ishlash qarorati 220oS da (30-40 minut) parchalanmay qayta ishlanadi.

Poliformaldegidni issiqqa chidamlilagini uni etilenoksid yoki 1,3-doksalan bilan sopolimerlash yordamida qam oshirish mumkin. Sopolimerlanishni BF3 ishtirokida olib boriladi. Sopolimer tarkibida somonomerning miqdorini ortishi bilan uning issiqlardoshligi ortadi, ammo krstal-lik darajasi, suyuqlanish qarorati, issiqlik ta`sirida deformatsiyaga chi-damliligi, mexanik xususiyatlari yomonlashadi. Odatda 5% gacha somonomer saqlagan sopolimerlar sintz qilinadi (suyuqlanish qarorati 164-168°C).



Hozirgi vaqtida poliformaldegidni 3 xili ishlab chiqariladi. Ular-ni biri formaldegidni gomopolimeri bo`lib uning OH gruppalarini atsetat gruppalariga almashtirilgan, ikkinchi va uchinchisi formaldegid yoki triok-sanni S S boqli moddalar bilan sopolimerlaridir.

Gomopolimer yuqori kristallik darajasiga, katta qattiqlik va mustaqamlilikka ega. Shuning uchun u odatda mashinasozlikda va asbobsozlikda konstruktsion material sifatida ishlataladi (vtulkalar, tishli qildiraklar, shesternyalar, dastgoqlarning korpuslari, ventiller, pereklyuchatellar va q.k.). Sopolimerlar ko`pincha poliatsetallar deb ataladi. Poliatsetallar ishqalanishga va past qarorat (-40°C) ta`siriga chidamli bo`ladilar.

### TRIOKSANNI POLIMERLANISHI

Trioksan formaldegiddan farqli o`laroq ancha brqraror birikma bo`lib turli aralashmalardan engil tozalanadi. Trioksan kation polimerlanishga uchrab unchalik ko`p issiqlik ajralib chiqmaydi - 22,6 kDj/mol (71,0 kDj/mol formaldegid polimerlanganda ajralib chiqadigan issiqlik). SHuning uchun qam ko`p energiya sarfiga qaramay poliformaldegidni trioksandan olish rentabelli qisoblanadi.

Trioksandan polimerni gaz, suyuq, qattiq fazalarda qamda eritmada olish mumkin. Bunda qosil bo`lgan polimerni kimyoviy tuzilishi, formaldegiddan olingan polimerdan farq qilmaydi. Ammo bu polimerning morfologik o`ziga qosligi sababli polimerni geterogen sharoitda atsetillab bo`lmaydi va demak barqarorligini oshirib bo`lmaydi. SHuning uchun sanoatda asosan trioksan boshqa monomerlar bilan, masalan 1,3-dioksolan bilan sopolimeri ishlab chiqariladi (rasm ...).

Polimerlanish 1.5-2% dioksolan, 40-50% trioksan saqlagan benzin muqitida, kation katalizatorlari ishtirokida olib boriladi. Reaksiya odatda monomerlarni 35-60% li konversiyasigacha bir necha soat davom etadi.

### POLIÝTILENOKSID

Olinish usuliga va molekula massasiga qarab polietilenoksidning turli xillari bir-birlaridan tubdan farq qiladilar. Makromolekulalarning uchida OH gruppalar bilan tugallanuvchi polimerlar - polietilenglikollar etilenoksidni etilenglikol (initiator) ishtirokida polimerlab olinadi. Bunday polietilenglikollarni molekula massasi 40000 gacha bo`lib polimerlanishga qancha ko`p etilenglikol olinsa, shuncha past bo`ladi. Quyuq suyuqlik qolatidagi polietilenglikollar odatda yuqori elastiklikka ega bo`lgan elastik ko`pik poliuretanlar olishda poliefirpoliollar sifatida ishlataladi.

Yuqori molekulali polietilenoksid ( $\text{MM}=500000-10000000$ ) suvda yaxshi eriydi. Polietilenoksidni kukun yoki granula ko`rinishida Zn- va Mg-organik katalizatorlari ishtirokida etilenoksidni suspenziyada polimer-lab olinadi. Polimerning kristallik darajasi 92-95% ni tashkil etadi. U ko`pgina erituvchilarda (parafin uglevodorodlaridan tashqari) eriydi.


Ýkstruziya, bosim ostida quyish kabi usullar yordamida engil qayta ishlanadi.

Yuqori molekulali polietilenoksid lateksi bo`yoqlar ishlab chiqarishda quyltiruvchi sifatida, oziq-ovqat sanoatida qadoqllovchi mate-rial sifatida ishlataladi. Meditsina va farmatsevtikada qam qadoqllovchi sifatida ishlataladi. Yuqori molekulali polietilenoksid yaxshi koagulyant va flokulyantdir. Polietilenoksidni suvdagi yoki suv-organik erituvchilar-dagi 0.001-0.003% li eritmasi, shu eritmalarda gidrodinamik

qarshilikni 70% gacha kamaytirishga olib keladi. Bu ko`rsatkich polimer molekula massa-sini ortishi bilan kuchayadi, qaroratni ortishi bilan kamayadi.

Shuning uchun polietilenoksid ko`plab quvurlar orqali turli suyuqliklar, eritmalar, pulpalarini qaydashda gidrodinamik qarshilikni kamaytirishda ishlatiladi.

## POLIPROPILENOKSID



propilenoksidni glitserinning K (kaliyli) tuzi ishtirokida (monoglitsertat

K) polimerlab olinadi. Polipropilenok-sid och sariq rangidan jigarrang rangigacha bo`lgan quyuq suyuqlik bo`lib, u o`z tarkibida 1.5-1.7 (mgKON/g) gidroksil gruppalarini saqlaydi (zanjirni uchlarida).

Propilenoksidni etilnoksid bilan sopolimerlari sirt-faol xusu-siyatiga ega.

Plipropilenoksid va uning sopolimerlari OH saqlovchi poliefirpo-liollar sifatida elastik ko`pikpoliuretanlar olishda ko`plab ishlatiladi.

## PENTAPLAST [POLI-3,3-BIS(XLORMETIL)OKSATSIKLOBUTAN]

3,3-bis(xlormetil) oksatsiklobutanni organik erituvchilar muqitida (metilenxlorid va b.) BF3 ishtirokida (uchalyuminiy qam yaxshi katalizator) inert gaz muqitida (azot muqitida) polimerlab pentaplast degan polimer olinadi. Polimerning molekula massasi 250000-400000 gacha bo`ladi. Birikkan Clning miqdoi 45,5% gacha. Xlor atomlari polimer molekulasida ug-lerod atomlari bilan boqlanganliklari sababli, bunday boqlar yuqori ki-myoviy muqit barqarorligiga ega bo`ladilar. 285oS gacha qizdirilganda pentaplast (penton) yumshaydi, lekin destruktisiyaga uchramaydi.


Pentaplast faqat tsiklogeksanon va xlrbenzolda qamda qaynayotgan dioksan va dimetilformamidda eriydi. Yuqori kimyoviy barqaror polimerlardan biri. Kimyoviy ta`sirlarga chidamlilikda polivinilxloriddan ustun, ammo ftoroplastlardan kamroq chidamli. U 100oS gacha qizdirilganda qam kontsentrlangan mineral kislotalar ta`siriga chidamli, ammo oksidlovchilik xususiyati bor kislotalarda parchalanadi. Maydalab kukun qoliga keltirilgan xrom oksidini to`ldirgich sifatida ishlatiø pentaplastni kimyo-viy ta`sirlarga chidamliligin oshiradi.

Pentaplastni 0.5% li eritmasining (tsiklogeksanondagi) keltirilgan qovushqoqligi 1.6 gacha bo`lsa, uni kimyoviy apparatlar va quvurlarni yuzasida korroziyaga qarshi qoplamlar qoplash uchun ishlatiladè.

Keltirilgan qovushqoqligi 1.6 dan yuqori bo`lgan polimerlardan varaqlar olinib, ular bilan katta qajmdagi kimyoviy apparatlarni ichlari qoplanadi. qoplama epoksid elimlari yordamida yopishtirilib, qoplamlarni uchrashish joylari kavsharlanadi. Yupqa qoplamlar 0.5 mm gacha - kukun ko`rinishidagi polimerni gaz alangasi yordamida changlatib qam olinadi.

## POLIURETANLAR

Makromolekula asosiy zanjirida uretan guruqlarini saqlovchi yuqori molekulalii birikmalar poliuretanlar deb ataladi.




Poliuretanlarni di- yoki poliizotsianatlarni ikki yoki bir nechta gid-rooksil gruppali moddalar bilan bosqichli (migratsiyali) polimerlab olinadi. SHunday gidroksilsaqlovchi moddalar sifatida ko`pinchà oddiy va murakkab poliefirlar ishlatiladi. Bunday usulda olingan poliuretanlar poliefiruretanlar deb ataladi.

Hozirgi vaqtida poliuretanlarni ishlab chiqarish keng rivojlanib bormoqda.

## POLIURETANLARNI SINTEZ QILISHNING O`ZIGA HOSLIGI

Poliuretanlarni massada va eritmada (xlorbenzol, toluol, dimetil-formamid) olish mumkin. Diizotsianat va diglikollarni ta'siri natijasi-da chiziqli tuzilishga ega poliuretanlar qosil bo'ldi.



Funktionalligi ikkidan ortiq monomerlarni polimerlanishi nati-jasida tarmoqlangan yoki tikilgan strukturali polimerlar qosil bo`ladi.

Geksametilendiizotsianat va butilenglikol asosida polimer quyidagi sharoitlarda olinadi.

Aralashtirgich va qobiq bilan jiqozlangan reaktorga butilenglikol solinadi va azot atmosferasida 85-90°C gacha qizdirilib, katta tezlikda aralashtirib turilgan qolda ozgina-ozginadan 30-60 minut ichida geksametilendiizotsianat qo'shiladi. Ýkzotermik reaktsiya tugagach qaroratni 190-210°C ga ko'tarilib shu qaroratda reaktsiya oxirigacha etkaziladi. Jarayon polimer suyuqlanmasini qovushqoqligi yoki polimerni m-krezoldagi eritmasini qovushqoqligi orqali nazorat qilinadi.

Reaktsiya tugaganidan keyin polimerdan gazlarni qaydab chiqarish maqsadida reaktorda vakuum (qoldiq bosim 2,6-5,2 kPa) qosil qilinadi va reaktordan polimer suyuqlanmasi tasma ko'rinishida siqilgaí azot yordamida siqib chiqariladi. Polimer tasmasi sovutilib maydalanadi va quritiladi.

## **POLIURETANLARNI XOSSALARI VA ISHLATILISHI**

Xom ashyo va komponentlarning tabiatи, tuzilishiga qarab poliuretan-lar termoplastik va termoreaktiv, улардан олинган бумлар esa plastik, mo`rt, yumshоq va qattiq bo`lishi mumkin.

Past molekulali glikollardan olingan chiziqli poliuretanlar tola qosil qilish qususiyatiga egalar. Tortilish qisobiga tola olish jarayonida makromolekulalar orientatsiyalanadi va bu qol polimerni kristallik dara-jasi qamda mustaqkamligi ortishiga olib keladi.

Chiziqli poliuretanlarni mustaqkamligi ko`p jiqatdan qo`shti makro-molekulalardagi imin va karbonil guruqlari orasida paydo bo`ladigan vo-dorod boqlariga boqliq. SHunday makromolekulalararo vodorod boqlarining kamayishi polimerni kristallik darajasini pasayishiga qamda uning yum-shash qaroratini va mexanik mustaqkamligini kamayishiga olib keladi.


Poliuretanlarni asosiy zanjiridagi kislorod atomlari polimerni suyuqlanish (yumshash) qaroratini kamaytiradi va polimerni organik eri-tuvchilarda erishini yaxshilaydi. SHu bilan birga kislorod atomlarini za-njirda borligi poliuretanlarga elastiklik (egiluvchanlik) beradi va po-limerni qayta ishlashni osonlashtiradi. Poliuretanlar suvni kam shimadi, sovuqbardosh, yuqori adgeziyaga va ishqalanishga chidamlilikni namoyon etadi.

Poliuretanlardan elastik va eskirmaydigan tola va pardalar olinadi. qimoya qoplamlari, simlarni emallah, mebel va oyoq-kiyim ishlab chiqarishda issiqbardosh, suv va atmosfera ta'siriga chidamli poliuretan elimlari va loklari ishlataladi. Molekula massasi 1000-3000 bo`lgan oddiy va murakkab poliefirpoliollar asosida olingan poliuretan elastomerlari yoq-, benzin ta'siriga chidamli, yuqori elastiklik va katta mustaqamlilikka ega (uzilishdagi nisbiy cho`zilishi 500-1000%, cho`zishdagi buzilsh kuchlanishi 19,6-49,0 MPa) polimerlardir. Poliuretan elastomerlari edirilishga o`ta chidamli bo`lganliklari sababli, ulardan shinalar, toq jinslarini tashuvchi konveyer tasmalari ishlab chiqariladi.

Ammo poliuretanlar asosan ko`pik poliuretanlar olishda ishlatiladi.

## KO`PIK POLIURETANLAR

Ko`rik poliuretanlar di- va poliizotsianatlarni oddiy va murakkab gidroksil saqlovchi poliefirlar bilan suv va katalizator ishtirokida o`zaro ta`sirlashishi natijasida olinadi. Ko`rikantiruvchi modda sifatida izotsianatlarni suv bilan reaktsiyasi natijasida ajralib chiquvchi uglerod ikki oksidi xizmat qiladi:




Katalizatorlar sifatida uchlamchi aminlar va ruxning organik birik-malari ishlatiladi. Ko`rsatilgan komponentlardan tashqari ko`pik plastik-lar retsepturasiga turli xil moddalar - ko`pikni barqarorlovchi, qo`shimcha ko`pirtiruvchi moddalar (masalan, freonlar), buyoq, sirt faol moddalar, re-aktsiyalar tezligini rostlagichlar qo`shiladi.

Ko`pik poliuretanlarni ikki guruqga bo`lish mumkin: chiziqli yoki oz-gina tarmoqlangan poliefirlar asosidagi elastik ko`pik plastlar qamda o`ta tarmoqlangan zikh tikilgan polimerlar qosil qiluvchi poliefirlar asosida-gi qattiq ko`pik plastlar.

Ko`piklantirilgan poliuretanlarni zichligini suv miqdorini o`zgartirish qisobiga rostlanadi. Kompozitsiyaga qo`shilgan suvning miqdorini ortib borishi bilan olinayotgan ko`pik plastlarning tuyulma zich-ligi shunchalik kamayadi. Masalan, tuyulma zichligi 32 kg/m<sup>3</sup> bo`lgan ko`pik po-liuretan olishda, izotsianat guruqining faqatgina 25% i poliefirni gid-roksil guruqlari bilan qolgan 75% i esa suv bilan reaktsiyaga kirishadi.

Boshqa xildagi qo`shimcha reaktsiyalarni ketishi qisobiga, ko`pik poli-uretanlarni olishda, uretan boqlardan tashqari turli boqlar qam qosil bo`ladi. Masalan, izotsianat guruqini suv bilan reaktsiyasè natijasida qosil bo`ladigan birlamchi amino guruq izotsianat guruqi bilan quyidagicha reak-tsiyaää kirishadi.



Reaktsiya natijasida o`rin almashgan karbamid qosil bo`lib, unda azotga birikkan vodorod atomlarining qarakatchanligi tufayli, ular izotsianat guruqlari bilan yuqori qaroratda reaktsiyaga kirishèá makromolekulalarni qisman tikilishiga olib keladi ("karbamid" tikilish):

Tikilish boqlari uretan va izotsianat guruqlarini o`zaro ta`siri na-tijasida qam qosil bo`lishi mumkin.

Makromolekulalarda bo`sh qolda qolgan izotsianat guruqlari trimer-lanib, o`rin olmoshgan izotsianuratlarga aylanishi qam mumkin:

Sanoatda ko`pik poliuretanlar ikki usulda olinadi: bir bosqichli va ikki bosqichli usullarda.

Bir bosqichli usulda qamma komponentlar - poliefir, suv, katalizator, barqarorlovchi, emulgator, izotsianat aralashtirgichli apparatda aralashtiriladi. Ko`piklanish shu zaqotiyoy, ko`pikni ko`tarilishè 10 sekundlar atrofida boshlanadi va 1-2 minut ichida tugallanadi. Ko`pikning qotishi bir necha soatdan bir kungacha davom etadi.

Ikki bosqichli yoki forpolimer usulida, avvaliga poliefir keragidan ko`proq olingan izotsianat bilan ta`sirlashtiriladi. qosil bo`lgan forpo-limerga ikkinchi bosqichda aralashtirib turib suv, katalizator, barqaror-lovchi va emulgator qo`shiladi.

### **ELASTIK KO`PIK POLIURETANLAR**

Ýlastik ko`pik poliuretanlar oddiy va murakkab gidroksilsaqllovchi poliefirlar asosida ishlab chiqariladi. Ýlastik poliuretanlarni eng ko`p tarqalgan vakili - porolon qisoblanadi. Porolon ishlab chiqarish uchóí adi-pin kislotosi, dietilenglikol va trimetilolpropan asosida olingan mu-rakkab poliefir, qamda 2,4-toluilendiizotsianat bilan 2,6-toluilendiizo-tsianatni (65:35) aralashmasi va suv xom ashyo sifatida qo`llaniladi.

Elastik ko`pik poliuretanlar issiqlik va tovush o`tkazmaslik, yaxshi dielektrik va amortizatsiyalaø xossalariiga ega. Ular yoqoch, metall, qoqoz, ma-tolar bilan oson elimlanadi. Murakkab poliefirlar

asosidagi elastik ko`pik poliuretanlar, oddiy poliefirlar asosida olingen elastik ko`pik poliuretanlarga nisbatan yuqoriroq cho`zilishdagi mustaqamlilikka, oksidla-nib eskirishga chidamlilikka, erituvchi va yoqlar ta`siriga chidamlilikka ega, ammo kmroq qayishqoqlikka, sovuqbardoshlikka ega va namlik ta`sirida tezroq eskiradi.

Yopiq qovakli elastik poliuretanlar suzib yuruvchi buyumlar olishda, issiqlik va sovuqlikdan qimoya qiluvchi buyum sifatida ishlatiladi. Ochiq qovakli ko`pikplastlar, yostiq, o`tirqich, sungichlar sifatida ishlatiladi.

Hozirgi vaqtida ko`plab integral ko`pik poliuretanlar (zich sirtqi plenkaga ega va o`rtasi ko`piklashgan) ishlab chiqarilmoqda.

### **QATTIQ KO`PIK POLIURETANLAR**

Qatiq ko`pik poliuretanlar asosan quyish va puflab changlatish usul-larida olinadi.

Yuqoriroq qaroratda va aralashtirib turib poliefir, katalizator, emulgator va suvni aralashmasi tayyorlab olinadi. Bir oz vaqt (20-30 min) 30°C qaroratda ushlab turilganidan so`ng toluilendiizotsianat solib 1-2 minut aralashtiriladi. Aralashtirish natijasida massaning qarorati 5-10°C ga, qovushqoqligi ortib, qisman ko`piklanadi. So`ngra tayyor maqsulot shakliga mos chegaralangan shakllarga quyiladi. Ko`piklangan poliuretan shakllarda 30-35 min ushlab turiladi va bu vaqtida ko`pikplast kerakli struktura va qattiqlikka erishadi.

Ko`pik poliuretanni turli materiallar yuzasida puflab changlatish orqali olishda, bir joydan boshqasiga oson ko`chirish mumkin bo`lgan juda katta bo`lмаган, komponentlarni qizdirish mumkin bo`lgan idishlar, nasos va changlatuvchi pistolet bilan jiqozlangan dastgoqdan foydalaniladi.

Changlatilgan qatlamning qalinligi 5-50 mm bo`lib, olingen ko`pik-plastning zichligi 35-200 kg/m<sup>3</sup> bo`ladi.

Murakkab poliefirlar va diizotsianatlardan olingen qattiq ko`pik poliuretanlarni ayrim xossalari quyida keltirilgan:

Tuyulma zichlik, kg/m <sup>3</sup>	60	100	200
Siqilishdagi bo`linish kuchlanishi, MPa	0,20	0,78	2,45
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup>	0,48	0,39	0,59
Issiqlik o`tkazish koeffitsienti, Vt/(m*K)	0,024	0,031	0,057
Dielektrik yo`qotishning tangens burchagi, 1010 Gts	1,05	1,1	1,23
Sovuganda chiziqli qisqarish, 24 soatda, %	0,6	0,3	0,5
Ishchi qaroratni yuqori chegarasi, oS	100	130-150	170
Suv yutishi, 24 soatda, kg/m <sup>2</sup>	0,2	0,1	0,1

Qattiq ko`pik poliuretanlar issiqlik o`tkazmaydigan materiallardir. Ular qaynayotgan suv, benzin, kerosin, suriluvchi yoqlar, tuzlarning suvdagi eritmasi, etil spiriti ta`siriga chidamli. Ko`pik plastiklarning yuzasi so-vunli suv bilan oson tozalanadi va ular chirishga chidamli. qattiq ko`pik po-liuretanlar yaxshi elektr izolyatsiya xossasiga ega. Undan tashqari ular yoqochga, metallga, matolarga va boshqa materiallarga yuqori adgeziya xususiya-tini namoyon etadilar. Kichkina zichlik va oz miqdorda suv yutishi qattiq ko`pik poliuretanlarni cho`kmaydigan qayiqlar va pontonlar, uch qamda ko`p qavatli konstruktsiyalar (yuqori issiqbardosh, tebranishga chidamli va elek-tromagnit to`lqinlarini yaxshi o`tkazuvchi) olishda ishlatish imkonini bera-di. qattiq ko`pik poliuretanlar qurilishda, avia-, avto- va katta qayiqlar qurishda, muzlatgichlar olishda ishlatiladi. qattiq ko`pik poliuretanlarni xossalalarini yaxshilash va qiymatini arzonlashtirish maqsadida turli xil to`ldirgichlar ishlatiladè (shisha tolalari va matolari).

Poliuretan ko`pik plastiklari bilan betonli konstrukttsiyalarni tirqishlari, eshik derazalari bo`shliqlarè to`latiladi.

Shuning bilan birga qattiq ko`pik poliuretanlarni o`ziga xos bir qancha kamchiliklari bor. Bu kamchiliklarga ularni alanga ta`sirida 100% yonib ketishi, yuqori qaroratlarda (150oS dan yuqorida) parchalanib zaxarli gazlar ajratib chiqarishi kiradi. SHuning uchun qam ko`pik poliuretanlarni ushbu kamchiliklarini yo`qotish katta aqamiyatga ega.

Bu yo`nalishda Toshkent kimyo-texnologiya instituti "Yuqori molekula-li birikmalar kimyoviy texnologiyasi" kafedrasida (2000 yilgacha kafedra "Plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasi" nomè bilan atalgan) oxirgi 20 yilda qilinayotgan ishlar diqqatga sazovordir.

### **POLIURETANLAR ASOSIDA QUYMA BUYUMLAR**

Quyma buyumlar ishlab chiqarish uchun geksametilendiizotsianat va bu-tilenglikol asosida olingan chiziqli poliuretan ishlatiladi. Molekula massasi 13000-15000 bo`lgan poliuretanlardan tola ishlab chiqariladi. Yuqoriroq molekula massasiga ega poliuretanlardan bosim ostida quyish usulida turli buyumlar olinadi.

Quyma poliuretan buyumlarini fizik-mexanik xossalari quyidagicha:

Tuyilma zichlik, kg/m <sup>3</sup>	12010
Buzilish kuchlanishi, MPa	
cho`zilishda	
siqilishda	
egilishda	
49,0-58,7	
78,4-83,2	
69,0-78,4	
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup>	49,4
Suyuqlanmaga o`tish qarorati, °C	176-180
Martens bo`yicha issiqbardoshlik, °C	60
Issiqlik o`tkazish koeffitsienti, Vt/(m*K)	0,31
Solishtirma qajmiy elektr qarshiligi, Om*sm	1*10 <sup>14</sup> -2*10 <sup>14</sup>
Dielektrik yo`qotishning tangens burchagi, 106 Gts	0,014-0,020
Dielektrik singdirish, 106 Gts	4,5-4,8
Ýlektr mustaqamligi, kV/mm	20-25
quyishdagi qisqarish, %	1,0-1,2
Suv yutishi (maksimal), %	2

Chiziqli poliuretanlar buyumlarga (pardalar, varaqli materiallar, ingichka plastinkalar) 180-185oS da qayta ishlanadi. Buyumlar uzoq vaqt yuqori namlikda 100-110oS da ishlatilishi mumkin. Ularni radio- va elektr texnikasida ishlatiladi.

### **QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Nima sababdan poliformaldegidni 90-95% gidroksil guruqi atsetat gu-ruqiga aylantiriladiq
2. Polietilenoksidni qanday o`ziga xos boshqa polimerlarda uchramaydigan xossalari bilasizq
3. Pentoplast nima sababli kimyoviy ta`sirlarga chidamli bo`laæe?
4. Poliuretanlar qanday reaktsiya natijasida sintez qilinadiq
5. Termoplastik poliuretanlar qanday xossalari asosida, shina va tasmalar ishlab chiqarishda ishlatiladiq
6. Ko`pik poliuretanlar olishni qanday texnologik ustunliklarini bila-sizq
7. Ýlastik ko`pik poliuretanlar (porolon) qanday usulda va qanday xom ashyolardan olinadiq
8. qattiq ko`pik poliuretanlar qanday olinadi va qaerda ishlatiladiq

### **ADABIYOTLAR**

1. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.181-192.
2. Kompozitsionnie materiali na osnove poliuretanov. Per. s angl. Pod red. F.A. SHutova. M., Ximiya, 1982, 214 s.

## MA`RUZA - 9

### FENOLFORMALDEGID POLIMERLARI

Fenol va formaldegidning suvdagi eritmasi formalin asosida ishqoriy va kislotali muqitlarda olinishi mumkin.

Ishqoriy muqitda fenol bilan formaldegiddan avvaliga mono-, di-, trimetilofenollar (fenolospirtlar) qosil bo`ladi.

Mono-, di-, trimetilofenollarning o`zaro nisbati fenol bilan formaldegidning reaktsiya uchun olingai molyar miqdorlarigacha boqliq. Agarda formaldegidni miqdori 1 mol fenolga teng yoki kam bo`lsa ko`proq monome-tilolfenol qosil bo`ladi. Formaldegidni miqdori ortishi bilan reaktsion muqitda di- va trimetilofenollarning miqdori qam ortib boradi.

Ishqoriy muqit ushlab turilib, formaldegid miqdori fenolnikidan ko`p bo`lsa rezol deb ataladigan fenol-formaldegid smolalari qosil bo`ladi.

Fenol bilan formaldegidni nisbati 7:6 bo`lib muqit kislotaliga ay-lantirilsa novolak deb ataladigan smola qosil bo`ladi. Uning umumiy ko`rinishi quyidagicha bo`ladi.

Rezol smolalari novolak smolalaridan farqli bo`lib ular o`z tarkib-larida reaktsiyaga kirishish qobiliyatiga ega bo`lgan metilol gruppalarini saqlaydilar. SHuning uchun qam rezol smolalari issiqlik ta`sirida qech qanday katalizator yoki qotirgichlarsiz qam to`rsimon (tikilgan) qolatga o`tadilar.

Novolak smolalari ularga qotirgich (urotropin-geksametilentetramin) qo`shilib qizdirilsa to`rsimon qolatga o`tadilar. To`rsimon qolga o`tgan polimer erituvchilarda erimaydi, yuqori qarorat ta`siri ostida qovushqoq oquvchan yoki yuqori elastik qolatga o`tmaydi. SHu-ning uchun qam bu turdagি polimerlar avvaliga novolak va rezol qolida sin-tez qilinib ular to`rsimon qolatga tayyor maqsulot olish jarayonida o`tkaziladi. Fenol-formaldegid smolalaridan ko`plab turli-tuman loklar tayyorlanadi va bu loklar turli yuzalarni qoplama bilan qoplashda ishlati-ladi. Undan tashqari fenolformaldegid smolalari asosida ularga to`ldirgichlar, qotirgichlar va boshqa qo`shimchalar qo`shib polimer kompozi-tsiyalari tayyorlanadi (keyingi boblarda ko`rib chiqamiz) va bu kompozitsiya-lardan elektrotexnikada va mashinasozlikda ishlatiladigan maqsulotlar olinadi.

Fenolaldegid oligomerlari formaldegid va fenolning gomologlari-dan qam olinadi. Masalan, bu maqsadlar uchun ko`pincha krezol (o, m, n-krezollar), ksilenol (3,5; 3,4; 2,5; 2,6 ksilenollar) ishlatiladi. Ksilenol-lar asosida olingan oligomerlar krezollar asosida olingan oligomerlar-dan ancha sekin qotadilar. Fenolformaldegid oligomerlari tarkibida 40% fenolni ksilenol bilan almashtirilsa, yaxshi novolak smolalari qosil bo`ladi. Fenolformaldegid smolalaridan qam tezroq qotadigan oligomer-larni, sintez paytida reaktsiyani faqat m-krezol bilan formaldegidni reaktsiyaga kirishtiradigan katalizatorlar ishtirokida olib borish qisobiga olish mumkin (masalan, n-krezol asosida asosan termoplastik oligomerlar qosil bo`ladi). SHuning qisobiga krezol-formaldegid oligomerlaridan olingan plenkalarini dielektrik qususiyatlari va elastikligi fenolfor-maldegid plenkalaridan ancha yuqrө bo`ladi.

#### **NOVOLAK OLIGOMERLARINI ISHLAB CHIQARISH.**

Sanoatda novolak oligomerlarini uzlukli va uzlusiz usullarda olish mumkin.

Sanoatda uzlusiz usul xar sektsiyasi "ideal" aralashtirish rejimiga yaqin sharoitda ishlaydigan ko`p sektsiyali apparatda amalga oshiriladi. Novolak oligomerlarini ishlab chiqarishda (rasm 12) polikondensatsiya, bir-biridan ajratgichlar yordamida berkitilgan uch yoki to`rtta sektsiyadaí (tsargadan) tashkil topgan kolonnali reaktorda olib boriladi. Bunday reaktorda xom a`shyo kontsentratsiyasini aralashmadagi kontsentratsiyasi asosan xarakatlantiruvchi kuch xisoblanadi. Bu farq sekin asta birinchi sektsiyadan keyingilarida kamayib boradi.

### **Rasm 12. Novolak fenol-formaldegid oligomerlarini uzlusiz usulda ishlab chiqarish jarayonininā sxemasi.**

1-meyorlovchi nasos; 2-rekuperatsiyalovchi issiq olmashgich; 3-reaktor; 4-qavatlarga aj-ratgich; 5-nasos; 6-buqlatish apparati; 7-standartlovchi reaktorlar; 8-sovitgich; 9-sovitish barabani.

Apparatni uzlusiz ishlab turish sharoitida, ishlab chiqarish unumdorligini, reaktsion aralashmanè solish, reaktordan chiqarish xamda xaroratni ko`tarishga ketgan vaqtini qisqartirish xisobiga oshirish mumkin. Ko`p sektsiyali apparatda xom a`shyonи ko`plab marotaba aralashtirilishi, reaktordan chiqayotgan massada bo`sh monomerlar miqdorini kamaytirib yuborilishiga olib keladi. Uzlusiz usul xossalari barqaror bo`lgan oligomerlar olish vaqtini 3 barobardan ko`ra ko`proq qisqartirishga olib keladi. Bu usul asosan bir xil navdagи novolak oligomerini ko`plab ishlab chikarishda keng qo`llaniladi. quyida shu usulda novolak oligomeri-ni ishlab chikarishni texnologik jarayoni keltirilgan (rasm.12).

Fenol, formalin va katalizator meyorlovchi nasos (1) yordamida 2 chi rekuperatsiyalovchi issiq almashtirgichga uzatiladi. Isitilan boshlan□ ich modddar 3 chi reaktorga uzatiladi. Xosil bo`lgan bu□ lar 2 chi rekuperatsiyalash issiq almashgichga tushib u erda boshlan□ ich xom a`shyonи qizitish uchun o`z issiqligini beradi. Reaktorda xarorat 94-98 0S da ushlab turiladi. Reaktsiyaga kirishayotgaí aralashma avvalgi sektsiyani tepe qismini keyingi sektsiyani past qismi bilan tutashtiruvchi kolonnaning tashki quvirlari orqali bir sektsiyadan ikkinchi sektsiyasiga o`tadi. Aralashtirish sektsiyalarning qobiklariga berilayotgan bu□ yordamida reaktsiya muxitini qaynashi amalga oshiriladi. Aralashma-uzluksiz ishlovchi cho`ktiruvchi (4) ga uzatiladi va u erda suv xamda oligomer qavatlariga ajratiladi. Bu erdan oligomer 5 chi nasos yordamida 2 ta ketma ket ulangan bir quvirli 6 chi quvur qobiqli issiq almashgichga uzatildi. Suv esa oqava suvlarni tindirish sistemasiga uzatiladi. Oligomer quvurni ichki qismidan yupka qavat qilib 110-190 0S xamda 532 GPa bosimda bir marotaba o`tkazilishini o`zidayoq quritiladi. quritish apparatidan suyuqlanma xolidagi oligomer va uchuvchे moddalarning bu□ lari standartlovchi apparatlardan (7) biriga kelib tushadi. O`z tarkibida fenol xamda formaldegid va suv bu□ lari saqlagan uchuvchi moddalar 8 chi sovitgichda kondensirlanadi. Xosil bo`lgan kondensat (30% gachan fenol va 2,5% gachan formaldegid) polikondensatsiya jarayoniga qaytariladi. Oligomer suyuqlanmasi 7 chi standartlovchi apparatdan 9 chi aylanayotgan barabanga uzatiladi va baraban yuzasida ingichka qatlamda sovitiladi. qotirilgan oligomer barabandan ingichka qavat qilib qirqib (sidirib) olinadi.

Novolak oligomerlarini granula ko`rinishida ishlab chiqarishda baraban o`rniga granulalovchi dastgoq ishlatiladi.

## **REZOL OLIGOMERLARINI ISHLAB CHIQARISH.**

Rezol oligomerlari fenol bilan formaldegidni (formaldegid miqdori fenolga nisbatan ko`proq olinadi) kondensatsiyalab olinadi. Turli markadagi rezol oligomerlari uchun fenol: formaldegidni mollar nisbati 1:1,1-2,1 o`rtasida o`zgarib turadi. Polikondensatlanish katalizatorlari sifatida bariy gidroksidi, ammiak suvi yoki uyuvchi natriy ishlatiladi (1,2-2 mass. qism 100 mass. qism fenolga nisbatan).

Uzlusiz usulda rezol oligomerlari xam novolak oligomerlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonidagi kabi texnologiyada olinadi. Fakat rezol oligomerlarini sintez qilishda polikondensatsiya vaqt va xarorati aniq ushlanishi kerak. Sintez vaqtini oshirish oligomer qovushqoqligini oshirishgà (bir xil xolatlarda oligomerni reaktorda qotib qolishiga) va demak bunday oligomerlardan katta xajmg a ega bo`lgan buyumlarni olib bo`lmaslikka olib keladi.

Rezol oligomerlarini olish sharoitlarida fenol bilan formaldegidni reaktsiyaga kirishishi natijasida novolak oligomerlarini olishdagi-ga nisbatan kam issiqlik ajralib chiqadi (1kg fenol 335 kDJ). SHu sabab-li isitishni yuqorirok xaroratda to`xtatiladi (75-80S).

Undan tashqari rezol oligomerlarini olishdagi reaktsiyani bosh-lan□ ich maxsulotlari reaktsiya muxitida yaxshi eriydi (gidroksimetilfe-nollar strukturasida ko`plab SN2ON guruxlarini xosil bo`lishi xisobiga), shuning uchun oligomer suvdan ancha keyin qavatlanadi. Past molekulali oli-gomerlar olishda umuman qatlamlarga ajralmaydi.

Rezol oligomerlarini quritish jarayonida undan doimo namunalar olib turiladi va bu namunalarini shartli qotish tezligi aniqlanadi (1g oligomerni 150 0S da metall plitasida aralashtirib turilganidagi qotish vaqt bilan belgilanadi). quruq xoldagi rezol oligomerlari uchun bu kattalik 50s. dan kam bo`lmasligi kerak. Kerakli polikondensatlanish darajasiga erishilgandan so`ng rezol oligomerlarini katta tezlikda sovitish kerak. SHuning uchun xam tayyor rezol oligomeri suyuqlanmasi novolak oligomerlari singari barabanlarga emas, balki oligomerlarni ingichka qatlamda tez sovushini taminlab beradigon sovitgich-vagonlarga quyiladi. Ammo rezol oligomerlari xona xaroatida xam sekin-asta o`z qovushqoqligini orttirib boradi, shuning uchun ularni aloxida sharoitlarda saqlash darkor. Oligomerlar lok ko`rinishda olinadigan bo`lsa quritish tugatilgandan keyin, 5-17% namlik saqlagan oligomer aralashtirib gomogen eritma xosil bo`lganiga tqadar spirtda eritiladi va eritma 30-40 0S gachan sovitiladi.

### **FENOL VA BOSHqA ALDEGIDLAR ASOSIDAGI POLIMERLAR**

Fenol-furfrol polimerlari. Ishqoriy muqitda fenol va furfrol asosida (fenol:furfrol 1:0,9-0,95) novolak oligomerlari qosil bo`ladi. Ishqoriy muqitda agar furfrol fenolga nisbatan ko`proq olinsa, unda 180oS dan yuqorida erimaydigan va suyuqlanmaydigan qolga o`tdigan oligo-merlar olish mumkin.

Fenol-furfrol oligomerlari asosan press-kukunlar olishda ishla-tilganligi sababli oligomerlar reaktordan quyib olinishidan avval ular-ni tarkibiga surkaluvchi moddalar (o`simlik yoqlari qamda kislotalari) qo`shiladi.

### **REZORTSINFORMALDEGID POLIMERLARI**

Bir yadroli ikki atomli fenollardan (o-, m-, n-digidroksibenzollardan) faqatgina m-digidroksibenzol, ya`ni rezortsin formaldegid bilan kondensatlanish natijasida to`rsimon poli-merlar qosil qila oladi. o-digidroksibenzol (pirokatexin) va n-digidroksibenzol (gidroxinon) qam formaldegid bilan faqat yuqori qaro-rat ta`sirida juda sekin to`rsimon qolga o`tuvchi oligomerlar qosil qila-dilar. Buning sababi bu 2 chi fenol gidroksil gruppasi bu moddalarning m-qolatidan vodorodni biroz faollashtiradi va shu qolatga yuqori qarorat ta`sirida formaldegidni biriktiradi. Rezortsindagi 2 chi fenol gidroksi-li qam o- va n-qolatidagi vodorodlarni ancha faollashtiradi. SHuning orqa-sida rezortsin formaldegid bilan fenolga nisbatan ancha yaxshi va tez reak-tsiyaga kirishadi. Undan tashqari bir xil qolatlarda gidroksil gruppalari-ni bir-biri bilan reaktsiyaga kirishish imkoniyati paydo bo`lishi qisobiga bezol yadrolarè orasida efir gruppalari qam qosil bo`ladi.

Shuning uchun qam sanoatda 2 atomli fenollardan faqat rezortsingina oligomerlar olishda ishlatiladi.

Rezortsin-formaldegid oligomerlari turli materiallarga yaxshi yopi-shishi natijasida (yuqori adgeziyagà ega), bu oligomerlar sovuqda qotuvchi elimlar olishda ishlatiladi. Fenoldan farqli o`laroq rezortsin zararsiz bo`lganligi sababli rezortsin-formaldegid oligomerlari tishni davolashda (plombalar tayyorlashda) ishlatiladi. rezortsin-formaldegid polimerlari yuqori qattiqlikka va issiqlikka chidamlilikka ega. Ammo rezortsin ancha qimmat bo`lganligi sababli ko`pincha rezortsinni bir qismi sintez paytida fenol bilan almashtiriladi. Bunday rezortsinfenol-formaldegid polimer-lari oddiy fenol-formaldegid polimerlaridan ancha qattiq va baquvvat bo`ladilar.

### **YUQORI MOLEKULALI BIRIKMALAR ASOSIDA PLASTMASSALAR OLİSH**

Birinchi navbatda biz polimer, plastmassa, kompozitsion polimer ma-teriallari, rezina kabi tushunchalar bilan tanishib chiqamiz. Polimer deb monomerlarni polimerlanish yoki polikondensatlanish reaktsiyalari yorda-mida polimerlab olingen maqsulotga aytamiz. Bu polimerga qech narsa qo`shilmagan. Polimerni shu qolatida qech narsa qo`shmasdan undan maqsulot olinsa, polimerni qayta ishlash bo`ladi. Ammo ko`pincha polimerlarni u yoki bu xususiyatlarini yaxshilash, ularga qandaydir yangi xususiyatlar berish, ularni qayta ishlash jarayonini tezlatish va boshqa maqsadlarda polimer-larga turli xil moddalar qo`shiladi. Ana shu turli xil moddalar qo`shib olingen maqsulot plastmassa yoki kompozitsion polimerlar deb ataladi. Po-limerlardan bo`lgan tabiiy va sintetik kauchuklarni o`ziga qosligi, ularni qayta ishlashdagi qosliklar, kauchuklar asosida tayyorlangan kompozitsion polimerlarni - rezina deb atalishiga sabab bo`ldi.

Kompozitsion polimerlarni (plastmassalarni) olishda polimerlarga to`ldirgichlar, qotirgichlar, bo`yoqlar, barqarorlovchilar, plastifikatorlar qo`shiladi.

## **TO`LDIRGICHALAR**

Plastmassalarni olishda organik va noorganik to`ldirgichlar ishlati-lishi mumkin. To`ldirgichlarnè qo`shish polimerlarni, mexanik, elektr xusu-siyatlari va issiqlikka, suvgaga chidamliligin oshiradi, qayta ishslashda so-dir bo`ladigan qajm qisqarishini kamaytirishga olib keladi.

Demak to`ldirgichlar avvallari o`ylaganlaridek polimerni tannarxini arzonlashtirish maqsadida emas (chunki bir xil to`ldirgichlar polimerlardan qam qimmat), balki polimerlarga yangi xususiyatlar berish maqsadida qo`shiladi.

Organik va noorganik to`ldirgichlar tola yoki kukun qolatida bo`lishi mumkin.

Organik to`ldirgichlar asosan tola ko`rinishida ishlatiladi.

## **YOQOCH UNI**

Ko`pgina plastmassalarni olishda (ayniqsa, fenoplast deb ataladigan plastmassalarni) yoqoch uni ishlatiladi. Yoqoch unini olishda yoqochni shunday maydalash kerakki, unda maydalanganidan keyin tola strukturasi saqlanib qolishi kerak. SHuning uchun yoqochni 0,16-0,2 mm kattalikkacha maydalanadi. Yoqoch uni fenoplastlar tarkibida 40-65% bo`lishi mumkin.

## **PAXTA TSELLYULOZASI**

Yuqori mexanik xususiyatlarga, ayniqsa zarbiy kuchlarga chidamlilikni oshirishda polimerlarga qo`shiladi. Paxta tsellyulozasi lint ko`rinishida, tola ko`rinishida, matolarning bo`lakchalari yoki mato ko`rinishida ishlati-lishi mumkin.

Lint ko`rinishida ishlatilib aminoplastlar, tola ko`rinishida ishla-tilib voloknitlar, mato bo`lakchalarè ko`rinishida ishlatilib turli press-massalar, mato ko`rinishida ishlatilib tekstolit olish mumkin.

## **QOG`OZ**

qoqoz parchalari yoqoch uni o`rniga ishlatilishi mumkin. qoqozni o`zini turli sintetik polimerlar bilan shimdirib presslash orqali - getinaks, dekorativ qoqoz qatlam plastik kabi plastmassa maqsulotlari olinadi.

## **KIMYOVIY TOLALAR**

Kimyoviy tolalar sifatida viskoza, poliamid va poliefir tolalari ishlatiladi. Kimyoviy tolalar ko`pinchà xususiyatlari yomon polimerlardan yuqori mustaqamlikka ega bo`lgan maqsulotlar olishda ishlatiladi.

Kimyoviy tolalardan eng qimmati va texnikaning turli soqalarida ishlatiladigan uglerodlè tolalardir. Uglerodli tolalarni, poliakrilonitril tolalarini yoki tsellyuloza tolalarini maxsus sharoitlarda (kislo-rodsiz sharoitda) karbonlab olinadi. Bunday tolalar yuqori qarorat ta`s-i-riga chidamli (600-1000°C) va yuqori egiluvchanlikka ega bo`lganliklari sa-babli ulardan kosmonavtikada ishlatiladigan plastmassalar olishda foydalilanildi.

## **TAYANCH SO`ZLAR**

Fenol, formaldegid, ishqoriy muqit, kislotali muqit, monometilofenol, dimetilofenol, trimetilofenol, novolak oligomeri, novolak oligomeri texnologiyasi, rezol oligomeri, rezol oligomeri texnologiyasi, novolak oligomerlarini qotirish, to`ldirgichlar, organik to`ldirgichlar,

## **QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Fenolospirtlar qanday sharoitda qosil bo`ladiq
2. Mono-, di-, trimetilofenollarni nisbati nimaga boqliqq
3. Novolok oligomeri qanday muqitda va monomerlarning qanday nisbatida qosil bo`ladi?
4. Rezol oligomeri qanday muqitda va monomerlarni qanday nisbatida qo-sil bo`ladiq
5. Novolak oligomerlarini ishlab chiqarish texnologiyasi.
6. Rezol oligomerlarini ishlab chiqarish texnologik jarayoni.
7. Novolak oligomerlarini tikilgan xolga o`tkazish shart-sharoitlari va qotirgichlari.
8. Rezol oligomerlarini qotirish sharoitlari.
9. Ko`p atomli fenollar asosida oligomerlar ishlab chiqarish texnologiyasi.
10. Feno-formaldegid va boshqa oligomerlar asosida plastik massalar olishda ishlatiladigan komponentlar.
11. Organik to`ldiruvchilar va ularning qillari.

## **ADABIYOTLAR**

1. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.221-261.
2. Kuznetsov E.V. i dr. Al'bom texnologicheskix sxem proizvodstva polime-rov i plasticheskix mass na ix osnove. Izd. 2-e. M., Ximiya, 1975, 74 s.
3. Knop A., SHeyb V. Fenolnie smoli i mteriali na ix osnove, M., Xi-miya, 1983 g. 279 s.

## MA`RUZA – 10

### NOORGANIK TO`LDIRGICHLAR

Tola yoki kukun ko`rinishida bo`ladi. Tola ko`rinishida ishlatiladigan noorganik to`ldirgichlarga shishà tolasi, asbest, vollastonit kiradi. Kukun ko`rinishida ishlatiladigan to`ldirgichlar - kaolin, talk, metallarning ok-sidlari ( $TiO_2$ ,  $ZnO$ ,  $Fe_2O_3$  va q.k.) tuzlari ( $CaCO_3$  va q.k.) kiradi.

#### SHISHA TOLALARI

Shisha tolalari kimyoviy va issiqlik ta`sirlarga chidamli, kam nisbiy cho`zilishga qamda yuqori mustaqamlilikka ega bo`lganidan ular asosan polimer kompozitsiyalarida armirlovchi to`ldirgich sifatida ishlatiladi. Sanoatning turli soqalarida shisha voloknit (shisha tolalari asosida) dan olingan maqsulotlar, shisha tekstolit (shisha matosidan olinadi) ishlatiladi.

#### ASBEST

Asbest - magniy va kaltsiy silikatlari aralashmasidan iborat tolali to`ldirgichdir. Asbestni to`ldirgich sifatida yutuqi shundaki, u o`zida anor-ganik moddalarga qos yuqori qarorat ta`siriga va suvgaga chidamlilikni, orga-nik tolalarga qos mustaqamliliq bilan birga mujassamlantirgan. Plastmassa soqasida asbest ko`proq friktsion (ishqalanish) materiallar olishda ishla-tiladi. Keyingi paytlarda asbestni odam soqligiga zarari borligi uchun iloji boricha boshqa to`ldirgichlar bilan almashtirishga intilinmoqda.

#### OKSIDLARNING MONOKRISTALL TOLALARI

Kosmonavtikani rivojlanishi turli oksidlardan monokristall tola-lar olishga va ulardan issiqlik va mexanik ta`sirlarga chidamli polimer materiallari yaratishga olib keldi.

qozirgi paytda amalda alyuminiy oksididan olingan monokristall tolalari (sapfir tolalari) shunday polimer kompozitsiyalari olishda ishla-tiladi.

Kompozitsion polimer materiallar olishda ko`plab kukunsimon to`ldirgichlar ishlatiladi.

#### KUKUN KO`RINISHIDAGI ANORGANIK TO`LDIRGICHLAR

1. Kaltsiy karbonat ( $CaCO_3$ ). Yng ko`p ishlatiladigan to`ldirgichlardan biri. Tabiatda juda ko`p tarqalgan, maydalab tozalash ancha oson. Polivi-niklorid, polipropilen polimerlari asosida kompozitsiyalar tayyorlashda ishlatiladi.
2. Kaolin. Oq loy deb qam ataladi. Alyuminiy silikatini gidratlan-gan ko`rinishi. Kaolin gidratlangan qolda qam undan yuqori qaroratda gid-rat-suvini chiqarib yuborilgan qolda qam ishlatiladi.
3. Dala shpati. Tarkibi suvsiz ishqoriy alyumosilikatlardir. Yuqori kimyoviy ta`sirlarga chidamliligi bu to`ldirgichlarni, kimyoviy muqitda ish-latiladigan polimer kompozitsiyalari olishda ishlatiladè.
4. Talk. To`ldirgich sifatida plastina ko`rinishidagi talk ishlatiladi. SHuning uchun talk polimerlarga qo`shilganda ularni mustaqamligi ortadi. Talk gidratlangan magniy silikatidir ( $3MgO \cdot 4SiO_2 \cdot H_2O$ ).
5. Kremniy karbidi. Polimer kompozitsiyalariga ularni ishqalanishga chidamliligin oshirish maqsadida qo`shiladi.
6. Metall oksidlari.

- a) Alyuminiy oksidi - epoksid va poliefir smolalari asosida elektr ta'siriga chidamli, o'zidan issiqlik o'tkazuvchi, ishqalanishga chidamli kom-pozitsiyalar olishda ishlatiladi.
- b) Berilliy oksidi - issiqlik o'tkazuvchi kompozitsiyalar olishda ish-latiladi.
- v) Temir oksidlari - FeO - sariq, oxra deb ataladi; Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> - qizil, su-rik deyiladi. Bu oksidlar lok-bo`yoqlar olishda, polni, tunukalarni bo`yash uchun ishlatiladi.
- g) Ruq oksidi - rezina sanoatida va plastmassa olishda ishlatiladi. Masalan, 10% ruq oksidi bilan to`ldirilgan polipropilen atmosfera ta'siriga chidamliliginin bir necha marotaba oshiradi. Lok-bo`yo? olishda qam ishlatiladi.

d) Titan dioksidi - lok-bo`yoq olishda keng ishlatiladi.

j) Bariy sulfat (barit). Polimerlarga yuqori zichlik, ishqalanishga chidamlilik, kimyoviy ta`sirlarga chidamlilikni oshirish maqsadida qo`shiladi.

z) Polimerlar elektr va issiqliknini o'tkazmaganliklaridan, ularga shu xususiyatlarni berish maqsadida turli xil metall kukunlari qo`shiladi. Te-mir, mis, alyuminiy, ruq va boshqa metall kukunlari shunga misoldir.

To`ldirgichlarni boqlovchi-polimer bilan o`zaro ta`siri ancha murakkab bo`lib, odatda anorganik to`ldirgichlarni usti yupqa polimer pardasi bilan o`raladi degan tushuncha qozirgi kundagi asosiy tushuncha bo`lib xizmat qiladi. Organik to`ldirgichlarni ko`pchiligi ularni tarkibidagi tsellyuloza qamda reaktsion faol guruqlar qisobiga polimer bilan o`zaro kimyoviy boq qosil qiladilar.

## **QOTIRGICHLAR VA QOTISHNI TEZLATGICHLAR**

Oligomerlarni tikilgan qolga o'tib qotishiga yordam beruvchi modda-lar, qotirgichlar deyiladi.

Novolak press-kukunlari ishlab chiqarishda odatda geksametilentet-ramin (urotropin) ishlatiladi. Aminoplastlar olishda ammiak xlorid, epoksid, to`ymagan poliefirlarda qam o`z qotirgichlari ishlatiladi. Tez-latgichlar sifatida metall oksidlari ishlatiladi (MgO, CaO).

## **SURTILUVCHI MODDALAR**

Press-kukun va boshqa kompozitsion polimer materiallarni tabletka-lashni osonlashtiradi, materiallarni qayta ishlash jarayonida press-shakllarga yopishib qolishni olib, tayyor maqsulotni press-shakllardan chiqarib olishni engillashtiradi. Undan tashqari plastmassada-gi turli qil moddalarini bir-biriga surkalish kuchini qam kamaytirishi qisobiga qayta ishlash jarayonida press-materialni plastikligi va demak qovushqoq-oquvchanligini qam oshiradi. Surtiluvchi moddalar sifatida o`simliklardan olinadigan kislotalar - olein va stearin kislotalari yoki ularning tuzlari - stearat kaltsiy ishlatiladi.

## **BO`YOQLAR VA PIGMENTLAR**

Turli rangdagi press-materiallar yoki boshqa turdag'i kompozitsiyalar olish maqsadida ularga issiqlikka va nur ta'siriga chidamli organik va mi-neral bo`yoqlar va pigmentlar qo`shiladi. Fenoplastlar olishda ko`proq qora rangda chiqariladi va bu rangni berish uchun ularga spirtda eruvchi nigrozin qo`shiladi. Bo`yoq va pigmentlar ko`plab rangli polimer maqsulotlari olishda, ayniqsa lok-bo`yoq ishlab chiqarishda ishlatiladi.

## **FENOL-FORMALDEGID OLIGOMERLARI ASOSIDA OLINADIGAN PLASTIK MASSALAR (FENOPLASTLAR)**

### **FENOPLASTLARNI OLISH TEXNOLOGIYASI**

Press-kukun materiallar. Rezol va novolak oligomerlari asosida oli-nadi. Novolak oligomeri asosida olinadigan press-kukunlarni keng tarqal-gan tarkibi quyidagicha bo`ladi (mass.qismda):

Boqlovchi (oligomer) 42,8

Yoqoch uni 43,2

Urotropin 6,5

Kaolin, mumiya 4,4

Nigrozin 1,5

Kaltsiy yoki magniy oksidi 0,9

Kaltsiy stearat 0,7

Bosim ostida quyib qayta ishlanuvchi press-kukunni quyidagi tarkibda olinadi (mass.qism):

Boqlovchi 50,3

Yoqoch uni 29,0

Urotropin	7,5
Kaolin, mumiya	5,0
Mumiya	4,4
Kaltsiy oksidi	2,2
Kaltsiy stearati yoki stearin	1,7

Yuqoridagi tarkibda boqlovchi miqdorini ko`p bo`lishi, massani qara-katchanligini orttiradi. Undan tashqari kompozitsiyani oquvchanligini oshi-rish maqsadida valtslash jarayonida press-kukun tarkibiga (100 mass.qismga 3 mass.qism) furfurol qo`shiladi.

Press-kukunlarni olish usullari

Press-kukunlarni qattiq fenol-formaldegid oligomerlari asosida valtslash yoki ekstruziyalash usulida, oligomerlarni emulsiyasi yoki eritmasi asosida esa emulsiya va lok usullarida (qo`l usullar) olinadi.

Sanoatda ko`proq valts usuli keng ishlatiladi, ammo ekstruziya usuli qam juda istiqbolli usullardan qisoblanadi.

Valts usuli. Bu usul uzlusiz bo`lib quyida texnologik sxema kelti-rilgan.(rasm.13)

Press-kukunlarni bu usulda olishning texnologik jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat: xom ashyonè tayyorlash (1-3, 5-9 pozitsiyalar), komponentlarni aralashtirish (4-poz.), massani plastik qolga olib kelish (11-poz., valtslash), olingan varaq ko`rinishidagi plastikni maydalash (12-13 poz.), maqsulotni standartlash (17-poz.).

Aralashmani plastik qolga keltirish valtslarda amalga oshiriladi. Valtslarda ko`p komponentli massa gomogenlashadi va oligomerdan polikondensatlanish davom etishi qisobiga u bir oz qotgan qolga o`tadi. Valtslash jarayonini qarorati shunday tanlanishi kerakki, bunda oligomer yaxshilab suyuqlanma qoliga o`tib, to`ldirgichga va aralashmani boshqa komponentlariga shamilishi kerak (valtslash oxirida 130oS atrofida).

Rezol oligomerlari asosidagi press-kukunni plastikatsiyalanish vaqtinovolak asosidagilarnikiga qaraganda 2-3 marotaba qisqa, chunki ular rezitol qoliga tezroq o`tish qobiliyatiga egalar.

Uzoq valtslanuvchi press-massalarni olishda (slyuda, asbest, koks kabi oligomerni sekin shimuvchे to`ldirgichlar asosida olinganda, yoki polivinilxlorid bilan aralashtirilgan krebol-formaldegid oligomerlari ishlatilganda) komponentlar uzlukli valts usulida plastikatsiya qilinadilar.

Bu usulni uzlusiz usuldan farqi komponentlar aralashtirilib olinganidan so`ng, yoki navbatma-navbat valtslarga qo`lda solinadilar.

### Rasm. 13. Press-kukun uzlusiz usulda ishlab chiqarish jarayoni.

1- tsiklon; 2-yoqoch uni bunker; 3,6,10,16-meyorlovchi bunkerlar; 4 - barabanli aralashtirgich (kurakli); 5- oligomer bunker; 7-puflab ajratuvchi bolqali maydalagich (nozik maydalash tegirmoni); 8,14-tsiklonlar; 9,15 - engli filtrlar; 11-valtslar; 12-tishli maydalagich; 13-bolqali maydalagich; 17-barabanli aralashtirgich (standartlovchi); 18-tayyor maxsulotni qadoqlash dastgohi.

Ekstruziya usuli. Bu usul valts usuliga nisbatan to`ldirgichni oligomer bilan yaxshi shamilishi va press-kukunni yoki press-massani qajmi bo`yicha bir xillikka erishilishi qisobiga, olinayotgan press-materiallarni xususiyatini ancha yuqori qilib olishga imkon beradi. Jiqozni yaxshi berkligi esa ishslash sharoitini ancha yaxshilashga olib keladi (turli gaz va qidlarni ishslash xonasida kam tarqalishi qisobiga).

### PRESS-KUKUNLARNI ISHLATILISHI

Press-kukunlardan buyumlar 160-200oS qaroratda 20-120 MPa bosim ostida presslab olinadi. Press-kukunlarni maxsus xillari bosim ostida quyish usulida qayta ishlanadi. Press-kukunlardan olingan buyumlarni ish-latilish joyiga qarab ular ushbu guruqlarga bo`linadi.

Umumtexnik maqsadli press-kukunlar - novolak oligomerlari va yoqoch uni asosidagi press-kukunlar bo`lib, ular asosan kuch qo`yilmaydigan armir-langan va armirlanmagan texnik maqsadlardagi buyumlar

qamda keng is-te` mol mollari (shtepsel, rozetka, vilka, patron qamda magnitofonlarni korpuslari va q.k.) ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Qaroratbardosh press-kukunlar - slyuda, asbest kabi mineral to`ldirgichlar va novolak oligomeri asosida olinadi. Yuqori qarorat ta`s-i-rida ishlovchi radio detallari ishlab chiqarishda ishlatiladè.

Elektroizolyatsion press-kukunlar - rezol oligomer qamda yoqoch unidan olinadigan press-kukunlar bo`lib, ular benzin va yoq muqitida ishlashi mum-kin elektrotexnik maqsadlardagi buyumlarni ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Yuqori chastotali press-kukunlar - slyuda, kvarts uni, plavik shpat kabi to`ldirgichlar va rezol oligomerlari asosida olinadi. qavoda, yuqori na-mlik ta`sirida ishlovchi radiotexnik detallar ishlab chiqarishda ishlatila-di. Xuddi shunday detallar poliamid bilan modifitsirlangan novolak press-kukunlari asosida qam olinadi.

Suv va kimyoviy ta`sirlarga chidamli press-kukunlar - novolak oligo-merini polivinilxlorid bilan aralashmasi qamda organik, noorganik to`ldirgichlar (kaolin, koks, grafit, yoqoch uni) asosida olinadi. Kislota va suv ta`siriga chidamli buyumlar, masalan akkumulyatorlarni qopqoqi, kir yuvish mashinalarini detallari, antifriktsion maqsulotlar ishlab chiqariladi.

Zarbga chidamli press-kukunlar - novolak oligomerini kauchuk bilan aralashmasi qamda yoqoch uni asosida olinadi. Umumtexnik talablarga javob beradigan qamda murakkab shaklli radiotexnik buyumlar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Antegmit - o`z-o`zini moylovchi antifriktsion buyumlar ishlab chiqariladi. Kimyoviy va qarorat ta`siriga chidamlilagini oshirish maqsadida buyumga issiqlik ishlovi beriladi. Bunda uning biroz mexanik mustaqkam-ligi kamayadi.

## TOLALI TO`LDIRGICHALAR ASOSIDAGI MATERIALLAR

Voloknit - paxta tsellyulozasi asosida olinadigan press-materiallar voloknit deyiladi. Voloknit olishda rezol tipidagi fenolformaldegid oligomerini spirtdagi yoki suvdagi eritmalar ishlatiladi.

quyida voloknit olishning andozasi keltirilgan:

Oligomer (quruq qoldiqqa o`tkazilganda) 46,0

Paxta tsellyulozasi (quruq) 43,8

Talk 7,45

Olein kislotasi 2,0

Magniy oksidi 0,5

Kaltsiy oksidi 0,25

Voloknit olishning texnologik sxemasi quyida keltirilgan.(rasm.14)

Bu jarayon xom ashyoni tayyorlash (1-5, 7-9 pozitsiyalar), komponentlarni aralashtirish (6 poz.), aralashmani quritish (11 poz.), standartlash va qadoqlash bo`limlaridan (12, 13 poz.) iborat. 1, 3, 4 pozitsiyalardan oligomer, spirt, olein kislotasi 2 chi aralashtirgichga tushiriladi va yaxshilab aralashtirib olinadi. Tebranuvchi elakka (7) mineral qo`shimchalar solinib, yirigidan ajratilganidan keyin baraban ko`rinishidagi aralashtirgichda (8) aralashtirilib olinadi. Tayyorlab olingan oligomer aralashmasi va tsellyuloza 6 chi aralashtirgichda aralashtiriladi. 6 chi aralashtirgichda 2 ta cho`yan qildiraksimon tsilindr (begunlar), aralashtirgichni asosida aylanib turadi. Bu qildiraklar qarakatdagi voloknitni chetdan o`rtaga va o`rtadan chetga surib turuvchi belkuraklar bilan jiqozlangan. Aralashtirgichda tsellyulozani oligomer aralashmasi bilan shimdishish 15-20 minut davom etadi. Undan keyin 9 chi qajmdan olingan massani mineral qo`shimchalar bilan changlatiladi. Talk voloknitni oquvchanligi va suvgaga chidamlilagini orttiradi. Oksidlar oligomerni qotishini tezlatadilar.

Nam voloknit qabul qiluvchi bunkerga, u erdan pnevmotransport yordamida lentali quritgichga yo`llanadi (11). quritgichda lentadan-lentaga o`tish jarayonda qarorat 55oS dan 90oS gacha ortib boradi. Lentani qarakatlanish tezligi 0,9 m/min bo`lganida, voloknitni quritgichda bo`lish vaqtı 36-40 minutni tashkil etadi. quritish sifatini massaning oquvchanligi bo`yicha tekshirib turiladi (Rashig bo`yicha 40-140 mm). Undan tashqari vaqtı-vaqtı bilan standart disk presslab uning tashqi ko`rinishidan qam tekshirish mumkin. quritish jarayonda voloknitdan engil uchuvchan moddalar ajralib chiqadi qamda rezol oligomeri qisman rezitol qolatiga o`tadi.

Quritilgan voloknit qavoli yo`ldan bunkerga, undan standartlash aralashtirgichiga (13 poz.) tushadi va u erda 20-25 min aralashtirilganidan keyin turli partiyalarini namligini bir xilga kelish maqsadida biroz ushlab turiladi.

#### **Rasm 14. Voloknit ishlab chiqarish jarayoni:**

1-kondensat ajaratish idishi; 2-standartlovchi aralashtirgich; 3,4,5-meyorlovchilar; 6-diskli yoki aylangichli aralashtirgich; 7- tebranuvchi elak; 8-barabanli aralashtirgich; 9,10-meyorlovchi bunkerlar; 11-xavo yordlamida aylantiruvchi quritgich; 12-quruq volok-nit bunker; 13-voloknitni standartlovchi aralashtirgich.

Paxta tsellyulozasi bilan to`ldirilgan tolali press-materiallar, yoqoch unidan olingan press-kukunlarga nisbatan ancha yuqori fizik-mexanik xususiyatlarga ega bo`ladi. To`ldirgichni tolaligi birinchi navbatda buyumlarni zarbga, egilishga va edirlishga chidamliligin oshiradi. Paxta tsellyulozasi tolalarinin uzunligi ortib borishi bilan, buyumlarning zarbiy qovushqoqligi qam ortib boradi. Masalan, uzunligi 20 mm gacha bo`lgan tolalardan olingan press-materialni zarbiy qovushqoqligi 9-15 kDj/m<sup>2</sup> bo`lsa, uzunligi 30 mm bo`lgan tolalardan olingan press-materialni zarbiy qovushqoqligi 20 kDj/m<sup>2</sup> gacha ortadi. Oddiy paxta tsellyulozasini kord iplari tolalari bilan almashtirilsa, o`ta yuqori mustaqamlilikka ega bo`lgan voloknit olinadi.

quyida voloknitdan olingan buyumlarni asosiy xususiyatlari keltirilgan:

Xususiyatlar	qiymatlar
Zichlik, kg/m <sup>3</sup> , ko`p emas	1450
Bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas	
sizilishda	120
statik egilishda	80
Martens bo`yicha issiqbardoshlik, oS, kam emas	140
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup> , kam emas	9,0
Solishtirma elektr qarshiligi, kam emas	
sirtqi, Om	1 1010
qajmiy, Om m	1 1013
Dielektrik yo`qotishning tangens burchagi, 50 Gts	0,4-0,9
Ýlektr mustaqamlilik, kV/mm, kam emas	4,0
Suv yutishi (24 soatda), mg, ko`p emas	90
Yoqga chidamliligi (24 soatda), %, ko`p emas	0,11
Sovuganda kichiklashishi (qisoblangan), %	0,3-0,6

Voloknitdan olingan buyumlar kuchsiz kislotalar va ishqorlar ta`sı-riga chidamli, lekin kuchli kislota va ishqorlarda parchalanib ketadi.

Voloknitdan egishga, burishga, ishqalanishga chidamlilik talab qilin-gan joylarda ishlatish uchuý buyumlar olinadi.

Asbomassalar. Rezol oligomerlari va sbest tolalaridan olinadilar. Boqlovchi sifatida fenolformaldegid oligomerlarini suvdagi yoki suv-spirtdagi eritmalar, shu oligomerlarni kanifol bilan modifitsirlangan xillari ishlatiladi.

Quyida asbomassaning shartli retsepti keltirilgan (mass.qismda):

Oligomer (quruq qoldiq qisobida)           33

Asbest tolalari       60

Talk               5

Olein kislota       2

Asbomassalar yuqori mexanik mustaqamlilik, issiqlik ta`siriga va ishqalanishga chidamlilik talab qilinadigan buyumlar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Asbomassalardan ekskovatorlar, vagonlar, tramvaylar, avtomobil va boshqa transport vositalarini tormozlash kolodkalari ishlab chiqariladi.

Faolitlar - kislota ta`siriga chidamli plastmassa bo`lib, rezol oli-gomerini suvdagi eritmasi va kislota ta`siriga chidamli to`ldirgichlar aso-sida olinadi. Ishlatilgan to`ldirgichlar xiliga qarab faolit uch xil markaga bo`linadi:

A markali faolit - antofillit va xrizotil asbestos asosida; T marka-li faolit - grafit qamda xrizotil asbestos asosida (ko`pincha grafolit deb ataladi); P markali faolit - daryo qumi va xrizotil asbestos asosida.

Faolit ishlab chiqarish texnologiyasi, rezol oligomerini suvdagi eritmasini to`ldirgich bilan aralashtirish, aralashman quritish, valtslash, tayyor maqsulotni qayta ishlash va olingen buyumni issiqlik ta`sirida ush-lash jarayonlaridan iborat.

A markali faolitdan buyumlar kontsentrlangan xlorid kislotasi muqitida 3-4 yil ishlatilishi mumkin.

A markali faolit sulfat, xlorid, fosfor, uksus (50% li), chumoli, shavel, sut kislotalari, xlorlangan uglevodorodlar, mineral yoqlar ta`siri-ga chidamlı.

T markali faolit ulardan tashqari fтор kislotasi ta`siriga qam chi-damli.

Faolitlar azot va xrom kislotalari, yod, brom, asoslar, piridinlar, atseton, spirt ta`siriga chidamsiz.

Antofil asbestos buyumlarga yuqori kimyoviy chidamlilik bersa, xri-zotil asbestos kimyoviy chidamlilikni kamaytiradi, lekin mexanik mustaqamlilikni oshiradi.

Ýng yuqori issiqlikka chidamlilik P markali faolitga tegishli bo`lib, bu markali faolit yuqori elektr mustaqamligiga qam ega. T markali faolit eng katta issiqlik o`tkazuvchanlikka ega, undan tashqari grafitni to`ldirgich sifatida ishlatilishi bu markali faolitga fтор kislotasi ta`siriga qam chidamlilikni beradi.

Faolitdan ko`pgina kimyoviy apparat va buyumlar ishlab chiqariladi: kimyoviy moddalarni saqlash idishlari, reaktorlar, rektifikatsion va ad-sorbtion kolonnalar, putch-filtrlar, elektroliz vannalari, aralashtirgich-lar, nasoslarni qismlari, quvurlar va ularni biriktiruvchi qismlari., ven-tillar, kranlar va boshqalar.

Shisha voloknitlar. To`ldirgich sifatida shisha tolalari ishlatilib olingen maqsulotlar shishavoloknitlar deb ataladi.

Shisha tolasi asosan tayyor buyumga yuqori fizik-mexanik xususiyatlar beradi. Dielektrik xususiyatlari qamda kimyoviy ta`sirlarga chidamlilik boqlovchi xiliga boqliq bo`ladi. Boqlovchi sifatida rezol oligomerlari, epoksid qamda to`yinmagan poliefir oligomerlari, poliamid oligomerlari va ularni aralashmalari ishlatiladi. Bu erda biz faqat rezol (fenolformaldegid) oligomerlari asosida olinadigan shishavoloknitlar to`qrisida so`z yuritamiz.

Shisha tolali voloknitlarni olish texnologiyasi asosan, shisha tolala-rini oligomer eritmasi bilan shimdirish va quritishdan iborat. Tayyor shishatolali voloknitlarda boqlovchingning miqdori 28-32%, engil uchuvchilar miqdori 2-5% bo`ladi.

Shishavoloknitlar juda yuqori solishtirma mustaqamlikka, qattiq-likka ega, ular o`zgaruvchan kuch ta`siriga, vibratsiyaga chidamlı. Yaxshi dielek-trik va qarorat tasiriga chidamlı, va bu xususiyatlari ularnikimyoviy ta`sirga, mikroorganizmlar, korroziyaga chidamliligi bilan olganda shisha-voloknitlarni ko`p joylarda boshqa narsalar bilan almashtirib bo`lmas qolda ishlatishga olib keladi.

Shishavoloknitlarni xususiyatlari ishlatilayotgan shisha tolalariga boqliq. Ishqoriy shishalarie (natriyli oqaklar asosida) shisha tolasi olishda ishlatilishi kislotalar ta`siriga chidamlı, sust ishqoriy shisha-larni (borsilikatli) ishlatish yuqori dielektrik va suv ta`siriga chidamlı materiallar olinishiga olib keladi.

Shisha tolasingin qalinligi qam katta aqamiyatga ega. Shisha tolasi qanchalik ingichka bo`lsa, undan olingen maqsulotning egilishga mustaqamligi shunchalik katta va zarbiy qovushqoqligi kichik bo`ladè.

Fenol-furfurol-formaldegid oligomerlari asosida yuqori mexanik mustaqamlikka (cho`zilishdaæ mustaqamlik 700 MPa gacha va zarbiy qo-vushqoqlik 300 kDj/m<sup>2</sup> gacha) ega bo`lgan shishavoloknitlar olish mumkin. Po-livinilbutiral bilan aralashtirilgan rezol fenolformaldegid oligomer-lari asosida yuqori fizik-mexanik xususiyatlari ega shishavoloknitlar olinadi. Fenol-anilin-formaldegid boqlovchilar asosida esa yaxshi di-elektrik xususiyatlarga ega shishavoloknitlar olinadi.

## TAYANCH SO`ZLAR

Noorganik to`ldirgichlar, qotirgichlar, surtiluvchi moddalar, fenoplastlar, press-kukunlar, ularni ishlab chiqarish texnologiyasi, pres kukunlarni xossalari, ishlatilishi,

Voloknitlar, paxta tsellyulozasi, asbovoloknit, faolitlar, shishavoloknit, voloknitlarni ishlab chiqarish texnologiyasi, zarbiy qovushqoqlik, mexanik mustaqamlik, issiqbardoshlik va qarorat ta`siriga chidamlilik.

## **QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Noorganik to`ldirgichlarning strukturasini ulardan olinadigan plastik massa xossalariiga ta`siri.
2. qotirgichlar, surtiluvchi moddalar, plastifikatorlar va boshqa qo`shimchalarning plastik massa olishdagi vazifalari.
3. Fenoplastlarni qanday turlarini bilasizq
4. Press-kukunlar qanday to`ldirgichlar asosida olinadiq
5. Press kukunlarni ishlab chiqarishni xo`l va quruq texnologik jarayonlari.
6. Turli markali press kukunlarning xossalari va ishlatilishi.
7. Voloknit qanday to`ldirgichlar asosida olinadi va qanday xususiyatlarga ega bo`ladiq
8. Voloknitlarni ishlab chiqarish texnologik jarayoni.
9. Asbestni qaysi xillari qanday tolali press-material olishda ishlatila-diq
10. Faolit olishda qaysi xildagi to`ldirgichlar ishlatiladiq
11. SHisha tolali voloknitlar qanday olinadiq
12. SHisha tolali voloknitlar olishda, shishavoloknitni xossalarni yaxshi-lash maqsadida shisha tolalari nima bilan ishlanadiq

## **ADABIYOTLAR**

4. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.263-274.
5. Kuznetsov E.V. i dr. Al'bom texnologicheskix sxem proizvodstva poli-erov i plasticheskix mass na ix osnove. Izd. 2-e. M., Ximiya, 1975, 74 s.
6. Kisilev B.A. Stekloplastiki. M., ximiya, 1989, 246 s.

## **MA`RUZA - 11**

### **VARAQ KO`RINISHIDAGI TO`LDIRGICHLAR ASOSIDAGI PRESS-MATERIALLLAR.**

Varaq ko`rinishidagi to`ldirgichlardan olingan ko`pgina press-materiallar qatlam-qatlam tuzilishga ega bo`lganlaridan, ularni odatda qatlam plastiklar deb qam ataladi.

Boqlovchi sifatida rezol fenolformaldegid oligomerlari eritma, suvdagi emulsiya yoki qattiq qolda ishlatilishi mumkin.

Agar to`ldirgich sifatida qoqoz ishlatilsa undan olingan maqsulot - getinaks, paxta matosidan - tekstolit, asbest matosidan - asbotekstolit, shisha matosidan - shishatekstolit, shisha shponidan - shisha tolali anizotrop material (SHTAM-SVAM), yoqoch shponidan - yoqoch qatlam plastik deb ataladi.

Varaq materiallardan olinadigan qatlam plastiklarni texnologiyasini umumiy o`xshash jarayonlari ko`i bo`lib, bu jarayonlar asosan - xom ashyoni tayyorlash, to`ldirgichni boqlovchi bilan shmdirish va quritish, boqlovchi bilan shmdirib quritilgan to`ldirgichni presslash yoki avval o`rab olib keyin presslashdan iborat.

qatlam plastiklar yuqori fizik-mexanik xususiyatlarga ega bo`lib, mexanik mustaqamlilik bo`yicha press-kukun va voloknitdan ancha ustun turadilar. SHuning uchun qam ular radio-, elektr texnikasida, kimyo sanoatida, mashinasozlikda, qurilishda ko`plab ishlatiladilar. qatlam plastiklari xususiyatlari to`ldirgich xiliga, miqdoriga, varaqlarni xili va qalinligiga, boqlovchini to`ldirgichga shmdiriliø usuliga, qayta ishslash sharoitlariga boqliq bo`ladi.

Tekstolitlar - rezol oligomerlari yoki ularni boshqa polimerlar bilan qo`shilgan aralashmalari bilan shmdirilgan paxta matolarini qavatma-qavat taxlab presslab olingan qatlam plastikdir.

Tekstolitni xususiyatlari oligomer va to`ldirgichni nisbatiga boqliq. Boqlovchi miqdori bir xil bo`lganda tekstolitni mustaqamligi matoni in-gichkalashishi bilan ortadi. Ko`pgina qatlam plastiklarida yuqori mexanik mustaqamlilik boqlovchining miqdori 30% bo`lganida kuzatiladi. Tekstolit-larda boqlovchi miqdori bu sondan ancha yuqori, chunki 30% boqlovchi olinsa tekstolitni suvga va kimyoviy ta`sirlarga chidamliligi kamayib ketadi. Un-dan tashqari paxta matosini ko`payishi tekstolit tannarxini oshirib yubo-radi.

### Rasm 15. Tekstolit ishlab chiqarish jarayoni sxemasi:

1-oligomerlarni saqlash idishi; 2-oraliq idishi; 3,7 - filtrlar; 4-shimdirish-quritish agregati; 5-spirt saqlash idishi; 6-meyorlovchi; 8-o`rash mashinasi; 9-bichish dastgoxi; 10-paket olish stoli; 11-gidravlik press; 12-ventilyator; 13- calorifer.

Tekstolit olish jarayoni xom ashyni tayyorlash, matoni shimdirlash va suritish, paketlarni yiqish va presslashdan tashkil topgan (Rasm 15.).

Mato fenolformaldegid oligomerlarining spirtdagi eritmasi to`ldirilgan idishdan o`tgach, siish vallarida orticha boqlovchi sihib tushiriladi va agregatni suritish bo`limiga o`tadi. Suritish agregatida xarorat 60 dan 1400S gachan ko`tarilib beradi va shimdirligan matoni salinligi bo`yicha sifatlari suritishga erishiladi. quritilgan matoda oligomer □ amda engil uchuvchilar miqdori 47-57 va 0,8-2,5% bo`lishi kerak (mato xamda oligomer xiliga qarab).

SHimdirish-quritish agregatidan chiqayotgan mato kerakli kattalikda qirqiladi. qirqilgan mato varaqlaridan paket yiqiladi (presslangandan keyin 1mm qalinlikdagi tekstolit olish uchun kerakli miqdordagi varaqlar soni paket yiqish koeffitsenti yordamida aniqlanadi).

Tekis va yaltiroq yuzali tekstolit olish maqsadida, shimdirligan mato paketlari yuzalari shaffoflangan, zanglamaydigan po`lat varaqlari orasiga joylanadi. Tekstolitni yuza tarafidagi po`lat varoqlariga olein kislotasi yoki stearin surtish mumkin.

Yiqilgan paketlar 400S gachan qizdirilgan ko`p qavatli press plitalari oraliqiga joylanib, pressda 3-7 mPa bosim xosil qilingach, sekin-asta presslash xaroratigachan qizdiriladi. So`ngra bosim 7-10mPa gachan oshirilib presslash boshlanadi. □ arorat 150-1600S, bosim 7-10mPa bo`lganidan so`ng ushbó sharoitlarda tekstolitni 1 mm alinligiga 3-5 minut oraliqida presslanadi. So`ngra bosim kamaytirilmasdan □ arorat 400S gachan pasaytiriladi. □ arorat 400S bo`lganidan so`ng bosim yo`qotilib, tayyor tekstolit pressdan tushirib olinadi.

Quyida turli xil tekstolitlarni fizik-mexanik xususiyatlari kelti-rilgan:

Xususiyatlar	Engil matolar (mitkl, shifon)	O`rtacha ma-tolar (vyaz, nanna, grinben)	Bo`laklardan tikil-gan mato*
Zichlik, kg/m3	1300-1400	1300-1400	1300-1400
Bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas			
cho`zilishda	100	85	65
qavatlarga perpendikulyar yo`nalishda siqilishda	250	230	200
qavatlarga parallel yo`nalishda siqilishda	150	130	120
statik egilishda	160	140	120
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m2, kam emas	35	35	25
Martens bo`yicha issiqbardoshlik, oS, kam emas	140	140	120

Yuqori fizik-mexanik xususiyatlar benzin, yoqlar, suv ta`siriga chi-damlilik tekstolitlarni mashinasozlikda keng qo`llanilishiga olib keldi. Tekstolitdan taglik qalqalar, shesternyalar, podshipniklarni vkladishlari ishlab chiqariladi. Bu buyumlar mashinasozlikda bronza va boshqa metallardan va metal qotishmalaridan tayyorlangan maqsulotlarni o`rnini olib, ulardan ancha ko`p vaqt davomida ishlatiladi.

Elektrotexnikada qam tekstolitdan olingan shkivlar, panellar ko`plab ishlatiladi.

Getinakslar. Fenol-, krebol-, ksilenol-formaldegid oligomerlari bilan shimdirligan qoqozlardan presslab olinadigan maqsulotlar geti-nakslar deb ataladi.

Qoqozni shimdirlash uchun tekstolit olishda ishlatiladigan boqlovchi-lar ishlatiladi, ammo qoqozni mustaqamligi kam bo`lganligidan ularni go-rizontal shimdirlash-quritish mashinalarida shimdirliladi.

qoqoz qarorat ta` siriga qam kam chidamli bo`lgani sababli quritish paytida qarorat shim-dirish-quritish agregatida boshlanqich 70-80°C dan 120°C gacha ortib boradi (tekstolitda 140°C).

SHimdirib quritilgan qoqozda boqlovchining qamda en-gil uchuvchilarining miqdori olingan getinaksni ishlatilish sharoitiga qa-rab 38-68 qamda 0,5-12% ni tashkil etadi. Shimdirilgan qoqoz ancha egiluv-chan bo`lganligi sababli uni presslash bosimini 15 MPa gacha oshirish mum-kin. Presslashning qolgan sharoitlari tekstolitni presslashdan farqlan-maydi.

Getinakslarni fizik-mexanik xususiyatlari quyida keltirilgan

Xususiyatlар	qiymatlar
Zichlik, kg/m <sup>3</sup>	1350-1400
Bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas	
cho`zilishda	80
siqilishda	130-250
qavatlarga perpendikulyar egilishda	100
qayishqoqlik moduli, MPa	0,28 104-2,1 104
Zarbiy qovushqoqlik (qavatlarga perpendikulyar), kDj/m <sup>2</sup> , kam emas	8-15
Brinell bo`yicha qattiqlik, MPa	250-400
Martens bo`yicha issiqbardoshlik, oS, kam emas	150
Solishtirma elektr qarshiligi, kam emas	
sirtqi, Om	1 1010-1 1011
qajmiy, Om m	1 1012-1 1014
8 mm qalinlikdagi varaqlar uchun solishtirma ichki elektr qarshilik, ko`p emas	1 1011-1 1013
Dielektrik yo`qotishning tangens burchagi, 50 Gts, ko`p emas	0,038-0,1
Dielektrik o`tish	7-8
Ylektr mustaqamlilik, kV/mm,	25-30
Suv yutishi, mg	0,025-0,2

Getinaklar yoqlar, mineral moylar ta`siriga chidamli, ammo kuchli kislotalar va ayniqsa kuchli ishqorlar ta`siriga chidamsiz. Sirka, fosfor, xlorid kislotalar ta`siriga qam chidamli. Getinaksga oson mexanik ishlov (parmalash, arralash, frezalash) berish mumkin.

Getinaks dielektrik xususiyati, ishlatilayotgan muqitning namligiga o`ta ta`sirchan bo`lganligi sababli, mexanik ishlovdan so`ng getinaks buyum-larini sirti loklanadi.

Getinaks radio- va elektrotexnikada ko`plab ishlatiladi. Getinaks qabul radiolari va televizorlarni pechat sxemalarini ishlab chiqarishda, dasturiy va qisoblash-echish dastgoqlarini turli buyumlarini ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Asbotekstolitlar. Rezol oligomerlarini suv-spirtl eritmasi bilan shimdirilgan asbest matosini (xrizotil asbesti asosida) presslab olinadi.

Asbotekstolitni olish, tekstolit va getinaks olish texnologiyasidan farq qilmaydi. SHimdirilgan asbest matosi qaroratni bosqichma-bosqich 40 dan 140oS gacha ko`tarib quritiladi; quritilgan to`ldirgichda boqlovchi miq-dori 40-50% ni, engil uchuvchilar miqdori - 3-7% ni tashkil etadi. Presslash 150oS da, 9,5-10,5 MPa bosimda qar 1 mm qalinlikka 4-6 min davomida amal-ga oshiriladi.

Asbotekstolitni issiqlik ta`siriga chidamliligi ancha yuqori, lekin boshqa qatlama plastiklarga dielektrik xususiyatlari bo`yicha yutqazib qo`yadi.

Asbotekstolitlarni fizik-mexanik xususiyatlari quyidagicha:

Xususiyatlар	qiymatlar
Zichlik, kg/m <sup>3</sup>	1700
Statik egilishdagi bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas	110
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup> , kam emas	35
Brinell bo`yicha qattiqlik, MPa	300-450

Martens bo`yicha issiqbardoshlik, oS, kam emas	250
Issiqlik o`tkazish koeffitsienti, Vt/(m K), kam emas	0,48
Suv yutishi, %, ko`p emas	2,0
Moy yutishi, %, ko`p emas	1,0
Benzin yutishi, %, ko`p emas	1,0

Asbotekstolit asosan, tormozlanish tizimlarida, turbogeneratorlar-ni detallari sifatida, prokladkalar, yuqori qarorat ta`sirida ishlovchi buyumlar olishda ishlatiladi.

SHishatekstolitlar. to`ldirgich sifatida shisha matolari ishlatiladi. Boqlovchi sifatida ko`pincha BF elimi (fenolformaldegid oligomerini po-livinilbutirol bilan aralashmasi) qamda VFT (ôâîíëôïðìàëääèä oligo-merini polivinilformaletilol qamda ortokremniy kislotasining efiri bilan aralashmasi) elimi ishlatiladi. Bu elimlar shisha tolalariga nisba-tan yaxshi adgeziyaga egalar.

SHishatekstolitlarni olish texnologiyasi, tekstolit olish texnologiya-sidan farq qilmaydi. Faqat shishà matosi boqlovchi bilan shimdirlishdan avval yoqlovchi qoldiqlaridan yuvilib, yuzasi appretlanadi. SHisha matosini shimdirlish oligomerni spirtdagi eritmasi yordamida vertikal shimdirlish-quritiø aggregatida amalga oshiriladi. SHisha matolari oligomerni shim-may, faqat yuzasi oligomer bilan loklanishi sababli, siqish vallariga xo-jat qolmaydi. SHishatekstolitlarni optimal fizik-mexanik xususiyatlarga undagi boqlovchi miqdori 26-33% (tekstolitda 46-54%), engil uchuvchilar miqdori 1,5% bo`lganida erishiladi.

Konstruktsiyalarda ishlatiluvchi shishatekstolitlarlar uchun shimdi-rilgan mato quyidagi sharoitlarda quritiladi: birinchi bo`lim - 60-90oS, ikkinchi bo`lim - 60-125oS, uchinchi bo`lim - 60-110oS.

SHimdirilgan shisha to-lasini shimdirlish-quritish aggregatlaridagi qarakat tezligi, tekstolit olishdagiga qaraganda ancha past bo`ladi. CHunki turli xil termoplast poli-merlari bilan aralashtirilgan fenolformaldegid oligomerini (BF, VFT) qotishi (rezitol qoliga o`tishi) toza rezol oligomerlarini qotishidan ancha sekin. Undan tashqari shishatekstolitlar ishlab chiqarishda ishlatiladigan elimlarni kontsentratsiyasi (28-35%), oddiy tekstolit olishda ishlatiladi-gan rezol oligomerlari kontsentratsiyasidan ancha past.

SHimdirib quritilgan shisha matosini presslashga tayyorlash qam, pax-ta matosini tayyorlashdan farq qiladi. SHisha matolari paketi po`lat yoki dyuralyuminiy prokladkadan tsellofan yordamida ajratiladi. SHimdirilgan shisha matosi paketlari 100oS gacha qizdirilgan ko`p qavatli pressga joyla-nadi va 4,5-5,5 MPa bosim ostida 140-150oS gacha qizdirildi. Presslash vaqt shisha tekstolitni qar 1 mm iga 10 minutni tashkil etadi.

Engil uchuvchan moddalarni chiqarib yuborish maqsadida presslash vaqtি bir yoki ikki marotaba bosimni atmosfera bosimigacha tushirilib yana boshqatdan bosim qosil qilinadi. Presslangan shishatekstolit bosim ostida sovutiladi.

Shisha matolarda tolalarni o`zaro joylashishiga qarab (garnitur, satin va sarj xillari) ulardan olinadigan shishatekstolitlarini xususiyati o`zgarib turadi.

Satin ko`rinishidagi matolar egiluvchan va tolalar orasi nisbatan bo`sh bo`lganidan, bunday matoga boqlovchini shimalishi osonroq bo`ladi qam-da bunday mato turli xil shaklni oson egallaydi. Satin ko`rinishidagi shi-sha matolardan olingan shishatekstolitlar garnitur ko`rinishidagi matolar-dan olinganiga nisbatan cho`zilish, siqilish, egilishga chidamliroq bo`ladilar. SHisha matosini qalinligi ortishi zarbiy qovushqoqlikni oshi-rishga ammo boshqa mexanik xususiyatlarni kamayishiga olib keladi.

Quyida polivinilbutiral bilan aralashtirilgan fenolformaldegid oligomeri qamda satin ko`rinishidagi shisha matosidan olingan konstruktsi-on shishatekstolitning xususiyatlari keltirilgan.

Xususiyatlar	qiymatlar
Zichlik, kg/m3	1850-1900
Bo`linish kuchlanishi (cho`zilishda), MPa	
eni bo`yicha	210-300
uzunligi bo`yicha	110-170
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m2	
eni bo`yicha	60-115
bo`yi bo`yicha	50-85
Suv yutishi (24 soatda), kg/m2	100-850
Ishlatilish qarorati, oS, ko`p emas	200

Fenolformaldegid oligomerlarini polivinilformaletilol va or-tokremniy kislotasining efiri bilan aralashmasi bilan ishqorsiz shisha-dan olingan satin ko`rinishidagi matoni shimdirib olingan shishatekstolit yuqori mustaqkamlikka ega va qarorat ta`siriga chidamlı bo`ladi. Bunday shishatekstolit uzoq vaqt 200oS va qisqa vaqt 300oS qarorat ta`sirida ish-lashi mumkin.

Ishqorsiz va kremnezem matolaridan modifitsirlangan fenolformal-degid oligomerlari bilan shimdirib olingan shishatekstolitlar quyidagi-cha xususiyatlarga egalar:

Xususiyatlар	Ishqorsi z mato*	Ishqor siz mato**	Kremne zem matosi
Zichlik, kg/m <sup>3</sup>	1600	1600	1600-1700
Bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas eni bo`yicha cho`zilishda	-	300	130
bo`yi bo`yicha cho`zilishda	-	150	-
eni bo`yicha statik egilishda	130	250	150
qavatlar bo`yicha dorz ketib ajralishdagi mustaqkamlik chegarasi, N, kam emas	-	2500	2500
Zarbiy qovushqoqlik (qavatlarga perpendi- kulyar), kDj/m <sup>2</sup> , kam emas	-	180	180
Solishtirma elektr qarshiligi, kam emas sirtqi, Om	1 1012	1 1013	1 109
qajmiy, Om m	1 1014	1 1015	1 1012
Martens bo`yicha issiqbardoshlik, oS, kam emas	-	180	180
Dielektrik yo`qotishning tangens burchagi, 50 Gts, ko`p emas	0.06	-	0.06
Ýlektr mustaqkamlik (qavatlarga perpen- dikulyar qolda), kV/mm, kam emas	0,12	0,20	0,12
Suv yutishi (24 soatda), %	-	0,8- 1,0	0,55

Yuqori dielektrik xususiyatlarga ega bo`lgan shishatekstolitlar boq-lovchini yaxshi shimuvchi ingichèa shisha matolari asosida olinadi. Bunday shishatekstolitlar yuqori namlikda ishlatilganida qam dielektrik xossalara-rini saqlab qoladilar.

SHishatekstolitlarni suvda turishi ayniqsa birinchi 8-10 sutka ichida ularni mexanik mustaqkamligini sezilarli pasayishiga olib keladi. SHishatekstolitlarni bu xususiyatlarini, shisha matolarini yuzini turli appretlar bilan, masalan volan A, allitrixlorsilan bilan ishlash orqasida tubdan yaxshilash mumkëi.

Yuqori mustaqkamlik, past zichlik va suv shimishi, yuqori qarorat ta`siriga chidamlilik shishatekstolitlarni ko`p soqalarda ishlatilishiga olib keldi. SHishaplastiklar turli xil metallar bilan ishlatilishda bema-lol raqobatlashadilar. Ularni elimlash, turli shakllarga o`tkazishning osonligi, shishaplastiklarni konstruktsion material sifatida samolyot- va kemasozlikda, radiotexnikada, issiqlikdan saqlovchi prokladkalar sifati-da ishlatiladi. Ýlektrotexnik maqsadidagi shishatekstolitlað ko`plab turli o`lchash asboblari va elektr mashinalarida platalar yiqish va boshqa maq-sadlarda ishlatiladi.

SHishatolali anizotrop material (SHTAM). SHishatolali anizotrop material shisha shponini qarorat ta`sirida preslab olinadi.

SHTAM olish texnologiyasi shisha shponini olish, ulardan paket yiqib presslashdan iboratdir. SHishà shponini olish uchun xom ashyo bo`lib yo`naltirilgan shisha tolalari (to`ldirgich) va modifitsirlangan fenolfor-maldegid oligomerlari (boqlovchi) xizmat qiladilar. Boqlovchi sifatida polivinilbutirol (BF) yoki epoksid oligomerlari bilan modifitsirlangan fenolformaldegid oligomerlari ishlatiladi.

Materialni mustaqkamligini shisha shponi varaqlarini olishda tolalarni shponda turlicha joylashtiriø (perpendikulyar qolda, 45o burchak ostida va q.k.) qisobiga keng chegarada o`zgartirish mumkin.

Boshqa xil shishaplastiklardan yo`naltirilgan shisha tolali material-lar bir qancha ustunlikka egalar: kerakli yo`nalishda mustaqkamlikni rost-lash ancha yuqori mustaqkamlik, materialda shisha tolalarè va boqlovchini bir xil taqsimlanishi qisobiga material xususiyatlarini bir xilligi va q.k.

Turli yo`nalishlarda bir xil mustaqkamlikka ega SHTAM (ko`ndalang qavatlar soni bo`ylama qavatlar soniga teng) xususiyatlari quyidagichadir (BF elimi asosida):

Xususiyatlar	qiymatlar
Bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas	
cho`zilishda	465
siqilishda (qavatlarga parallel)	200
egilishda	450
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m2, kam emas	400
Martens bo`yicha issiqbardoshlik, oS, kam emas	200

Uzunasiga olingen qavatlarning soni ortib borishi bilan shu yo`nalish da SHTAM mustaqkamligi ortib borib, bo`ylama qavatlar 91% ni tashkil etganda 850-950 MPa ni tashkil etadi.

Yoqoch qatlam plastiklar. Yoqoch qatlam plastiklar (YoqP) plita yoki va-raq ko`rinishida bo`lib, ular yoqochni shilingan shponini boqlovchilar bilan shimdirib olinib presslash natijasida olinadilar.

Ko`pincha oq qayin (bereza) yoki qayin (buk) daraxti shponi qamda fe-nol-, krebol-formaldegid oligomerlarini spirtdagi yoki suv-spirt aralash-masidagi eritmalari ishlatiladi.

YoqP ni olish texnologiyasi shponni tayyorlash, boqlovchi qamda shimi-luvchi eritmasini tayyorlash, shponni shimdirish, uni quritish, paket yiqish va yiqilgan paketni presslash kabi jarayonlarni o`z ichigà oladi.

Yoqoch shponini tayyorlash - unga 3-5% li ishqor eritmasida ishlov berishdan iborat. Bunda gemitsellyuloza, smola, yoqlar, lignin qamda eterifikatsiyalangan uglevodlar eritmaga chiqadilar. quritilgandan keyin bunday shponni xususiyati tubdan yaxshilanadi. Uning zichligi qamda cho`zilishdagi mustaqkamligi 1,5-2 barobar ortadi. SHponni boqlovchi bilan shimdirish vannalarda botiðèø éçèè bilan yoki avtoklavlarda amalga oshiriladi. Avtoklavda shimdirish sifati ancha yaxshi bo`ladi, natijada YoqI suvga chidamliligi qam ancha yuqori. SHimdirishga tayyorlangan shpon, konteynerlarga (shpon qavatlari bir-biridan 0,5 mm qalinlikdagi metall to`rlar bilan ajratiladi) joylanib (shpon varaqidagi tola yo`nalishi vertikal qolda bo`lishi kerak), avtoklavga joylanadi. Keyin avtoklavda 71,5-84,4 kPa qoldiq bosim (vakuum) qosil qilinib, qavoni tortib olinganidan 15-20 min o`tgach, avtoklav boqlovchi eritmasi bilan to`ldiriladi. Unda keyin qavo qaydab 0,4-0,5 MPa ortiqcha bosim qosil qilinadi va 30-90 min ushlab turiladi. SHimdirish tugaganidan so`ng boqlovchi eritmasi o`lchov idishiga siqib chiqariladi, shimdirilgan shpon esa quritish moslamasiga uzatiladi.

Quritish bo`limli quritgichda amalga oshiriladi. Birinchi bo`limda shpon 20-30 min ichida 65-75oS da 1,5-2,0 m/s tezlikda ko`ndalang berilayotgan qavo yordamida quritiladi. Ikkinci bo`limda 0,7-1 m/s tezlikdagi qavoda 85-90oS da 40-75 min quritiladi. qaytarma qurituvchi qavoning nisbiy namli-gi 10-20% bo`lishi kerak. quritilgan shponda boqlovchi miqdori 16-25% ni namlik va engil uchuvchilað miqdori 3-7% ni tashkil etadi. SHimdirilgan shpon ko`p qavatlari presslarda presslanadi. 30-40oli press qavatlari joylangan paketlarda 2,5-3,0 MPa bosim qosil qilinib, qarorat 140-150oS gacha ko`tariladi va qarorat keragicha ko`tarilgandan keyin bosim qam 15-20 MPa gacha oshiriladi. Yuqori bosim va qaroratda ushslash vaqt qar 1 mm qalin-likka 3-5 min qisobidan olinadi. Ushlab turish vaqtı tugagach, material bosim ostida 40-50o gacha sovutiladi va shundan keyin bosim yo`qotiladi.

YoqP lar turli xil markada (A, B, V, G) ishlab chiqarilib, ular bir-biridan asosan yoqoch tolalarini qavatlariда bir-biriga nisbatan joyla-shishi bilan farqlanadilar. Masalan, YoqP-A (DSP-A) da shpon qavatlari-dagi tolalar yo`nalishi qamma qavatlarda bir-biriga parallel yoki qar to`rt parallel qavatga bitta tola yo`nalishi 20-25o ga burilgan qavat qolida joy-lashgan bo`ladi. YoqP-B da qavatlardagi 5-20 parallel qavatga bitta perpen-dikulyar qavat to`qri keladi. YoqP-V da qavatlar o`zaro perpendikulyar joy-lashgan bo`ladilar. YoqP-G da qar bir qavat tola yo`nalishi bir-biriga nisba-tan 30o ga surilgan bo`ladi.

Xususiyatlar	YoqP	YoqP-B	YoqP	YoqP-
--------------	------	--------	------	-------

	-A		-V	G
Zichlik, kg/m <sup>3</sup> kam emas	1330	1300	1300	1300
Bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas				
cho`zilishda tolalar yo`nalishi bo`yicha	280	260	140	-
siqilishda	180	160	125	125
statik egilishda	280	280	180	150
siljishda (elim qavati bo`yicha)	8	8	7	7
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup> , kam emas	80	80	30	30
Brinell bo`yicha qattiqlik, MPa, kam emas	200	200	200	200
Martens bo`yicha issiqbardoshlik, oS, kam emas	140	140	-	-

Yoqoch qatlam plastiklari yuqori antifriktsion xususiyatlarga ega. SHuning uchun YoqP dan yasalgan buyumlar mashinasozlikda bronza, babbit, tekstolitlarni o`rnini egallayapti. YoqP ning kmchiligi, u kimyoviy qamda namlik ta`siriga chidamsiz. Suvda bir sutka saqlanganda 3% gacha 50 sutka saqlanganda 22% gacha suv yutadi.

Yoqoch qatlam plastiklar konstruktsion va antifriktsion material si-fatida kemasozlikda, temiro`l transportida, mashinasozlik va elektrotex-nikada ko`plab ishlataladi.

Gaz bilan to`ldirilgan fenoplastlar. Gaz bilan to`ldirilgan fenopla-stlarga - ko`pik plastmassalar (ko`pikplastlar) va uyali plastmassalar kira-di.

Ko`pik plastiklar deb - xom ashyni ko`pirishi natijasida bir-biri bi-lan tutashmagan bo`shliqlarni naç bilan to`ldirilishi natijasida qosil bo`lgan plastmassalarga aytildi.

Ko`pikfenoplastlar novolak va rezol fenolformaldegid oligomerlari asosida olinishi mumkin.

Novolaklardan ko`pikplastlar oligomerni suyuqlanmasini gaz qosil qiluvchi moddalarni (porofor) parchalanib ko`pik qosil qilishi va qosil bo`lgan ko`pik strukturasini, oligomerni urotropin yordamida yuqori qarorat ta`sirida qotib, saqlab qolishi qisobiga olinadi.

Novolak oligomerlaridan ko`pik plastik olish texnologiyasi quyida-gilardan iborat - komponentlarni aralashmasini sharli tegirmonda tayyor-lab olish (oligomer, porofor, qotish katalizatori), kompozitsiyani suyuq-lanma qoliga o`tkazish, ko`pirtirish va biror qolipda qotirish. Olingan ko`pikplastni mo`rtligini kamaytirish maqsadida uning tarkibiga butadien-stirol kauchugi qo`shilishè mumki. Bu qolda kukun ko`rinishidagi komponent-lar aralashmasi valtslarda plastik qolga olib keltingan kauchukka qo`shilib, valtslanadi. Olingan plenka ko`rinishidagi yarim maqsulot mayda bo`lakchalarga maydalanib keyin ko`pirtirish qolipiga solinadi. Issiqlikka chidamliligini oshirish maqsadida kompozitsiyaga alyuminiy kukuni, asbest, perlit kabi to`ldirgichlar qo`shilishi mumkin.

Novolak oligomeridan ko`pik plastik olish quyidagi jarayonlardan iborat. Avvaliga 80-90oS da boqlovchi yumshaydi va suyuqlanma qoliga o`tadi (qovushqoq-oquvchan qolga o`tish). Bu jarayon umumiy qajmni qisqarishiga olib keladi.

SHu jarayonning so`ngi, gaz qosil qiluvchi moddalarni parchalanishini boshlanishiga to`qri kelishi kerak (90-110oS). Ana shu qaroratda yumshagan massa ko`piridi va berilgan qajmni to`latadi.

Keyingi bosqichda qaroratni 150-200oS gacha oshiriladi (ko`pikpla-stikka o`zarmas fizik-mexanik va kimyoviy xususiyatlar berish maqsadida) va shu qaroratda bir qancha vaqt ushilab turiladi. Ushlash vaqtida oligomer qota-di, kauchuk esa vulkanlanadi. Ushlash vaqtida ko`pik material qalinligiga, qo`shimchalarni miqdoriga boqliq.

Kauchuk bilan aralashtirilgan novolak oligomeri asosidagi ko`pik-plastlar retsepturasi quyidagicha (mass.qism):

Novolak oligomeri	100	10 0	100
Urotropin	10	10	10
Butadien-nitril kauchugi	-	20	40

Oltinugurt	-	0,6	1,2
Azobisizoyoq kislotasining dinitrili	1-2 5	2-	3-7

Rezol oligomerlaridan ko`pikplastiklar olishda qotish jarayonini gaz qosil bo`lishi va ko`pikni ko`tarilishi bilan birlilikda olib boriladi.

Rezollar asosidagi ko`pikplastik olishda gaz qosil qiluvchi sifatida kislotalar bilan ta`sirlashganda gaz chiqaruvchi moddalar (natriy bikarbo-nat) yoki past qaroratda qaynovchi uglevodorodlar (n-pentan, freonlar va b.) ishlataladi. Engil uchuvchi moddalar ishlataliganida ko`pik qosil bo`lish ja-rayoni oligomer qotayotganda ajralib chiqqan issiqlik qisobiga amalga oshi-riladi.

Rezollar asosidagi ko`pikplastiklarni qotirish katalizatorlari si-fatida asosan kislotalar ishlataladi.

Rezol oligomerlaridan olingan 30-200 kg/m<sup>3</sup> zichlikdagi plastiklar anchagina mo`rt bo`lib, bu mo`rtlikni kamaytirish maqsadida kompozitsiya tar-kibiga termoplastik polimerlar (polivinilatsetat emulsiyasi, polivinil spirti, polivinilbutiral) qo`shiladi. Mustaqkam ko`pikplastiklar olish maqsadida kompozitsiyaga metall nitritlari qamda turli aminlar qo`shiladi: anilin, metilamin, dimetilamin, geksametilendiamin, karbamid. Ushbu aminlar nitritlar bilan ta`sirlanishi natijasida azot va kislota ajralib chiqadi, azot ko`pirtirish uchun, kislota esa qotirgich sifatida ta`sir etadi-lar.

Ko`pik fenoplastlar oddiy monolit fenoplastlardan engilligi, yuqo-ri issiqlik- va tovush o`tkazmasli xususiyatlari bilan ajralib turadilar. Ko`pik fenoplastlarni asosiy kamchiligi - ularni dinamik kuchlar ta`siriga (zarbiy qovushqoqlik) chidamsizligidir.

Novolak oligomerlari asosida olingan ko`pikplastiklarni fizik-mexanik xususiyatlari quyida keltirilgan:

Xususiyatlar	Novolak oligomeri(100/20 mass.qism)	Novolak/kauchuk (100/40 mass.qism)	Novolak/kauchuk
Tuyulma zichlik, kg/m <sup>3</sup> , ko`p emas	180-230	180-300	180-300
Bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas			
cho`zilishda	-	1,75	0,78
siqilishda	0,8-1,1	1,1	0,7
statik egilishda	1,2	-	-
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup> , kam emas	0,12	1,1	2,2
Issiqlik o`tkazish koeffitsienti, Vt/(m*K), kam emas			
-90oS da	0,031	0,031	0,031
25oS da	0,045	0,045	0,045
Suv yutishi, kg/m <sup>3</sup> , ko`p emas	0,2	0,3	0,3

Rezol oligomerlari asosidagi ko`pikplastiklar quyidagicha xususiyat-larga egalar:

Xususiyatlar	Rezol oligomeri (100/20 mass.qism)	Rezol/kauchuk (100/40 mass.qism)	Rezol/kauchuk
Tuyulma zichlik, kg/m <sup>3</sup> , ko`p emas	40	60	80
Bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas			
cho`zilishda	0,12	0,33	0,44

siqilishda	0,18	0,49	0,62
statik egilishda	0,3	0,42	0,55
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup>			
qirqish bilan	0,06	0,15	0,16
qirqishsiz	0,06	0,09	0,08

Ko`pikplastiklar plita, varaq va turli shakldagi buyumlar ko`rinishida ishlab chiqariladi. Ko`pikplastiklar kemasozlikda, radiotex-nikada, qurilishda ko`plab ishlatiladi. Ular issiqlik va tovush o`tkazmay-digan maqsulot sifatida, ikki va uch qavatli engil konstruktsiyali oraliq-larni to`ldirishda ishlatiladi. Kauchuk qo`shib olingan ko`pikplastiklar easa yuqori zarbiy qovushqoqlikka ega bo`lganliklari sababli vibratsiyaga uchrovchi tsilindir ko`rinishidagi buyumlarni orasini to`ldirishda ishlatiladi.

### **QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Getinaks qanday to`ldirgich asosida va qanday texnologiya bo`yicha olinadiq
2. Getinaksning xossalari nimaga boqliq va u qaerlarda ishlatiladiq
3. Tekstolim olishda qaysi turdag'i matolar ishlatiladiq
4. Tekstolit olishning texnologik jarayonini tushuntiring.
5. SHisha tekstolit qamda SHTAM (shisha tolali anizotrop material) qanday olinadi va qanday xossalarga egaq
6. Yoqoch shponi asosida qaysi turdag'i qatlama plastiklar ishlab chiqariladiq
7. Gaz bilan to`ldirilgan fenoplastlar qanday olinadiq
8. Ko`pik plastlar bilan qovak plastlarining qanday farqlari bor, va bu farqlar ularni qaysi xossalariiga ta`sir ko`rsatadilarq

### **ADABIYOTLAR**

1. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.282-298.
2. Kulikov E.V. i dr. Texnologiya kleenix materialov i plit. M., Lesnaya promishlennost', 1987, 284 s.

## **MA`RUZA – 12**

### **AMINOALDEGID OLIGOMERLARI VA POLIMERLARI**

Karbamidni formaldegid bilan o`zaro reaktsiyasi natijasida, reaktsiya sharoitlariga qarab kristall individual moddalar, eruvchi oligomer moddalar va erimaydigan va suyuqlanmaydigan polimerlar qosil bo`ladi.

Bizni asosan eruvchi oligomerlar qiziqtiradi, chunki asosan shu oligomerlar sanoatda ishlatiladi va qolgan ikki xili qozircha sanoatda o`z o`rnini topmagan.

Neytral yoki kuchsiz ishqorii muqitda (rN 7) carbamidning gidroksimetil qosilalari qosil bo`ladi. Nazariy jiqatdan carbamid 4 ta formaldegid molekulasi biriktirib olishi mumkin:

faqtgina mono- va digidroksimetilkarbamidgina katta tezlik bilan qosil bo`ladi va bu reaktsiyalarne qaytmas reaktsiyalar desa bo`ladi. Trigidroksimetilkarbamid anchagina kam qosil bo`ladi, tetragidroksimetilkarba-mid esa reaktsion muqitda aniqlanmaydi.

Eng ko`p qosil bo`ladigan monogidroksimetilkarbamid oq kristall modda bo`lib, u 109-110oS da suyuqlanadi, suvda va metanolda yaxshi eriydi. Digidroksimetilkarbamid esa 138-140oS da suyuqlanadi, suvda, metanolda va etanolda yaxshi eriydi.

Agarda reaktsiya boshida kislotali muqit qosil qilinsa, unda



strukturali metilkarbamidlar qosil bo`ladi.

Agarda muqit ( $rN=1-4$ ) kuchli kislotali bo`lsa, bu qolda gidroksimetilkarbamidlar qam 60oS dan yuqorida metilenkarbamidlarga aylanadi.

Metilenkarbamidlardan o`ta turqunmas moddalar bo`lib, ular tezda past molekulali erimaydigan va qechqaerda ishlatilmaydigan amorf polimer-larga aylanadi.

Suvda eruvchi va keng ishlatiladigan karbamidformaldegid oligomer-lari mono- va digidroksimetilkarbamidlarni suvdagi eritmalarini kuchsiz kislotali muqitda ( $rN=4,5-6$ ) qizdirish natijasida qosil bo`ladilar. Mono-gidroksimetilkarbamidni, digidroksimetilkarbamiddan reaksiyaga kirishish qobiliyati bir necha marotaba kuchli bo`lganligi sababli, reaksiyada asosan monogidroksimetilkarbamid qatnashadi, kamroq digidroksimetilkarbamid qatnashadi.

pH<4 bo`lganida asosan -CH<sub>2</sub>- metilen boqlar bilan birikkan oligo-merlar, pH=4-7 bo`lganida esa dimetilenefir (-CH<sub>2</sub>-O-CH<sub>2</sub>) boqlar bilan birikkan oligomer qosil bo`ladi.

Demak karbamidning formaldegid bilan reaksiyaga kirishining o`ziga qosligi shuni talab qiladiki, sanoatda ishlatish mumkin bo`lgan karbamidformaldegid oligomerlarini ikki bosqichda (1-bosqich: kuchsiz ishqo-riy muqitda gidroksimetilkarbamidlarni qosil qilib olish; 2-bosqich: kuch-siz kislotali muqitda gidroksimetilkarbamidlarni o`zaro va karbamid bi-lan reaksiyasi natijasida oligomerlar olish;) sintez qilish maqsadga muvofiqdir.

### KARBAMIDFORMALDEGID OLIGOMERLARINING QOTISHI

Haroratni ortishi bilan karbamidformaldegid oligomerlarini qo-tishi tezlashadi. Kislotali katalizatorlar ishtirokida (shavel kislotasi, ftal kislotasi va q.k.) oligomerlarni xona qaroratida qam qotirish mum-kin. Ammo issiqda qotgan karbamidformaldegid polimerlarini xususiyati (suvga chidamlilik, issiqqa chidamlilik) ancha yuqori bo`ladi. qotirish 130-140oS da kislotali katalizatorlar ishtirokida olib boriladi. Kuchli anor-ganik kislotalar oligomerlarni yashash muqlatini juda qisqartirib yubor-ganidan, ko`pincha yuqori qaroratda kislot qoldiqiga parchalanadigan tuzlar qotirgichlar sifatida ishlatiladi. Yng ko`p ishlatiladigan issiqda qoti-ruvchi katalizatorlardan biri xlorid kislotasining ammoniyli tuzidir.

Bunday katalizator birinchi navbatda yuqori qarorat ta`sirida oligo-mer tarkibida albatta qoladigan bo`sh formaldegid bilan reaksiyaga kiri-shadi:

SHuni aytish kerakki, qatto eng optimal sharoitda qotirilgan karba-midformaldegid polimerlari qam suvgaga chidamliligi, ayniqsa issiq suvgaga chidamliligi past bo`ladi. Bu qol to`rsimon polimerda tikish boqlarini kam-ligidan dalolat beradi. Aytiganlarni tikilgan karbamidformaldegid po-limerlarini koks sonini kamligi qam tasdiqlaydi (14-21%). Xuddi shunday tikilgan karbamidformaldegid polimerlarini issiqlikka chidamliligi qam ancha past.

### MELAMIN-FORMALDEGID OLIGOMERLARI VA POLIMERLARI

Melamin qam formaldegid bilan reaksiyaga kirishganida avvaliga kristall ko`rinishidagi gidroksimetilmelaminlar qosil bo`ladi. Undan keyin oligomerlar va tikilgan polimerlarga aylanadi.

Reaksiya boshlanishida qosil bo`ladigan moddalar asosan melamin va formaldegidning nisbatiga qamda qaroratga boqliq.

Birinchi uchta formaldegidni biriktirib olish katta tezlikda ketadi:

Formaldegidni keyingi molekulalarini birikishi va pentagidroksimetilmelamin qamda geksagidroksimetilmelaminlar qosil bo`lishi yuqori qaroratda va formaldegidni juda ortiqcha olganda kuzatiladi.

Masalan, pentagidroksimetilmelamin melamin bilan formaldegidni 1:8 mollar nisbatida, geksagidroksimetilmelamin 1:12 nisbatda olingani-da qosil bo`ladi. Buning sababi birinchi 3 ta formaldegid molekulalarini birikishini qaytmas reaksiyalarini deb qisoblash mumkin va bu reaksiyalar katta tezlikda ketadilar. Formaldegidni keyingi molekulalarini birikti-rish esa qaytar reaksiyalar bo`lib, bu reaksiyalar issiqlik yutilishi bilan ketadilar.

Melamin sovuq suvda yaqshi erimaydi, shuning uchun qam 60oS dan past-da reaktsiya asosan geterogen xarakterga ega bo`lib, 60oS dan yuqorida gomogen muqitda katta tezlik bilan ketadi.

Hosil bo`lgan gidroksimetilmelaminlar bir-birlari bilan reaktsiyaga kirishishlari mumkin. Bu sharoitlarda reaktsiya quyidagicha ketadi.

1.  $2\text{RNHCH}_2\text{OH} \rightarrow \text{RNHCH}_2\text{-O-CH}_2\text{-NHR} + \text{H}_2\text{O}$
2.  $\text{RNHCH}_2\text{OH} + \text{RNH}_2 \rightarrow \text{RNHCH}_2\text{NHR} + \text{H}_2\text{O}$
3.  $2\text{RNHCH}_2\text{OH} \rightarrow \text{RNHCH}_2\text{NR}$   
 $\text{CH}_2\text{OH}$

Odatda melamin-formaldegid oligomerlari qam karbamidformalde-gid oligomerlariga o`xshab 2 bosqichda, avvaliga kuchsiz ishqoriy muqitda, keyin kuchsiz kislotali muqitda sintez qilinadilar.

Melamin-formaldegid oligomerlari faqatgina kislotali muqitda-gina emas balki neytral muqitda qam tez qotish xususiyatiga ega. CHunki reak-tsiyaning boshlanqich moddalari ko`plab reaktsiyaga moyil funktional gruppa-larga ega bo`ladilar va shu tufayli olingan tikilgan polimeri tikelish zichlig`e kattagina bo`ladi. Zich tikilgan melamin-formaldegid polimerlari shuning uchun qam suv ta`siriga, issiqlikka chidamli va yuqori mustaqkamli-ga ega bo`ladilar.

Melamin-formaldegid oligomerlarining suvdagi eritmali juda qisqa muddat (1-2 kun) ishlatishga yaroqlik qolatlarini saqlab turadilar, undan tashqari melamin-formaldegid oligomerlari ko`plab lok-bo`yoq sanoa-tida ishlatilganligi sababli, turli organik erituvchilarda eriydigan me-lamin-formaldegid oligomerlariga eqtiyoj katta. CHunki organik erituvchi-larda erigan melamin-formaldegid oligomerlarini yashash umri anchagina-dir.

Buning uchun turli qildagi modifitsirlangan melamin-formaldegid oligomerlari ishlab chiqariladi.

Avvaliga melamin bilan formaldeggidan kuchsiz ishqoriy muqitda gidroksimetilmelaminlar aralashmasi olinadi. Bunda mela-min:formaldegid nisbati 1:8 qilib olinadi. Olingan gidroksimetilmelaminlar kislotali muqitda 8 mol butil spirti qo`shilib eterifikatsiyaga uch-ratiladi. Asosiy  $\text{CH}_2\text{OH}$  gruppalar murakkab efir gruppalariga aylanadi-lar. Lekin bir qism gidroksimetilmelamin gruppalarini o`zaro yok` - NH- gruppalar bilan polikondensatlanish reaktsiyalarida qatnashishlari qiso-biga oligomerlanish qam sodir bo`ladi. Ýterifikatsiyalovchi modda sifatida butil spirtidan tashqari, etilenglikol, glitserin, furfuri spirti va boshqa spirtlar ishlatilishi mumkin.

Polikondensatlanish jarayoni tugab ortiqcha suv qamda reaktsiyaga ki-rishmagan bir qism spirtlar qaydalanganidan so`ng, modifitsirlangan mela-min-formaldegid oligomeriga plastifikator (masalan, kastor yoqi) yoki gif-tal oligomerining toluoldagi eritmasi qo`shiladi.

Modifitsirlangan melamin-formaldegid qamda gliftal oligomerlarini turli nisbatda aralashtirib olish natijasida ulardan olinadigan plenka va qoplamlarni qattiqligi, elastikligi va adgeziyasini qoqlagan yo`nalishda o`zgartiish mumkin.

### KARBAMID-FORMALDEGID OLIGOMERLARI ASOSIDAGI POLIMER KOMPOZITSIYALARI

Press-kukunlar. Karbamidformaldegid oligomerlari asosida suvdagi emulsiya va valtslash usulida ishlaá chiqariladi. Bir xil xususiyatlari va tar-kibli press-kukun odatda suvdagi-emulsiya usulida olinganligi sababli ko`proq shu usul ishlatiladi. Undan tashqari suvsiz, quruq karbamidformal-degid oligomerlarini ishlab chiqarish ancha murakkab. Karbamidformalde-gid oligomerlari asosidagi press-kukunlar odatda aminoplastlar deb ata-ladilar.

Odatda karbamidformaldegid oligomerlarini saqlashdagi ishlatishga yaroqliligi kam bo`lganligidan, press-kukun karbamidformaldegid oligome-ri ishlab chiqariladigan korxonada tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

Aminoplastlarni olish texnologiyasi asosan quyidagi jarayonlardan tashkil topgan: oligomerni suvdagi emulsiyasini olish, komponenntlarni aralashtirish, kompozitsiyani quritish, kompozitsiyani maydalash, press-kukunni standartlash, presslash.

Aminoplastlardan olingan buyumlarni fizik-mexanik xususiyatlari:

Solishtirma qajm, m <sup>3</sup> /kg	2500-3000
Bo`linish kuchlanishi, MPa, kam emas	
cho`zilishda	35-50
siqilishda	120-150
statik egilishda	60-90
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup> , kam emas	5-6
Brinell bo`yicha qattqlik, MPa	3,0-3,5
Martens bo`yicha issiqbardoshlik, oS, kam emas	100
Dielektrik yo`qotishning tangens burchagi, 50 Gts, ko`p emas	0,03-0,1
Solishtirma elektr qarshiligi	
sirtqi, Om	1010-1011
qajmiy, Om m	1013-1014
Dielektrik o`tish, 50 Gts, ko`p emas	5-7
Ylektr mustaqamlilik, kV/m	10000-15000
Suv yutishi, %	1,0-1,5
Sovuganda kichiklashish (qisobiy), %, ko`p emas	0,8

Karbamidformaldegid oligomerlari pastroq qaroratda qotirilgan-liklari sababli, ular fenolformaldegid oligomerlaridan sekinroq qota-dilar. Bu qol ularni qayta ishslashda ishlab chiqarish unumdorligini kamayishiga olib keladi.

Aminoplastlar turli-tuman uy-ro`zqor buyumlari va dekorativ maq-sadlarda ishlatiluvchi buyumlað olishda ishlatiladi (bolalar o`yinchoqlari, galantereya va kantselyariya buyumlari, idishlar va q.k.).

Mipora ko`pikplasti. Karbamidformaldegid oligomerlarini suvdagi emulsiyasi asosida mipora nomli ko`pikplast ishlab chiqariladi. Tayyor oli-gomerni suvdagi emulsiyasi vertikal ko`p belkurakli aralashtirgichli quvur-simon apparatda ko`pik qosil qiluvchi quyidagi tarkibdagi eritma bilan aralashtiriladi (mass.qism):

Petrov kontakti (neft maqsulotlarining natriyli tuzi, ko`pik qo-sil qiluvchi)	33,3
Fosfor kislotosi (antipiren, ko`pik qosil bo`lishiga yordamlashadi)	25,3
Rezortsin (ko`pikni barqaror qiladi)	2,9
Suv (kontaktni suyultiruvchi)	7

Petrov kontaktini aralashtirishdan avval ishqor bilan neytrallanadi va vakuumda zichligi 1200-1220 kg/m<sup>3</sup> bo`lgunicha engil uchuvchilardan tozala-nib, qosil bo`lgan massani suv bilan suyultiriladi va shavel kislotosi qo`shilib zichligi 1016-1022 kg/m<sup>3</sup> gacha olib kelinadi. Ko`pikplastikni zich-ligini ko`pik qosil bo`luvchi massaga bosim ostida yuboriladigan qavo yorda-mida rostlanadi. Ko`pik plastikka yonmaslik xususiyatini berish maqsadida massaga ammoniy fosfat NH<sub>4</sub>H<sub>2</sub>PO<sub>4</sub> qo`shiladi. Tayyor ko`piklarni vagonetka-larga o`rnatilgan qoliplarga quyiladi va quyidagi sharoitlarda qotiriladi. 4-5 soat xona qaroratida birinchi kunda 30-40°C da, ikkinchi kuni 40-50°C da va uchinchi kuni 50°C da. Ushbu qotirish sharoiti ko`pikni qotish jarayonida kattaligini kichiklashishidan qosil bo`lgan ichkè kuchlanish ta`sirida yori-lib ketishini oldini oladi.

Mipora ko`pikplasti quyidagi fizik-mexanik xususiyatlarga ega:

Tuyulma zichlik, kg/m <sup>3</sup> , ko`p emas	20
Siqilishdagagi bo`linish kuchlanishi, MPa	0,025-0,050
Issiqlik o`tkazish koeffitsienti, Vt/(m*K)	
blokda (-12 dan 21oS gacha)	0,022-0,024
maydalangan qolda (-12 dan 37oS gacha)	0,019-0,022
Solishtirma issiqlik qajmi, kDj/(kg*K)	13,8
Suv buqlari uchun o`tish, kg/(m <sup>2</sup> *sut)	0,460

Suv yutishi*, kg, ko`p emas	
1 sutkada	0,008
10 sutkada	0,013

Miporani issiqlik o`tkazish koeffitsienti qavoni issiqlik o`tkazish koeffitsientiga ancha yaqin. Mipora yoqoch probkasidan 10 marotaba engil. Ammoniy fosfat tuzi miporaga 220oS da yonishga chidamlilik beradi (yonmaydi, faqat qorayib qo`piklashadi). Miporani mo`rtligini oligomer tarkibiga 20% gacha karbamid massasiga nisbatan glitserin qo`shish bilan ka-maytirish mumkin. qovaklarni berk bo`lib bir-biri bilan tutashib ketma-ganligi (ochiq, tutashgan) bu materialni juda sifatlari issiqlik saqllovchi (issiqlik o`tkazmaydigan) sifatida ishlatish imkonini beradi. Mipora muzlatgichlarda, suyuq gazlarni saqlash idishlarida, devorlarni bo`shliqlar-ini to`ldirishda ishlatiladi. Mipora tovush o`tkazmasliê xususiyatiga qam ega. SHu sababli turli xonalarni (teatrлarda, radio studiyalarida, yashash xo-nalarida) akustikasini yaxshilashda qam ishlatiladi. SHu bilan birgalikda mipora polimer ko`pik plastiklari ichida eng arzoni qisoblanadi.

Miporani kamchiliklariga uni mo`rtligi qamda suv ta`siriga chidam-sizligi kiradi va bu kamchilikni ko`pincha uni ustini suv o`tkazmaydigan parda bilan o`rash kerak bo`ladi.

Melamin-formaldegid oligomerlari asosidagi plastik massalar

Press-materiallar. Melamin-formaldegid oligomerlaridan olinadi-gan press-materiallar aminoplast yoki melatit deb ataladilar. Melatit olish texnologiyasi karbamidformaldegid oligomerlari asosida olinadigan aminoplastlar texnologiyasiga o`xshash.

Melatitdan olingan press-buyumlar quyidagi talablarga javob be-rishlari kerak:

Solishtirma qajm, m <sup>3</sup> /kg, ko`p emas	3500
Statik egilishdagi mustaqkamlik, MPa, kam emas	60
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup> , kam emas	5
Martens bo`yicha issiqbardoshlik, oS, kam emas	120
Rashig bo`yicha oquvchanlik, mm	80-180
Sovuganda kichiklashish (qisobiy), %, ko`p emas	0,8
Namlik va uchuvchan moddalar miqdori, %, ko`p emas	4,5

Qatlam plastiklar. Melamin-formaldegid oligomerlari va varaq to`ldirgichlar materiallar olish texnologiyasi shunday materiallarni karbamidformaldegid oligomerlaridan olish texnologiyasidan farq qilmaydi. Tashqi qavatlari uchun turli xil teksturalar tushirilgan oqlangan qoqozni melamin-formaldegid oligomeri bilan shimdirib quritishgandan so`ng uni getinaks uchun tayyorlangan paketni ostki va ustki qavatlariga taxlab press-lab olingan qatlam plastiklar - dekorativ qoqoz qatlam plastiklari deb ataladi.

Dekorativ qoqoz qatlam plastiklarining xususiyatlari quyida kelti-rilgan:

Zichlik, kg/m <sup>3</sup> , ko`p emas	1400
Statik egilishdagi mustaqkamlik, MPa, kam emas	120
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup> , kam emas	8
Brinell bo`yicha qattiqlik, MPa, kam emas	250
Suv yutishi (24 soatda), %, ko`p emas	2,7

Dekorativ qoqoz qatlam plastiklar turar joylar, korxonalarni xona-larini bezashda, elekrotexnikada, vagon, samolyot, avtobuslarni ich tarafi-ni jiqozlashda ko`plab ishlatiladi. Narxini kamaytirish maqsadida ko`pincha boqlovchi sifatida melamin-formaldegid oligomeri ishlatiladi. Bunday maqsulotlarni xususiyatlari melamin-formaldegid va karbamid-formaldegid oligomerlaridan olingan materiallar xususiyati oraliqida bo`ladi.

## TAYANCH SO`ZLAR

Mochevina, melamin, formaldegid, mono-, di-, tri-, tetrametilolmoche-vina, mochevina-formaldegid oligomerlari, ishqoriy muqit, kislotali muqit, suvda eruvchan oligomerlar, erimaydigan poroshok ko`rinishidagi moddalar.

Karbamid-formaldegid oligomerlari, qarorat ta'sirida qotiruvchi qotirgichlar, aminoplastlar, paxta tsellyulozasi, oq yaltiroq press-massalar, dekorativ qoqoz-qatlama plastiklar.

## QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Mochevina (karbamid) bilan formaldegid birikkanda, ishqoriy muqitda past qaroratda qanday moddalar qosil bo'ladiq
2. Mochevinadagi faol vodorod atomlarini nechtasi metilol guruqiga ayla-nishi nimalarga boqliqq
3. qanday sharoitlarda erimaydigan oq kukun ko'rinishidagi moddalar qo-sil bo'ladiq
4. qanday sharoitlarda suvda erimaydigan carbamid-formaldegid oligo-merlari qosil bo'ladi?
5. Carbamid-formaldegid oligomerlari qanday mexanizm bo'yicha qotadiq
6. Carbamid-formaldegid polimerlari nima sababdan suv ta'siriga chidam-siz bo'ladi?
7. Melamin-formaldegid oligomerlari qanday olinadilarq
8. qotgan melamin-formaldegid polimerlari nima sababdan suv va qarorat ta'siriga chidaml?
9. Aminoplastlar qanday xossalarga ega va qaerlarda ishlatiladiq
10. Mipora qanday olinadi, xususiyatlari va ishlatilish soqlari.
11. Dekorativ qoqoz qatlama plastiklarini olish texnologiyasi, xossalari va ishlatilishi.

## MA`RUZA - 13 MURAKKAB POLIÝFIRLAR ISHLAB CHIQARISH

Murakkab poliefirlar ishlatilayotgan gidroksil qamda karboksil saqlovchi monomerlarning funktzionalligiga qarab, termoplastik va termoreaktiv murakkab poliefirlarga bo'linadi.

### TERMOPLASTIK MURAKKAB POLIÝFIRLAR.



Termoplastik poliefirlardan qozirgi vaqtida polietilentereftalat, polikarbonat va poliarilatlar amaliy aqamiyatga ega.

### POLIÝTILENTEREFTALAT


Polietilentereftalat tereftal kislotasi bilan etilenglikol asosidagi poliefir bo'lib, uni kislotaning turli qosilalari va etilenglikoldan olish mumkin.

Sanoatda polietilentereftalat ikki bosqichda uzlukli yoki uzuksiz usullarda olinadi. Birinchi bosqichda di(-oksietyl) tereftalat quyidagi usullardan biri yordamida olinadi:


Ikkinci bosqichda di(-oksietyl) tereftalat polikondensatlanadi:



бу ерда: Me-Zn, Co, Ca, Mn ва б.



бу ерда: kt –  $\text{CH}_3\text{COOMe}$ ,  $\text{Ti}(\text{OC}_4\text{H}_9)_4$ ,  $\text{H}_3\text{PO}_4$



бу ерда: kt – аминлар, сулфидлар, ишқорий металларнинг оксидлари ва тузлари

## POLIÝTILENTEREFTALATNI ISHLAB CHIQARISH

Polietilentereftalat olishni texnologiyasi xom ashyoni tayyorlash, dimetiltereftalatni etilenglikol bilan pereeterifitsirlash, diglikoltereftalatni polikondensatlash, olingan polimerni sovitib maydalash kabi jarayonlardan iborat.

140<sup>0</sup>C gacha qizdirilgan 1chi-reaktorga (rasm 16) dimetiltereftalat solinadi. Aloqida 2chi-apparatda katalizatorning etilenglikoldagi eritmasi tayyorlanadi. Buning uchun etilenglikol 1250S gacha qizdirilib, aralashtirib turilgan qolda katalizator (tsink atsetati) solinadi. Ýtilenglikoldagi katalizator eritmasi qam 1 chi-reaktorga solinadi.

Rasm 16. Polietilentrereftalat ishlab chiqarish jarayonining sxemasi:

1-pereetirkatsiyalash reaktori; 2-katalizatorni eritish apparati; 3-nasadkali kolonna; 4,8-quvur qobiqi sovitgichlar; 5-metanolni qabul qiluvchi idish; 6-turli filtr; 7-polikondensatlanish reaktori; 9-etilenglikolni vakuum-qabul qilish idishi; 10-sovitish baraba-ni; 11-yo`naltiruvchi vallar; 13-qirqish dastgoxi.

Reaktorga solinadigan komponentlarning miqdori quyidagicha (mass.qism):

Dimetiltereftalat	80
Ýtilenglikol	100
Tsink atsetati	0,01

Pereeterifikatsiya azot yoki uglerod dioksidi o`tib turuvchi muqitda 200-230<sup>0</sup>C da 4-6 soat davomida o`tkaziladi. Avtoklav glikol bilan metanol buqlarini ajratadigan nasadkali kolonna (3) bilan jiqozlangan. Metanol buqlari 4chi-sovitgichda sovitilib, 5chi-qabul qiluvchida yiqi-ladi, uchib chiqayotgan dimetiltereftalat Rashig qalqalaridan glikol yordamida yuvilib yana reak-torga qaytariladi. Metanol qaydalib bo`lganidan so`ng reaktordagi massa 260-2800S gacha qizdi-riladi, ortiqcha etilenglikol qaydalib, suyuqlanma qolidagi massa 6chi-metal elakli filtrdan 7chi-reaktorga polikondensatlanish uchun siqib chiqariladi. Reaktor (7) ga massa solinganidan so`ng, 0,5-1 soat davomida qoldiq etilenglikolni qaydash maqsadida reaktorda 2,6 gPa (2 mm s.i.m) vakuum qosil qilinadi. Polikondensatlanish 280<sup>0</sup>C da 3-5 soat davomida berilgan qo-vushqoqlikka erishilguncha davom ettiriladi. Suyuqlanma qolidagi polietilentereftalat siqil-gan azot yordamida suv bilan sovitilayotgan va vannaga o`rnatilgan barabanga (10) tirqichli te-shikdan parda ko`rinishida siqib chiqariladi. Poliefir tasmasi 13chi-maydalagichga v undan qu-ritishga oshiriladi. Olingan polietilentrereftalatning molekula massasi 15000-30000 ni tash-kil etadi.

Polietilentereftalatni chiqindilari destruktsiyaga uchratuvchi moddalar bilan ishlanib (suv, ishqor, metanol, glikol, gidrazii), qaytatdan monomerlarga aylantirilishi mumkin. Masalan, polietilentereftalatni 2,7 Mpa bosimda 2800S da 3-6 soat davomida metanolizga uchratib 80% chiqish bilan dimetiltereftalat olish mumkin.

Fosfor kislotasi, fosfor kislotasining efirlari, n-izobaronilfenollri qo`shish polielitentereftalatni qarorat ta`siriga chidamliligin oshiradi.

## POLIÝTILENTEREFTALATNI XOS SALARI VA ISHLATILISHI

Suyuqlanma qolidagi polietilentereftalat tiniq sariqsimon yuqori qovushqoqli suyuqlanma bo`lib (280<sup>0</sup>C da 100 Pa s), tez sovitiganida tiniq qattiq polimerga aylanadi. Polimer 80<sup>0</sup>C dan yuqoriroq qaroratda kristallanadi. Polietilentereftalatni suyuqlanish qarorati 2650S, zichligi 1380 kg/m<sup>3</sup> ga teng.

Suvda 25<sup>0</sup>C haroratda bir hafta ushlab turilsa 0,5% dan kam suvni yutadi. Bunda uning mexanik xossalari umuman o`zgarmaydi. Polietilente-reftalat etilatsetat, atseton, ksilol, dioksan, muzli sirka kislotasi kabi erituvchilar ta`siriga (yuqori qaroratda qam) chidamli. U fenollarda, xlor-langan fenollarda, uchftorsirka kislotasida, difeniloksidda, kontsentr-langan sulfat kislotasida eriydi.

Polietilentereftalatni tolalari MDX da "lavsan", Angliyada "teri-len", AqSH da - "dekron" nomi bilan ishlab chiqariladi. Bu tolalar yuqori mustaqamlilikka ega. Mustaqamligi bo`yicha lavsan poliamid tolalari bilan tenglasha oladi. Ulardan olingan maqsulotlar, nur ta`siriga ancha chidamli jun maqsulotlariga nisbatan esa qijimlanishga 2-3 marotaba chidamli.


Lavsandan turli kiyimlar uchun, qamda elektroizolyatsiya va drap mato-lari olinadi. Undan arqonlar, kanatlar, kord, qayqlarni elkanlari, baliq tutish to`rlari, transport tasmalari, remenlar, o`t o`chiriø englari, filtr matolari, brezent tayyorlanadi.

## POLIKARBONATLAR


Polikarbonatlar - umumiy formulasi (-OROCO-)n bo`lgan ko`mir ki-slotasi asosida olinadigan murakkab poliefirlardir. Bu polimerlardan asosan ikki atomli fenollar asosida olinadigan polikarbonatlar amaliy aqamiyatga ega. Ýng ko`p ishlatiladigan polikarbonatlardan biri difeni-lolpropan asosida ishlab chiqariladigan MDX da "diflon", AqSH da "lek-san" va "merlan", Germaniya da "makrofol" nomi bilan mashqur polikarbo-nat qisoblanadi.

Sanoatda polikarbonatlar quyidagi usullarda olinadi.

diaril - yoki dialkilkarbonatlarni ikki atomli fenollar bilan ol-mashinish reaktsiyasi natijasida.



ikki atomli fenolni fosgenlash orqali



Difenilkarbonatni ikki atomli fenol bilan reaktsiyasi, odatda suyuqlanmada 150-300°C da kislorodsiz muqitda o`tkaziladi. Reaktsiya tezli-gini vakuum qosil qilib yoki reaktsiya massasini aralashtirib oshirish mum-kin. Reaktsiya katalizatorlari sifatida ishqoriy metallarning oksidlari va gidroksidlari, tsink va ruxning oksidlari ishlatiladi. Katalizatorlar po-likarbonat massasiga nisbatan 0,0001-0,1% miqdorida olinadi. Polikarbo-natni suyuqlanmasini qovushqoqligini yuqoriligi, molekula massasi katta bo`lgan polimer olishga qalaqt qiladi: odatda bu usulda olinadigan poli-merni molekula massasi 50000 dan oshmaydi.

## POLIKARBONATLARNI ISHLAB CHIQARISH

Diflon polikarbonatini olish texnologik jarayoni, difenilolpro-panni fosgenlash, polimer eritmasini yuvish, polimerni cho`ktirish, poli-merni suspenziyadan ajratish, quritish va erituvchi qamda cho`ktiruvchilarni regenerlashdan iborat.

Diflon polikarbonatini uzlukli usulda olish texnologiyasi rasm 17 da keltirilgan.

Rasm 17. Diflon polikarbonatini ishlab chiqarish jarayonining sxemasi:

1-polikondensatlanish reaktori; 2-difenilolpropanni eritish apparati; 3-turli filtr; 4-quvur qobiqli sovitgich; 5-dekantator-yuvuvchi; 6-suvsizlantirish apparati; 7-nasadkali kolonna; 8-defelegmatorli - sovitgich; 9-cho`ktiruvchi; 10-oqirlik o`lchagichi; 11-nutch-filtr; 12-eshkakli vakuum-quritgich; 13-grunullovchi dastgoq

Difenilolpropanni suv va ishqor aralashmasidagi eritmasi 2chi-eritish appara-tidan 1chi-reaktorga uzatiladi. Reaktorga metilenxlorid bilan katalizatorni qam soli-nib, 20-25oS da gaz qolidagi fosgen o`tkaziladi. Reaktor reaktsiya davomida soviq suv bi-lan sovitib turiladi. qosil bo`layotgan polimer metilenxloridda eriydi. Reaktordagi aralashma qovushqoq eritma ko`rinishida 5chi-dekontator-yuvuvchi (bu erda suv va xlorid kislotasining eritmasi bilan yuviladi) ga, u erdan 6chi-suvsizlantiruvchi apparatga tu-shiriladi. Suv buqlari 7chi-nasadkali kolonnadan o`tib, 8chi-sovitgich-deflegmatorda kondensirlandi va suv yiquvchi idishga tushadi. Polimerni eritmasi 9chi-apparatga tu-shib, u erda cho`ktiruvchi yordamida (metanol yoki atseton) cho`ktirib olinadi. Polikarbona-tni suvpenziyasi 11chi-barabanli yoki nutch-filtrda filtranadi. Ýrituvchi va cho`ktiruvchining aralashmasi regenirlashga, polimerni kukuni esa avval 12chi-quritgichga va keyin 13chi-granullovchi apparatga uzatiladi.

## POLIKARBONATLARNI XOS SALARI VA ISHLATILISHI


Polikarbonatlarni xossalari asosan ularni olishda ishlatilgan bis-fenolni tuzilishiga, aralashma polikarbonatlarni xossalari esa boshlanqich xom ashyolarning nisbati va demak, polimerning tuzilishiga boqliq. Bisfe-nollardan olingan polikarbonatlar ichida n,n`-digidroksidifenilmetan (suyuqlanish qarorati 300 °C dan yuqori) dan olingan polikarbonat eng yuqori suyuqlanmaga o`tish qaroratiga ega.

Polikarbonatlar o`z kattaligini o`zgartirmasdan issiqbardoshlik qamda yuqori mexanik mustaqamlilik talab qilingan joylarda ishlatiladi. Polikarbonatlardan baquvvat pardalar, loklar va boshqa maqsulotlar ishlab chiqariladi. Ulardan turli konstruktsiyalarda ishlatish uchun shesternyalar, podshipniklar, boltlar, gaykalar, quvurlar, kranlar ishlab chiqariladi. Polikarbonatlardan yuqori sifatli kino- va fotoplenkalar, elektr va radio-detallari ishlab chiqariladi.


## POLIARILATLAR

Poliarilatlar ikki atomli fenollar bilan dikarbon kislotalaridan olinadigan murakkab polieflardir. Ayniqsa, aromatik dikarbon kislotalari asosida olingan poliarilatlar katta aqamiyatga ega. Bunday polimerlar asosan dikarbon kislotalarining xlorangidridlari asosida sintez qilinadi.

inert muqitda, yuqori qaroratda va yuqori qaroratda qaynovchi erituvchilarda (dinil, ditolilmetan, sovol, xlornaftalin) polikondensatsiyalab:



xona qaroratida fazalar orasida polikondensatsiyalab:



uchlamchi aminlar ishtirokida, 0-50 oS da organik erituvchilar muqi-tida aktseptorli-katalitik mexanizmda polikondensatsiyalab:



Poliarilatlar sanoatda birinchi va ikkinchi usullarda ishlab chiqariladi. Sintez uchun dikarbon kislotalarining o`ta faol xlorangidridlarini ishlatish, yuqori suyuqlanish qaroratiga ega poliarilatlarni parchalanmasdan turli erituvchilarda olish imkonini beradi.

## POLIARILATLARNI ISHLAB CHIQARISH

Poliarilatlarni yuqori qaroratda polikondensatlanish reaksiyasi bo`yicha ishlab chiqarishda, aralashtirgich bilan jiqozlangan, isitiluvchi, ichki yuzasi emallangan reaktorga yuqori qaroratda qaynovchi erituvchi, ikki atomli fenol va dikarbon kislotasining xlorangidridi solinadi. Katta molekula massasiga ega poliarilatlar faqat monomerlarni ekvimol nisbat-larida olinadi. Reaksiya muqiti sifatida dinil yoki ditolilmetan ishla-tilganda monomerlarni eritmadi kontsentratsiyasi 0,6-1 mol/l ni tashkil etadi. Fenolftalein va izoftal kislotasining xlorangidridi (poliarilat F-1) yoki tereftal kislotasining xlorangidridi (poliarilat F-2) asosida olinadigan poliarilatlarni, muqit sifatida yuqori qaroratda qaynovchi so-vol yoki xlornaftalin ishlatib, monomerlarni yuqori kontsentratsiyali erit-malarida (2-5 mol/l) olib borish maqsadga muvofiq. Monomerlarni yuqori kontsentratsiyalarida poliarilat olish, faqatgina kam erituvchi ishlatishga olib kelmasdan, bu qolatda fibrillali strukturaga ega bo`lgan (ditolilme-tanda globulali strukturaga ega poliarilatlar qosil bo`ladi) poliarilatlar qosil bo`ladi. Buning natijasida yuqori mexanik ko`rsatkichlarga ega poli-merlar qosil bo`ladi.

Polikondensatlanish inert gaz muqitida, qaroratni sekin asta 100 dan 200-220 °C gacha oshirib, ushbó qaroratda 5-6 soat davomida o`tkaziladi. Ajralib chiqayotgan vodorod xloridi qabul qiluvchi idishlardagi ishqorlar yordamida yutiladi. Reaksiya tugagach reaksiya aralashmasi valtslarga tushiri-lib, u erdan polimer massasini yiquvchi idishga, tozalashga va quritishga yuboriladi. qosil bo`lgan poliarilatlar molekula massasi 30000-100000 bo`lib, polimerni chiqishi 90% ni tashkil etadi.

Difenilpropan bilan tere- va izoftalatlarning xlorangidridlari aralashmasidan poliarilat olishning texnologik jarayoni rasm 18 da kelti-rilgan.

Reaktor (1) ga difenilpropan, ishqor va emulgatorni suvdagi eritmali soli-nadi. qosil bo`lgan difenolyat, aralashtirgich va sovitish qobiqi bilan jiqozlangan, 5chi-idishdan tere- va izoftal kislotalarining xlorangidridlarini n-ksiloldagi erit-masi solingan, 4chi-reaktorga tushadi. Polikondensatlanish 20-25°C da, atmosfera bosi-mida, 20-40 minut davomida amalga oshiriladi. Reaktsiya tugaganidan so`ng polimer suspenziyasi 8chi-yiquvchiga va undan siqish va suv bilan yuvish uchun 9chi- tsentrifugaga uza-tiladi. Bunker (10) orqali polimer quritgich (11) va u erdan qadoqlashga uzatiladi.

Fazalar orasida polikondensatlab, molekula massasi 150000 gacha bo`lgan poliarilatlar olish mumkin.

## POLIARILATLARNING XOSSALARI VA ISHLATILISHI

Aromatik dikarbon kislotalari asosida olingan poliarilatlar yuqori issiqbardoshlik va qaroratbardoshlikka, keng qarorat chegarasida yax-shi dielektriklik ko`rsatkichlariga ega bo`lib ko`pgina kimyoviy moddalar ta`siriga, ultrabinafsha va ionli nurlanish ta`siriga chidamli.

Poliarilatlarga qos bo`lgan yuqori issiqbardoshlik, ularni konstruktsion material sifatida keng qo`llash imkonini beradi. Ularni yuqori sifatli dielektrikligi esa radio- va elektrotexnikada ko`plab ishlatalishiga olib keladi.

Poliarilatlardan, yuqori qaroratda (250 °C), vakuumda va ishqalanish yuzalaridagi tezlikni katta farqida (sirpanish va tebranish podshipnikla-ri), uzoq vaqt moy surtildasdan ishlashi mumkin bo`lgan, to`ldirgichlar bi-lan to`ldirilgan antifriktsion materiallar olinadi.

Ikki atomli fenollar (masalan, fenolftalein) asosidagi eruvchi po-liarilatlardan, gazlarni va suyuqliklarni tozalashda, aerozollarni ushlab qoluvchi tolasimon filtrlovchi materiallar olinadi. Ishlatilish sharoit-lariga qarab filtrlovchi materiallar 300 °C qaroratda qam ishlatalishi mumkin.

Ekstruziya yoki eritmadan quyish usulida, elektroizolyatsiya materialla-ri sifatida ishlataluvchi issiqbardosh poliarilat pardalari olinadi.

Yaxshi eruvchanligi va boshqa polimerlar bilan oson aralashma qosil qilishi, kord poliarilatlari asosida turli xil kompozitsiya materiallari olish imkonini beradi.

Polikondensatlanish reaktsiyalari asosida olingan poliarilat blok-sopolimerlarini elektr izolyatsiy qamda gazlarni ajratish xususiyati, ularni meditsinada (qonni membranalı oksigenatorlari sifatida) va elektro-texnikada ishlatalishiga olib keldi.

## TAYANCH SO`ZLAR

Diglikollar, dikarbon kislotalari, polieterifitsirlanish, termoplastik murakkab poliefirlar, polietilentereftalat, lavsan, turli suyuqliklarni qadoqlash idishlar, polikarbonatlar, yuqori xarorat bardoshlik, poliarelatlar, yuqori suyuqlanmaga o`tish xarorati, maxsus ishlatalish soxalari.

## QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Termoplastik murakkab poliefirlarga qanday polimerlar kiradiq
2. Polietilentereftalat qanday usullarda va texnologik jarayonlar yordamida ishlab chiqariladi?
3. Lavsan nima va u qanday polimerlardan olinadiq
4. Salqin ichimliklar va boshqa suyuq maxsulotlarni qadoqlash idishlari qanday polimerlardan olinadiq
5. Polietilentereftalat chiqindilari va ulardan olingan maxsulotlar ishlatib bo`linganidan so`na qanday qilib qayta ishlatalishi mumkinq
6. Polikarbonatlar qanday polimerlar va ular qanday monomerlar asosida ishlab chiqariladi?
7. Polikarbonatlar qanday texnologik usullar yordamida ishlab chiqarilishi mumkinq
8. Polikarbonatlarning ishlab chiqarish jarayoni.
9. Polikarbonatlar nima sabadan yuqori xaroratga bardosh bo`ladilarq
10. Porliareatlar qanday monomerlardan va qanday usullar yordamida olinadiq
11. Porliareatlarning ishlab chiqarish texnologik jarayoni.
12. Poliareatlarni tarkibida aromatik xalqalarning ko`p bo`lishi ularga qanday xususiyat beradiq

## **ADABIYOTLAR**

1. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.330- 349 .
  2. Oxrimenko I.S. Verxolantsev V.V. Ximiya i texnologiya plenkoobra-zuyushix veshestv , L., Ximiya, 1978 g.


MA`RUZA - 14

# **TERMOREAKTIV MURAKKAB POLIÝFIRLAR**

Termoreaktiv murakkab poliefirlarga uch va undan ko`p atomli gidrosil saqllovchi moddalariga dikarbon kislotalari asosida olinadigan, amalda al-kid polimerlari deb ataluvchi oligomerlar qamda to`ynmagan dikarbon kislotalari va diglikollar asosida olinadigan turli markali to`ynmagan poliefirlar kiradi.


ALKID POLIMERLARI

Alkid polimerlari ko`p asosli kislotalar bilan ko`p atomli spirlarni polikondensatlab olinadi. Bu polimerlardan, glitserin va ftal angidrididan olinadigan - gliftal polimerlari katta aqamiyatga ega:



Sanoatda modifikatsiyalanmagan gliftal polimerlari glitserin bilan ftal angidridini (2:3) polikondensatlab olinadi. Reaksiya propellerli yoki yakorli aralashtirgich bilan jiqozlangan, alyuminiy yoki zanglamaydigan po`latdan ishlangan reaktorlarda olib boriladi. Reaktorga glitserin solinib 110-120 °C gacha qizdiriladi va uzluksiz aralashtirib turib ftal angidridi qo`shiladi. Angidridni eritilganidan keyin, reaksiya aralashmasini 150-180 °C gacha qizdiriladi va bu qaroratda polimerni kislota soni 90-120 mg KON/g, tomchi tushish qarorati (Ubelode bo`yicha) 80-120 °C bo`lgunicha jarayon davom ettiriladi. SHundan so`ng polimer idishlarga tushirib sovitiladi va maydalanadi.

Jarayonni birinchi bosqichida tarkibida kislotali va gidroksil gruxlari saqlagan kislotali efirlar qosil bo`ladi. Bu efirlar keyingi eterifitsirlanish reaktsiyasi natijasida, avvaliga chiziqli polimerlar, keyinchalik esa, (yuqori qarorat ta`sirida) tikilgan strukturali polimerlar qosil qiladilar. Jarayonni ikkinchi bosqichi, birinchisiga nisbatan ancha sekin ketadi. Suvni ajralib chiqishi, reaktsiya taxminaí 50% ga tugaganidan keyin, ya`ni ftal angidridini qamma angidrid gruxlari reaktsiyaga kirishib karboksil gruxlariga aylanganidan so`ng boshlanadi. Keyin karboksil gruxlari spirt gruxlari bilan eterifitsirlanadi. Glitserinn -gidroksillarini reaktsiyaga kirishish qobiliyatini yuqoriligi sababli, avvaliga -o`rin olgan mono- va diefirlar qosil bo`ladi, keyinchalik esa glitserinni -gidroksil gruxlari reaktsiyaga kirishadi. Reaktsiya 75-80% ga tugaganidan so`ng (MM=700-800) gel qosil bo`la boshlaydi. Reaktsiya aralashmasiga bir asosli kislotalar yoki bir atomli spirtlar qo`shish orqali gel qosil bo`lishini oldini olish mumkin. Modifitsirlovchi qo`shimcha sifatida to`yinmagan yoqliq kislotalarni ishlatish (masalan, olein, linol), yon tarmoqlarida qo`shboq saqlovchi poliefirlar olishga olib keladi:



Gliftal polimerlari tsiklogeksanon, spirt, atseton, qator murakkab efirlarda yaxshi eriydi, benzol, petrolein efirida, aromatik uglevodorodlarda erimaydi. Modifitsirlanmagan gliftal polimerlari mo`rt bo`lib gel qosil qilishga moyil bo`lganlaridan keng ko`lamda ishlatilmaydilar. Undan tashqari bu polimerlar yuqori qaroratda uzoq vaqt ushlanganidagina qotadi. Bu kamchiliklarni, modifitsirlangan gliftal polimerlarini olish orqali yo`qotiladi.

Modifitsirlangan gliftal polimerlarini uch xili ishlab chiqariladi: yoqsiz, o'rtacha va yoqli. Bu polimerlarda modifitsirlovchi yoqlarni miqdori mos ravishda 35-45, 46-55 va 56-70% ni (mass) tashkil

etadi. Bir xil paytlarda o`ta yoqsiz (yoqni miqdori 34% gacha), yoki o`ta yoqli (yoqning miqdori 70% dan ko`p) polimerlar olinadi.

Kurishga moyilligi bo`yicha alkid polimerlari quriydigan va qurimaydigan xillarga bo`linadi.

Quriydigan polimerlar o`z tarkibida, quriydigan yoqlar (degidratlangan kastor, tung, Inyanoe) yoki yarii quriydigan yoqlar (kungaboqar, soya) tarkibiga kiruvchi bir asosli to`yinmagan yoq kislotalari saqlaydi. Bu xildagi alkid polimerlari oddiy qaroratda qavoda yoki 60-80 °C da quritilganda ingichka qatlamda tez qotadi. Kastor yoki kokos yoqi tarkibiga kiruvchi to`yingan, yoki faqat bitta to`yinmagan qo`sh boqli, bir asosli yoqli kislotalar bilan modifitsirlangan yoki modifitsirlanmagan, ya`ni qurimaydigan alkid polimerlari ingichka qatlamda 120°C dan yuqorida quritilganida qam qotmaydi.

Modifitsirlangan gliftal polimerlarini avvaliga yoqlarni glitserin bilan pereetirifitsirëaa va so`ngra to`liqmas glitseridlarni ftal angidridi bilan kondensatsiyalab olish mumkin. Buning uchun yoq va glitserin 220-230°C da, 0,5-1 soat davomida, rux oksidi ishtirokida (0,01-0,05% yoq massasiga nisbatan), reaktorda aralashtirib turib qizdiriladi. So`ngra qosil bo`lgan to`liqmas glitseridlarni 250-260°C da ftal angidridi bilan polikondensatlanadi. Jarayon reaktsiya massasini kislota soni 20-25 mg KON/g polimer bo`lgunicha olib boriladi.

Alkid polimerlarini olishda spirt komponenti sifatida pentaeritrit qam ishlatiladi. Pentaeritrit tarkibidagi birlamchi gidroksil gruxlarining reaktsiyaga kirishish faolligi bir xil bo`lganidan, u ikki asosli kislotalar bilan tezroq reaktsiyaga kirishadi, qamda gel qosil bo`lish imkoniyati reaktsiyaning oldinroq bosqichlarida namoyon bo`ladi. Gel qosil bo`lishini oldini olish maqsadida polipentaeritritftalatlar modifitsirlanadi. Pentaeritritni glitseringa nisbatan yuqoriroq funktSIONalligi, uning asosidagi polimerlar tarkibiga ko`proq yoqlar kiritish imkonini beradi. Pentaeritrit ishlatishni afzallik tomonlari yana shundaki, bunday polimerlarni modifitsirlashda quriydigan yoqlarni yarim quriydigan yoki qurimaydigan yoqlar bilan olmoshtirish mumkin. Bu yoqlar bilan modifitsirlangan polimerlar asosida olingan qoplamlalar yuqori elastiklikka ega bo`ladilar. Modifitsirlangan alkid polimerlarini qurish tezligi, ularni tarkibidagi to`yinmagan kislotalar miqdoriga boqliq. qurishni tezlatish maqsadida ularga sikkativlar qo`shiladi.

Alkid polimerlarini olishda oxirgi paytlarda uchmetilolpropan, uchmetiloletan, ftal angidridini o`rniga esa, piromelit, uchmelit, malein angidridi, tereftal, izoftal, difen, fumar kislotalari ishlatilayapti. Masalan, ftal angidridi, uchmetilolpropan va uchmetiloletanlar asosida olingan alkid polimerlarining pardalari, glitserin asosida olingan pardalarga nisbatan yuqoriroq qattiqlik va elastiklikka ega. Ftal angidridi o`rniga izoftal kislotasini ishlatish, shu polimer asosida, qavoda tez quriydigan, yuqori zarbiy qovushqoqlikka va edirlishga chidamlik lok qoplamlari olishga olib keladi. Tereftal va izoftal kislotalaridan olingan alkid polimerlari, ortoftal kislotasidan olingan polimerlarga nisbatan yuqori issiqbardoshlikka ega.

Rasm 19. Alkid poliefirlarini ishlab chiqarishning umumi texnologik sxemasi :

1-ikki atomli spirlarni saqlash idishi; 2-xaydash apparati; 3-quvir qobiqli sovitgich; 4- qabul qiluvchi idish; 5-o`lchagich; 6-glitserinni isitgichi; 7-reaktor; 8,9-sovitgichlar; 10-kondensatni yiqish idishi.

Piomellit kislotasidan olingan polimer qoplamlari, ftal va izoftal kislotalaridan olinganlariga nisbatan tez qotadi va qattiqligi yuqori bo`ladi. Xlorendik angidridi asosida olingan alkid polimerlari olovbardoshlikka ega.

Turli xil muvozanatli polikondensatlab olinadigan alkad polimerlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari qamda jiqozlarini xillari va joylashish tartibi o`xshash bo`lib (rasm 19), ular faqat monomerlar tabiat, erituvchini bor-yo`qligi va albatta polikondensatlanishni o`tkazish sharoitlarinè turlichaligi bilan farq qiladi.

Quyida umumtalablarga javob beruvchi alkid polimerlarini fizikaviy-mexanik ko`rsatkichlari keltirilgan:

Buzilish kuchlanishi, MPa

cho`zilishda 21-28

siqilishda 112-140

egilishda 490-700

Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m<sup>2</sup> 1,6-1,9

Solishtirma qajmiy elektr qarshiligi, Om m 1012

60 Gts da dielektrik yo`qotishning tangens burchagi 0,050-0,060

60 Gts da dielektrik o`tish (singdirish) 6,0-6,5

Suv yutish, 24 soatda, % 0,08-0,10

Ishlatishni maksimal qarorat chegarasi, oS 176

## TO`YINMAGAN POLIÝFIRLAR

Malein va fumar kislotalari asosida birinchi to`yinmagan poliefirlar 1940 yillarda sanoatda ishlab chiqarila boshlandi. Polimaleinat va polifumaratlarni vinil monomerlari bilan sopolimerlanib, qimmatli konstruktsiya materiallari qosil qilishini ochilishi, bu poliefirlarni turli soqalarda keng ishlatilish imkoniyatlarini yaratdi.

To`yinmagan poliefirlar diallilftalat va boshqa murakkab allil efirlarini polimerlab yoki sopolimerlab olinadi. SHu guruqga kiruvchi, molekula oxirida akril, metakril va boshqa to`yinmagan gruxli oligomerlarni polimerlab olinadigan - poliefirakrilatlar qam kundan-kunga keng ishlatilmoqda.


### Polimaleinat va polifumaratlар

Hozirgi vaqtida eng ko`p ishlatilayotgan to`yinmagan poliefirlardir.

Odatda ushbu to`yinmagan poliefirlarni turli monomerlardagi 60-70% li eritmalar ishlatiladi. Bu monomerlar bilan poliefirlarni sopolimerlanishi natijasida tikilgan, suyuqlanmaydigan erimaydigan polimerlar qosil bo`ladi. To`yinmagan poliefirlarning ana shunday qo`shboqli monomerlardagi eritmalarini to`yinmagan poliefir smolalari deb ataladi. To`yinmagan poliefirlarni eritma ko`rinishida ishlatilishi, ularni qovushqoqligini kamaytirib, qayta ishlashni osonlashtiradi qamda poliefirlarni to`laroq qotishini ta`minlab beradi.

To`yinmagan poliefirlarni xona qaroratida, yoki nisbatan past qaroratda, past molekulali qo`shimchà moddalar ajratib chiqarmasdan qotishi, ularni boshqa ko`pgina termoreaktiv polimerlarga nisbatan yutuqi qisoblanadi. Bu qol to`yinmagan poliefir smolalari asosida, past bosimda armirlangan materiallar ishlab chiqarish imkonini beradi. Aytilganlar maqsulot olish texnologik jarayonini soddalashtirishhä va iqtisodiy samaraga olib keladi.

To`yinmagan poliefir smolalari ikki bosqichda olinadi. Avvaliga malein yoki fumar kislotalari yoki ularni modifitsirlovchi biron-bir to`yingan dikarbon kislotosi bilan aralashmasi glikol bilan (etilenglikol, dietilenglikol, propilenglikol, uchetilenglikol, butilenglikol yoki ularni aralashmalari) polikondensatlanadi. Reaktsiya komponentlarni suyuqlanmasida 170-230 oS da inert muqitda yoki reaktsiyada ajralib chiqayotgan suv bilan azeotrop aralashma qosil qiluvchi erituvchilar (masalan, ksilol) ishtirotkida pastroq qaroratda (160-195 oS) olib boriladi:




To`yinmagan poliefirlarni odatda emallangan yoki zanglamaydigan po`latdan yasalgan reaktorlarda olinadi. Ishlab chiqarish texnologiyasi boshqa poliefirlarni olish texnologiyasidan farq qilmaydi. (rasm 11.4).

To`yinmagan poliefir smolalarini tayyorlashni keyingi bosqichi, to`yinmagan poliefirni monomerda eritishdan iborat. Monomer sifatida ko`proq stirol ishlatiladi. Undan tashqari viniltoluol, metilmekatrilat, akrilonitril, diallilftalat, uchalliltsianurat, oligofirakrilatlar ishlatiladi.

To`yinmagan poliefirlarni monomer bilan, reaktor qajmidan 2-4 marotaba katta qajmli aralashtirgichlarda aralashtiriladi. Xona qaroratida to`yinmagan poliefir monomerda sekin eriganidan, uni reaktsiya tugaganidan so`ng 70°C gacha sovutib, polimerlanishni oldini olish maqsadida 0,02% (polimer massasidan) gidroxinon ingibitori qo`shib, eritish maqsadga muvofiq. Avvaliga aralashtirgichga monomer quyiladi, undan keyin doimiy aralashtirib turib to`yinmagan poliefir qo`shiladi. Bir xil massa qosil bo`lganidan so`ng eritma sovitilib, filtrlab olinadi.

Poliefirni monomer bilan tikilgan qolga o`tishini, shu poliefir bilan monomerning sopolimerlanishi deyish mumkin. Ushbu sopolimerlanish reaktsiyasi turli initsiatorlar ishtirotkida olib boriladi (benzoil peroksidi, tsiklogeksanon peroksidi, dikumil peroksidi, lauril peroksidi va boshqalar). Odatda, qotishni

tezlatish maqsadida muqitga initsiatorlarni parchalanishini engillashtiruvchi tezlatgichlar qo'shiladi. Tezlatgichlar sifatida uchlamchi aromatik aminlar (dimetilanilin, ditilanilin), merkaptanlar, yoqliq yoki naftalin kislotalarining tuzlari (o'zgaruvchan valentli metallar bilan) ishlataladi. Monomerni to'yinmagan poliefir bilan sopolimerlanishi natijasida to'rsimon tuzilishdagi polimerlar qosil bo'ladi.



Polimerni tikilish zichligini va demak uni xususiyatlarini, poliefirdagi qo'shboqlar sonini o'zgartirish (to'yinmagan kislotaning bir qismini sintez vaqtida to'yingan kislota bilan olmoshtirish qisobiga), yoki tikuvchi monomer miqdorini o'zgartirish natijasida kerakli tomona yo'naltirish mumkin.

To'yinmaga poliefirlarni xossaliga tikuvchi monomerni tuzilishi va tabiatini katta ta'sir ko'rsatadi. Stirolni dialliltalat yoki uchalliltsianurat bilan almashtirish, olinayotgan buyumni issiqbardoshligine ancha oshirishga olib keladi.

### **Termoreaktiv murakkab poliefirlarni ishlatalishi**

To'yinmagan poliefirlar asosan turli xil armirlangan plastiklar, masalan shishaplastiklar olishda ishlataladi. To'yinmagan poliefirlardan shishaplastiklar va ular asosida buyumlar olish quyidagi usullarda amalga oshiriladi: kontaktli shakllash, bosim ostida presslash va quyish, poliefir bilan shimdirilgan shisha tolachalarini shakklovchi filera orqali tortish, berk shaklda shisha tolali to'ldirgichni vakuumda shimdirish, markazdan qochma quyish va boshqalar.

qatlam plastiklar ishlab chiqarishda, to'ldirgichlar sifatida: shisha tolalari, shisha, sintetik va paxta matolari, slyuda uni, tsellyuloza, kaolin, kremniy dioksidi, bor va boshqalar ishlataladi.

To'yinmagan poliefirlar kemasozlik va avtomobil sanoatida, aviatsiya va raketa texnikasida, mashinasozlikda, kimyo sanoatida, asbobsozlikda, qurilishda, elektrotexnika va elektronikada, mebel sanoatida ko'plab ishlataladi. Masalan, poliefirli shishaplastiklardan kemalarini, katerlarni, shlyupkalarni, mashinalarni, kimyoviy apparatlarni korpuslari, konteynerlar, turli quvurlar, jamaa va ishlab chiqarish imoratlari qoplamlari, eshiklar, sport inventarlari ishlab chiqariladi.

Alkid polimerlari lok-bo'yoq sanoatida ko'plab lok va emal qoplamlari (shu xildagi materiallarni 70% ga yaqini) sifatida ishlataladi. Soviqda va issiqda quriydig'an poliefir loklari metal yuzalarini, mebelni, radio va televizor yuzalarini pardozlashda ishlataladi. Poliefir qoplamlarining mexanik mustaqamligi, qattiqligi, yaltiroqligi yuqori, ular suv, benzin, moylar, suyultirilgan kislotalar ta'siriga chidamli.

Termoreaktiv poliefirlar issiqbardosh kompaundlar, yarim o'tkazgichli asboblarning germetik materiallari, elektroizolyatsiyali to'ldirilgan press-materiallar, elektr izolyatsiyali shimdirish materiallari sifatida ishlataladi. Ulardan elimlar qam tayyorlanadi.

Termoreaktiv gidroksilsaqlovchi poliarilatlardan qattiq, issiqbardosh ko'pik plastiklar olinadi. To'yinmagan poliarilatlardan 300 oS gacha issiqbardosh konstruktsion shishaplastiklar olinadi.

### **QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Alkid oligomerlarini gliftal va pentaftal qillari nima bilan farqlanadilarq
2. Alkid oligomerlarini ishlab chiqarish texnologiyasi.
3. Alkid oligomerlarini modifitsirlash qanday usullarda o'tkaziladiq
4. Oddiy va modifitsirlangan alkid oligomerlari qanday qususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadilarq
5. Alkid oligomerlarini qotishi, xossalari va ishlatalishi.
6. Xona xarorati va yuqori xaroratda qotgan alkid polimerlarining xossalari qanday farqlanadiq
7. qanday poliefirlar to'yinmagan poliefirlar deb ataladi?
8. To'yinmagan poliefirlar necha bosqichda sintez qilinadilar.
9. To'yinmagan poliefirlarni qotish reaksiyalarini sopolimerlanish desa bo'ladjimi, bo'lsa, nima sababliq
10. Turli geterozanjirli termoreaktiv polimerlarni xossalari va ishlatalish soqalari.

### **ADABIYOTLAR**

1. Texnologiya plasticeskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.298-315.
2. Oxrimenko I.S., Verxolantsev V.V. Ximiya i texnologiya plenkoobrazuju-shix veshestv. , L. "Ximiya" 1978 g.
3. Sedov L.N., Mixaylova Z.V., Nenasishennie poliefiri. , M., "Ximiya" , 1977 g. 232s.

## MA`RUZA - 15

### EPOKSID POLIMERLARI

Epoksid polimerlari o`z tarkibida reaktsiyaga kirishish qobiliyatiga ega epoksid gruxini yoki -oksidli tsikl saqlagan turli qil birikmalardan olinadi.

Valent burchaklari buzilgan tsikllarda ichki elektron etishmovchiligi vujudga keladi va bu qol elektron buluti zichligini tsikl bo`yicha teng bo`linmaslikka olib keladi. SHuning natijasida epoksid tsiklidagi kislородни elektron jufti delokalizatsiyalanadi. Reaktsiyaga kirishish faolligi katta bo`lganidan, epoksid gruxi, o`z tarkibida xarakatchan vodorodi bor moddalar bilan turli xil birikish reaktsiyalariga kirishadi.

1) Sanoatda epoksid polimerlari uch qil usulda olinadi:

proton donorli birikmalarni (ikki va ko`p atomli fenollar, spirtlar, aminlar, kislotalar) epixlorgidrin bilan ta`sirlantirib, degidroxlorlash bosqichida epoksid gruxlarini regeneratsiya qilish orqali;

2) To`yinmagan birikmalarni organik nadkislotalar (nadsirka, nadchumoli), kislородни peroksidlari va gidroperoksidlar yordamida epoksidlash usuli bilan;

3) epoksid gruxi saqlovchi to`yinmagan monomerlarni polimerlab yoki sopolimerlab

Ikkinci usul asosan tsikloalifatik birikmalarni epoksidli qosilalarini va epoksid kauchuklarni olishda ishlatiladi.

Uchinchi usulda asosan yuqori molekulali epoksid polimerlari olinadi.

Odatda epoksid polimerlari nisbatan past molekula massali oligomerlar ko`rinishida ishlab chiqariladi va turli moddalar bilan reaktsiyaga kiritilib suyuqlanmaydigan, erimaydigan, qattiq to`rsimon qolga o`tkaziladi.

### EPOKSID POLIMERLARINI ISHLAB CHIqARISH

Difenilolpropan bilan epixlorgidrinni kondensatlanish texnologik sharoitlari, asosan, olinayotgan oligomerni molekula masasi bilan aniklanadi.

Past molekulali epoksid oligomerlari, gomogen muxitda, epixlorgidrinning mikdorini ortiqcha olinganda qosil bo`ladi. Bunda epixlorgidrin qam reaktsiyaga kirishuvchi reagent, qam erituvchi bo`liя xizmat kiladi. Reaktorga epixlorgidrin va difenilolpropan solinib, aralashtirib turilgan qolda qismlab NaOH ni 40%-li suvdagi eritmasi solinadi. Reaktsiya muqitini qarorati asta-sekin 65-750S gacha (qarorat bu ko`rsatkichlardan ortib ketmasligi kerak) ko`tariladi. Jarayon tugaganidan keyin (8-16 soatdan keyin) epixlorgidrinni ortiqcha qismi vakuumda qaydab olinadi va oligomer toluolda eritiladi. Oligomerning tarkibidan NaCl ni chiqarib olish maqsadida, uni toluolli eritmasi suv bilan yuviladi. Undan keyin vakuumda 140-1500S qaroratda toluol qaydab olinadi.

Reaktsiya natijasida, tarkibida epoksid gruxlarini saqlagan, qovushqoq past molekulali oligomer qosil bo`ladi.

O`rtacha yoki yuqori molekula massali, qamda "fenoksi-smola" nomi bilan ataluvchi oligomerlar, geterofazali sistema, suv bilan organik suyuqlik muqitida, erituvchilar ishtirokida olinadi. Yrituvchi sifatida izopropil yoki butil spirti ishlataladi.

O`rtacha yoki yuqori molekula massali epoksid oligomerlarini, difenilolpropan bilan past molekulali oligomerlarni ta`sirlatib qam olish mumkin. Bu jarayon suyuqlanmada, 160-2100S da, uchlamchi amin katali-zatorlari ishtirokida amalga oshiriladi. Bunday oligomerlar keng moleku-la-massaviy bo`linishgà ega bo`ladi. O`rtacha va yuqori molekula massali oli-gomerlarni, geterogen kondensatsiya yordamida olish, uzlukli va uzluksiz usullarda amalga oshiriladi.

Uzlukli usul ko`proq tarqalgan usullardan qisoblanadi.

Rasm 20. Uzlukli usulda epoksid oligomerlari ishlab chiqarish jarayonining sxemasi:

1-vazniy meyorlovchi; 2-avtomatik meyorlovchi tarozi; 3,6,14-kondensatorlar; 4-isitgich; 5-ingichka pardali rotorli buqlatgich; 7-reaktor; 8-ajratish idishi; 9,10-yiqish idishlari; 11,12- vakuumli qabul qiluvchi idish; 13-oraliq idish; 15,17-shesternyali nasoslar; 16-tarelkali filtr; 18,19-oligomer eritmasi idishi; 20-meyorlovchi nasos.

O`rtacha molekula massali epoksid oligomerlarini, uzlukli usulda, geterofazali kondensatsiya yordamida, erituvchilarsiz olishning texnologiyasi 20 rasmida keltirilgan.

Buq` qobiqi bilan jiqozlangan 7 chi reaktorga difenilolpropan va epixlorgidrin solinadi. Reaktsiya massasi 500S qaroratgacha ko`tariladi va qarorat berilgan kattalikdan ko`tarilib ketmasligini oldini olgan qolda, sekin-asta o`yuvchi natriyni 15%-li suvdagi eritmasi quyiladi. Reaktsiya ekzotermik bo`lganidan, reaktsiya massasini qizib ketishini oldini olish maqsadida, reaktor suv bilan sovitib turiladi. Kerakli miqdordagi NaOH eritmasi solib bo`linganidan keyin, reaktsiya massasi qarorati asta-sekin 70-800S gacha ko`tariladi va reaktsiya berilgan vaqtida davom ettiriladi. So`ngra 7 chi reaktorga toluol qo`shiladi va 30-550S da oligomerni to`la erigunicha aralashtiriladi. Oligomer toluolda eriganidan so`ng, reaktsiya massasi tinch qolatda ushlab turiladi. Bunda reaktsiya massasi ikki qatlamga, yuqorigi qatlam- oligomerni toluoldagi eritmasi va pastki qatlam - tuzni suvdagi eritmasiga ajraladi. Pastki qatlam quyib olinadi va qolgan oligomer eritmasini uglerod ikki oksidi bilan neytrallanadi. Keyin oligomer tarkibidagi suv bir qism toluol bilan azeotrop aralashma ko`rinishida ajratuvchi idishga (8) qaydaladi. quritilgan oligomer reaktordan 13 chi idishga, u erdan 15 chi nasos yordamida filtrlashga uzatiladi (texnologik sxema xlor ionlari yo`q bo`lgunicha bir necha marotaba filtrlashga mo`ljallangan). Oligomerlarni toluolli eritmadaan ajratish maqsadida, toluol vakuumda, uzluksiz 120°C da ishlovchi, yupqa pardali rotor buqlatgichida (5) qaydab olinadi. Buqlatgichga, oligomerni eritmasi 18 chi va 19 chi yiquvchi idishlardan, meyorlovchi nasos (20) yordamida, 4 chi isitgich orqali uzatiladi. Xaydalgan toluol 11 chi va 12 chi qabul qiluvchi, oligomer esa 9 chi va 10 chi qabul qiluvchi idishlarda yiqiladi.

Uzlusiz usulda, epixlorgidrinni difenilolpropan bilan kondensatsiyasi, erituvchi muqitida, kolonnali apparatda amalga oshiriladi. Buning natijasida kondensatsiya vaqtি qisqaradi va jarayonni gomogen muqitda olib borish imkoniyati tuqiladi. Undan tashqari, izopropil spirti kabi erituvchilar ishtirokida, epixlorgidrinni ortiqcha qismi sovinlanishi natijasida glitseringa aylanmaydi va keyingi sintezda qaytadan ishlatilishi mumkin. Jarayonni erituvchilarda o`tkazilishi, undan tashqari, qosil bo`layotgaí oligomerni reaktsiya muqitidan uzlusiz olib chiqish imkonini beradi.

Epoksid oligomerlarini uzlusiz usulda olish texnologiyasi (21 rasm), epixlorgidrin va difenilolpropanni eritmasini tayyorlash, polikondensatsiya, oligomerni ajratish, neytrallash va quritish jarayonlaridàí iborat.

Rasm 21. Uzlusiz usulda epoksid oligomerlarini ishlab chiqarish jarayonining sxemasi:

1-difenilolpropan eritmasini tayyorlash idishi; 2-epixlorgidrinni eritish apparati; 3-reaktor; 4,7-sokin xolda saqlab qavatlarga ajratish dastgoxlari; 5,9-tsiklon dastgoxlari; 6,10-sovitgichlar; 8-filtr; 11-oligomer yiqish idishi.

Difenilolpropan 1 chi apparatda 750S da ishqorni suvdagi eritmasida eritiladi. Ypixlorgidrin 2 chi apparatda butil spirtida eritiladi. Yritmalar filtrlanib, ko`p sektsiyalik, qar sektsiyasi isitish-sovitio kobiqi bilan, o`zi o`zgaruvchan aylanish chastotali rotorli aralashtirgich bilan jiqozlangan 3 chi gorizontal reaktorga uzatiladi. Polikondensatsiya jarayonida, reaktsiya aralashmasi sekin-asta reaktorda xarakatlanadi va 4 chi sokin qolda saqlanish idishiga tushadi. Bu erda organik va suv qismlarga bo`linadi.

Ishqoriy reaktsiyaga ega bo`lgan organik qism, idishdan chiqishida uglerod dioksi-di bilan neytrallanadi va 5 chi tsiklonga yuboriladi. Bu erda suv bilan azeotrop ara-lashma ko`rinishida qaydab olinadi. Buqlar 6 chi sovitgichda kondensirlanadi va tozalash uchun uzatiladi. Smolani eritmasi esa, cho`kmaga tushgan tuzlardan ( $\text{NaCl}$   $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) ajra-tish maqsadida 7 chi idishga, u erdan 8 chi filtrga uzatiladi. Filtrlangan smola eritma-si 9 chi tsiklon apparatiga solinib, u erda butil spirtini xaydar olinadi. Butil spir-tini buglari 10 chi sovitgichda sovitiladi va tozalashga yuboriladi. Ýpoksid oligomeri 11 chi yiquvchida yiqiladi va u erdan bidonlarga quyiladi.

Reaktsiya qaroratini 95-1000S da ushlab turiladi. Oligomerni molekula massasi epixlorgidrin va ishqorni suvdagi eritmasini reaktorga solish tezligiga boqliq bo`ladi va tezlik ortishi bilan molekula massasini qiymati pasayadi.

## EPOKSID OLIGOMERLARINI QOTIRISH

Epoksid oligomerlari, zichligi 1150-1210 kg/m<sup>3</sup>, och sariqdan jigarrang rangigacha bo`lgan, atseton, toluol, benzol, dioksan, etilatsetat va boshqa erituvchilarda yaxshi eriydigan va qotirgich qo`shilmaña ancha vaqtgacha o`z xususiyatlarini yaxshi saqlab turadigan, qovushqoq termoplastik suyuqliklardir.

Epoksid oligomerlarini xarakterlaydigan kattaliklardan biri, uni qotirgich bilan aralashtirilganidan keyin qotish tezlidir. Bu kattalik esa o`z navbatida oligomerni qotirgich bilan aralashtirilganidan so`ng suyuq-oquvchan qolatda bo`lish vaqt, ya`ni oligomerni ishlatishga yaroqlilik vaqt (yashash umri) bilan belgilanadi. Epoksid oligomerlarining yana bir asosiy texnologik ko`rsatkichi bo`lib, ularni epoksid ekvivalenti - grammarda ko`rsatilgan, bir gramm-ekvivalent moddaning massasi hisoblanadi.

Masalan, epoksid oligomerlarining qar bir chiziqsimon zanjiri oxirida bittadan epoksid guruqi bo`lsa, unda epoksid ekvivalenti, oligomer o`rtacha molekula massasining 1/2 ga teng bo`ladi.

Keyingi texnologik kattalik, epoksid soni bo`lib, bu kattalik 100 g oligomer tarkibidagi epoksid guruqlari soni bilan belgilanadi.

Epoksid oligomerlari qam, boshqa oligomerlar kabi, faqatgina to`rsimon qolga o`tganlaridagina (qotganlaridagina), kerakli texnik xususiyatlariga (mexanik mustaxkamlik, dielektriklik xususiyatlari, kimyoviy ta`sirlarga chidamlilik va b.) erishadilar.

Hozirgi vaqtida epoksid oligomerlarini qotishiga olib keladigan qotirgichlarni ta`sir etish mexanizmiga qarab 2 ta katta guruxga bo`lish mumkin.

1) Tikuvchi qotirgichlar- qotirgich bilan epoksid oligomerlarini funksional gruxlarini kimyoviy ta`siri natijasida epoksid polimerlarini qotishga olib keladilar;

2) qotirgichlar - bu qotirgichlar ta`siri ostida epoksid oligomerlarini qotishi, ularni epoksid gruxlarini ochilib polimerlanish reaktsiyasida qatnashishlari qisobiga sodir bo`ladi.

Tikuvchi qotirgichlar sifatida ikkita va undan ortiq amino, karboksil, angidrid, izotsionat gruxlari saqlovchi moddalar ishlatiladi.

## AMINLAR BILAN QOTIRISH

Birlamchi aminlar bilan epoksid gruxlari katta tezlikda ta`sir etadilar. Bu reaktsiya issiqlik ajralib chiqishi bilan boradi. Ikkilamchi va uchlamchi aminlar qam qotirgich sifatida ishlatilishi mumkin.

Ýpoksid oligomerlarini aminlar bilan reaktsiyasi quyidagicha ketadi:

Uchlamchi aminlar bilan qotirishda -oksid tsiklining ionli mexa-nizm bo`yicha polimerlanish natijasida polimer kotadi:

Aminlar epoksid oligomerlarini 0-1500S orasida qotirish uchun ish-latiladilar. Alifatik aminlar epoksigruxlar bilan 20-500Sda engil reaktsiyaga kirishadilar, aromatik aminlar esa epoksid gruxlari bilan 80-1200S da reaktsiyaga kirishadilar.

Qotish 200S da 24-48 soatda, yuqori xaroratda 10-20 soatda tugallanadi. Epoksid oligomerlarini amin va poliaminlar bilan aralashmasi kam saqlanadi va shu sababli ularni aralashmasini ishlatish oldidan tayyorlanadi. Aminlar (alifatik) asosan xona qaroratida qotiruvchi qotirgichlar qatoriga kiradilar. Aromatik aminlar esa (fenilendiamin, benzidin, piperidin) issiqda qotiruvchi qotirgichlar qisoblanadi.

Dikarbon kislotalari va ularning angidridlari bilan qotirish

Bu qoldagi qotirgichlar yuqori qaroratda ta'sir qiladilar va shu sa-babli yuqori qaroratda qotiruvchi qotirgichlar qatoriga kiradilar.

Angidridlar bilan qotirish ikki bosqichda quyidagicha amalga oshiri-ladi. Birinchi bosqichda kislotalarning angidridlarini epoksid oligomer-larini gidroksil gruxlari bilan ta'siri kuzatiladi:

Ikkinci bosqichda kislota yoki qosil bo`lgan karboksil gruxli oligo-mer epoksigrux bilan reaktsiyagà kirishadi:

Hosil bo`lgan yangi gidroksil gruxi angidridning keyingi molekulasi bilan reaktsiyaga kirishadi va shunday qilib tikilish davom etadi.

Oligomer tarkibida 0,1-1% suv va spirlarning bo`lishi oligomerni qotish tezligini oshiradi.

Ýpoksid oligomerlarini to`la qotirish uchun bir epoksid ekvivalenti-ga 0,85 mol angidrid to`qli kelishi kerak. qotirish 150-2000S da 10-18 soat davomida amalga oshiriladi.

## **EPOKSID POLIMERLARINI XOSALARI VA ISHLATILISHI**

Epoksid oligomerlari sanoatning ko`p soqalarida keng miqqosda ishla-tiladi. CHunki, epoksid polimerlari yuqori fizik-mexanik, dielektrikli, issiq bardoshlik, xususiyatlariga ega bo`lib turli materiallarga adgeziyasi yaxshi. Undan tashqari, qotirilgan epoksid polimerlari nisbatan kam kiri-shish va aggressiv muxitlarga chidamliligi bilan qam ajralib turadi.

Shuning uchun qam epoksid polimerlari yuqori mustaqkamlikka ega bo`lgan konstruktsion material sifatida raketa va kosmik apparatlar yara-tish texnikasida, aviatsiyada, mashinasozlikda ko`plab ishlatiladi. Radio-elektronika, elektrotexnika, asbobsozlikda, elektr izolyatsiyasi qamda ger-metiklar olishda qam epoksid polimerlari ko`plab ishlatiladi. Ýpoksid kompozitsiyalarini izolyatsiya va antifriktsion qoplama, polimerbetonlarni boqlovchisi sifatida ishlatish katta samara beradi.

Shisha, keramika, yoqoch, plastmassalar, metallar va boshqa materiallar-ga adgeziyasi yaxshè bo`lganidan, epoksid oligomerlaridan turli xil elimlar lok va buyoqlar ishlab chiqariladi.

Epoksid polimerlarini pardalari, yuqori mexanik mustaqkamlikka, atmosfera va kimyoviy ta`sirlarga chidamlilikka ega.

Epoksid oligomerlari shishaplasttiklar olishda ko`plab ishlatiladi. CHunki bu oligomerlarni shishà yuzasini qo`llash xususiyati qam yaxshi.

## **TAYANCH SO`ZLAR**

Epixlorgidrin, difenilolpropan, epoksid guruqlari, epoksid oligomerlari, epoksid oligomerlarini qotishi, amin qotirgichlar, dikarbon kislotalari va ularni diangidridlari, adgeziya xossalari, kompaundlar, shisha tolali plastiklar.

## **QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Epoksid oligomerlari qanday usullarda olinishi mumkinq
2. Epoksid oligomerlarini xosil bo`lish reaktsiyalari.
3. Epoksid oligomerlarini ishlab chiqarishni uzlukli texnologik jarayoni.
4. Epoksid oligomerlarini ishlab chiqarishni uzlusiz texnologik jarayoni.

5. Epoksid oligomerlarini sovuqda qotirish va qotiruvchi qotirgichlari.
6. Sovuqda qotirish reaktsiyalarini yozib tushuntiring.
7. Epoksid oligomerlarini issiqda qotirish qotirgichlari.
8. Epoksid oligomerlarini issiqda qotish reaktsiyalarini yozib tushuntiring.
9. Epoksid oligomerlarining xossalari va ishlatilishi.
10. Epoksid oilgomerlaridan olinadigan shisha plastiklar va ular-ning xossalari.

## **ADABIYOTLAR**

1. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.298-315.
2. Chernin I.Z., Smexov F.M. , Jerdev U.V., Ýpoksidnie polimeri i kompo-zitsii., M., "Ximiya", 1982 g., 214s.

## **MA`RUZA-16**

### **POLIAMID POLIMERLARI**

O`zining asosiy zanjirida qaytariluvchi -CO-NH- amid guruxlarini saqlovchi geterozanjirli polimerlar poliamidlar deb ataladi.

Birinchi marotaba sintetik poliamid 1862 yilda aminobenzoy kislotasiga 2000S da vodorod xlоридини та`сир ettirib olingan. 1936-1938 yillardan boshlab shu xildagi polimerlar ustida ko`plab izlanishlað olib borilib, ularni olishni turli usullari ishlab chiqilmoqda, sanoatda ularni asosida tolalar, pardalar va turli xil plastik massalar olish tashkil etilmoqda. Konstruktsiyalarda ishlatiluvchi termoplastik polimerlar ichida ishlab chiqarilish xajmi bo`yicha, poliamidlar birinchi o`rinda turadi. Ulardan olingan buyumlar elektr texnikasida, mashinasozlikda, o`chagich asboblari, xalq iste`mol mollari ishlab chiqarishda keng ishlatiladi. Sanoatda poliamidlar quyidagi usullarda olinadi.

1) aminokislotalarning laktamlarini polimerlab

2) diaminlarni dikarbon kislotalari bilan polikondensatlab

3) diaminlarni dikarbon kislotasining xlorangidridlari bilan polikondensatlab

4) -aminokislolarini gomopolikondensatlab

Poliamidlarni nomlashda, polimerni kimyoviy tuzilishini belgilovchi son qiymatlardan foydalaniladi.

Alifatik poliamidlarda, "poliamid" so`zidan keyin bir yoki ikkita son qo`yiladi. Agaräà poliamid bitta monomerdan olingan bo`lsa (aminokislota yoki laktamdan), monomer tarkibidagi uglerod atomlari qiymatiga teng bitta son qo`yiladi. Agarda poliamid, diaminni dikarbon kislotasi yoki uning xosilalari

bilan polikondensatlab olingan bo`lsa, ikki yoki uchta son qo`yiladi. Bunda verguldan avval qo`yilgan son (sonlar) diamindagi uglerod atomlari sonini, verguldan keyingi son esa dikarbon kislotasi yoki uning xosilalaridagi uglerod atomlari sonini ko`rsatadi. Masalan, polikaproamid poliamid 6, poligeksametilesebatsinamid poliamid 6,8 deb nomlanadi.

Aromatik poliamidlarda esa, tsiklik diamin yoki dikarbon kislotasi-ning xalqalarini, ularni nomlarini birinchi qarfi bilan belgilanadi. Masalan, geksametilendiamin va tereftal kislotalaridan olingan polimer, poliamid 6, T deb ataladi.

Poliamid sopolimerlarini nomlari, aloqida-alоqida polimerlar nomidan, bu polimerlarni sopolimerdagи foiz miqdorlarini ko`rsatib tu-ziladi. Masalan, poliamid 6,10/6,6 (65:35) nomi, ushbu sopolimer 65% poliamid 6,10 va 35% poliamid 6,6 dan tashkil topganligini ko`rsatadi.

Xozirgi vaqtgacha juda ko`p poliamidlар olingan, ammo ulardan quyi-dagilari amaliy aqamiyatga ega:

- poli-e-kaproamid, yoki poliamid 6 (kapron, naylon 6);
- poligeksametilenadipamid, yoki poliamid 6,6 (anid, naylon 6,6);
- poligeksametilesebatsinamid, yoki poliamid 6,8;
- poli- -undekanamid, yoki poliamid 11 (ril'san);
- poli- -dodekanamid, yoki poliamid 12;
- poli-m-fenilenizoftalamid (fenilon);
- poliamidlarni sopolimerlari (poliamid P-54, P-548, P-68, P-54/10, P-54/21 va b).

## POLIAMID 6 NI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI

Poliamid 6 olishni texnologiyasi o`z ichiga, xom ashyonи tayyorlash, -kaprolaktamni polimerlash, sovitish, maydalash, yuvish va quritish jarayonlarini oladi.

Poliamid 6 ni -kaprolaktamdan suyuqlanmada, AG tuzining suvli eritmasi ishtirokida gidrolitik polimerlab olish texnologiyasi 22 chi rasmda keltirilgan.

Kristall -kaprolaktam 1 chi bunkerga solinib, u erdan shnekli uzat-gich yordamida 2-chi suyuqlantiruvchiga uzatiladi. Suyuqlantiruvchida -kaprolaktam azot muqitida 90-1000S gacha qizdirilib, aralashtirib turib suyuqlanma qoliga o`tkaziladi.

Rasm. 22. Uzluksiz usulda poliamid 6 (polikapramid) ishlab chiqarish sxemasi:

1-kaprolaktam bunker; 2-kaprolaktamni suyuqlantirish idishi; 3-filtr; 4-polimerlash kolon-kasi; 5-AG tuzini eritish apparati; 6-qobiqli quvirsimon issiq almashgichlar-sovitgichlar; 8-suv yiqish idishi; 9-yo`naltiruvchi vallar; 10-tortuvchi vallar; 11-qirqish dastgoqi; 12-polimer bo`lakchalari bunker; 13-ekstraktor; 14- vakuum-quritgich.

Suyuqlanma qolidagi -kaprolaktamga barqarorlovchi qo`shiladi. So`ngra laktam siqilgan azot yordamida yoki nasos yordamida, 3-chi filtr orqali uzluksiz ravishda 4-chi polimerlovchi kolonnaga uzatiladi. Fil'tr va barcha quvur o`tkazuvchilar laktamni kristallanib qolishini oldini olish maqsadida áó? yordamida isitib turiladi. Boshqa 5 chi apparatda, qizdirib va aralashtirib turib, polimerlanishni faollashtiruvchi adipin kislotasi bilan geksametilendiaminni tuzini (AG) 40% li eritmasi, yoki -aminokpron kislotasi eritmasi tayyorlanadi. Faollashtiruvchini tayyorlangan eritmasi qam meyorlovchi nasos yordamida uzluksiz ravishda 4 chi polimerlovchi kolonnaga uzatib turiladi. Polimerlanish 250-2700S da o`tkazilib, eng yuqori qarorat kolonnani o`rta qismida ushlab turiladi.

Polimerlanish jarayonida ajralib chiqayotgan suv buqi, o`zi bilan qisman -kaprolaktamni buqlarini qam olib chiqib ketadi. CHiqib ketgan -kaprolaktamni 6 chi issiqlik almashgichda kondensirlab, reaksiya muqitiga qaytariladi, qosil bo`lgan suvni esa 7 chi yiquvchida yiqiladi.

Suyuqlanma xolidagi polimer bosim ostida kolonnadan filera orqali oqib tur-gan sovuq suvli vannadagi 8 chi barabanga siqib chiqariladi. Sovitilgan polimer, tasma yoki arqonchalar ko`rinishida 9 chi yo`naltiruvchi va 10 chi vallar yordamida 11 chi qirquvchi dastgoqga uzatiladi va u erda maydalanadi. Polimerni maydalangan bo`lakchalari 12 chi bunkerda yiqiladi va 13 chi ekstraktorda yuviladi. Yuvilgan polimer vakuum quritgich 14 da 125-1300S qaroratda quritiladi.

## POLIGEKSAMETILENADIPAMID (Poliamid 6,6)

Poliamid 6,6 (anid, naylon 6,6) birinchi marotaba 1935 yilda olinib, sanoatda 1938 yildan ishlab chiqarila boshlangan.

Yuqori molekula massasiga ega poliamid olish uchun dikarbon kislotasi bilan diaminlarni ekvimapni miqdorlari olinishi kerak.

AG tuzini olish aloqida bir jarayonga ajratilishi yoki poliamid 6,6 olish jarayonini bir qismi sifatida amalga oshirilishi mumkin.

AG tuzini olishni aloqida jarayon sifatida quyidagi texnologiya bo`yicha (Rasm 23) amalga oshiriladi.

### **Rasm.23. AG tuzini ishlab chiqarish jarayoni sxemasi:**

1-adipin kislotasini eritish apparati; 2-AG tuzini olish apparati; 3-AG tuzi-ni cho`ktirish apparati; 4-tsentrifuga.

Aralashtirgichli, isitiladigan 1chi-apparatda adipin kislotasining metanolndagi 20% li eritmasi tayyorlab olinadi. Bu eritma, geksametilendiaminni metanolndagi 50% li eritmasi bor 2chi-reaktorga solinadi. Bunda neytrallanish reaktsiyasida ajralib chiqqan issiqlik qisobiga reaktsiya muqiti qarorati ko`tariladi. So`ngra azot yordamida, reaktsion massa 3chi-apparatga siqib chiqarilib, u erda sovitiladi. Soviq metanolda yomon eruvchi kristall AG tuzi cho`kmaga tushadi (umumiylashtirish massaga nisbatan 95% atrofida). Xona qaroratigacha sovitilgandan so`ng AG tuzi 4chi-tsentrifugada ajratib olinadi. Suyuqlik esa metanolni xaydab olish maqsadida kolonnaga uzatiladi. Metanolni xaydaligandan so`ng, kub qoldiqidan yana bir qancha miqdorda AG tuzini ajratib olish mumkin. Buning uchun kub qoldiqi suvda eritiladi va metanol qo`shib AG tuzi cho`ktirib olinadi. Buning natijasida olingan monomerlarga nisbatan salkam 100% AG tuzi olishga erishiladi.

Toza qoldagi AG tuzi oq kristall ko`rinishidagi kukun bo`lib, 190-1910S da suyuqlanadi va suvda yaxshi eriydi (180S da 47%). Kristall ko`rinishidagi AG tuzi yoki uni suvdagi eritmasini xona ?àðîðàòèää óç? vaqt saqlash mumkin.

AG tuzini polikondensatlanishi

### **Rasm.24. Poliamid 6,6 (poligeksametenadipamid) ishlab chiqarish ja-rayoni sxemasi:**

1-polikondensatlanish reaktor-avtoklav; 2-sovutgich; 3-suv yiquvchi idish; 4-sovitish vannasi; 5-yo`naltiruvchi valiklar; 6-tortish valiklari; 7-qirqish dast-goxi; 8-vakuum - quritgich.

Poliamid 6,6 ni olinish jarayoni, asosan -kaprolaktamni gidrolitik polimerlanish qonuniyatlariga bo`ysinadi. Ammo bu jarayonni o`ziga xos taraflari qam bor. AG tuzining polikondensatlanishi 2000S dan yuqorida boshlanadi va 270-2800S da optimal natijalarga erishiladi. Bu sharoitlarda reaktsiya oxirigacha boradi va muvozanat erishilganida o`z tarkibida 1% dan kam monomer saqlagan polimer qosil bo`ladi. Demak bu usulda polimer olinganida, polimerni past molekulalari moddalardan yuvib tozalash jarayonlari qisqaradi. Poligeksametenadipamidni (poliamid 6,6) ishlab chiqarish texnologik jarayoni 24 chi rasmda keltirilgan.

Kukun ko`rinishidagi AG tuzi polikondensatlanish uchun 1chi-avtoklav - reaktorga solinadi. SHu reaktorga 1 mol tuzga nisbatan 1/150 mol sirka kislotasi qam solinadi.

Reaktor - avtoklav, yuqori xaroratlari issiqlik tashuvchi (dinil yoki buq) bilan isi-tilishga mo`ljallangai qobiq bilan jixozlangan, xromnikelli po`latdan tayyorlangan 1-6m<sup>3</sup> xajmli tsilindr ko`rinishida bo`ladi. Polikondensatlanish toza azot atmosferasida, 1,5-1,9 MPa bosimda, 1-2 soat davomida qaroratni asta-sekin 220 S gacha, keyingi 1-1,5 soatda 220 dan 260 S gacha ko`tarib olib boriladi. So`ngra shu qaroratda bosim

atmosfera bosimigacha tushirilib 1 soat ushlab turiladi va bosim yana 1,5-1,9 MPa gacha ko`tariladi. Bosim kamaytirilganida reaktsiya natijasida ajralib chiqqan suv qaynaydi va uning buq-lari reaktsiya muqitini yaxshilab aralashadiradi. Suvni qolgan qismi vakuum ostida xay-daladi. Polikondensatlanish jarayonini umumiy vaqt 6-8 soatni tashkil etadi. Jara-yonni, ajralib chiqqan suv miqdoriga qarab nazorat qilinadi. Suv buqlari 2chi-muzlatgichda kondensirlanib, 3chi-o`lchagichda yiqiladi.

Reaktsiya tugaganidan keyin poliamidni xarakatchan suyuqlanmasi, siqilgan azot yordamida, isitilayotgan filera orqali doimo soviq suv almashinib turgan 4chi-vannaga tushiriladi. Sovitilgan arqoncha yoki tasma ko`rinishidagi poliamid yo`naltiruvchi val-lar (5) va tortuvchi 6chi-vallar orqali, qirquvchi (7)-dastgoxga tushiriladi. Poliamidni granulalari 8chi-barabanli quritgichda quritilib, qadoqlashga uzatiladi.

## POLIFENILENIZOFTALAMID (FENILON)

Fenilon (poli-m-fenilenizoftalamid) aromatik poliamidlar sinfi-ga mansub.

U m-fenilendiamin bilan izoftal kislotasi xlorangidridini poli-kondensatlab olinadi.

Fenilon boshqa aromatik poliamidlar kabi yuqori qaroratda shishalanadi va suyuqlanadi. Fenilon uzoq vaqt davomida qarorat (220-250oS), atmosfera, yuqori radiatsiya va kimyoviy ta`sirlarga chidamlilikni namoyon etadi. SHuning uchun qam fenilon asosan, murakkab sharoitlarda ishlatiluv-chi buyum va detallar olishda ishlatiladi.

Rasm 25.Fenilonne emulsiyada, polikondensatlanish reaktsiyasi yordamida olishne umumiy sxemasi.

Rasm 25 da keltirilgan texnologiya bo`yicha, izoftal kislotasi xloran-gidridi eritmasi, 5-100S gachan sovitilgan M-fenilendiaminni suvdagi sodali eritmasi bilan katta tezlikda aralishdiriladi. Polimer asosan organik fazada xosil bo`ladi, ajralib chiqayotgan vodorod xloridi neytralla-nadi. So`ngra polimer cho`ktirib olib, filtanadi, issiq suv bilan yuviladi, yana filtrlanib 100-1100S da vakuumda quritiladi. Ylanganidan so`ng mayda kukun ko`rinishidagi fenilon olinadi.

Fenilonne eritmada olishni umuimy texnologiyasi 26-rasmda keltirilgan.

Rasm.26. Fenilonne eritmada olish sxemasi.

Bu usul bo`yicha, qattiq izoftal kislotasining xlorangidridi - 10 dan - 150S gachan sovitilgan va aralishdirib turilgan m-fenilendiaminni dimetilatsetamiddagi eritmasiga kiritiladi. Polikondensatlanish natijasida ajralib chiqayotgan vodorod xloridi dimetilatsetamid bilan reaktsiyaga kirishib, dimetilatsetamidni gidroxloridini xosil qiladi va bu tuz qisman cho`kmaga tushadi. Polikondensatlanish 40-60 min.da tugallanadi. Natijada o`z tarkibida 5-10% dimetilatsetamidni gidroxloridi ko`rinishidagi vodorod xloridi saqlangan fenilonne dimetilatsetamiddagi qovushqoq eritmasi xosil bo`ladi. Bunday eritma boshqa ishlovlarsiz, parda, qoplama, lok, kompozitsiya materiallari olishda ishlatiladi. Kerak bo`lgan xollarda, ishlatishdan avval eritma neytrallanib, filtrlanadi va qo`shimcha erituvchi qo`shilaæè.

## POLIAMIDLARNI XOS SALARI VA ISHLATILISHI

Texnikada ishlatiladigan poliamidlarni molekula massasi 8000-25000 o`rtasida bo`ladi. Tashqi ko`rinishi qattiq, oq rangdan och qo`nqir rang-gacha bo`ladi. Poliamidni sopolimerlari asosan tiniq rangli bo`ladi. Kri-stall alifatik poliamidlarni suyuqlanmaga o`tish qarorati 180-280°C ora-liqida bo`ladi.

Makromolekulada amid guruqlari sonini ko`payib borishi bilan, polimerni suyuqlanmaga o`tish xarorati, qattiqligi ortib boradi. Makromolekulasi toq metilen guruqlaridan tashkil topgan poliamidlar, juft

metilen guruqli poliamidlarga nisbatan ancha past xaroratda suyuqlanmaga o`tadilar (m: 5 metilen guruqli poliamid 4 metilen guruqli poliamiddan pastroq xaroratda suyuqlanadi).

Poliamidlар yuqori mustaqamlilikka, zarbiy qovushqoqlikka va ela-stiklikka ega bo`lib, soviqda cho`zilish xususiyatiga ega. CHo`zish qisobiga po-liamid tolalari yoki pardalarini uzunligini 4-6 marotabagacha kattalashti-rish mumkin.

Yuqori mexanik xususiyatlar, antifriktsion va elektr izolyatsiya xossa-lari, kimyoviy va korroziya ta`siriga chidamlilik, poliamidlarni eng asosiy konstruktsion materiallar qatoriga qo`shadi. Poliamidlardan shesternyalar, podshipniklar, vkladishlar, vtulkalar, roliklar, muftalar, polzunlar, ven-tilyator va vintlarni kuraklari, elektr izolyatsiya buyumlari, meditsina ji-xozlari ishlab chiqariladi.

Podshipnik va boshqa ishqalanib ishlaydigan buyumlar moylanmasdan yoki suv bilan mîeëää ishlatiladi. Grafit, talk va molibden disulfidi bi-lan to`ldirilgan poliamiddan olingan buyumlar o`z-o`ziie moylash xususiyati-ga ega. SHuning uchun qam poliamiddan olingan buyumlarni, tekstil va oziq-ovqat sanoatida ishlatish maqsadga muvofiq. CHunki bu soqlarda iloji bo-richa dastgoqlardagi buyumlarni moylamaslik kerak.

Poliamidlар ko`plab parda materiallari, lok qoplamlari, shimdi-rish tarkiblari va elim olishda ishlatiladi.

Poliamid pardalaridan sun`iy teri, kinopardalar tayyorlashda foy-dalaniladi.

Poliamid qoplamlari mexanik mustaqamlilikka va yaxshi kimyoviy barqarorlikka ega. Ular quvirlar, idishlar olishda, elektr simlarini qoplashda, qatlam plastiklar ishlab chiqarishda, matolar, terilarni pardozlash-da ishlatiladi.

## TAYANCH SO`ZLAR

Dikarbon kislotalari, ularning xlorangidridlari, diaminlar, aminokislotalar, alefatik poliamidlар, aromatik poliamidlар, poliamidlarni nomlanishi, poliamid 6, poliamid 66, fenilon, antifriktsion xususiyatlar, konstruktsion materiallar.

## QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Qanday polimerlar poliamidlар deyiladiq
2. Poliamidlarni sintez qilishning usullari.
3. Poliamidlар qanday nomlanadiq
4. Poliamid 6 ni ishlab chiqarish texnologiyasi.
5. Porliamid 6 ni xossalari va ishlatilishi.
6. Poliamid 66 ni ishlab chiqarish texnologiyasi.
7. Porliamid 66 ni xossalari va ishlatilishi.
8. Fenilon - poliamidini ishlab chiqarish texnologiyasi.
9. Fenilon - poliamidini yonmaslik va xaroratbardoshlik sabablari.
10. Poliamidlар asosida olinadigan konstruktsion materiallar.

## ADABIYOTLAR

1. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.381 - 407
2. Vol'f L.A. Xaytin B.SH. Proizvodstvo polikaproamida, Moskva., Ximiya, 1976 g.
3. Nel'son U.E. Texnologiya plastmass na osnove poliamidov. Per. s ang. / pod redaktsiey A.Ya. Malkina, Moskva., Ximiya, 1979 g. 212 s.

## MA`RUZA – 17

## POLIIMIDLAR

Poliimidlar, tarkibida benzol yoki boshqa tsikllar bilan kondensirlangan, tsiklik imid guruqlari saqlovchi, xaroratbardoshligi yuqori geterotsiklotsepli polimerlardir:

## POLIIMIDLARNI SINTEZ QILISH.

Kimyoviy tuzilishi bo'yicha poliimidlar - alifatik, aromatik, chiziqli va to'rsimon turlarga bo'linadi. Besh-, olti- va etti a'zoli imid tsiklli poliimidlar qam bor. Poliimidlar polimerlanish va polikondensatlanish reaktsiyalari yordamida olinadi. Amaliy aqamiyatga ega bo'lgan besh a'zoli imid tsiklli poliimidlar, odatda bir-biriga nisbatan orto - qolatda juft karboksil guruqlari saqlovchi tetrakarbon kislotalarini (ko`proq ularni diangidridlarini) diaminlar bilan polikondensatlab olinadi. Ko`pincha poliimidlar ikki bosqichda olinadi: birinchi bosqichda yuqori molekulalı eruvchi poliamidokislotalar olinadi, ikkinchi bosqichda esa ulardan pardalar, tolalar, qoplamlar olib turib, shu tayyor buyumlarda poliimidlargacha tsiklogidratlash o'tkaziladi (ya`ni poliimidlarga qayta ishlash jarayonida o'tkazadilar).

Poliimidlar olishni birinchi bosqichi - poliamidokislotalarni olish bo`lib, ular tetrakarbon kislotasi diangidridi bilan diaminlarni ekvimap miqdorlarini eritmada past qaroratda polikondensatlab olinadi. Poliamidokislotalarni olish muvozanatlari reaktsiya bo`lib, bu reaktsiyani muvozanat konstantasi ko`p jiqatdan xom ashylarni kimyoviy tarkibi va erituvchilarini tabiatiga, qamda reaktsiya xaroratiga boqliq. Yrituvchilar sifatida N,N- dimetilformamid, N,N- dimetilatsetamid, N- metilpirrolidon, dimetilsulfoksid va boshqa xom ashyo qamda polimerni eritadigan erituvchilar ishlatiladi. Alifatik ketonlar (atseton), oddiy tsiklik efirlar (dioksan yoki tetragidrofuran) erituvchi sifatida ishlatilganda, yuqori molekulalı poliamidokislotalar qosil qilish uchun reaktsiya muqitiga ko`p miqdorda (30% (mass.)gacha) suv qo`shiladi. Suv reaktsiyani tezlatuvchi qisoblanadi. Poliamidokislotalarni qosil bo`lishida karbon kislotalari katalizator bo`lib xizmat qiladi. Bunday katalizatorlar, ayniqsa, past asosli diaminlar va reaktsiyaga kirishishi qiyin diangidridlar o`rtasidagi reaktsiyalarda katta aqamiyat kasb etadi. SHu moddalar asosidagi reaktsiya, qosil bo`layotgan moddalar tarkibidagi karboksil guruqlari qisobiga qam tezlashadi, ya`ni avtokataliz kuzatiladi. Odatda reaktsiyani 15-250S da, qator qollarda esa yuqoriroq xaroratda, ya`ni 50-750S da qam o`tkaziladi. Poliamidokislota kontsentratsiyasi eritmada 10-25% (mass.) bo`ladi. Poliamidokislotalarning o`rtacha massaviy molekula massasi 22500 dan 266.000 gacha bo`ladi.

Poliimidokislotalarni o`ziga xos xususiyatlaridan biri, o`z-o`zidan ketadigan destruktsiya reaktsiyalaridir (reaktsiyani qaytarligi asosida). Bu reaktsiyalar poliamidokislotalarni molekula massasini kamayishiga olib keladi. Destruktsiya eritmada qam (suyuqlangan va kontsentrlangan), qattiq fazada qam ketadi. Poliamidokislotalarni parchalanishga moyilligi, orto-karboksiamid gruqining tuzilishi bilan boqliq. Amid boqiga nisbatan or-to-qolatda bo`lgan karboksil gruqi, amid boqini parchalanishini juda qam tezlatib yuboradi, buning natijasida parchalangan amid boqi angidrid tsik-ligà aylanadi. Angidrid tsikli esa namlik ishtirokida kislotaqacha gidro-lizlanadi. SHuning uchun qam bu reaktsiyalar xo`l amid erituvchilarida olib borilganida, qamda poliamidokislotalarni qarorat ta`sirida tsikllashda (bu reaktsiya suv ajralib chiqishi bilan boradi) katta aqamiyat kasb etadi.

Poliimidokislotalarni tsiklik qolga o`tkazish faqat qarorat ta`siri-da, yoki kimyoviy birikmalar ishtirokida (katalitik) amalga oshiriladi. Xa-rorat ta`sirida tsikllash, poliamidokislota eritmasini, yoki asosan undan olingan pardan, tola yoki kukunni vakuumda yoki inert atmosferada, xaroratni  $300^{\circ}\text{C}$  gacha ko`tarib amalga oshiriladi. Bunda, avvaliga molekula massa (po-limerlanish darajasi) sezilarli darajada pasayadi (xarorat  $100-180^{\circ}\text{C}$  o`rtasida) va keyinchalik yuqoriroq xaroratlarda yana orta boshlaydi (zanfir uchidagi amin va angidrid gruqlarini polikondensatlanishi natijasida).

Demak, poliamidokislotalarni xarorat ta`sirida tsiklodigidratlanishi murakkab jarayon bo`lib, bunda oldinma-ketin yoki bir vaqtini o`zida, imidlanish, poliamidokislotalarni parchalanish va qosil bo`layotgan

yangi makromolekulalarni polikondensatlanish reaktsiyalari ketadi. qaysi reaktsiyanè ko`proq ketishi reaktsiya sharoitiga boqliq.

Poliamidokislota eritmalariga yoki undan olingen kukun va boshqa buyumlarga, kimyoviy birikmalar-asosan karbon kislotalarining angidrid-lari (sirka angidridi) va uchlamchi aminlar (piridin) aralashmasi bilan ishlov berish, tsikllash xaroratni 20-1000S gachapasayish imkonini beradi. Bunda poliimidlarni polimerlanish darajasi, boshlanqich poliamidokis-lotalar polimerlanish darajasidan sezilarli farq qilmaydi. Katalitik tsikllash tugaganidan so`ng bir xil qollarda qisqa vaqt ichida 300-3500S da ushlab turilishi mumkin. Poliamidokislotalarga -ditsiklogeksilkarbodiimid yoki uchftorsirka kislotasining angidridi ta`sir ettirilsa, izo-imid gruxli (iminolakton gruxli) polimerlar qosil bo`ladi va bu gruqlar yuqori xaroratlarda normal imid tsikllariga aylanadi.

Imid tsikllari qosil bo`lganidan keyin qam qayta ishlash mumkin bo`lgan, eruvchi va suyuqlanma qoliga o`tuvchi poliimidlarni bir bosqichda qam olish mumkin. Bunda jarayon yuqori xaroratda qaynovchi erituvchilarda (nitrobenzol, M-krezol) 160-210 S da o`tkaziladi. Bir bosqichli usulda po-likondensatlanish natijasida poliamidokislotalarni molekula massasini ortishi imid tsikllarini qosil bo`lishi bilan bir vaqtida amalga oshadi. Ko`pgina qollarda reaktsiyani umumiyligi tezligi, tsikllanish reaktsiyasini tez-ligi bilan emas, balki poliamidokislotalarni qosil bo`lish tezligi bilan belgilanadi. Poliimidlar ishlab chiqarishni bir bosqichli reaktsiyasi qay-tar (muvozanatli) reaktsiyalardan bo`lganidan, yuqori molekulali poliimid-lar olish uchun, reaktsiya muqitidan ajralib chiqayotgan suvni tezlikda muqitdan chiqarib turish kerak. Buning uchun reaktsiya muqitidan doimo inert gaz (argon, azot) o`tkazib turiladi. Ushbu jarayon karbon kislotalari, uchlamchi aminlar, karbon kislotalarining amidlari kabi katalizatorlar ishtirokida sezilarli darajada tezlashadi. SHuning natijasida reaktsiya ñine o`tkazish xaroratini 200-210°C dan 140-160°C gacha pasaytirish mumkin bo`ladi, yoki yuqori xaroratda jarayon vaqtinanchagini qisqaradi.

### POLIIMIDLARNI ISHLAB CHIQARISH

Chiziqli aromatik poliimidlar olish texnologiyasi, polikondensatlanish reaktsiyalari yordamida olinadigan boshqa chiziqli polimerlar texnologiyasidan farqlanadi. Bu farq asosan poliimid olishni ikki bosqichda olib borishdir.

PM markali poliimid pardasini ikki bosqichli polikondensatlanish jarayonida olish sxemasi 27- chi rasmda keltirilgan.

Rasm-27. PM poliimid pardasini ikki bosqichli polikondensatlanishda olish sxemasi.

Birinchi bosqich erituvchilarida aromatik poliamidlar olishga o`xshash. Tetrakarbon kislotasining diangidridi bilan diaminlar o`rtasidagi reaktsiyada ko`p issiqlik ajralib chiqqanidan, reaktsiya muqitida issiqlikni vaqtida olib chiqish katta aqamiyatga ega. Buning uchun diaminni quruq dimetilformamiddagi eritmasiga, asta-sekin aralashtirib turib diangid-rid qo`shiladi. Diaminni, diangidrid eritmasiga solish yoki ikkala muddani eritmalarini aralashtirish, pastroq molekula massali poliamidokislota-lar qosil bo`lishiga olib keladi. Ko`pincha sintez inert gaz atmosferasida o`tkaziladi. Ammo qar doim qam juda yuqori molekula massali poliamido-kislotalar olish maqsadga muvofiq emas. CHunki bunda quvurlardan o`tkazish va qayta ishlash qiyin bo`lgan yuqori qovushqoqli eritmalar qosil bo`ladi. SHuni qam esdan chiqarmaslik kerakki, poliamidokislotalarni saqlaganda va 100°C dan yuqori xaroratda qizdirilganda, destruktsiya qisobiga ularni molekula massasi kamayib ketadi. Poliamidokislotalarni destruktsiyalanishini oldini olish maqsadida, ularni 0-5°C da saqlanadi.

Poliamidokislota eritmasi yaxshilab filtrlanadi, erigan qavodan to-zalanadi va metall tasma ustiga yotqizilgan ingichka poliimid asosga uzluk-siz qo`yiladi. Tasmani 100°C gacha qizdirilgan quruq azot aylanib turgan quritish kamerasidan o`tkazib, erituvchi uchirib yuboriladi. So`ngra xarorati 150 dan 300°C gacha o`zgaradigan (azot atmosferasida) issiqlik kamerasidan o`tkaziladi. Oxirgi ishlov berish, pardani juda yuqori xaroratda (400°C at-rofida) qisqa vaqt (15 minut) ichida ushlab turib amalga oshiriladi. Poliimid pardalarini ikki o`q yo`nalishida orientatsiyalanishini taminlash maqsadida, ularni maqsus, kirishishiga yo`l qo`ymaydigan qisqichlarda tor-tib qo`yib xarorat ta`sirida ushlab turiladi. Buning natijasida poliimid pardalarini mexanik mustaqkamligi sezilarli darajada ortadi. Ýrituvchi-ni va tsikllash

jarayonida ajralib chiqayotgan suvni to`liq chiqarib yuborish maqsadida, poliamidokislota pardasini bosim ostida  $250^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilgan bitta yoki bir nechta juftlangan vallar orasidan o`tkaziladi.

## POLIIMIDLARNI XOSSALARI

Aromatik poliimidlar, odatda rangli moddalar bo`lib, ularni rangi xom ashyo kimyoviy tuzilishi va polimerlarni sintez qilish usuliga boqliq. Masalan, poli - 4,4 - difenilenoksidpiromellitimid pardasi och - tilla-rang, poli - 4,4 - difenilenpiromellitimid to`q qizil ranglidir. Kard gruqli poliimidlardan rangsiz tiniq pardalar olinadi. Poliimidlarni zichligi ko`pgina organik polimerlardan ancha yuqori ( $1430 \text{ kg/m}^3$  gacha).

Aromatik poliimidlarni asosiy turli tartiblikdagi qismi amorf strukturaga ega. Alifatik poliimidlar esa kristall strukturaga ega bo`lib, aromatik poliimidlarni bir xillari (m: 1,4 - fenilenpiromellitimid) qam kristall strukturalidir.

Aromatik poliimidlar yuqori issiqbardoshlikka ega materiallardir. Polipiromellitimid va polinaftoilenimidlар eng yuqori issiqbardoshlikka ega bo`lib, ular parchalanish xaroratigacha yumshamaydi. Ularni, qisoblab topilgan va kuchlanishni relaksatsiyasi kattaligidan aniqlangan shishalanish xarorati  $500^{\circ}\text{C}$  va undan yuqori. Boshqa poliimid-larni issiqbardoshligi xom ashyonè tabiatini o`zgartirish orqali o`zgarishi mumkin va bu issiqbardoshlik  $300^{\circ}\text{C}$  dan  $430^{\circ}\text{C}$  gacha bo`ladè.

Aromatik poliimidlarni ko`philigi, ayniqsa, yuqori issiqbardoshlari, ma`lum organik erituvchilarda erimaydi. Bunday poliimidlar, surmani pentaxloridi bilan mishyakni uchxloridi aralashmasida eriydi. Kontsentrlangan sulfat va azot kislotalarida parchalanish bilan eriydi.

Kontsentrlangan sulfat va azot kislotalarida parchalanish bilan eriydi. Poliimidlarni zanjiriga kard guruqlarini (ftalid, fluoren va boshqalar) kiritish, ularni issiqbardoshligini kamaytirmasdan, eruvchanligini ancha yaxshilaydi. Masalan anilinfalteinni polipirromellitimidi xona xaroratida dimetilformamidda, dimetilatsetamidda, krezolda, sim-tetraxloretanda, geksaftorizopropanolda eriydi. Anilinfluoren qamda 3,3 ,4,4 - benzofenontetrakarbon yoki 3,3 ,4,4 - difenilosidtetrakarbon kislotalarining angidridlari asosidagi poliimidlar, yuqorida keltiril-gan erituvchilardan tashqarè metilenxloridda, xloroformda va boshqa erituvchilarda eriydi. Ushbu poliimidlarni molekula massasi ( ) 200.000 gacha bo`ladi.

Aromatik poliimidlar radiatsiya ta`siriga o`ta chidamlik. Masalan, poli - 4,4 - difenilosidpiromellitimid asosidagi parda 102 MDj/kg do-zali yuqori quvvatlari elektronlar bilan nurlatilganidan so`ng qam yaxshi me-xanik va elektr xossalari saqlaydi. SHuni qayd qilish kerakki polisti-rol va polietilentereftalat pardalari 5 MDj/kg doza bilan nurlatilganni o`zida mo`rt bo`lib qoladi. Poliimidlar ozon ta`siriga qam chidamli. Ular tarkibida 2% ozon bor qavoda 3700 soat ushlanganidan so`ng 50% li mustaq-kamligini saqlab qoladi. Ular, UF - nurlanish ta`siriga qam chidamli.

Poliimidlar, boshqa geterozanjirli polimerlarga nisbatan ko`proq suv yutadi. SHuning bilan birga poli - 4,4 - difenilenoksidpiromellitimid asosidagi parda suvda 15 kun qaynatilganidan so`ng qam boshlanqich cho`zilish qobiliyatini 75% ini saqlab qoladi. Poliimidlar gid-razingidrat, ishqorlar, aminlar va kamroq mineral kislotalar ta`sirida parchalanadi; qizdirilganda dimetilformamid va dimetilatsetamid ta`siriga qam chidamsiz. Ýng yaxshi gidrolitik barqarorlik, olti a`zoli naftoi-lenimid tsiklli poliimidlarga qos.

Poliimidlarni eng yaxshi xossalardan biri, ularni xaroratbardoshliligidir. Vakuumda va inert atmosferada o`tkazilgan dinamik ter-mogravimetriya natijalari shuni ko`rsatadiki, aromatik polipiromellitimidlар  $500^{\circ}\text{C}$  gacha chidamli, bu xaroratdan yuqorida ular 35% gacha massalarini yo`qotadi. Xarorat yana ko`tarila borsa massa yo`qotishi barqarorlanadi va qoldiq polimer  $1000^{\circ}\text{C}$  gacha sezilarli darajada massa-sini yo`qotmaydi.

Poli - 4,4 - difenilenoksidpiromellitimidni inert atmosferada 15 soat 400, 450 va  $500^{\circ}\text{C}$  da qizdirish natijasida massasini yo`qotish miqdori mos ravishda 1,5; 3,0 va 7,0% ni tashkil etadi.

Faqat xarorat ta`siridan ko`ra, xarorat va oksidlanish ta`sirida po-liimidlarni parchalanishi anchà tezlashadi. Masalan, poliimid pardalarini mustaqkamligi va elastikliligin yo`qotishini faollanish quvvati qavoda qizdirilganida 163 kDj/mol bo`lsa, faqat issiqlik ta`sirida 230kDj/molni tashkil etadi. Aromatik poliimidlarni destruktsiya maqsu-loti, asosan uglerodni oksid va dioksidlaridir.

Poliimidlar yonganida juda kam tutun ajralib chiqadi, ochiq alanga-dan chetlatilganida esa o`z-o`zidaí yonish to`xtaydi.

Poliimidlar orasida poli - 4,4 - difenilenoksidpiromellitimid juda qimmatli xossalarga ega. Poli - 4,4 - difenilenoksidpiromellitimiddan olingan pardani (MDq davlatlarida PM, AqSHda kapton N noml i) xossalari xona xaroratida polietilentereftalat pardasi xossa-laridan farq qilmasada, yuqori xaroratlarda ulardan ancha yaxshi xossalarga ega:

Xossalari	Poliiimid (PM parda-si)	Polietilentereftal at
Zichlik, kg/m <sup>3</sup> .....	1430	1400
SHishalanish qarorati, oS.....	520	80
Nol baquvvatlik qarorati, oS*.....	815	248
CHO`zilishdagi bo`linish kuchlanishi, MPa		
20°C da	170	160
200°C da.....	120	50
Uzilishdagi nisbiy kuchlanish, %		
20°C da	70	100
200°C da	90	125
CHO`zilishdagi qayishqoqlik moduli, MPa	3000	3850
qarorat ta`sirida eskirish**		
250°C da	10 yil	Suyuqlanadi
300°C da	1 yil	-
350°C da...	1 oy	-
400°C da	1 kun	-
Solishtirma qajmiy elektr qarshiligi, Om m		
1 104		
1 104		
Dielektrik yo`qotishning tangens burcha-gi, 1 103 Gts da.....	0,003	0,005
Dielektrik o'tish, 1 103 Gts da.....	3,5	3,0
Ýlektr mustaqamlilik, kV/25 mkm.....	7	7

\* 0,14 MPa kuchlanish ta`sirida 5 sek davomida pardani parchalanmasdan turish qarorati

\*\* 1% li deformatsiyaga erishilguncha qavoda ushslash vaqt.

PM pardasi kriogen xaroratda ham o`z egiluvchanligini saqlab qoladi. Toza pardadan tashqari bir yoki ikkala tomoni politetraftoretilen bilan qoplangan pardalar qam chiqariladi.

Aromatik poliiimidlarni juda yuqori issiqbardoshligi, ularni od-diy usullarda qayta ishlashnè qiyinlashtiradi. Ulardan monolit plastik-lar, kukun metallurgiyasi texnologiyalariga o`xshash texnologiyalarda olina-di. Yarim maqsulotlar 400oS dan yuqori qaroratda, 100-200 MPa bosimda presslab olinadi va keyin mexanik ishlov berib tayyor maqsulotga aylanti-riladi. Bu usul ancha murakkab va qimmat. quyida shunday yarimmaqsulotlar-ni fizik-mexanik xossalari keltirilgan:

Zichligi, 23°C da, kg/m <sup>3</sup> .....	1420
CHiziqli kengayishning qarorat koeffitsienti, 105 K-1.....	5-6
Deformatsion issiqbardoshlik, 0S.....	357
Bo`linish kuchlanishi, MPa	
CHO`zilishda.....	95
Siqilishda.....	155
Ýgilishda.....	120
qayishqoqlik moduli, MPa	
CHO`zilishda.....	3150
siqilishda.....	3100
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup>	
qirqim bilan.....	37,5
qirqimsiz.....	51,4
Ýlektrmustaqamlilik, kV/sm.....	220

Ýlektrkamalagigachidamlilik, S.....	435
Suv yutishi, %	
24 soatda.....	0,32
muvozanatgacha.....	3

Mustaqil Davlatlar qamjiqatligida amin yoki kislotali komponent qoldiqlarida oddiy efir boqlari saqlovchi poliimidlар ishlab chiqilgan. Bu polimerlarni 50-200 MPa bosimda 370-3900S da presslash usulida qayta ishlash mumkin. SHunday polimerlarni fizik-mexanik xossalari quyida keltirilgan:

Zichlik, kg/m <sup>3</sup>	1380
Ýgilishdagi qayishqoqlik moduli, MPa	3200
Zarbiy qovushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup>	50-80
Vik bo`yicha issiqbardoshlik, 0S	270
Uzoq ishlash mumkin bo`lgan qarorat, 0S	210-230
Suv yutishi, 1000S da, %	0,8

Uzun polimetilen qalqalaridan tashkil topgan diaminlar (1,12-dodekametilendiamin) asosidagi polipiromellitimidlarni ekstruziya usu-lida qayta ishlash mumkin.

Poliimid boqlovchilarasi asosida quyidagi xossalrga ega shishapla-stiklar olingan (MDq da STPB, AqSH da Skaybond 700 va b.):

### **POLIIMIDLARNING ISHLATILISHI**

Poliimid pardalari elektr dvigatellarida pazlar va obmotkalar, kondensatorlarda, egiluvchan pechat sxemalarida izolyatsiya sifatida ishlati-ladi. Poliimidlardan olingan plastiklar porshenli qalqalarda, podship-niklarda, zichlantiruvchilarda, elektrtlarni ulash bo`qimlarida, turbinalar-da, atom reaktorlari armaturasida ishlatiladi. Armirlangan shishaplastik-lar, turbinalarni kuraklari, samolyotlarni elektron pechatlash sxemalari sifatida ishlatiladi. Poliimidlarni asosidagi ko`pik plastiklar reaktiv dvigatellarda, yuqori qaroratlarga chidamli tovush izolyatorlari sifatida ishlatiladi.

### **QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Aromatik poliamidokislotalarning xosil bo`lish reaktsiyalarini tushuntiring.
2. Poliamidokislotalar eritmalarini ishlab chiqarish texnologik ja-rayoni.
3. Poliimdlarni xosil bo`lish reaktsiyalari va sharoitlari.
4. Poliimdlarni ishlab chiqarishni ikki bosqichli texnologiyasi.
5. Poliimdlarni bir bosqichda olib bo`lmaslik sabalarini tushuntiring.
6. Imidlanish texnologik jarayonini nima sababdan tayyor polimer maqsulotlarida o`tkazilish sabablarini tushuntiring.
7. Poliimdlarni xossalari va ularni xaroratbardoshligini yuqori bo`lish sabablarini tushuntiring.
8. Poliimdlarni ishlatilish soqalari.

### **ADABIYOTLAR**

- 1.Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.298-315.
2. Bessonov M.I. i dr. Poliimidi - klass termostoykix polimerov., L., "Nauka", 1983 g., 308 s.

### **MA`RUZA - 18**

### **FURAN POLIMERLARI VA UALAR ASOSIDAGI PLASTMASSALAR**

#### **Reja:**

- 1. furfurol polimerlarini ishlab chiqarish**
- 2. furfurolatseton polimerlari**
- 3. Furfuril polimerlarini ishlab chiqarish**
- 4. Furan polimerlari asosida olinadigan plastik massalar**
- 5. Furfurol-atseton oligomerlari asosida olinadigan press-materiallar**

Furan polimerlari geterozanjirli yuqori molekulalı birikmalardan bo`lib, ular furan qatoriga kiruvchi monomerlar - furfurol, furfurił sperti, furfurildenketonlar (masalan: furfuriłidenatseton) asosida olinadi. Ishlatilayotgan monomerlarga qarab furan polimerlari, furfurol asosidagi, furfurił sperti asosidagi va furfurolatseton asosidagi polimerlarga bo`linadi.

Furan qosilalarining polifunktionalligi - tsikldagi to`yinmagan boqlar, yon zanjirdagi karbonil va vinil guruqlari, qamda qarakatchan vodo-rodlar, ular asosida qarorat yoki qarorat va katalizator ta`siri ostida suyuqlanmaydigan va erimaydigan zich tikilgan polimerlar qosil qiluvchi, termoreaktiv oligomerlar qosil bo`lishiga olib keladi.

Tikilgan furan polimerlari, yuqori issiqbardoshlikka ( $300\text{-}500^{\circ}\text{C}$ ), turli agressiv muqitlar ta`siriga o`ta chidamlilikka (kuchli oksidlovchilardan tashqari) va katta pirolitik qoldiqqa (koks soni) ega. Ular radiatsiya ta`siriga chidamli, qoniqarli dielektrik xususiyatlarga ega. Ammo furan oligo-merlarini qotishi, ular zichligini anchagina ortishi ( $1100\text{-}1200$  dan  $1400\text{-}1500 \text{ kg/m}^3$  gacha) bilan borganidan, ular qotganida kirishishi anchagina bo`ladi va bu qol materialni yorilishga va adgeziyasini yomonlashishiga olib keladi.

## 1. furfurol polimerlarini ishlab chiqarish

Furfurolni turli reaktsiyalarda qatnashish faolligi katta. Furfurol oddiy sharoitda uzoq saqlanganda, oksidlanish natijasida geterotsiklni uzilish reaktsiyalari ketib, furfurił tarkibida turli kislotalar (levulin) xosil bo`ladi. Bu kislotalar furfurolni polimerlanishga olib keladilar.

Mineral kislotalar (sulfat, xlorid), organik sulfokislotalar (benzolsulfokislota, n-toluolsulfokislota), metallarni galogenidlari (tsink xloridi), anilinni xlorid vodorodli tuzi va boshqa katalizatorlar (ion katalizatorlari) ishtirokida polimer qosil bo`lish reaktsiyasi katta tezlikda ketadi. Reaktsiya natijasida furfurol qora rangli suyuqlanmaydigan, erimaydigan polimerga aylanadi.

Yuqori qaroratda qo`sh boqlar qisobiga polimerlanish reaktsiyalari ketishi mumkin.

Furfurolni eruvchi va suyuqlanuvchi oligomerlarini, ularni aminlar, masalan geksametilentetramin (oligomer FG-1), furfuramid (oligomer FF-1) va boshqa azotsaqlovchi birikmalar ishtirokida  $120\text{-}140^{\circ}\text{C}$  da qizdirib olish mumkin. Texnologik jarayon quyidagicha amalga oshiriladi.

Novolak fenol-formaldegid oligomerlarini sintez qilishda ishlati-ladigan, aralashirgichli reaktorga, yangi xaydab olingan furfurol va amin (7-30% furfurol massasidan) solinadi. Aralashma qaytargich sovutgichni ishlatilgan xolda qaynaguncha qizdiriladi va shu qaroratda 8-12 soat ushlab turiladi (reaktsiya muqitida bo`sh furfurol miqdori kamayishi boshlanguni-cha). So`ngra reaktsiya massasi qarorati  $160\text{-}180^{\circ}\text{C}$  da, engil uchuvchilar qaydab yuboriladi (uchib chiqayotgan buqlar qarorati  $110\text{-}115^{\circ}\text{C}$ ).

Reaktsiya natijasida to`q-jigarrang rangli, Ubellode bo`yicha tomchi tushish qarorati  $70\text{-}115^{\circ}\text{C}$ , molekula massasi  $500\text{-}1200$  bo`lgan oligomerlar qosil bo`ladi. Oligomerlar  $190\text{-}250^{\circ}\text{C}$  da katalizatorsiz yoki sulfokislota-lar ishtirokida qotadilar.

Press-materiallar olish uchun oligomerlar to`ldirgich bilan to`ldiriladi (kaolin, oq qurum va b.), unga surtiluvchi va katalizator qo`shilib,  $80\text{-}120^{\circ}\text{C}$  da valtslanadi, so`ngra maydanadi. Mo`rtligini kamaytirish maqsadida kauchuk bilan modifitsirlanadi (20% oligomer massasi-dan). Bunday press-materiallardan tayyorlangan buyumlar  $250^{\circ}\text{C}$  gacha qoniqarli darajada fizik-mexanik va dielektrikli xossalari ni saqlaydilar. Furfurolni polimerlari gruntalarni gidrobarqarorlovchi, shimiluvchi va quyish tarkiblarini tayyorlashda ishlatiladi.

## 2. furfurolatseton polimerlari

Furfurolatseton polimerlarining xom-ashyosi.

Furfurol ketonlar bilan reaktsiyaga kirishib polifunktional birikmalar - mono- va difurfurildenketonlar qosil qiladi. Furfuriłidenatseton asosidagi polimerlar keng amaliy aqamiyatga ega.

Mono- va difurfurildenatsetonlar, furfurol bilan atsetonni kuchsiz ishqoriy spirt yoki suv muqitida reaktsiyaga kirishishi natijasida qosil bo`ladi.

Sanoatda furfurolatseton polimerlarini olishda monomer FA va mo-nomer FAM lar ishlatiladi.

Monomer FA - ekvimol miqdordagi furfurol va atsetonni ishqoriy muqitda reaktsiyaga kiritib olinadi. Uning tarkibi quyidagicha (%):

Monofurfurilidenatseton	65-70
Difurfurilidenatseton	20-25
Oligomerlar	2-5
Suv	0,5-1,5
Furfurol	1,3 gacha
Atseton	1,0 gacha

Monomer FA ni rezol fenol-formaldegid oligomerlari olinadigan reaktorda sintez qilinadi. Reaktorga yangi xaydab olingan furfurol va atseton solinib, yaxshilab aralashtiriladi qamda qaytar sovutgich ishgà tushirilgach, katalizator - o`yuvchi natriyning suvdagi 20% li eritmasi quyiladi. Reaktsiya natijasidà katta miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Reaktsiya muqitida  $47-52^{\circ}\text{C}$  qaroratni ushlab turish maqsadida, reaktor qobiqiga soviq suv yuboriladi. Ýkzotermik jarayon tugagach, reaktsiya massasi, qobiqqa buq berish orqali  $86-96^{\circ}\text{C}$  gacha ko`tariladi va shu qaroratda 6 soat ushlab turiladi. So`ngra reaktsiya muqitè  $25-30^{\circ}\text{C}$  gacha sovitiladi va aralashtirib turib 30% li sulfat kislotosi yoki boshqa mineral kislota bilan neytrallanadi. So`ngra reaktsiya massasi sokin qolda ushlanadi va bunda u 2 qavatga ajraladi (FA monomeri cho`kadi, suv tepada yiqiladi). Tepada yiqilgan suv dekontatsiya qilib (quyib) olinadi. Reaktorda qolgan monomer FA 1,5-2 soat davomida aralashtirib turib yuqori qaroratda quritiladi. Tayyor monomer FA sovitilib, idishlarga quyib olinadi.

Monomer FA - to`q jigarrang rangli, atsetonda yaxshi eriydigan (suvda erimaydi) suyuqlik. Uning qaynash qarorati  $160-2400\text{S}$ , zichligi  $200\text{S}$  da  $1090 \text{ kg/m}^3$ ,  $170-1800\text{S}$  da katalizator ishtirokida (benzolsulfokislota) qotish te-zligi kami bilan 40 sek.

FAM monomeri 1,5 mol furfurol bilan 1 mol atsetondan, monomer FA ga o`xshatib olinali. Ammo FAM monomeri tarkibida difurfurilide-natseton miqdori (65%) monomer FA dagidan ancha ko`p bo`ladi.

FAM dan olingan to`rsimon polimer, xuddi shunday FA monomeridan olingan polimerga nisbatan yuqori issiqbardoshlik va kimyoviy chidamlili-kni namoyon etadi.

Sanoatda furfurolatseton oligomerlari quyidagi usulda olinadi.

FA monomeri, qaytar sovutgichli reaktorda qaynatiladi va qaynash 6-8 soat davom ettiriladi. So`ngra massani qarorati  $180-1900\text{S}$ , uchayotgan buqlar qarorati  $1100\text{S}$  gacha engil uchuvchi moddalar qaydaladi. Bu jarayon olingan oligomerni Ubellode bo`yicha tomchi tushish qarorati  $70-1100\text{C}$  bo`lguncha da-vom ettiriladi. Oligomer atsetonda yaxshi eriydi va yuqori qaroratda ( $280-3000\text{S}$  da 2-4 min.) katalizatorsiz va ionli katalizatorlar ishtirokida ( $2500\text{S}$  da 1% benzolsulfokislota bilan 5-7 min, 5% bilan 1-2 min.) qotadi.

Difurfurilidenatsetonni oligomeri, monomer difurfurilidenatse-tonni reaktorda, aralashtirib turib, to`qri savutgichni ishlash qolatida,  $190-2000\text{S}$  da, Ubbelode bo`yicha tomchi tushish qarorati  $95-110-1150\text{S}$  bo`lguncha qizdirib olinadi.

### 3. Furfuril polimerlarini ishlab chiqarish

Furfuril sperti asosida termoreaktiv oligomer olish (m: FL-2), fu-rfuril spirtini suv va malein angidridi ishtirokida polikondensatlash, neytrallash va quritish jarayonlaridan iborat.

Reaktorga 91 mass.qism furfuril sperti, 9 mass.qsm suv va 1,5 1 issiqliq suvda eritilgan 0,30-0,36 mass.qism malein angidridi solinadi. Reaktsiya muqitining rNi 2-3,5 da reaktorni xajmi ortgani sari reaktsiyani RN 3-3,5 da o`tkazish kerak, reaktordagi massa  $70-72^{\circ}\text{C}$  gacha qizdiriladi. qarorat reaktsiya issiqligi qisobiga  $98-100^{\circ}\text{C}$  gacha ko`tariladi va shu qaroratda, qaytar sovitgichni ishlatiá qo`yib, kerakli qovushqoqlikka ega oligomer olinguncha jarayon davom ettiriladi. Aralashma  $50-60^{\circ}\text{C}$  da 50% li o`yuvchi natriy yordamida neytrallanadi va sokin qolda saqlanadi. Tepada ajralgan suv dekontatsiyalab chiqarib tashlanganidan so`ng,  $80-87 \text{ kPa}$  vakuum va  $95-100^{\circ}\text{C}$  da oligomer quritiladi. FL-2 oligomeri reaktsiya uchun olingan furfuril sperti massasini 80-85% ini tashkil etadi.

Sovitilgan oligomer tiniq bo`lmay to`q-jigarrang rangda bo`ladi. U  $170-200^{\circ}\text{C}$  da neytral muqitda,  $120-140^{\circ}\text{C}$  da organik kislatalar (malein, shavel va b.),  $20-25^{\circ}\text{C}$  da sulfokislatalar, anilinni vodorod xloridli tuzi va boshqa katalizatorlar ishtirokida yaxshi qotadi.

SHuni ta`kidlash kerakki, furfurol asosida olingan oligomerlar neytral muqitda  $220-250^{\circ}\text{C}$  da uzoq vaqtida va kuchli kislatalar ishtirokida pastroq qaroratda to`rsimon polimer qosil qiladilar. Boshqacha

aytganda, furan oligomerlari ichida furfuri spiriti asosida olingan oligomerlar ancha past qaroratda nisbatan tez tikilgan qolga o`tish qobiliyatiga ega. Bu-ning asosiy sababi, bu oligomerlarni to`rsimon xolga o`tish reaktsiyalarini o`ziga xosligidadir. Toshkent politexnika instituti Kimyo-texnologiya faku-ltetida (qozirgi Toshkent kimyo-texnologiya instituti), Yuqori molekulali birikmalarini kamyoviy texnologiyasi kafedrasida ko`p yillar o`tkazilgan ishlar shuni ko`satdiki, furfuri oligomerlarini qotish reaktsiyalarini o`ziga qosligi, ularni kamyoviy tuzilishlari bilan boqliq. Yuqorida qayd qilinganidek, furan qalqalarini bir qismi o`zaro -CH<sub>2</sub>-O-CH<sub>2</sub>- dimetile-nefir boqlari bilan boqlangan. Bu boqlar aromatik yoki qossalari aromatik, qalqalarga o`xshash qalqalar orasida qosil bo`lganida, (furan xalqalari xam shunday xalqalar qatoriga kiradi) qarorat ta`sirida (140°C va undan yuqori) beqarorlik namoyon etib parchalanadilar.

Dimetilenefir boqlarini shu xossasiga asoslanib furfuri spiriti asosida olingan oligomerlarni, neytral muqitda (kislotali muqitda qam shu mexanizm saqlanib qoladi, faqtgina unda bir necha xil reaktsiya bir vaqtini o`zida ketishi mumkin), to`rsimon qolga o`tib, qotish reaktsiyalarini quyidagicha ko`rsatiø mumkin:

1) qarorat 140°C va undan yuqori bo`lganida dimetilenefir boqlari parchalanadi:

2) qosil bo`lgan bo`sh holdagi o`ta faol CH<sub>2</sub>O furan halqasining -vodorodlari bilan birikib yangi metilol guruhi qosil qiladi:

Metilol gruqi boshqa zanjirdagi furan qalqasining -vodorod bilan reaktsiyaga kirishib, ularni tikilishga olib keladi:

3) Yuqori qaroratlarda (200°C dan yuqorida), yoki kuchli kislotali (ion) katalizatorlar ishtirokida furan halqalarining qo`sh boqlarini polimerlanish reaktsiyalarini hisobiga zich tikilgan, to`rsimon polimerlar qosil bo`ladi:

4)

FL-2 oligomeri qatlam plastiklar olishda boqlovchi sifatida, elim, zamazkalar, to`ldirilgan buyumlar olishda ishlatiladi.

Furfuri spiritini formaldegid bilan kondensatlab olinadigan oligomerlar ham katta ahamiyatga ega.

Furfuri spiriti formaldegid bilan kislotali muqitda reaktsiyaga kirishishi natijasida birinchi bosqichda formaldegid furan qalqasidagi -vodorod bilan birikib metilol gruqi qosil qiladi.

Xosil bo`lgan dimetilofuran boshqa molekula dimetilofuran qamda furfuri spiriti bilan reaktsiyaga kirishishi natijasida quyidagi struktu-raga ega oligomerlar qosil bo`ladi.

Bu erda n>m bo`lib ushbu nisbiy reaktsiyaga olingan formaldegidni miqdori ortib borishi bilan ortadi va FS:FD nisbati 1:2 bo`lganida n>>m ga aylanadi

SHuningdek, metallarni quyish sanoatidagi sterjen va qoliplarni tayyorlashda keng ishlatiladigan karbamid-furan oligomerlari qam katta aqamiyatga ega.

Karbamid-furan oligomerlari, carbamid-foamaldegid oligomerlari-ni suvdagi eritmasi bilan furil spiriti aralashmasidan tashkil topgan. Bu oligomerlar, carbamidni foamaldegid bilan qosil qilgan boshlanqich reaktsiya maqsulotlarini (gidroksimetilkarbamidlar) furfuri spiriti bilan kondensatlab qam olinadi.

#### 4. Furan polimerlari asosida olinadigan plastik massalar

Furfurolni oligomerlarini boqlovchi sifatida ishlatib turli xil press-massalar olinadi.

Press-kukunlarni quyidagi texnologiya bo`yicha olish mumkin:

O`z tarkibida 5% (mass) katalizator-qotirgich (benzolsulfokislota yoki tsink xloridi) saqlagan 45 mass.qism furfurol oligomeridan, 53 mass.qism to`ldirgichdan (kaolin) va 2 mass.qism suriluvchi moddadan (kaltsiy stearati) tashkil topgan aralashma, soviq vali 80-90°C va issiq vali 110-120°C li

valtsda gomogenlanadi. Valtslangan material maydalanadi va furfurol oli-gomerini xiliga qarab 160-200°C da 20-60 min davomida ishlov beriladi. Tayyor press-kukun quyidagi sharoitlarda presslanadi:

Presslash qarorati, °C 180-200  
Bosim, MPa 30-40  
Bosim ostida ushslash vaqt, min/mm 1-2

Press-buyumlarni fizik-mexanik va dielektrik xossalarini yaxshilash maqsadida furfuri oligomerlaridan olinadigan press-materiallar tarki-biga turli xil kauchuklar, masalan, butadien-nitril (oligomer massasidan 10-20%) kauchuk qo'shiladi. Bunday press-materiallar quyidagicha olinadi. Avvaliga kauchuk valtslarda 20-60°C da 10-15 min davomida plastik qolga o'tkazib olinadi. So'ngra tarkibida 5% (mass.) benzolsulfokislotasi saqla-gan furfurol oligomeri solinadi va aralashma 20-30 min davomida 70-90°C da valtslanadi. SHu sharoitni o'zida to`ldirgich (kaolin, grafit, asbest va b.) qo'shib, 15-20 min valtslanadi va vulkanlovchi agent (oltingugurt, tiuram va b.), surtiluvchi modda (stearin kislotasi) qo'shib valtslash yana 10-15 min davom ettiriladi. Valtslangan kompozitsiya sovitiladi, kerakli kattalikkacha maydalanib, so'ngra 160-200°C da 20-60 min ushlab turilgach, yana sovitiladi.

Tarkibida kauchuk saqlovchi kompozitsiyalardan buyumlar kompression yoki quyma presslash usulida 190-200°C va 30-65 MPa bosimda qar bir mm qalinligi uchun 2-5 min ushlab turib olinadi.

## **5. Furfurol-atseton oligomerlari asosida olinadigan press-materiallar**

FA polimeri asosida turli mineral to`ldirgichlar bilan - shisha to-lalari, asbest, grafit, to`ldirilgan press-materiallar yuqori issiqbar-doshlikka, kimyoviy barqarorlikka va yaxshi mustaqamlilikka ega.

Turli to`ldirgichlar asosida olingan FA press-materiallarini qos-salari quyida keltirilgan:

SHisha tola-si Asbest Grafit				
Zichligi, kg/m <sup>3</sup> .....	1600-1700	1600-1650	1550-1580	
Buzilishsh kuchlanishi, MPa.....				
Siqilishda.....	134-178	87-119		
statik egilishda.....	153-170	28-40 29-34		
Brinell bo'yicha qattiqlik, MPa.....	362	266-319	120-190	
Zarbiy qavushqoqlik, kDj/m <sup>2</sup> .....		80-140 9-10,5	1,6-1,65	
Martens bo'yicha issiqbardoshlik, 0S....	300-320	280-290	280-290	
Solishtirma elektr qarshiligi.....				
sirtqi, Om.....	9,3 1011	8,2 1012	-	
qajmiy, om sm.....	2,1 1012	9,6 1012		
Dielektrik yo'qotishning tangens burchagi, 50 Gts da.....				
0,01-0,023				
0,03-0,06 -				
Ýlektr mustaqamligi, kV/mm.....	9,2-17,6	-	-	

## **Monomer FA asosida olinadigan plastbeton**

Plastbeton monomer FA (yoki FAM) asosida olinadigan, eng ko'p tarqalgan polimer materiali qisoblanadi. U 70-94% turli kattalikdagi mineral to`ldirgich, 6-30% FA monomeri va qotirish katalizatoridan (FA monomeri massasidan 10-20%) tashkil topgan kompozitsiya. Plastbeton qot-gan qolda juda yaxshi kimyoviy turqunlikka (faqat kuchli oksidlovchilar ta'siriga chidamsiz), yuqori mexanik mustaqamlilikka va qoniqarli dielek-trik xususiyatlarga ega bo'ladi.

To`ldirgichni xili va massaning tarkibiga qarab plastbeton suv va ki-myoviy ta'sirlarga chidamli material sifatida gidrotexnik qurilmalarda (plotinalardan suvni chiqib ketmasligini oldini olishda), er osti qu'rilmalarida (shaxtalarni mustaqamlashda), elektrolit vannalarini tayyor-lashda va b. ishlatiladi.

Plastbeton, tsementdan olinadigan betonga o'xhab quyidagicha olinadi. Beton aralashtirgè ãà mineral to`ldirgichlar solinib (masalan: qum, tosh va b.) yaxshilab aralashtiriladi, so'ngra to`ldirgich massasining 1-2% i miqdorida furfurol solinadi. Furfurolni massada aralashtirilganidan so'ng FA

monomeri qo'shib, bir xil massa qosil bo'lganicha aralashtiriladi. So'ngra 20-50% li katalizatorni eritmasi (benzolsuofokislanting atsetondagi eritmasi) solinadi.

qosil bo'lgan beton massasini kerakli erga solinadi yoki qoliplarga quyiladi. Yuzada massa tez qotadi. qoliplarda qotgan tayyor buyumlar chiqarib olinadi.

### **FA monomeridan olinadigan polimer zamazkalar (mastikalar)**

Monomer FA asosida olinadigan polimer zamazkalari yaxshilab may-dalangan to`ldirgichlar asosida - qum (faizol zamazkasi) yoki andezit uni asosida 3-10% uglegrafit unidan qo'shib (ferganit zamazkasi) olinadi. SHu-ning uchun zamazkalar plastbetonga nisbatan yuqori zinchlik, elastiklik, me-xanik mustaqamlilikka, korroziyaga chidamlilikka ega. Bunday polimer zamaz-kalari kimyo tsekslaridagi beton qurilish konstruktsiyalarini (fundament-larni, kolonnalarini, pollarni va b.) qimoyalashda, kimyoviy apparatlarni futerovkalashda (gidroliz apparatlari ichini), qamda kislotaga chidamli plitalarni terishda ishlataladi.

Ferganit zamazkasi quydagi andoza bo'yicha tayyorlanadi (mass.qism):

FA monomeri.....	27-29
Andezit uni.....	100
Uglegrafit kukuni.....	3-10
Benzolsulfokislota .....	7-7,2
Atseton.....	6-7,5

Ferganit-1 zamazkasi quydagicha tayyorlanadi. Aralashtirgichga to`ldirgichlar solib, yaxshilab aralashtiriladi, so'ngra FA monomeri soli-nadi. Monomer FA to`ldirgichlar bilan bir xil massa qosil qilguncha ara-lashtirish davom ettiriladi. SHunday qilib tayyorlab olingan massa uzoq vaqt plastikligini saqlab turadi. Ishlatishdan avval doimo aralashtirib turilib zamazkaga qotirgich benzolsulfokislanting atsetondagi eritmasi qo'shiladi. qotirgich qo'shilgan zamazka tezlikda aralashtirgichdan oliniá ishlatalishi kerak (tez ishlatilmasa qotib qoladi).

## **TAYANCH SO`ZLAR**

Furfurol, atseton, furfuri spirti, geksametilentetramin, furfuramid, furfurol asosidagi oligomerlar, furfurol - atseton birikmali, monofurfurilidenatseton, difurfurilidenatseton, monomer FA, monomer FAM, monomer FA ni oligomerlanishi, furfuri formaldegid oligomerlari, polimer beton va polimer zamazkalar, kimyoviy ta'sirlar.

## **QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR**

1. Furan birikmali qanday xom-ashyodan olinadiq
2. Furfurolni o'zidan oligomer olib bo'lmaslik sabablarini tushun-tiring.
3. Furfurol oligomerlari qanday qo'shimchalar ishtirokida qosil bo'ladi va ularni qosil bo'lishida nimalarga aqamiyat berish kerakligini tushuntiring.
4. Mono- va difurfurilidenatsetonlar qanday reaksiyalar natijasida qosil bo`ladilarq
5. FA monomeri FAM monomeridan nimalar bilan farqlanishini tushuntiring.
6. FA monomeri asosida oligomer olish texnologik jarayoni.
7. Furfuri spirtini gomopolikondensatlanishi natijasida qanday oligomer qosil bo'lishinè tushuntiring.
8. Furfuri - formaldegid oligomerlarini ishlab chiqarish texnologik jarayoni.
9. Furfuri oligomerlari asosida plastik massalar, ularni qossa-lari va ishlatalishi.
10. FA monomeri va uning oligomeridan olinadigan plastik massalar va ularni qossalari.
11. Furfuri spirti asosidagi oligomerlardan olinadigan plastik massalar.

## **ADABIYOTLAR**

- 1.Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.422-435
2. Magrupov F.A. , Furan polimerlari kimyosi va texnologiyasining o'ziga xos qususiyatlari,, ToshKTI nashriyoti, 2007 y.

## TARKIBIDA ORGANIK VA NOORGANIK ELEMENTLAR SAQLAGAN POLIMERLAR

Bu sinf polimerlariga, asosiy zanjirida kremniy, alyuminiy, titan, qo`rqoshin, bor, fosfor va boshqa elementlarni saqlovchi polimerlar kiradi. Bu polimerlar ichida amaliy aqamiyatga ega bo`lganlari asosan kremniyorganik polimerlari qisoblanadi.

Yuqori qarorat va issiqbardoshlik, dielektrik xususiyatlar, suv va atmosfera ta`siriga chidamlilik kremniyorganik polimerlarini ko`plab soqalarda ishlatalishga olib keldi. Ular elektr texnikasida, radiotexnikada, aviatsiyada, rezina ishlab chiqarishda, metallurgiyada, tekstil, ko`mir va boshqa sanoat korxonalarida, meditsinada ko`plab ishlataladi.

### KREMNIYORGANIK POLIMERLAR (POLIORGANOSILOKSANLAR)


Poliorganosilosanlar - asosiy zanjiri navbatma-navbat keladigan kremniy (organik radikallar bilan birikkan) va kislород atomlaridan tashkil topgan polimerlardir.

Poliorganosilosanlarni sintez qilishning o`ziga qosliligi

Poliorganosilosanlarni, monomerlarni gidroliz yoki sogidroliz qilish natijasida qosil bo`lgan moddalarni polikondensatlab qamda polimerlab olinadi.

Kremniyorganik monomerlar gidrolizi.

Alkil (aril) xlorsilanlar va ortokremniy kislotosining efirlari suv bilan ta`sirlanishi natijasida gidrolizlanib, turqun bo`lmanak alkil (aril) silanollar qosil qiladi:



qosil bo`lgan silanollarning o`ta reaksiyon faolligi tufayli, ular tez polikondensatlanish reaksiyasi à uchrab, polisilosanlarga aylanadilar. Reaksiya tezligi kislotalar ishtirokida qamda qaroratni ko`tarilishi natijasida ortadi. qosil bo`lgan moddalarni tarkib va qossalari reaksiya uchun olingan suv miqdoriga boqliq.

Monofunktional birikmalar kislotalar ishtirokida geksoalkil (gek-soaril) disilosanlarga aylanadi:



Geksaalkil (geksaaril) disilosanlarni o`zi amaliy aqamiyatga ega emas, ammo monofunktional birikmalardan ozginasini bi- va uch funktsiyalardan birikmalarga qo`shish, berilgan tarkibili polimerlarni olish imkonini beradi.

Bifunktional birikmalardan chiziqli polimerlardan tashqari 40-45% cha tsiklik oligomerlar qosil bo`ladi. Bu oligomerlarni polimerlanish darajasi  $n=3-9$  bo`lib ( $R_2Si=O$ ) $n$ , ular polimerlanish natijasida polimer-larga aylanadi.

Bifunktional alkil (aril) xlorsilanlarni gidrolizga uchrashi nati-jasida qosil bo`lgan birikmalarning polikonlensatlanish reaksiyasi turli mexanizmlar bo`yicha amalga oshadi.

Suv kamroq olinsa, zanjirning o`sishi bosqichli geterofunktional polikondensatlanish mexanizmi bo`yicha amalga oshadi.

Ortiqcha suv ishtirokida qosil bo`lgan silikonlar bosqichli polikon-densatlanish mexanizmi bo`yicha polimer qosil qilishi yoki silandiollar qosil qilgunicha to`la gidrolizlanishi mumkin. qosil bo`lgan

silandiollar-ni turqunligi past bo`lganidan, ular bosqichli molekulalararo polikonden-satlanish reaktsiyasiga uchrab zanjir oxirida gidroksil guruqli chiziqli po-limerlar (1) yoki molekulani o`zini kondensatlanishi natijasida tsikllik birikmalar (2) qosil qiladi. Bunda odatda asosan turqun sakkiz a`zoli tsikllar qosil bo`ladi:

Uch funksionalli alkil (aril) xlorsilanlar gidrolizlanganda ancha murakkab tuzilishga ega bo`lgan birikmalar qosil bo`ladi. Ular asosan erimaydigan va suyuqlanmaydigan polimerlar bo`lib, ularning umumiy brutto-formulasи quyidagicha ( $\text{RsiO}_1,5\text{n}$ ).

Bi- va uchfunktsionalli moddalar aralashmasi gidrolizga uchraganida va qosil bo`lgan birikmalarni polikondensatlanishi natijasida tarmoqlangan tsikl-chiziqli (narvonli) va tsiklli birikmalar qosil bo`ladi.

Kremniyorganik monomerlarni gidrolizlanishi muqitni  $\text{rN}$  iga, erituvchining tabiatи va qutbliligiga, qamda kremniy bilan birikkan organik radikallarni tuzilishi va katta-kichikligiga boqliq.

Bifunksional moddalar kislotali muqitda gidrolizlanganida, asosan past molekulali tsiklli birikmalar (oligomerlar) qosil bo`ladi. Neytral yoki kuchsiz ishqoriy muqitda asosan chiziqli polimerlar qosil bo`ladi.

Gidroliz jarayoniga erituvchi katta ta`sir ko`rsatadi. Inert erituvchi-larda bifunksionil monomerlar (ayniqsa suyultirilgan eritmalar) to`la gidrolizlanganda faqat tsiklli birikmalar qosil bo`ladi.

Faol erituvchilar (spirtlar), bir qism gidroksil guruqlarini berki-tishi natijasida, muvozanat chiziqli birikmalar qosil bo`lishi tarafiga suriladi.

Radikallarni kattalashishi bilan va ularni tarmoqlanganligi ortishi bilan gidroliz qamda polimer qosil bo`lish reaktsiyalari sekinlashadi. Tsikllar qosil qilishga organik radikallarni kattalashishi (m: fenil radi-kali) qam ijobiy ta`sir etadi.

#### Kremniyorganik monomerlarni birgalikda gidrolizlanishi

Poliorganosilosanlarni sintez qilishda turli funksionallikka va organik radikallarga ega monomerlarni birgalikda gidroliz qilish usuli keng qo`llaniladi.

Birgalikda gidroliz qilish, makromolekulasiga tsiklli qalqalar tush-gan termoreaktiv poliorganosilosanlar olishda keng ishlatiladi:

Katalizatorlar ishtirokida qizdirilganda bunday polimerlar erimaydigan va suyuqlanmaydigan qolga o`tadilar. SHuning uchun qam ulardan asosan turli maqsadlarda ishlatiladigan loklar olishda va plastmassalar ishlab chiqarishda boqlovchi sifatida foydalaniladi.

#### Gidrolizlanish natijasida qosil bo`lgan tsiklli moddalarni po-limerlanishè

Organosilosanlarni polimerlash, katalizatorlar - kuchli kislota yoki ishqorlar ishtirokida olib boriladi. Jarayon ionli mexanizm bo`yicha amalga oshadi. Tsiklli organosilosanlarni katalitik polimerlab, o`rtacha molekula massasi 500000 dan 1000000 gacha, aloqida qollarda 3000000 gacha bo`lgan polimerlar olinadi.

#### Kremniyorganik oligomerlarni polikondensatlanishi

Bu usul bilan termoreaktiv poliorganosilosanlar olinadi.

Polimerni asosiy zanjiriga dimetilsilos-, dietilsilos- yoki metilfenilsilos bifunksional qalqalarini kiritib, tsikl-chiziqli ela-stik polimerlar qosil qilinadi.

Tsikl-chiziqli va tarmoqlangan tuzilishli polimerlar, organik radi-kallarni kremniy atomiga nisbati ( $\text{R:Si}$ ) 1,0-1,6 bo`lganida olinadi.

Kremniyorganik oligomerlar polikondensatlanganida tsikllarni po-limerlanish reaktsiyasi qam ketadi. Tsikllarni ochilishi katalizatorlar ta`sirida yoki katalizatorlarsiz qaroratni oshirish natijasida amalga oshadi:

Tarmoqlangan va narvonli (tsikl-chiziqli) tuzilishga ega poliorganosilosanlar, bi- va uchfunktsionallè kremniyorganik birikmalarni gidrolitik polikondensatlanishi natijasida qosil bo`ladi. Uchfunktsionallè kremniyorganik monomerlar asosida quyidagi tuzilishda-gi polimerlar qosil bo`ladi.

Sanoatda bunday poliorganosilosanlar organoxlorsilanlarni gidrolizlab yoki birga gidrolizlab va qosil bo`lgan moddalarni polikondensatlab olinadi.

Poliorganosilosanlarni ishlab chiqarish

Polimetil ( ) - va polidimetilfenilsilosanlar ( ).  
organoxlorsilosanlarni birgalikda gidrolizlab, qosil bo`lgan modalarni polikondensatlab olinadi:

Sanoatda bifunksional monomerlar - dimetilxlorsilan yoki metil-fenildixlorsilan, qamda uchfunktsionalli monomerlar - metiluchxlorsilan, feniluchxlorsilanlar ishlatalidi.

Polimetilfenil- va polidimetilfenilsilosan loklari uzlukli va uzlusiz usullarda olinishi mumkin. Ushbu polimerlarni uzlusiz usulda olish texnologiyasi, birgalikda gidrolizlash va qosil bo`lgan birikmalarni polikondensatlash bosqichlaridan iborat (rasm 28)

Organoxlorsilanlar aralashmasining toluoldagi eritmasi 1-chi o`lchagich -uzatgichdan, oqimli aralashtirgich (3) ga solinadi. Aralashtirgichga aniq miqdorda suv qam beriladi. Komponentlarni miqdori rotametrler yordamida nazorat qilinadi. Aralashtirgich kamerasida birgalikdagi gidroliz amalga oshiriladi. Birgalikdagi gidrolizni tugallash maqsadida massa 4-chi kolonnaga uzatiladi. Massa kolonnadan 5-chi florentiya idishiga quyiladi va bu erda birgalikda gidrolizlanishdan qosil bo`lgan maqsulotlar bilan vodorod xlorid kislotasi qavatlarga ajraladi. Kislota neytrallanib oqava suvlar sistemasiga quyiladi, gidroliz maqsulotlari esa ikki bosqichda, konstruktsiyalari oqimli aralashtirgichga o`xhash 6chi va 8chi-yuvgichlarda suv bilan rN=5-6 gacha yuviladi. So`ngra gidroliz maqsulotlari suvdan 7chi va 9chi-florentiya idishlarida ajratilgach 10-idishga solinadi.

**Rasm-28 Polimetilfenilsilosan va polidimetilfenilsilosan loklarini uzlusiz usulda ishlab chiqariø jarayonining sxemasi:** 1-o`lchagich; 2-polikondensatlanish apparati; 3-oqimli aralashtirgich; 4-kolonna; 5,7,9-florentiya idishi; 6,8-yuvish idishi; 10-oraliq idishi; 11-aralashtirgich; 12-qaydash kubi.

Yuvilgan gidroliz maqsulotlari 10chi-idishdan 12chi-kubga uzatiladi va bu erda erituvchini bir qismi qaydaladi. Modifitsirlangan poliorganosilosan loklarini olishda, gidroliz maqsulotlari avvaliga 11chi-apparatda poliefir yoki epoksid pligomerlari bilan aralashtirib, so`ngra 12chi-kubga yo`naltiriladi. Kubdan gidroliz maqsulotlari uch bo`limli 2chi-apparatga tushadi. Birinchi bo`limda erituvchi qaydaladi va qisman polikondensatlanish boshlanadi, ikkinchi bo`limda 125-1800S da (lokning xiliga qarab) polikondensatlanish davom etadi va uchinchi bo`limda berilgan kontsentratsiyali lok olish uchun polimer erituvchida eritiladi (etiltsellozolv).

Apparat (2) uchta bo`limga ko`ndalang to`sqliar bilan ajratilgan. qar bir bo`lim umumiy valga biriktirilgan yakor ko`rinishidagi aralashtirgich va buq qobiqi bilan jiqozlangan. Suyuqlik bir bo`limdan ikkinchisiga ichki quvurlar orqali quyiladi. Kolonnani shunday konstruktsiyasi gel qosil qilmasdan uzlusiz polikondensatlanishni ta`minlab beradi. Texnologik jiqozlar kaskad ko`rinishida joylashtirilgan va shuning uchun asosiy birikma o`z-o`zidan oqib keyingi idishga tushadi.

Poliorganosilosanlar asosida plastik massalar ishlab chiqarish

Press-kukunlar

Kremniyorganik press-kukunlar maydalangan mineral va organik (slyuda, kvarts unlari, ftoroplast) to`ldrgichlar qo`shib olinadi. Press-kukunlar valts usulida ishlab chiqariladi (.....varaqa qarang). Bu usul ancha oddiy, arzon va xossalari qaytariluvchi bir xil tarkibli buyumlar olish imkonini beradi. Valtslashda qaroratni shunday tanlash kerakki, bunda ja-rayon 10-15 minutda tugallanishi, qamda issiq va sovuq vallarni qarorati farqi 10-150S ni tashkil etishi kerak.

Kremniyorganik press-kukunlar engil qayta ishlanadi, chunki ular yaxshi oquvchanlikka va plastiklik xususiyatlariga ega. Ulardan elektr- va radiotexnikada ishlatiladigan buyumlar - mikroo`chiruvchilað, kondensator-lar korpusi, qarshiliklar qobiqi ishlab chiqariladi. Kvarts unidan olingan presszkukunlar diodlar va tranzistorlarni presslab ulashda ishlatiladi. Ushbu press-kukunlardan olingan buyumlar 250-3000S qaroratda 1000 soat-dan ortiq, 4000S qaroratda qisqa vaqt qossalariini sezilarli darajada pasaytirmsdan saqlab turadilar. Undan tashqri ushbu buyumlar yuqori namlik ta`sirida qam o`zlarini dielektrikli xossalariini va mexanik mustaqkam-ligini saqlab turadi. Poliorganosilosan oligomeri va kvarts asosidagi press-kukundan olingan buyumlarni cho`zilishdagi, siqilishdagi va egilish-dagi bo`linish kuchlanishi mos ravishda 24,5; 117,7 va 58,9 MPa ga teng.

Kremniyorganik press-kukunlardan buyumlar asosan to`qli va quyib presslash usulida olinadi.

#### Voloknitlar

Kremniyorganik press-materiallar olishda tolali to`ldirgichlar si-fatida asbest, shisha, kremnezem va kvarts tolalari ishlatiladi. Asbest bi-lan to`ldirilgan press-materiallar yuqori qaroratbardoshlikka ega; ammo ular nisbatan suv ta`siriga chidamsiz va past dielektrikli xossalarga ega. SHisha, kremnezem va kvarts tolalarini ishlatish poliorganosilosanlarni asosidagi press-materiallarni mexanik va dielektrik xossalariini tubdan yaxshilashga olib keladi. Undan tashqari suyuqlanish qaroratini va suyuqlanma qovushqoqligini yuqoriligi kremnezem va kvarts tolalari asosi-dagi press-materiallarni yuqori qaroratlarda eroziyaga chidamlilagini oshiradi.

Kremniyorganik voloknitlardan elektr va radio texnikasida, keng qarorat chegarasida (uzoq - 60 dan 300-4000S gacha, qisqa vaqt 2000-3000S gacha) ishlatilishi mumkin buyumlar olinadi. Kremniyorganik press-materiallarning ayrim xillari o`ta yuqori elektr yoyi ta`siriga chidamlik bo`lganlaridan, ular asosida kuchli elektr yoylari va elektr uchqun razryadlari qosil bo`lish sharoitlarida ishlatiladigan buyumlar olinadi.

#### Shishatekstolitlar.

Kremniyorganik shisha tekstolitlar termoreaktiv poliorganosilok-sanlar va shisha matolari asosida olinadi.

SHishatekstolitni olish texnologiyasi shisha matosini tayyorlash (yoqlovchi moddalardan tozalash), uni kremniyorganik polimer eritmasi bi-lan shimdirish, quritish, paket yiqish, presslash va tayyor maqsulotni press-dan keyin qarorat ta`sirida ushslash jarayonlaridan iborat.

SHisha matosi vertikal yoki gorizontal shimdirish-quritish jiqozlarida 50-60% li kremniyorganik loki bilan shimdiriladi. Tarkibida 40% gacha polimer saqlagan quritilgan matoni kerakli kattalikda qirqilib, ulardan paket yiqiladi va ko`p qavatli presslarda 160-2000S qarorat qamda 6,9 MPa bosimda presslanadi. Ayrim xollarda presslashdan oldin shimdirilgan matolarni 1100S da 5-10 min davomida qizdirib olinadi.

Presslash vaqtি bir necha minutlardan, bir necha soatlarga bo`lib, ushbu vaqt oligomerni xossalari va presslanayotgan paketning qalinligiga boqliq. qotgan shishatekstolit presslash qaroratida chiqarib olinadi.

## TAYANCH SO`ZLAR

Kremniy organik birikmalar, gilroliz, polimerlanish, polikondensatlanish, birgalikda gidrolizlanish, metil-, dimetilfenilseloksanlar, press kukunlar, voloknitlar, shishaplastiklar, xaroratbardoshlimk, yuqori mustaxkamlik.

## QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Poliorganosilosanlar deb qanday polimerlarga aytamizq
2. Kremniy organik monomerlar necha bosqichda polimerga aylanadilarq
3. Kremniy organik monomerlarni gidrolizlanish reaksiyalarini tushuntiring.
4. Kremniy organik oligomerlar va ularni polimerga aylanish reak-tsiyalari, sharoitlari.
5. Poliorganosilosanlarni ishlab chiqarish texnologik jarayoni.
6. Poliorganosilosanlarni xossalari va ular asosida olinadigan plastik massalar.

7. Kremniyorganik press kukun , voloknit va shishaplastiklarni ish-lab chiqarish texnologik jarayonlari.

8. Kremniyorganik plastmassalarni xossalari va ishlatilishi.

### ADABIYOTLAR

1.Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.435-451.

2. Andrianov K.A., Xananashvili L.M., Texnologiya elementoorganicheskix monomerov i polimerov., M., Ximiya., 1983 g. 416 s.

## MA`RUZA - 20

### POLIVINIL SPIRTI VA UNING ASOSIDA OLINADIGAN POLIVINILATSETALLAR

Polivinil spirti o`z monomeridan sintez qilib bo`lmaydigan birdan bir sintetik polimer bo`lib, uni polivinilatsetatdan gidroliz usulida olinadi. Buning sababi vinil spirtini o`ta beqarorligi bo`lib, u qosil bo`lish jarayonida boshqa moddalarga aylanib ketadi.


#### POLIVINIL SPIRTI

Polivinil spirti boshqa polimerlarga o`xshab o`z monomerini polimerlab olinmasdan, balki polimeranologik o`zgarishlar orqali, ya`ni uning murakkab efirlarini sovunlab olinadi.

Polivinil spirti polivinilatsetatni alifatik spirtlar muqitida va anorganik asos yoki kislotalar ishtirokida sovunlab olinadi. Asoslarning gidroksil ionlari qamda kislotalarning vodorod ionlari sovunlanishga katalitik ta`sir ko`rsatadi.


Polivinilatsetatni suvsiz spirt muqitida, ishqor ishtirokida sovunlash keng tarqalgan usullardan hisoblanadi (polivinilatsetatni katalitik alkogolizi).

Sovunlanish tezligi reaktsiya muhcitida suv bo`lganda ancha sekinlashadi. Ishqor ishtirokida sovunlash quyidagicha amalga oshiriladi:



Bu holda ishqor faqat katalizatorlik qilmasdan, reagent sifatida ham qatnashadi.

Kislota ishtirokidagi sovunlash, odatda etanol muqitida olib bori-ladi. Ishqoriy sovunlanishdan farqli, mineral kislota reaktsiyada faqat-gina katalizator bo`lib qatnashadi.



Odatda polivinilatsetatni organik erituvchidagi eritmasi (loki) ishqor yoki kislotaling spirtdag eritmasi bilan sovunlanadi. Sovunlanish darajasi reaktsiya sharoitlarini o`zgartirish yordamida rostlanadi.

To`la sovunlanish uchun iishqorning nazariy miqdorini 2%igina etarli. Polivinilatsetatni metanoldagi eritmasi o`yuvchi natriyning suvsiz metanoldagi eritmasining ozgina miqdori bilan (0,2-0,4%) ishlanadi, chunki ishqorni (kislotani qam) ortiqcha qismi polimerni yuvib tozalashni qamda polivinil spirtini barqarorligini qiyinlashtiradi.

Ishqor ishtirokida sovunlashda aloqida qolatlarda ozgina suv saqlovchi metanol ishlatiladi. Bunday qollarda alkogoliz va gidroliz reaktsiyalari bir vaqtida ketishi mumkin.

Polivinil spirtini ishqor ishtirokida sovunlab olish

Sanoatda polivinilatsetatni sovunlash o`yuvchi natriy yoki kaliyni metanoldagi eritmasi yordamida amalga oshiriladi. Jarayon uzlukli yoki uzlucksiz usullarda o`tkazilishi mumkin.

Polivinil spirtini birlashtirilgan texnologik jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat: polivinilatsetatni (PVA) olish va polivinil spirtini (PVS) olish (ishqorni metanoldagi eritmasini tayyorlash, polivinilatsetatni sovunlash, PVSni siqib olish, quritish va elakdan o`tkazish).

Uzlukli usulda polivinil spirtini olish texnologiyasi 29 chi rasmida keltirilgan.

Vinilatsetat va metanol 1chi- va 2chi-saqlagichlardan, 3 chi- va 4chi-oqirlik bo`yicha o`lchagichlað qamda 5chi- va 6chi-filtrlar orqali 7chi-polimerlovchi-reaktorga tushiriladi. SHu reaktorga 8chi-oqrlik bo`yicha o`lchagich orqali poroforni metanoldagi eritmasi qam solinadi. Reaktor isitish va sovitish qobiqi, yakor-kurak ko`rinishidagi aralashtirgich va qaytar sovitgich (9) bilan jiqozlangan. Polimerlanish 52-540S da, mo-nomerlar konversiyasi 96-98% bo`lganicha 30-35 soat davom etadi.

quyida reaktorga solinadigan komponentlarni miqdorlari keltirilgan (mass.qism):

Vinilatsetat 100

Metanol 70

Porofor 0,15

Polimerlanish tugaganidan so`ng reaktorga polivinilatsetatni 28-33% li eritma-sini olishga etadigan metanol solinadi. Sovitilan polivinilatsetat loki 10chi-apparatga sovunlash uchun o`tkaziladi.

PVA ishqorni metanoldagi 4-5% li eritmasi yordamida sovunlanadi. Ishqor erit-masi 11chi-apparatda, xona qaroratida, metanolda quruq o`yuvchi natriyni eritib tayyorla-nadi. Apparat (10) dagi PVA lokiga vanna moduli 1:3,7 bo`lganicha metanol qo`shib suyul-tiriladi va 11chi-apparatdan 12chi-o`lchagè÷ orqali bo`lak-bo`lak qilib bir necha marotaba o`yuvchi natriyni metanolli eritmasi qo`shiladi. Sovunlovchi apparat tsilindr ko`rinishida bo`lib zanglamaydigan po`latdan yasalgan, qajmi 20-30 m<sup>3</sup>, yakor-kurak ko`rinishidagi minutiga 60 marotaba aylanadigan aralashtirgich, qobiq va sovitgich 13 bilan jiqozlangan.

Sovunlovchiga solinadigan komponentlar miqdori quyidagicha (mass.qism):

Polivinilatsetat 60

Metanol 222

O`yuvchi natriy 0,15-0,20

Sovunlash vaqt 40-500S da 3-5 soat. Polivinilatsetatni sovunlash atsetat guruq-larini miqdori 2-3% qolgunicha olib boriladi. qosil bo`lgan polivinil spirti meta-noldan 14chi- tsentrifugada ajratilgach, 15chi-vakuum-quritgichda 40-520Sda 4% engil uchuvchilar qolgunicha quritiladi.

PVS to`qridan-to`qli polivinilatsetallar olish uchun ishlatiladigan bo`lsa, PVSning metanoldagi suspenziyasi 700Sgacha qizdirilib 13chi-sovitgich to`qli qolatga o`tkaziladi va metanol qaydab olinib regenirlash uzatiladi. Metanolni qaydab bo`linganidan so`ng 10chi-apparatga tuzsizlantirilgan suv PVSini eritish uchun solinadi (vanna moduli 1:10 bo`lganicha). PVSi suvda 65-700S qaroratda eritiladi. qosil bo`lgan PVSning suvdagi 10%li eritmasi polivinilatsetallar olish uchun jo`natiladi.

Polivinil spirtini uzlusiz usulda olish texnologiyasi 30 chi rasmida keltirilgan.

25% polivinilatsetat va 75% metanol saqlagan lok polimerlanish tugaganidan so`ng isitgich orqali 50-550Sda uzlusiz ravishda 1chi-nasos yordamida 2chi-sovunlovchi apparatga uzatiladi. SHu apparatga 3chi-aralashtirgichdan uzlusiz ravishda tarkibida 91,3% metanol, 2,6% o`yuvchi natriy, 6,1% suv saqlovchi suv-metanolli aralashma qam uzatib turiladi.

PVA bo`yicha vanna moduli 1:3,5, PVS bo`yicha esa 1:7,7 ni tashkil etadi.

Polivinilatsetatni polivinil spirtigacha sovunlanishi 50-600Sda 1-2 minutda amalga oshadi. Polivinil spirtining dispersiyasi uzlusiz ravishda 5chi-maydalagichga, u erdan shnekli siuvuchi 6chi-apparatga tushib turadi. SHnekli siuvuchida suyuqlik siqib shnek ariqchalari orqali 12chi-filtrga uzatiladi.

Siqilgan PVS pichoqli 7chi-maydalagichga uzlusiz uzatib turiladi. Maydalagich-dan 50-60% uchuvchे saqlovchi PVSi 8chi-shnekli transporter yordamida 9-bunkerga, u erdan esa 10chi-quritish agregatiga (2 ta uzlusiz ishlovchi vakuum quritgichlari) uzatiladi. Ikkinci quritgichdan chiqayotgan PVSi 3-6% engil uchuvchilar saqlaydi. qosil bo`lgan PVS briketlashga yoki vinol tolasi olish uchun uzatiladi.

Metanolni va metilatsetatni buqlari birinchi quritish aggregatidan 11chi-to`qri sovitgichda kondensirlanib regenirlashga jo`natiladi. SHnekli siuvuchi (6) dan 12chi-filtrga kelib tushgan suyuqlikdagi az miqdordagi PVSini ajratib olib quyuq qoldagi aralashmasi yana 6chi-siuvchiga uzatilää. Filtrdan suyuqlik 13chi-idishga u erdan rege-nirlashga uzatiladi. SHu yo`l bilan yana 0,005 kg/kg PVS ajratib olinadi.

### Polivinil spirtini xossalari va ishlatalishi.

Polivinil spirti (PVS) qattiq qolatda, uni sovunlash sharoitiga, qamda tarkibidagi qoldiq atsetat gruqi miqdoriga qarab, oq rangli kukun yoki paxtasimon ko`rinishdagi modda. Toza PVS qidsiz va mazasiz bo`lib, fi-ziologik nuqtai nazardan zararsiz modda. Polivinil spirti kristal poli-mer bo`lib, uni amorf qolda olinmagan.

Polivinil spirtini eruvchanligi atsetat gruqlari miqdoriga boqliq bo`lib, uning tarkibida 5-10% atsetat gruqi bo`lganida PVS suvda yaxshi eriydi.

Polivinil spirti eterifikatsiyalanish reaktsiyasida qatnashib oddiy va murakkab poliefirlar, aldegidlar bilan kondensatlanish reaktsiyasida qatnashib polivinilatsetallar qosil qiladi. Polivinil spirti moy va yoq, uglevodorodlar qamda ko`pgina organik erituvchilar ta`siriga chidamli.

Polivinil spirti odatda plastifikatsiyalangan qolda ishlataladi. Undan teri va kauchukka o`xhash buyumlar, benzin ta`siriga chidamli shlanga-lar, pardalar, tolalar, elimlar ishlab chiqariladi.

Turli polimerlarni suspenziya usulida olishda PVS i barqarorlovchi sifatida ishlataladi.

Poivinil spirtining ko`plab miqdori turli qil polivinilatsetal polimerlarini ishlab chiqarishda qo`llaniladi.

## POLIVINILATSETALLAR

Polivinilatsetallar texnikada katta aqamiyatga ega PVS ning eng aso-siy qosilalaridan qisoblanadi. Ularni polimeranologik o`zgarish reaktsiya-lari yordamida olinadi. Buning uchun polivinil spirti karbonil birikma-lar - asosan aldegidlar (formaldegid, atsetaldegid, yoq aldegi) bilan kon-densatsiyagà uchratiladi.

Atsetallash reaktsiyasi reaktsiya muqitini aralashtirib turib, mineral kislotalar yoki alyuminiy, qo`rqoshinni xloridlari ishtirokida o`tkaziladi.

## POLIVINILATSETALLARNI ISHLAB CHIQARISH

Texnikada polivinilatsetallar to`qridan-to`qri polivinilatsetatdan bir bosqichli usulda (gomogen jarayon) va ikki bosqichli usulda (geterogen jarayon) olinadi.

### POLIVINILFORMAL

Polivinilformal texnikada bir va ikki bosqichli usullarda olinadi.

Bir bosqichli usulda, polivinilatsetatni sirkal kislotasidagi 15-20% li eritmasi tayyorlanib, unga 2-3% sulfat kislotasi va ozgina suv qo`shiladi. Undan so`ng formaldegid formalin yoki paraform ko`rinishidä (PVS ining 1 moliga 1 mol) solinadi. Jarayon 60-750S da o`tkaziladi. Reaktsiya tugagach sekin-asta sirkal kislotasining kontsentratsiyasi 50% bo`lguncha suv qo`shiladi. Polivinilformal mayda kukun ko`rinishida cho`kmaga tushadi. Polimer ajratib olinadi va 3% qoldiq uchuvchi qolgunicha quritiladi.

Ikki bosqichli usulda reaktorga PVS ning suvdagi 4-10% li eritmasi solinadi, so`ngra katalizator - 0,05-0,25% xlorid kislotasi yoki 35-70% (PVS iga nisbatan qisoblanganda) neft sulfokislotalari (Petrov kontakti) kiritiladi. Reaktsiya muqiti xlorid kislotasi ishtirokida aralashtirib turib 65-700S gacha, neft sulfokislotalari ishtirokida 90-950S gacha qizdiriladi.

Polivinilformal oq kukun ko`rinishida bo`lib, uning zichligi 1240 kg/m<sup>3</sup> ga teng. Uning Martens bo`yicha issiqbardoshligi 90-950S ga Vik bo`yicha esa 115-1200S ga teng. Polivinilformalni atsetallanish darajasi odatda 68-72% ni tashkil etadi.

U nisbatan kam erituvchilarda: chumoli, sirka kislotalarida, dioksanda, piridinda, fenollarda, furfurola va xlorlangan uglevodorodlarda eriydi.

Polivinilformal elektr izolyatsiyasida ishlatiladigan lok, elim, emal va ko`pik plastiklar olishda ishlatiladi.

## POLIVINILBUTIRAL

Polivinilbutiral polivinil spirtini yoq aldegidi bilan kondensatsiyalab olinadi. Po-livinilbutiralni ikki bosqichli usulda ishlab chiqarish texnologiyasi 31chi rasmida keltirilgan. Texnologik jarayon PVS ni suvda eritish, PVS ni atsetallah, qosil bo`lgan polimerni siqib olish, PVB ni yuvish, PVB ni barqarorlash, tsentrifugadà qamda quritgichda PVB dan namlikni yo`qotish va PVB ni qadoqlashdan iborat.

Aralashtirib turib 1chi-apparatga polivinil spirti va suv solib, qarorat 50-600S gacha ko`tariladi va vanna moduli 1:10 da 5-6 soat davomida eritiladi. qosil bo`lgan PVS ning eritmasini sovitiladi va 2chi-aralashtirgichga uzatiladi. Bu erda u xlorid kislotasi bilan aralashtiriladi. Atsetallah aralashtirgich va sovitish-isitish qobiqi bilan jiqozlangan, emallangan apparatlar kaskadi (3), (5), (6) da amalga oshiriladi. Atsetallovchi 3chi-apparatga 4chi-idishdan yoq aldegidi 2chi-aralashtirgichdan PVS ining eritmasi uzlksiz tushirib turiladi.

qisman atsetallangan polimer suspenziyasi o`zi oqib 5chi-apparatga tushadi va bu erda unga qo`shimchà yoq aldegidi qo`shiladi. SHu yo`sinda atsetallanish davom etib 6chi-apparatda tugallanadi.

quyida atsetallah apparatlariga solinadigan komponentlarni miqdorlari kel-tirilgan (mass.qism):

Polivinil spirti 100

Deminerallangan suv 925

Yoq aldegidi 60

Xlorid kislotasi, 37%-li 15

Atsetallah qarorati birinchi atsetallah apparatida 11-130S bo`lib, sekin-asta uchinchi atsetallàø apparatida 30-350S gacha ko`tariladi.

Polivinilbutiralni suvdagi suspenziyasi oraliq idish (7) orqali 8chi-tsentrifugaga siqish uchun oqib o`tadè. Polimer shnekli yuvuvchi (9) da vanna moduli 1:20-30 da deminerallangan suv bilan yuviladi. Yuvilgan polivinilbutiral 10-barqarorlovchi apparatga uzatiladi va u erga 12chi-apparatdan 13chi-rotametr orqali ishqorning 3%-li suvdagi eritmasi quyiladi. quyilgan ishqorni apparatga solingan miqdori 0,025% ni tashkil etadi.

Barqarorlash qarorati 45-500S. Barqarorlangan polivinilbutiral 14chi-tsentrifugaga, u erdan aerofontanli 15chi-quritgichga uzatiladi. Namligi 2% gacha quri-tilgan polimer qadoqlash uchun 16chi-apparatga o`tkaziladi.

Polivinilbutiral tarkibida 78% gacha butiral va 2% atrofida atsetat gruqi saqlovchi (qolgani ON-gruqlari) oq kukun ko`rinishidagi amorf polimer. PVB yuqori elastikli va yaxshi adgeziya qossalari ega.

Polivinilbutiral fenol-, karbamid- va melaminformaldegid oligomerlari bilan yaxshi aralashadi. Ozgina miqdordagi PVB ni fenolformaldegid oligomeriga qo`shish, uni adgeziya xossalarni yaxshilashga oléa keladi (BF elimi).

Polivinilbutiralni pardalari yuqori tiniqlikka va nur ta`siriga chidamlilikka ega. PVB ko`p qavatli, bo`lakchalarga bo`linmaydigan "tripleks" tipidagi shishalar olishda silikat va organik shishalarne elimlash uchun ishlatiladi.

Polivinilbutiral plashlar, kiyim-kechak, qoplar tikiladigan matolar yuzini qoplashda, metall yuzasini bo`yashdan oldin surtiladigan gruntlar ishlab chiqarishda, turli elimlar olishda ishlatiladi.

## TAYANCH SO`ZLAR

Polivinil spirti, polivinilatsetat, gidrolizlash, uzlukli va uzlusiz usul, polivinilatsetallar, polivinilformal, poliviniletilal, polivinilbutilal, modifitsirlangan polimerlar, elimlar, qoplamalar, adgeziya xossalari.

## QAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Polivinil spirtini o`z monomeridan ishlab chiqarib bo`lmasligi sabablarini tushuntiring.
2. Polivinilatsetatni ishqor ishtirokida sovunlab, uzlukli usulda polivinil spirtini olish texnologiyasi.
3. Polivinil spirtini uzlusiz usulda ishqor ishtirokida sovunlab olish.
4. Polivinil spirtini xossalari va ishlatilishi.
5. Polivinil spirtidan polivinilatsetallar ishlab chiqarish.
6. Polivinilformal ishlab chiqarish texnologik jarayoni.
7. Polivinilbutiralni ishlab chiqarish texnologik jarayoni.
8. Polivinilformal va polivinilbutiralni xossalari va ishlatili-shi.

## ADABIYOTLAR

1. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.478-491.
2. Mindlin S.S. , Texnologiya proizvodstva polimerov i plasticheskix mass na ix osnove. M.-L., Ximiya, 1973 g. , 350 s.

## MA`RUZA - 21

### **ION ALMASHGICH POLIMERLAR ISHLAB CHIqARISH**

Ional mashgich materiallarni uchta asosiy guruqga bo`lish mumkin: erimaydigan ionitlar, ionit membranalari, eruvchi polieletrolitlar.

Ional mashgich materiallar o`z tarkibida dissotsiatsiyaga uchrab ionlar qosil qiluvchi guruqlar saqlaydilar va bu ionlar erimaydigan boshqa moddalarni ionlari bilan almashinish xossasiga ega.

Amalda erimaydigan ionitlar juda keng tarqalgan (oddiy ionitlar ko`proq erimaydigan ionitlar deb ataladi). Ionitli membranalar qam ko`plab ishlatilyapti. Yuruchan, ayniqsa suvda eruvchan polieletrolitlarni sintez qilish va ishlatish esa tez rivojlanayotgan soqalardan biri qisoblanadi.

Almashinayotgan ionlar zaryadiga qarab ionitlar, kationtlarga, aniontlarga va amfoter ionitlarga (poliamfoltlarga) bo`linadi.

Kationtlar-elektrolit eritmalaridan musbat zaryadlangan ionlarni (kationlar) yutish va bu ionlarni ekvimol miqdordagi boshqa musbat zaryadlangan ionlarga almashish xususiyati bor polimerlardir.

Aniontlar-eritmalaridan manfiy zaryadlangan ionlar (anionlar) yutish va bu ionlarni boshqa manfiy zaryadli ionlarga almashish qobiliyati bor polimerlardir.

Kationtlar polikislotalarni, aniontlar poliasoslarni xossalari-ni namoyon etadilar.

Amfoter ionitlar-kationit va aniontlar orasidagi qolatda bo`ladi. Bu gruq ionitlari tarkibida, bir vaqtini o`zida kislotali va asosli ionogen gruqlari saqlanadi. SHaroitga qarab ular kationitli yoki anionitli qossalarni namoyon etishlari mumkin.

## KATIONTLAR

Kationtlar o`z tarkibida kislotali guruqlar (sulfokislotali, karbok-sil, fosfor kislotosi qoldiqli va b.) saqlovchi, erimaydigan qattiq yuqo-ri molekulali polikislotalardir.

Ular suvda xarakatsiz makroaninon va xarakatchan kationga dissotsi-lanadi:



qamma xarakatchan ionlari vodorod ionidan tashkil topgan kationtlar N-kationtlari deb yoki kationtlarni N-shakli deb belgilanadi; vodorod ionlari metall kationlari bilan almashgan qollarda ( $Na^+$ ,

$\text{Sa}^{2+}$ , va b.), kationitlar tuzli nomi  $\text{Na}_+$ , yoki  $\text{Sa}-\text{kationiti}$ , yoki kationitni  $\text{Na}^-$  va  $\text{Sa}^-$  shakllari deb belgilanadi.

Kuchli kislotali kationitlar o`zlarini xarakatchan kationlarini boshqa kationlarga ishqoriy, neytral va kislotali muqitlarda bemalol almasha oladi. Kuchsiz kislotali kationitlar esa vodorod ionlarini boshqa kationlarga faqatgina ishqoriy muqitda almashadi.

Kuchli kislotali kationitlar o`z tarkibida sulfat va fosfor kislotalari guruqlarini saqlaydilar. Kuchsiz kislotali kationitlar esa asosan kakrboksil, oksifenil va boshqa guruqlar saqlaydilar.

Polikondensatlanish reaktsiyalari yordamida olinadigan kationitlar.

Kuchli kislotali sulfokationitlar asosan p-fenolsulfokislotasini formaldegid bilan polikondensatlab olinadi. n-fenolsulfokislotsasi fenolni oleum yoki sulfat kislotsasi bilan sulfokationit olish jarayonida sulfirlab olinadi. Bunda ortiqcha sulfat kislotsasi (katalizator) ishtirokida p-fenolsulfokislotsasi formaldegid bilan polikondensatlanadi.

Polikondensatlanish natijasida birinchi bosqichda chiziqli, ikkinchi bosqichda esa to`rsimon polimer qosil bo`ladi. Sulfoguruqlarni bir qismi polikondensatlanish jarayonida ajralib chiqadi. Ajralib chiqadigan sulfoguruqlari miqdorini kamaytirish maqsadida p-fenolsulfokislotsasi qisman fenol bilan almashtiriladi.

Kationit quyidagicha tuzilishga ega:

Kationit faol kislotali gruq  $\text{SO}_3\text{H}$  va fenol  $\text{ON}$  guruqini saqlagan-lidan bifunksional kationit qisoblanadi.

Rossiyada bu kationit KU-1 markasida chiqariladi.

Kationit yuqori mustaxkamlikka ega. Kontsentrlangan ishqor va kuchli oksidlovchilar ta`siriga 500S dan yuqori xaroratda chidamsiz.

Kuchli kislotali kationitlar naftalinsulfokislotsasi yoki atsenaftensulfokislotalarni formaldegid bilan polikondensatlab qam olinadi.

Kuchsiz kislotali kationitlar.

Bunday kationitlar rezortsil kislotsasini formaldegid bilan polikondensatlab olinadi

Fenoksisirka kislotsasi qamda fenolni formaldegid bilan polikondensatlab KFU-1 markali kuchsiz kislotali kationit olish mumkin:

Karboksil va sulfoguruqli bifunksional kationitlar, o`rin almashgan fenollarni aldegidlar bilan kondensatlab olinishi mumkin.

Polimerlanish reaktsiyalari yordamida olinadigan kationitlar.

Bu usulda kationitlar, tarkibida kislotali guruq saqlovchi monomer-larni polimerlab, yoki ionogen guruqlari saqlamagan monomerlardan olin-gan sopolimerlar tarkibiga kislotali guruqlar kiritib olinishi mumkin.

Kuchli kislotali kationitlar.

Sanoatda bu qil kationitlar stirol bilan divinilbenzoldan olingan sopolimerlar tarkibiga polimeranalistik reaktsiyalar yordamida  $\text{SO}_3\text{H}$  va  $\text{PO}_3\text{H}_2$  guruqlarini kiritib olinadi.

Sulfokationitlar.

Kuchli kislotali monofunksional sulfokationitlari stirol bilan divi-nilbenzolni sopolimerlarini sulfirlab olinadi:

Sulfoguruqlar sopolimer tarkibiga sulfat kislotsasi bilan ishlov berish, yoki sulfoxlorlab va so`ngra sovinlab kiritilishi mumkin.

Stirolni divinilbenzol bilan sopolimerini katalizatorsiz sulfat kislotsasi bilan sulfirlab KU-2 markali kationitni uzluksiz usulda olish jarayoni Rasm 32 da keltirilgan.

Stirolni 8 mass.q. divinilbenzol bilan sopolimeri 4chi bunkerdan shnekli meyorlovchi yordamida uzlusiz 5chi bo`ktirish idishga tushirib turiladi. Bir vaqt ni o`zida 3chi idishdan dixloretan tushiriladi. Sopolimer bilan dixloretanni massa.q. lari 1:5 bo`lishi kerak. Sopolimer dixloretanda 0,5 soat davomida bo`ktiriladi. Bo`kkan sopolimer uzlusiz ishlovchi 6 chi sulfirlash idishga o`tkaziladi.

Sopolimer 96% li sulfat kislotasi yordamida, sopolimerni sulfat kislotasiga nisbatan massalar nisbati 1:5da sulfirlanadi. Sulfirlash idishi (6) isitish uchun bo`limli qobiq bilan, qamda qattiq va suyuq fazalarni suruvchi eshkakli rotor va bo`shatuvchi shnek bilan jixozlangan.

Sulfirlash idishiga 2chi o`lchagichdan 7 chi issiq almashgichda avvaldan isitib olingan oleum solinadi. Kationitni tushirib olish qismida sulfomassanning xarorati  $1000S \pm 5$  atrofida ushlab turiladi. Sulfirlash 7 soat davom etadi.

Kationit 10chi apparatda 30-350S gachan sovitilib, shnek yordamida uzlusiz birinchi bosqich gindratori (12) ga tushiriladi. Gidratatsiyalash 50-55% li sulfat kislotasi (17-23 pozi-tsiyalarda sekin asta suv qo'shib suyultirilgan) yordamida o`tkaziladi. Kislotani bordaniga suyuq-lantirish sopolimerlarni yorilib ketishiga olib keladi.

Kationit gidrotlanishni birinchi bosqichidan ikkinchi bosqichiga (13 idish) o`tkaziladi va bu erda suyultirilgan sulfat kislotasi (25 dan 5% gachan), va so`ngra yumshatilgan suv bilan gidratlanadi.

Yaxshilab yuvilgan sopolimer 25 chi elakka va u erdan 14-16 bunkerlarga tushib yiqiladi.

Ishlatilgan 80-85%li sulfat kislotasi birinchi gindrator 12 dan 24 chi yiqish idishga uzatiladi va u erdan tsiklga qaytariladi.

KU-2 kationitiga o`xhash KU-23 makroqovakli kationiti qam stirolni divinilbenzol bilan olingan makroqovakli sopolimerlarini sulfirlab olinadi.

qozirgi vaqtda makroqovakli kationitlarni olishda, sopolimerlash qovaklar qosil qiluvchi qo'shimchalàð ishtirokida olib borilmoqda.

Kuchsiz kislotali kationitlar.

Kuchsiz kislotali karboksilsaqlovchi kationitlar sanoatda to`yinmagan karbon kislotalarini (akril, metakril) yoki ularni qossalalarini divinilbenzol bilan suspenziyada sopolimerlab olinadi.

Sanoatda asosan akril va metakril kislotalarining efirlari divinilbenzol bilan sopolimerlanib, undan so`ng oglingan maqsulotdagi murakkab efir guruqlari sovunlanadi va karboksil guruqlariga aylantiriladi. SHu usulda KB-2 va KB-4 kationitlari olinadi.

Ushbu kationitlar yuqori mustaqamlilikka, kimyoviy ta`sirlarga chidamlilikka ega bo`lib, karboksil guruqlari suvli muqitda 180-2000S da qam parchalanmaydi.

Akril kislotasining metil efiri divinilbenzol bilan sopolimerlanganda efir guruqlari bir-biriga nisbatan "bosh-boshiga" tartibida birikadi. Sovinlangandan so`ng KB-2 kationiti quyidagicha tuzilishga egà bo`ladi:

Karboksil guruqlarining shunday joylashishi, ularni ikki valentli metallarga selektivligini taminlaydi.

## SINTETIK ANIONALMASHGICH POLIMERLAR.

Sintetik anionitlar, o`z makromolekulasi tarkibida asos xossali iono-gen guruqlar saqlovchi qattiq polimer asoslari xisoblanadi. Kuchsiz asos-li anionitlar birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminoguruqlarini, kuchli asosli anionitlar esa to`rtlamchi oniy tuzlari va asoslarini (ammoniyli, paridinli, sulfonilli, fosfoniyli) saqlaydilar.

Kuchli asosli anionitlar xarakatchan anionlarini kislotali, neytral va ishqoriy muxitda, kuchsiz asosli anionitlar esa faqat kislotali muqitda almashadilar.

Polikondensatsiya reaktsiyalari yordamida olinadigan anionitlar.

Bu xildagi anionalmashgich polimerlari o`z tarkibida turli darajadagi asoslikka ega bo`lgan amin guruqlari saqlovchi moddalarni polikondensatlab olinadi.

Kuchli asosli anionitlar.

Stirol bilan divinilbenzolning sopolimerlari asosida olinadi. Bu qildagi anionitlar umumiyl formulasi R<sub>Ro`Ro`o`Ro`o`o`N+Ap</sub> - bilan belgila-nuvchi yuqori molekulali to`rtlamchi ammoniy asoslari bo`lib, ulardagi R ra-dikali stirol bilan divinilbenzol sopolimeri qoldiqi, boshqa radikallar esa oddiy alkil va arril (SN<sub>3</sub>, S<sub>2</sub>N<sub>5</sub>, S<sub>3</sub>N<sub>7</sub>, NOSN<sub>2</sub>CH<sub>2</sub> va b.) radikallaridan tashkil topgan. Kuchli asosli anionitlar tarkibida qisman kuchsiz asosli guruqlar qam bo`lishi mumkin.

Kuchli asosli anionitlar vinilipiridinlarni (yoki vinilxinolin-larni) divinil monomerlari bilan sopolimerlarini N-alkillash orqali yoki oniyli tuzlarni divinil monomerlari bilan sopolimerlab olinadi.

Kuchli asosli azotsaqllovchi AV-17 anionitini stirol bilan divinil-benzol sopolimeri asosida ishlab chiqarish texnologik jarayoni (Rasm.33) xom a`shyonи tayyorlash, sopolimerni xlormetillash; sopolimerni yuvish va siqish, xlormetillangan sopolimerni aminlash; anionitni filtrlab yuvish, yuvindi suvlarini neytrallash, tayyor maqsulotni qadoqlash kabi jarayonlardan iborat.

Xlormetillash reaktori (2) ga 1chi yiqish idishidan siqilgan azot yordamida monoxlordimetil efiri tushiriladi. So`ngra reaktorga aralashtirib turib sopolimer va xlor-metillash katalizatori tsink xloridi solinadi. Xar bir elementar xalqaga nisbatan olingan mol sopolimerga 3,3 mol monoxlordimetil efiri va 0,4 mol tsink xloridi sarf bo`ladi. Xlorme-tillash jarayonini 35-420Sda 16 soat davomida olib boriladi.

Rekatsiya natijasida qo`shimcha modda sifatida metanol va metilal ajralib chiqadi.

Jarayon tugagach reaktsiya muqiti 20-300S gachan sovitilib 5chi druk-filtrga uzatiladi. Re-aktsiya muxtidagi suyuqlik 11 chi yiqish idishga, u erdan regeneratsiyaga o`tkaziladi. Xlormetil-langan sopolimer 3chi va 4chi idishlardan berilayotgan metanol va metilal bilan besh marotaba yuviladi. Yuvilgan sopolimer metilaldagi pulpa ko`rinishda 6 chi aminlash reaktoriga uzatila-di.

Sopolimer 8chi idishdan berilayotgan uchmetilaminni 20% li eritmasi yordamida aminla-nadi. Aminlash 38-420S da qo`shimcha bosim 294 KPA da 3-4 soat davom etadi. Aminlash jarayoni amalga oshiriladi:

Aminlash tugagach reaktsiya muqiti 20-300S gachan sovitilib ikkinchi durk-filtirga (7) solinadi va bu erda suyuqlikdan azot yordamida siqiladi. So`ngra anionit neytral reaktsiyagachan ko`p marotaba deminerallangan suv bilan yuvilib, pulpa ko`rinishida avvaliga oraliq aralashtirgichi ishlab turgan idishga (9), u erdan 10 chi nutch-filtrga o`tkaziladi. Nutch-filtiridan suyuqliklar 11 chi vakuum-yiquvchisiga, anionit esa 12 chi vakuum-bunker, u erdan qadoqlashga uzatiladi.

### KOMPLEKS qOSIL qILUVCHI SELEKTIV IONITLAR.

Funktional guruqlari ionlar, atomlar yoki molekulalar bilan donor-aktseptor (koordinatsion) boqlari qosil qila oladigan polimerlar-kompleks qosil qiluvchi ionitlar deb ataladi.

Kompleks qosil qiluvchi ionitlar qam universal ionitlarni olish usullarida olinadi.

Bir qil funksional guruqli ionitlar jarayonni o`tkazish sharoitiga qarab oddiy yoki selektiv kompleks qosil qiluvchi ionitlarni qossalari nomoyon etishi mumkin. Masalan: fosfor kislota guruqli ionalmashgichlar kuchli kislotali kationitlar qamda bir qator metallarga nisbatan selektiv ionalmashgichlik xususiyatlarini namoyon etadi. Bunday kationitlarda, me-tallarni kationlari bilan ta`sirlanish natijasida (N, Fe<sup>3+</sup>), ionalma-shish jarayoni bilan birga, xelat guruqlari qosil bo`ladi:

Xuddi shunday xolat Na<sup>+</sup> va K<sup>+</sup> ionlariga nisbatan ikki valentli kationlar bilan 50-100 marotaba katta konstantasiga ega karboksil kationitlarida qam kuzatiladi.

Odatda qamma kuchsiz asosli anionitlar kompleks qosil qilish reaktsiyasiga moyil bo`ladi. Bunday anionitlarda ionogen guruqlardagi azotda bo`linmagan elektron juftini bo`lishi, koordinatsion boq qosil qilishga va selektivlikni namoyon etishga imkoniyat yaratadi.

## OKSIDLOVCHI- qAYTARUVCHI POLIMERLAR.

Redoks polimerlari, yoki elektronalmashgich polimerlar qam deb ataluvchi osidlovchi-qaytaruvchi polimerlar, elektron ko`chirish ya`ni ularni boshqa ion yoki molekulalarga almashish qobiliyatiga ega:

Oksidlovchi-qaytaruvchi polimerlar polikondensatlanish, polimerlanish va polimeranologik o`zgarish reaktsiyalari yordamida olinadi.

Polikondensatlanish usulida redoks-polimerlar gidroxinon, antraxinon, naftoxinon, tiofenol va aldegidlar (formaldegid, atsetaldegid) asosida olinadi.

Polimerlash usulida esa redoks-polimerlar vinilgidroxinon va di-vinil monomerlari asosida olinadilar.

Ýng ko`p tarqalgan usul, polimeranalogik o`zgarishlar usuli xisobla-nadi. Bu usulda stirolni divinilbenzol bilan xlormetillangan sopolimer-lariga gidroxinonni ta`sirlantirib quyidagi tuzilishga ega bo`lgan redoks-polimeri olinadi:

Stirolni sulfoxlorlangan sopolimeriga qaytaruvchi ta`sir ettirib SH-guruqli sulfigidril redoks-polimerlari olinadi.

Ionitlarni qossalari va ishlatilishi.

Ionogen guruqlarining kontsentratsiyasi va yutish (almashish) siqimi ionitlarni eng asosiy ko`rsatkichlari qisoblanadi. Almashish siqimi, quruq qoldagi ionitni massa birligidagi yoki bo`kkan qoldagi ionitni qajm bir-ligidagi, ional mashish qobiliyatiga ega funksional guruqlarning miqdori bilan belgilanadi. Bu kattaliklar mos qolda mekv/g yoki mekv/sm<sup>3</sup> da belgi-lanadi.

To`liq va muvozanatli almashish siqimlari bo`ladi. Ionitni polimer tarkibidagi funksional guruqlar kontsentratsiyasiga mos qolda to`liq ion almashish siqimi o`zgarmas kattalik xisoblanadi. Ion almashish jarayoni muvozanatli bo`lganidan, muvozanatli almashish siqimi kattaligi ushbu io-nit uchun o`zgarmas kattalik bo`la olmaydi.

Ionitlarni almashish siqimi ikki usulda aniqlanadi: statik va di-namik usullar.

Statik usulda ionitning tortilgan miqdori aniqxajmli eritmaga mu-voznat xolati vujudga kelguncha solib qo`yiladi, dinamik usulda esa ionit bilan to`ldirilgan kolonka orgali eritma o`tkaziladi.

## ERUVCHI POLÝLEKTROLITLAR.

CHiziqli makromolekulalarga ega eruvchi polielektrolitlar oxirgi vaqtarda flokulyantlar, koagulyantlar, oqava svuni tozalashda cho`ktiruvchi, suvlarni sanoatga tayyorlovchi moddalar sifatida ko`plab ishlatilmoqda.

Suvda eruvchi polielektrolitlar antistatikli va qoplama xosil qi-lish qossalari ega.

Ionogen gruqlari xiliga qarab eruvchi polielektrolitlar qam, anion qilidagi (kationitlar) kation xilidagi (anionitlar) va poliamfolitlarga bo`linadi.

Anion qilidagi polielektrolitlarga, poliakril, polimetakril ki-slotalari va ularning tuzlari, malein angidridining vinilatsetat va stirol bilan sopolimerlari, itakon kislotasining sopolimerlari, polivinilsulfokislota, polistiolsulfokislota va uning tuzlari, karboksimetiltsel-lyuloza, natriy polialginati, kraxmalning glikolyati va boshqalar kiradi.

Kationit xilidagi polielektrolitlarga polietilenimin, polidime-tilaminoetilmekrilat, poliaminostirol, polivinilpiridinlar va ular-ning tuzlari, to`rtlamchi ammoniy tuzli polimerlar va boshqalar kiradi.

Ionogen gruqli monomerlarni polimerlab olinadigan polielektro-litlardan poliakril va polimetakril kislotalarining tuzlari qamda male-in angidridning vinilatsetat, metilvinil va boshqa oddiy vinil efirlari bilan sopolimerlari ko`plab ishlatiladi.

Suvda eruvchi polielektrolitlar olishning eng ko`p tarqalgan usulla-ridan biri-polimerlar tarkibiga turli ionogen gruqlarni kirkazish imko-niyatini beradigan, kimyoviy modifitsirlashdir. Masalan polistirolni sulfirlab anion qilidagi suvda eruvchi polielektrolit-polistirolsulfokislota olinadi.

### qAYTARISH UCHUN SAVOLLAR

1. Kationitlar deb qanday polimerlarga aytamizq
2. Kuchli kationitlar ishlab chiqarish texnologiyasi.
3. Kuchsiz kationitlar ishlab chiqarish texnologiyasi.
4. Anionitlar deb qanday polimerlarga aytamizq
5. Kuchli anionitlar ishlab chiqarish texnologiyasi.
6. Kuchsiz anionitlar ishlab chiqarish texnologiyasi.
7. Kompleks qosil qiluvchi ionalmashgichlar nima sababdan selektiv-lik nomoyon etadilar?
8. Yletron almashgich polimerlar, ularni strukturasi va qossalari.
9. Suvda eruvchi yuqori molekulali ionalmashgichlar qanday ataladilar va ular qanday usullarda olinadilarq
10. Kationitlar, anionitlar, kompleks qosil qiluvchi ionalmashgichlar, suvda eruvchi ionalmashgichlar, elektron ionalmashgichlar, ularni qossalari va ishlatilish soqalari.

### ADABIYOTLAR

1. Texnologiya plasticheskix mass. Pod.red. V.V. Korshaka. M., "Ximiya", 1985, s.517-551.
2. Zubkova L.B., Tevlina A.S., Davankov A.V., Sinteticheskie ionoobmennie materiali., M., Ximiya, 1978 g. 183 s.

### 2.3.Amaliy mashg'ulotlari Amaliy mashg'ulot №1

#### **PF-266 emalini tayyorlash moddiy balans tuzish. (10000 tonna uchun)**

#### **Xom ashyni tayyorlash. (1000 kg uchun) ( Zavod reglamentidan olingan raqamlar)**

1. Lak PF- 060 – 463,48 kg
2. Sikkativ – 91,05 kg
3. Xavoga chikadigan chikindi – 0,145 kg
4. Mexanik yo‘qotish – 0,132 kg

Lak va sikkativ uchun umumiyo‘qotish foizi (1 yilda 10 ming tonna emal )

Lak PF-060,kg	Sikkativ,kg	Xavoga chikadigan chikindi, kg	Mexanik yo‘qotish, kg
2317,4	455,2	1450	1320

Negaki, yo‘qotishlarning umumiy foizi :

554,53 – 100%      463,48 – 100%      91,05 – 100%  
 0,277 - x%            x        - 0,05%      x        - 0,005% ni tashkil etadi.

Demak, 1 yilda 10 ming tonna emal ishlab chikarish uchun, yo‘qotishni xisobga olgan xolda,

$m (\text{lak}) = 4634817,4 - 2317,4 = 4632500 \text{ kg} = 4632,5 \text{ tonna}$

$m (\text{sikkativ}) = 910455,2 - 455,2 = 910000 \text{ kg} = 910 \text{ tonna}$  zarur buladi.

10 000 tonna/ yiliga ishlab chikarish uchun xar bir texnologik boskich uchun zarur bulgan xom ashyolar mikdori kuyidagi jadvalda keltirilgan.

#### Massa tonnada keltirilgan

Boskich	Lak	Sik kat.	Ne fras	Sarik pigme nt	Kizil pigment	Oxr a	Lit opon	Flotor e-agent	Umu m. mass a
Tayyorl ash	463 2,5	910	-	-	-	-	-	-	-
Disolver	460 1	-	41 5,1	31,4	14,8	276 7,5	83 9,4	157	9242
Bisser tegirmon	456 9,7	-	41 2,3	311,9	147	274 8,7	83 3,7	155,9 .2	9179
Aralash joylashish	454 6,9	905 ,45	41 0,2	310,3	146,3	273 4,9	82 9,5	155,1 8,6	1003

Lak misolida tushuntiramiz. Disolver uchun 4601 tonna lak zarur (negaki, 1 tonna uchun 460,1 kg emal kerak buladi)

#### Disolverda suyuk aralashma tayyorlash

Disolver xajmi  $V = 1,25 \text{ m}^3$ , vakt  $\tau = 30 \text{ min}$ .

Demak xom- ashyo bilan disolverning 80% tuladi, xajmini  $1 \text{ m}^3$  deb olamiz.

Agarda disolverning ishlab chikarishi 30 min ichida 1 m<sup>3</sup> teng bulsa, unda 1 soatda 2 m<sup>3</sup>/soat ga teng buladi.

### **1 ming tonna emal ishlab chikarish uchun disolverinng moddiy balansi**

Lak PF- 060- 463,25 kg

Nefras – 41,51 kg

Sarik rangli temir oksidi – 31,4 kg

Kizil rangli temir oksidi – 14,8 kg

Oxra – 276,75 kg

Litopon – 83,94 kg

Flotoreagent – 15,7 kg

Jami- 927,35 kg

Yo‘qotish :

Xavoga chikadigan chikindi – 1,758 kg

Mexanik yo‘qotish – 4,542 kg

Yo‘qotishlarni xisobga olgan xolda suyuk aralashma – 921,05 kg ni tashkil etadi.

Umumiy massadan yo‘qotish foizda :

927,35 kg-- 100 %

6,3 kg -----X%

X=0,68%

1 tonna emalni ishlab chikarishda, komponentlarning xajmiy muozanatini xisoblaymiz:

Komponentlarning zichligi:

P (lak) = 927 kg/ m<sup>3</sup>;

R (nefras) = 815 kg/ m<sup>3</sup>

R (litopon) = 4215 kg/ m<sup>3</sup>

R (flotoreag) = 1069kg/ m<sup>3</sup>

R (oxra)= 2880kg/ m<sup>3</sup>

R (sar.pigm) = 4060 kg/ m<sup>3</sup>

R (kizil. pigm) = 5180 kg/ m<sup>3</sup>

Aralashmada lak xajmi :

V (lak)= m/p=463,25/927=0,490 m<sup>3</sup>

V (nefras)= 41,51/4215=0,051 m<sup>3</sup>

$$V (\text{litop}) = 83,94 / 4215 = 0,010 \text{ m}^3$$

$$V (\text{flotor}) = 15,7 / 1068 = 0,015 \text{ m}^3$$

$$V (\text{oxra}) = 276,75 / 2880 = 0,096 \text{ m}^3$$

$$V (\text{sarik pigm}) = 31,4 / 4060 = 0,008 \text{ m}^3$$

$$V (\text{kizil pigm}) = 14,8 / 5180 = 0,003 \text{ m}^3$$

Xajm buyicha retseptura (komponentlar xajm yigindisi)

$$V (\text{aralashma}) = 0,673 \text{ m}^3$$

Bu xajmdan xar bir komponent jarayonda :

$$\text{Lak : } 0,673 \cdot 100\%$$

$$0,49 - X \% \quad X = 72,8\% \text{ ni tashkil etadi.}$$

Xususan boshqa komponentlar uchun :

$$\text{Nefras : } X = 7,6\%$$

$$\text{Litopon: } X = 1,5\%$$

$$\text{Flotoreagent : } X = 2,2\%$$

$$\text{Oxra : } X = 14,3\%$$

$$\text{Sarik pigment: } X = 1,2\%$$

$$\text{Kizil pigment : } X = 0,4\%$$

Xar bir komponentlarning zichligini bilgan xolda, ularing disolverdag'i og'irligini kg da aniklaymiz:

Lak xajm buyicha disolverda  $X = 1,455 \text{ m}^3$  ni tashkil etadi.

$$\text{Negaki, } 2 \text{ m}^3 \text{ (disolver xajmi) } - 100\%$$

$$X \text{ ----- } 72,8\% \text{ (lak mikdori \% da)}$$

Demak, disolverdag'i lak xajmi  $1,455 \text{ m}^3$ ,

$$\text{massasi esa } m = pV = 927 * 1,455 = 1349,7 \text{ kg.}$$

Xuda shunday usulda boshka komponentlar uchun xam :

$$\text{Nafras : } 2 \text{ m}^3 \cdot 100\%$$

$$X - 7,6\%, \quad X = 0,152 \text{ m}^3; \quad m(\text{nafras}) = 123,9 \text{ kg};$$

$$\text{Litopon : } 2 \text{ m}^3 \cdot 100\%$$

$$X - 1,5\%, \quad X = 0,03 \text{ m}^3; \quad m(\text{litopon}) = 123,45 \text{ kg}$$

Flotoreagent: 2 m<sup>3</sup> - 100%

X ----- 2,2 % X= 0,044 m<sup>3</sup>; m (flotor)= 47,04kg

Oxra : 2 m<sup>3</sup> - 100%

X-----14,3% X=0,286 m<sup>3</sup>; m(oxra)=823,68 kg

Sarik rang : 2 m<sup>3</sup>- 100%

X-----1,2% ; m(sariq.rang)=97,44kg

Kizil rang: 2 m<sup>3</sup> - 100%

X -- 0,4% ; X= 0,008 m<sup>3</sup> ; m (kizil.rang)= 41,44 kg

Disolverning ishlab chikarishi (barcha komponentlar massa yig‘indisi)

$\Sigma m = 2609,65 \text{ kg soatda}$

Yo‘qotish (1 jadval)

	Lak ,kg	Naf-ras, kg	Flot or	Ox ra	Lit opon	Sar . pigm	Kiz. pigm	Xavo ga chikadig	Mexani k
1 tonna uchun	3,15	0,28	0,11	1,8 8	0, 57	0,2 1	0,10	1,758	4,542
10 ming tonna uchun	315 00	280 0	1100	18 800	57 00	21 00	100 00	17580	45420

### Lak misolida yo‘qotishni xisoblash:

1 tonna lak uchun 463,25 kg lak PF-060 zarur, umumiy massadan esa yo‘qotish 0,68% ni tashkil etadi. Lak yo‘qotish kg da  $463,25 + 0,0068 = 3,15 \text{ kg}$ , demak 10000 tonna uchun lak yo‘qotish :  $3,15 \cdot 10000 = 31500 \text{ tashkil etadi}$

Xisob boshka komponentlar uchun xam kuyidagi jadvalda kursatilgan.

Yo‘qotishlarni xisobga olgan xolda disolverning ishlab chikarishi:

$2609,65 - 17,75 = 2591,9 \text{ kg/ soat}$

Bu yerda 17,75- 2609,65 kg aralashmadan 0,68% yo‘qotish

**Biserli tegirmonda suspenziyani dispergiratsiya kilish**

Moddiy balan (1 tonna emal ishlab chikarish uchun)

Suyuk aralashma (kizil-jigar rang pasta) – 921,05kg

Yo‘qotishlar:

Xavoga chikadigan chikindi – 4,073 kg

Mexanik yo‘qotish – 2,177 kg

Yo‘qotishlarni xisobga olgan xolla suyuk aralashma -914,8 kg tashkil etadi

Umumiy massadan yo‘qotish foizda xisoblaymiz:

321,05 kg ----- 100%

(4,073+2,177) kg – X %

X=0,68%

Bisser tegirmonining xajmi 50 l. Ishlab chikarishi 10l/min (600l/ soat) = 0,6 m<sup>3</sup>/soat

Bisser tegirmondagi komponentlar xajmini xamda ularning massalarini zichligi orkali xisoblaymiz :

Lak: 0,6 m<sup>3</sup> - 100 %

X ----- 72,8%                    X = 0,437 m<sup>3</sup>

m (lak) = 0,437 · 927 = 405,1 kg

Nafras : 0,6 m<sup>3</sup> - 100%

X----- 7,6%                    X = 0,046 m<sup>3</sup>

m (nafras) = 0,046 m<sup>3</sup> · 815 = 37,5kg

Litopon : 0,6 m<sup>3</sup> - 100%

X----- 1,5%                    X= 0,009 m<sup>3</sup>

m (litopon) = 0,009 m<sup>3</sup> · 4215 = 37,9kg

Flotoreagen : 0,6 m<sup>3</sup> - 100%

X----- 2,2%                    X = 0,013 m<sup>3</sup>

m (flotoreagent) = 0,013m<sup>3</sup> · 1069 =13,9kg

Oxra : 0,6 m<sup>3</sup> - 100%

X----- 14,3%                    X = 0,086 m<sup>3</sup>

m (oxra) = 0,086 m<sup>3</sup> · 2880 = 247,7kg

Sarik rang : 0,6 m<sup>3</sup> - 100%

X----- 1,2%

X = 0,007 m<sup>3</sup>

m (sarik rang) = 28,4kg

Kizil rang : 0,6 m<sup>3</sup> - 100%

X----- 0,4%

X = 0,002 m<sup>3</sup>

$$m (\text{kizil rang}) = 0,002 \text{ m}^3 \cdot 5180 = 10,36 \text{ kg}$$

bisser tegirmoning ishlab chikarishi (xamma komponentlar massasi:

$$\Sigma m = 405,1 + 37,5 + 37,9 + 13,9 + 247,7 + 28,4 + 10,36 = 780,86 \text{ kg/ soat}$$

yo'qotishlarni xisoblash uchun disolverdan bisser tegirmonga uzatilayotgan xamma komponentlarni aloxida massasini bilish kerak.

463,25 massali lak bisser tegirmonga kelguncha uning massasi 460,1 kg tashkil etadi, negaki 1 tonna uchun yo'qotish 3,15 kg.

Lekin bisser tegirmonda yo'qotishlar foizda 0,68% . Demak, dispergatsiya davomida bisser tegirmonida lak massasidan yo'qotish:  $460,1 \cdot 0,0068 = 3,13 \text{ kg}$

$$460,1 - 3,13 = 456,94 \text{ kg lak}$$

Xuddi shu usulda boshka komponentlar uchun xam xisoblaymiz:

Nefras : 41,51-0,28 (1 jadval)=41,23 kg; yo'qotish = 0,28 kg (0,0068%)

Sarik rang: 31,4-0,21=31,19 kg ; yo'qotish = 0,21 kg

Kizil rang : 14,8-0,1= 14,7 kg ; yo'qotish= 0,09 kg

Oxra : 276,75-1,88=274,87 kg; yo'qotish = 1,87 kg

Litopon : 83,94-0,57=83,37 kg ; yo'qotish = 0,56 kg

Flotoreagent : 15,7-0,11=15,59 kg; yo'qotish = 0,10 kg

Yo'qotish (2 jadval)

	La k,kg	Naf- ras, kg	Flo tor	Ox ra	Lit opon	Sar.pi gm	Kiz.pig m	Xavo ga chikadig	Mexan ik
1 tonna uchun	3,1 3	0,28	0,1 0	1,8 7	0, 56	0,21	0,09	4,073	2,177
10 ming tonna uchun	313 00	2800	10 000	18 700	56 00	2100	900	40730	21770

Bisserli tegirmoning maxsulorligi, yo'qotishlarni xisobga olgan xolda :

$$780,86 - 5,3 = 775,56 \text{ kg/soat}$$

### **Emal tayyorlash**

Moddiy balans (1 tonna emal ishlab chikarish uchun)

Emal pastasi – 914,8 kg

Sikkativ -91 kg; Jami : 1005,8 kg

Yo‘qotishlar :

Xavoga chikadigan chikindi : 0,78 kg

Mexanik chikindi : 4,467 kg

Tozalangan emal : 1000,553 kg

Umumiyl massadan yo‘qotishni foizda xisoblaymiz :

1005,8 - 100%

1000,553 – X%

X= 99,5 %

100% - 99,5 % = 0,5%

p (sikkativ) = 1350 kg/ m<sup>3</sup>

V (arashtiruvchi) = 0,85 m<sup>3</sup>, 80% bu xajmdan 0,68 m<sup>3</sup> ga teng

Xususan, xajm buyicha ishlab chikarish 0,68 m<sup>3</sup>/ soat

Bisserli tegirmondan chikqandan sung komponentlarni mikdorini va zichligini bilgan xolda aralashtirgichdagи komponentlarni xajmini xisoblaymiz:

Lak : 460,1-3,13 (2 jadval) = 465,97 kg; V (lak) = m/p = 465,97/927 = 0,493 m<sup>3</sup>

Xususan boshka komponentlar uchun xam:

Nafras: 41,23-0,28=40,95 kg; V (nafras)= 0,05m<sup>3</sup>

Sarik rang : 31,19-0,21=30,98 kg; V(sarik rang)=0,008m<sup>3</sup>

Kizil rang : 14,7-0,09=14,61 kg ; V(kiz. rang)=0,003m<sup>3</sup>

Oxra : 274,87-1,87=273kg ; V(oxra)=0,095m<sup>3</sup>

Litopon : 83,37-0,56=82,81kg; V(litop)=80,019m<sup>3</sup>

Flotoreagent: 15,59-0,12=15,49kg; V(flat)=0,014m<sup>3</sup>

Sikkativ :V (sikkat)= 91/1350=0,067m<sup>3</sup>

$\Sigma=0,493+0,05+0,008+0,003+0,095+0,019+0,014+0,067=0,749\text{m}^3$

1 tonna emal ishlab chikarish uchun ketadigan komponentlarni foizda xisoblaymiz  
(xajmdan)

Lak: 0,749 m<sup>3</sup> -100 %

0,493 m<sup>3</sup>- X

X=65,8%

Xususan, boshka komponentlar uchun xam proporsiya tuzamiz

Nafras : X=6,8%

Sarik rang: X=1,1%

Kizil rang : X=0,4 %

Oxra: X=12,7%

Litopon : X=2,5 %

Flotoreagent : X=1,9%

Sikkativ:X= 8,9%

Xajmdan kelib chikan xolda, aralashtirgichdagi barcha komponentlarni xisoblaymiz:

Lak: 0,36m<sup>3</sup> (aralashtirgichdagi xajm) -100%

Xm<sup>3</sup> ----- 65,8%

m (lak)= pv=219,6 kg

X = 0,24m<sup>3</sup>

Xar bir komponent uchun :

Sarik rang: X=0,004m<sup>3</sup> ; m=16,1 kg

Kizil rang : X=0,001m<sup>3</sup> ;m=75kg

Oxra : X=0,05m<sup>3</sup> ; m=131,7 kg

Litopon : X=0,009m<sup>3</sup> ; m= 37,9 kg

Flotoreagent : X=0,0068m<sup>3</sup> ; m=7,3m<sup>3</sup>

Sikkativ : X=0,03m<sup>3</sup>; m=43.3 kg

Shunda aralashtirgich ishlab chikarishi :

$\Sigma m = 219,6 + 19,9 + 16,1 + 7,5 + 131,7 + 37,9 + 7,3 + 43,3 = 483,3 \text{ kg}$

Yo‘qotish (3 jadval)

	Lak .kg	Naf- ras, kg	Flo- tor	Ox- ra	Lit- opon	Sar.pig m	Kiz . pigm	Xavo ga chikadig	Mexan ik
1 tonna uchun	2,28	0,20 5	0,0 77	1,3 65	0, 414	0,155	0,0 73	0,78	4,467

10 ming tonna uchun	228 00	205 0	77 0	13 650	41 40	1550	730	7800	44670
------------------------------	-----------	----------	---------	-----------	----------	------	-----	------	-------

Yo‘qotishni komponentlar massasini yo‘qotishlar foiziga kupaytirib topamiz (0,5%)

Masalan; lak uchun:  $456,97 \text{ kg} \cdot 0,005 = 2,28 \text{ kg}$

Aralashtirgichni unumdorligini yo‘qotishlarnini xisobga olgan xolda quyidagicha hisoblaymiz.

$$483,3 - 16,11 = 467,19 \text{ kg /soat}$$

### **Asbob-uskunalarni sonini xisoblash**

**Disolver uchun:** disolverni ishlab chikarishi 2591,9 kg/ soat.

16 soatli ish kunida 41470,4 kg ishlab chikaradi, 254 ish kunida esa, 1 yilda 10533,5 t.

Izox: Bir yil 365 kundan tashkil topgan bo‘lsa, 96 kun shanba va yakshanbalarni tashkil etadi  $365 - 96 = 269$ , bayram kunlari esa 10 kunni tashkil etadi  $269 - 10 = 259$ , korxonadagi jihozlarni remont qilish uchun 7 kun ajratiladi, demak  $259 - 5 = 254$  kun umumiy ish kuni.

Disolverga 9242 t komponent sigadi. 10 ming tonna emal ishlab chikarish uchun ketadigan komponentlarni umumiy massani, 1 yilda disolver ishlab chikaradiganlar soniga bulganda, 10 ming tonna emal ishlab chikarish uchun kerak bulgan disolver sonini topamiz:

$$9242/10533=0,88 \text{ koeffitsiyentni xisobga olgan xolga} = 1 \text{ ta disolver kerak bo‘ladi.}$$

**Bisser tegirmoni uchun:** ishlab chikarishi-775,56kg/ soat;

16 soatda -12408,96kg; 254 kunda-3151,9 t

Bisser tegirmonidagi komponentlar massasi (10 ming tonna emal uchun)-9179,2 t;

Demak, bisser tegirmonlar soni:  $9179,2/3151,9 = 2,91$  koeffitsiyentni xisobga olgan xolga = 3 ta

**Aralashtirgich uchun:** ishlab chikarish-467,19 kg/ soat;

16 soatda -7475,04 kg, 254 kunda -1898,66 t

10 ming tonna emal uchun komponentlar massasi – 10038,6 t

Aralashtirgichlar soni:  $10038,6/1898,66 = 5,28$  tug‘rilash koeffitsiyentini xisobga olgan xolda aralashtirgichni 6 ta deb olamiz.

## **2.4.Laboratoriya mashg'ulotlari**

### **KIMYOVIY LABORATORIYADA ISHLAYOTGANDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI**

#### **QOIDALARI**

«Kimyoviy texnologiya» kafedrasi o'quv laboratoriylarida ishlayotgan har bir shaxs ishlatilayotgan kimyoviy moddalar, ulardan olingen mahsulotlarning xossalari, ya'ni zaharlilik, yong'in va portlashdan xavflilik darajalari va moboda extiyotsizlik natijasida zaharlanish, kuyish yoki tok urishi xollari yuz beradigan bo'lsa, bиринчи yordam ko'rsatish usullarini bilmog'i lozim.

Kimyoviy moddalarning xususiyatlarini va ulardan foydalaniyatganda qanday ehtiyoj choralariga rioxo qilish lozimligini bilmaslik, baxtsiz vaealarga va og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa portlovchi, yengil alangalanadigan va o'yuvchi, zaharli moddalar bilan muomila qilayotganda juda ehtiet bo'lismish kerak. Birorta ishni boshlashdan avval uni bajarish tartibi bilan yaxshilab tanishish va ehtiyoj choralarini ko'rib qo'yish kerak.

#### **UMUMIY QOIDALAR**

Laboratoriya tajribalarini o'tkazayotganda extiyotsizlik, diqqatsizlik va ish qurollari hamda kimyoviy moddalarini yetarli darajada bilmaslik og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini hamisha esda tutish kerak.

Berilgan vazifadagi laboratoriya ishlarini bajarayotganda boshqa ishlar bilan va gap-so'z bilan chalg'imaslik kerak.

Kimyoviy reaktsiyalarni bajarayotganda metodik qo'llanmada qanday ko'rsatilgan bo'lsa, aynan shunday idish, hajm va kontsentratsiyalarda bajarish, agarda birorta o'zgartirish lozim bo'lsa, faqat rahbarning ko'rsatmasi bilan bajarish va extiyot choralarini oldindan tayyorlab ko'yish lozim.

Reaktsiya ketayotganda idishlar ustiga, ayniqsa qizdirilayotganda, egilish mumkin emas. Reaktorlarning chiqish teshiklarini ham teskari tomonga to'g'rilab qo'yish kerak.

Agar bajarayotgan ish o'yuvchi, zaharli, tez alangalanadigan, portlovchi moddalar bilan bog'liq bo'lsa va ular yuqori yoki past bosimda o'tkazilayotgan bo'lsa va nihoyat ushbu reaktsiyalar natijasida yarador bo'lismish, kuyish, ko'zga zarari tegishi mumkin bo'lsa, albatta ximoya ko'zaynaklari yoki organik oynadan, metall to'rda qilingan niqoblar taqiladi.

Hech qanday moddani etiketka yoki yozuvlari qoldirish mumkin emas. Biror moddadan foydalaniyganda etiketka yoki yozuvlarini diqqat bilan o'qish kerak. Agar shubhali bo'lsa, darhol tekshirib ko'rih kerak.

Yong'indan havfli, portlashdan havfli, zaharli, o'tkir hidli moddalarning qoldiqlarini rakovina yoki axlat idishlariga tashlash man etiladi. Aksincha ularni maxsus idishlarga yig'ib, iloji boricha zararsizlantirib maxsus jixozlangan quduqlarga ag'darish kerak. Rakovinaga faqat suv va neytiralangan eritmalar qo'yish mumkin.

Kimyo laboratoriylarida yolg'iz tajriba o'tkazish mumkin emas. Xonada eng kamida ikki kishi va ulardan biri esa boshliq bo'lismish kerak.

#### **O'YUVCHI MODDALAR BILAN ISHLASH QOIDALARI**

O'yuvchi moddalarga quyidagilar kiradi: xlorid, nitrat, sulfat, ftorid kislotalar, xrom (VI) oksidi, qattiq ishqorlar-o'yuvchi natriy, o'yuvchi kaliy, ularning kontsentrlangan eritmalar, ammiak eritmasi, brom va uning eritmalar. O'yuvchi moddalar teriga tushsa, go'yo qizdirilgan jism tekkandek kuydiradi, ularning ko'zga tushishi nihoyatda xavfli.

Ustoz bo'limgan vaqtida o'yuvchi moddalar bilan ishlash kerak emas. Ishqor va kislotalarni katta idishdan kichiklariga kuygan vaqtida nasosli yoki «nok»li (grusha) sifonlardan foydalinish kerak. Uchuvchan moddalar, ammiak, brom eritmalarini so'rvuchi shkaf ichida quyish kerak va albatta ko'zynak, qo'lqop, fartuk kiyib «V» markali protivogazni extiyotdan tayyor tutish kerak.

Sulfat kislotasining (umuman kislotalarning) eritmasini tayyorlaganda, uni suvga Qo'shish va tuxtovsiz aralashtirib turish kerak. Aks xolda eritma qizib atrofga sachrab ketishi mumkin. Suvni kislota quyish aslo mumkin emas.

Ishqorlardan eritma tayyorlaganda, ularning kichik bo'laklarini asta-sekin suvga qo'shib to'xtovsiz aralashtirib turiladi.

Ftorid kislotsasi teriga tushsa sekin bitadigan yara xosil qiladi, o'pkani esa yallig'laydi. Agar ftorid kislotsasi teriga tushsa, uni sovuq suv oqimi bilan yaxshilab yuvib 5% li soda eritmasi bilan kompress qilish kerak.

Idishlarni xrom aralashmasi bilan yuvganda uning tomchilarnini teriga, kiyimga, oyoq kiyimiga tushishidan extiyot bo'lismi kerak.

Ishlaganda portlab ketishi va o'z-o'zidan yonib ketishi mumkin bo'lgan muddalar bilan ishslashdagi xavfsizlik qoidalari.

Reaktsiya o'tkazilayotganda portlash hosil bo'lishi mumkin bo'lgan barcha tajribalar o'tkazilayotganda albatta himoya niqobi taqilishi lozim, reaktsiyalar esa maxsus kabinalarda yoki himoya ekranlari, qalqonlari bilan jixozlangan yerlarda o'tkaziladi.

Kuchli oksidlovchilarni qizdirish yoki yengil yonuvchi muddalar bilan shunchaki aralashtirish mumkin emas, chunki bu o'z-o'zidan yonib ketish va portlashga olib kelishi mumkin.

Yog'li va parafinli hammomlardan foydalanayotganda ularga suv tushib ketishidan saqlanish lozim, chunki yog' ostida qolgan suv qattiq qizish natijasida qaynab ketib, qizigan yog'ni atrofga sachratib yuboradi. Yog' bilan ifloslangan latta, sochiq, ish kiyimlari, oksidlovchi muhitda, o'z-o'zidan yonib ketishiga moyil bo'ladi.

Sulfat kislotsasi eritmasi tayyorlanayotganda, kislota suvga quyiladi, moboda to'kilib ketsa, u soda eritmasi bilan neytrallanadi, latta bilan artish mumkin emas.

Ochiq alangali olov va portlovchi muddalar bilan ishlayotgandagi havfsizlik choralar

Yonuvchi va ayniqsa tez olanganadigan suyuq muddalarni ochiq alangali olovda qizdirish yoni alanga yaqinida saqlash qatiyan mumkin emas. Bunday muddalar suv, yoki havo hammomlarida elektr qizdirgichlar yordamida qizdiriladi va haydaladi. Bunday hammomlarning qizdiruvchi va tok o'tkazuvchi qismlari yaxshilab himoyalangan bo'lishi kerak.

Benzol, nitrobenzol, toluol, xloroform, spirtlar, organik efirlar va boshqa turdag'i tez alanganuvchi va yonuvchan muddalar bilan tajribalar ochiq alangasi yo'q so'ruvchi shkafda o'tkaziladi.

Yongil alangananadigan, miqdori 0,5 litrdan ortiq bo'lgan suyuqliklarni qizdirishda pribor tagiga, avariya sodir bo'lsa, suyuqlik oqib tushishi uchun extiyotdan bo'sh kyuvetalar qo'yilish kerak. Tajriba tugagach barcha idishlar tozalab yuvilib, yig'ishtirish lozim.

Deyarli barcha yonuvchan muddalar uchuvchan bo'ladi va ular inson organizmiga havo bilan kirib zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bunday muddalar bilan olib boriladigan ishlar yopiq, so'ruvchi shkaflarda olib boriladi.

Yonuvchan muddalarni kanalizatsiyaga ag'darish mumkin emas. Ishlatilgan bunday modda qoldiqlari yaxshi yopiladigan biror idishga to'planib maxsus quduqlarga to'kiladi.

## **SIMOB BILAN ISHLASHDAGI HAVFSIZLIK QOIDALARI**

Metall holdagi simob laboratoriya amaliyotida ochiq va yopiq holda keng qo'llaniladi (reometrlar, termometrlar va xokazo). Simob va uning ba'zi tuzlarining bug'lari kumilyativ ta'sirli kuchli zaharlardir. Simob bug'uning havodagi kontsentratsiyasi 0,01 mg/m<sup>3</sup> dan oshmasligi kerak.

Simob bug'lari suvoq, yog'och, latta, zang kabilarga yaxshi yutiladi va keyinchalik desorbtsiyalanib bug'lanadi. Metall xoldagi simob polga to'kilib ketsa, uning juda mayda zarrachalari devor, pol, mebel tirqishlariga kirib ketib, so'ngra asta bug'lanib yotishi mumkin. Simob solingan priborlar (masalan monometrlar, reometrlar) xonalarga o'rnatilganda ular ostiga maxsus idishlar o'rnatilishi kerak.

Suyultirilgan va eritilgan gazlar solingan ballonlar siqilgan gazlar to'ldirilgan ballonlarga nisbatan pastroq, haroratlarda ham portlab ketishi mumkin bo'lgan uchun, ular bilan juda ehtiyyotlik bilan muomila qilish kerak.

Barcha gaz ballonlarida himoya qalpoqchasi bo'lishi, zaharli gazlar solingan ballonlarning shtutserlari esa qo'shimcha yopqich (zaglushka) bilan jihozlangan bo'lishi shart. Yonuvchi gazlar (masalan vodorod) solinadigan ballonlarning shtutseri chap rezbali qilib ishlanadi. Bundan maqsad xatolik natijasida ularga kislorod quyib yubormaslik yoki aksincha kislorod balloniga yonuvchi gaz quyib yubormaslikdir. Barcha gaz ballonlari o'zining bo'yaladigan rangiga, markirovakasi (belbog' rangi) va saqlanadigan gaz nomi ko'rsatilgan yozuvga ega bo'lishi kerak. Ballonlar ma'lum muddat ishlatilgandan

so'ng, keyinchalik ishlatishga yaroqli ekanligi sinab ko'rildi va mahsus belgilar qo'yiladi. Sinov muddati o'tib ketgan ballonlarni ishlatish qat'iyan mumkin emas.

Ballonlar quyidagi sabablarga ko'ra portlab ketishi mumkin.

a) Quyosh nuri, ochiq alanga, isitish manba'larining ta'siri natijasida;

b) Ballonlarning qattiq jismga urilishi yoki ularni urish;

v) Kislorod ballonlarining yog', moy va boshqa organik moddalar bilan ifloslanishi.

Ballonlar isitish manba'laridan (radiatorlardan) 1 metr, gorelka, plitka kabilardan 1,5 metr uzoqlikda, quyosh nurlarining tik tushushidan himoyalangan, yiqilib tushmaydigan qilib qotirilgan holda saqlanishi kerak

### **Laboratoriya ishi – 1 Polistirolni blokda harorat ta'sirida olish**

**Ishdan maqsad**, polimerlarni hech qanday erituvchilarsiz o'z monomeri massasida polimerlanishni o'rghanishdir.

Reyaktsiya quyidagi sxema bo'yicha ketadi:

**Xom ashyo:** yangi haydalgan stirol 10 ml

**Jihozlar:** qalin devorli ampula 50 ml; pipetka; isitish shkafi; termomexanik egri chiziqni aniqlaydigan asbob; suyuqlanmaga o'tish haroratini aniqlaydigan asbob.

Hajmi 50 ml bo'lган qalin devorli ampulaga o'lchovli pipetka yordamida 10ml stirol solinadi. Ampulani alanga yordamida kavsharlab berkitiladi va  $170^{\circ}\text{S}$  gacha qizdirilgan issiq shkafga qo'yilib 3-4 soat davomida ushlab turiladi. So'ngra ampulani olib sovitiladi va olov taftida ehtiyyotlik bilan ochilib kengaygan qismini egov bilan kesiladi. Matoga o'ralgan ampulani urib blok polimerni bo'shatish uchun kesilgan qismidan sindiriladi va natijada qattiq, shaffof, rangsiz, stirolning og'irligiga nisbatan 98 % gacha polistirol olinadi.

### **Topshiriq**

Polistirolni harorat bo'yicha deformatsiyasini (termomexanik egrisini) quyidagi asboblarni birida Jurkov asbobida, Kargin tarozida yoki Xepler konsistometrida hamda suyuqlanmaga o'tish haroratinini aniqlang.

### **Adabiyotlar:**

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y..

2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.

3. Magrupov F.A. Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti. Toshkent 2007, (elektron variant)

### **Laboratoriya ishi – 2 Stirolni divinilbenzol bilan sopolimerini suspenziya usulida olish**

Ushbu ishda polimerlarni sintez qilishni suspenziya usuli bilan tanishiladi va undan tashqari sopolimerlarni sintez qilishni bir usuli ko'rib chiqiladi.

Stirolni sopolimerlaridan biri bo'lган divinilbenzol bilan sopolimeri tikilgan tuzilishga ega bo'lganligidan yuqori harorat va erituvchilar ta'siriga chidamli bo'ladi.

Uni hosil bo'lishi quyidagi sxema bo'yicha amalga oshadi:

**Xom ashyo:** yangi haydib olingan stirol – 10g; divinilbenzol – 0,2g; benzoil peroksidi – 0,5g; polivinil spirti – 0,34g; distillangan suv – 60ml.

**Jihozlar:** munchoq polimerlanish jihoz (Rasm 1) 11.li kimyoviy stakan; Byuxner voronkasi; isitish shkafi.

Polivinil spirti polimerlanish kolbasida distillangan suvda eritib olinadi. So'ngra alohida stakanda benzoil peroksidi stirolda eritib olinadi va ustiga divinilbenzol solinib, u ham yaxshilab eritib olinadi. Monomerlarni initsiator bilan aralashmasi xona haroratigachan sovitilgan polivinil spirtining suvdagi eritmasi ustiga quyiladi. Aralashtirgich ishga tushirilib, qaytar sovitgichga suv yuboriladi va polimerlash kolbasi suv hammomi yordamida 80°С gacha isitiladi. Aralashtirgichni to'xtab qolishini oldini olgan holda shunday tezlikda aylantirib turish kerakki, bunda monomerlar aralashmasi mayda munchoqlarga bo'linsin va bu munchoqlar bir – biri bilan yopishib qolmasin.

Aralashtirgichni aniqlab olingan tezligini, o'zgartirmasdan polimerlanish oxirigacha ushlab turishga erishish kerak (agar aralashtirgichni ishlashi ozgina vaqtga xam to'xtab qolsa, hali qotib ulgurmagan polimer zarrachalari bir – biri bilan yopishib, biron – bir shaklga ega bo'lмаган polimer massasi hosil bo'ladi).

Hammomdag'i haroratni xam oshirib yubormaslik kerak. Sopolimerlanish odatda 3 – 4 soat davom etadi. Sopolimerlanish tugagach, aralashtirgich to'xtatiladi va munchoq ko'rinishidagi sopolimer filtrlab olinadi. So'ngra sopolimer munchoqlari bir necha marotaba issiq suv bilan yuvilib, quritiladi va tortib olinadi.

### Topshiriq

1. Monomerlarni umumiyl miqdoriga nisbatan sopolimerni chiqishini aniqlang.
2. Sopolimerni eruvchanligini aniqlang va uni erituvchilarda erimaslik sababini tushuntiring.
3. Bir necha laboratoriya ishla  
rida yig'ilgan sopolimerni laboratoriya ishi № 92 va 93da ishlating.

### Adabiyotlar:

1.S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y.

2.А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.

### **Laboratoriya ishi –3** **Vinilxloridni emulsiyada polimerlab polivinilxlorid olish**

Ushbu laboratoriya ishini o'tkazishdan maqsad, polimerlarni sintez qilishni yana bir yangi va keng tarqalgan usuli bilan tanishtirishdir.

**Xom ashyo:** vinilxlorid - 100g; vodorod peroksidi (30%li)-0.11g; emulgator MK(menazinsulfokislotaning natriyli tuzi) – 3g; distillangan suv – 114g; ortofosfor kislotasi – 0.18g; natriy gidroksidi (quruq) – 0.2g.

**Jihozlar:** 1,5 MPa bosimga mo'ljallangan avtoklav; 500 ml hajmli farfor stakani; 250ml.li kolba; voronka; 200ml.li kimyoviy stakan – 3 ta.

Emulgatorni distillangan suvdagi 20%li eritmasi tayyorlanib, filtrlanadi (o'ta tiniq eritma hosil bo'lishi kerak).

Avtoklavga tayyorlangan emulgator eritmasi solingach, aralashtirib turib andoza bo'yicha distillangan suv, vodorod peroksidi, ortofosfor kislotasi va natriy gidroksidi solinadi.

Yaxshilab aralashtirilganidan so'ng muhitni rNi aniqlanadi. Bunda rN – 8.5 – 10 bo'lishi kerak. Ushbu rNda vodorod peroksidining erkin radikallarga parchalanish tezligi va demak polimerlanishni ham kerakli tezligi ta'minlanadi. Agarda rN boshqacha qiymatga ega bo'lsa u holda ortofosfor kislotasi yoki o'yuvchi natriy qo'shib kerakli songa olib kelinadi. Ushbu tayyorgarliklardan so'ng avtoklav zinch berkitilib vinilxloridni solish boshlanadi.

Vinilxlorid solib bo'linganidan so'ng aralashtirgich 50 – 70 ayl/min tezlikda ishga tushiriladi. Avtoklav qobig'iga issiq suv berib isitish boshlanadi. Avtoklavdagi reaktsion muhitning harorati  $50^0S$  ga ko'tarilganida, isitish to'xtatiladi. Ekzotermik reaktsiya natijasida harorat ko'tarila boshlasa, avtoklav qobig'iga soviq suv yuborib sovitiladi. Soviq suv shunday hisob bilan berilishi kerakki, bunda avtoklavdagi bosim  $0,7 - 0,75$  MPa harorat esa  $45 - 55^0S$  chegarasida ushlanishi kerak. Polimerlanish tugashini avtoklavdagi bosimni kamayishi orqali aniqlanadi. Shundan so'ng reaktsiya muhiti  $25 - 30^0S$  gacha sovitiladi.

Polimerlanish jarayoni isitish boshlanganidan so'ng 15 – 20 soat davom etadi. Reaktsiya tugagach avtoklavdagi qoldiq bosim ( $0,3$  MPa atrofida) yo'qotilib, lateks\* ko'rinishidagi polivinilxlorid idishga solinadi. Lateksdagi polimer miqdorini aniqlab olingach, lateksga isitib va aralashtirib turib kontsentrlangan sulfat kislotasi qo'shiladi va polimer koagulyatsiyaga uchratiladi (cho'ktiriladi). Polimer kukuni Byuxner voronkasida filtrlanib, yuvilayotgan suvda  $Cl_2$  ionlari qolmagunicha ( $AgNO_3$  eritmasi bilan tekshiriladi) yuviladi va  $45^0S$  da quritiladi.

#### **Topshiriq**

1. Polivinilxloridni chiqishini aniqlang.
2. Barqarorlovchisiz va barqarorlovchi bilan aralashtirilgan polivinilxloridni parchalanish haroratini aniqlang.
3. Polivinilxloridni 13 chi laboratoriya ishida qo'llang.

\* **Ilova.** Polivinilxloridni barqarorlash maqsadida lateksga kaltsiy karbonatining suvdagi 5%li eritmasi (latks massasiga nisbatan  $0,35 - 0,40\%$ ) qo'shiladi. Barqarorlash 10 – 15 min da xona haroratida aralashtirib amalgalashdir.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulalari birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y.

2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс»  
Москва, Выс.шк. 1986.

3. Magrupov F.A. Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti. Toshkent  
2007, (elektron variant)

### **Laboratoriya ishi -4** **Vinilatsetatni eritmada polimerlab polivinilatsetat olish.**

**Ishdan maqsad,** polimerlarni ishlab chiqarishni Yana bir texnologik usuli, ya‘ni eritmada (lok usulida) polimerlanish bilan tanishish va uni egallab olish.

**Xom ashyo:** vinilatsetat – 30g; azo – bis – izomoy kislotasining dinitrili – 0.1g; metanol – 30g.

**Jihozlar:** qaytar sovitgich, aralashtirgich bilan jihozlangan dumaloq taglik kolba (Rasm.2); suv hammomi.

Qaytar sovitgich, aralashtirgich va zinch berkiluvchi qopqoq bilan jihozlangan dumaloq taglik kolbagacha 20g. vinilatsetat, 0,1g porofor va 15g. metanol solinadi. Kolba suv hammomiga tushirilib, aralashtirgichni ishlatib  $60 - 65^{\circ}\text{S}$  da 2 soat davomida ushlanadi.

So’ngra qolgan 10g. vinilatsetat solinib polimerlanish davom ettiriladi. Reaksiya massasi quyuqlashgani sari qolgan 15g. metanol ham asta – sekin qo’shib boriladi. Polimerlanish reaksiya muhitining qaynash haroratida, monomer konversiyasi 98% bo’lguncha davom ettiriladi. So’ngra reaksiyaga kirishmagan monomer azeotrop ko’rinishida (qaytar sovitgich, to’g’ri sovitgich holatiga o’tkazilib) haydab olinadi. Haydalgan suyuqlik tarkibidagi vinilatsetatni tugashini bromli suv yordamida tekshirib turiladi (bromli suvni rangsizlanishi orqali).

### **Topshiriq**

1. Polimerni qovushqoqligini aniqlang.
2. Polimerni lok ko’rinishida va polivinil spirti olishda ishlating.
3. Polivinilatsetatga xos sifat tekshiruvlari o’tkazing.

### **Adabiyotlar:**

1.S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulalı birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma’ruzalar matni. Qarshi 2010 y..

2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс»  
Москва, Выс.шк. 1986.

3. Magrupov F.A. Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti. Toshkent  
2007, (elektron variant)

### **Laboratoriya ishi – 5**

#### **Akril yoki metakril kislotalari polimerlarini suvda polimerlab olish**

**Ishdan maqsad,** suvda eruvchi polimerlar misolida polimerlanishni eritmada o’tkazish texnologik usulini suvmuxitida o’tkazish va ushbu texnologiyani yaxshilab egallab olish.

**Xom ashyo:** akril kislotasi – 72g (1 mol) yoki metakril kislotasi – 80g (1 mol); qattiq vodorod peroksidi – 1 g (0,03mol) yoki 3,4 g 30%li eritmasi.

**Jihozlar:** haroratbardosh ampulalar; isitish shkafi.

240 ml distillangan suvda vodorod peroksidi, so'ngra akril yoki metakril kislotasi eritib olinadi va toza haroratbardosh ampulalarga yarim qilib solinadi. Ampulalar ingichka joyidan gaz gorelkasi yordamida kavsharlanadi va isitish shkafiga qo'yiladi. Polimerlanish isitish shkafida 100<sup>0</sup>S haroratda 11 kun davom etadi. So'ngra shkafni qizitish to'xtatilib, ampulalar shkaf ichida sovitiladi. Hosil bo'lган qovushqoq suyuqlik akril yoki metakril kislotasining suvdagi eritmasi bo'ladi. Quruq holdagi polimerni vakuumda svjni bug'lantirib yuborish orqali olish mumkin.

## Topshiriq

1. Polimer eritmasini emulgator yoki suvda eruvchi ion almashgich sifatida ishlating.
2. Polimer eritmasini suv emulsiyali bo'yoqlar olishda ishlating.

## Adabiyotlar:

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y.

2. A.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.

3. Magrupov F.A. Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti. Toshkent 2007, (elektron variant)

## Laboratoriya ishi – 6

### Akrilonitrilning monomerda (massada) polimerlanishi

**Ishdan maqsad,** o'z monomerida erimaydigan polimerlarni blok usulida olish mumkinligi bilan tanishish va ushbu texnologik jarayonni egallab olishdir.

**Xom ashyo:** akrilonitril – 10 ml; benzoil peroksidi – 0.01g.

**Jihozlar:** ampulalar – 2 ta; suvli termostatlar – 2 ta; kolba – 50 ml; byuks – 1 ta.

Benzoil peroksidi akrilonitrilda eritiladi va bu eritma ikkita ampulaga ajratiladi (ampulalar ½ qismigacha to'latilishi lozim).

Bitta ampulani 100<sup>0</sup>S gacha qizdiriladi va polimer hosil bo'lishi kuzatiladi. Taxminan 2 minutdan so'ng katta energiya ajralib chiqadi va reaksiya katta tezlikda ketadi, hosil bo'layotgan polimer monomerda erimaganligidan ampula tubiga cho'ka boshlaydi, shuning uchun akrilonitrilning bunday polimerlanishini monomerda polimerlanish deb xam atash mumkin. Qisqa vaqt oralig'ida reaksiya to'xtaydi, chunki initsiator sarflanib bo'lган bo'ladi.

Ikkinchi ampula termostatda 70<sup>0</sup>S gacha qizdiriladi. Bunday holda induksion vaqt 40 minutgacha cho'ziladi, ammo reaksiya xuddi 100<sup>0</sup>S dagidek tez tugallanadi.

Reaksiya tugaganidan so'ng ampulalar sovitiladi, ehtiyyotlik bilan sindiriladi va polimer chiqarib olinadi.

## Topshiriq

1. Polimerning hosil bo'lish miqdori va uning organik erituvchilardagi eruvchanligini aniqlang.
2. Polimerni termomexanik chizifini Kargin tarozisi yoki Xepler konsistomerida aniqlang.

## Adabiyotlar:

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y..
2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.
3. Magrupov F.A. Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti. Toshkent 2007, (elektron variant)

## Laboratoriya ishi – 7

### Geksametilendiizotsianat va dietilenglikoldan eritmada poliuretan olish

Ushbu ishda laboratoriya ishining maqsadi, olimerlarni geterogen sharoitda eritvchi muhitida polimerlanish texnologik jarayoni bilan talabalarni tanishtirishdan iborat.

Polimer hosil bo'lish reaktsiyasi quyidagicha ifodalanadi:

**Xom ashyo:** geksametilendiizotsianat – 50g; dietilenglikol – 16,9g (yoki etilenglikol – 10g); kaltsiy gidridi ustida quritilgan xlorbenzol – 330g; kaltsiy gidridi ustida quritilgan o – dixlorbenzol – 50g (380g xlorbenzol olish mumkin).

**Jihozlar:** 1000 ml.li uch bo'yinli zich berkitiladigan aralashtirgich, kaltsiy xlorid naychali qaytar sovitgich va termometr bilan jixozlangan kolba (Rasm.1); farfor tog'oracha; isitish shkafi; bug' bilan erituvchini haydash jihozи.

Uch bo'yinli kolbaga aralashtirgichni ishlatib oldinma–ketin erituvchilar aralashmasi, geksametilendiizotsianat va dietilenglikollar solinadi. So'ngra qaytar sovitgich ishga tushirilib, doimiy aralashtirib turilgan holda reaktsiya muhitini qaynash xaroratida 5–6 soat ushlab turiladi.

So'ngra reaktsion aralashma bur bilan erituvchini haydash jihoziga solinadi va erituvchi haydab yuboriladi. Erituvchidan tozalangan polimer isitish shkafida  $80^{\circ}\text{S}$  da quritiladi.

## Topshiriq

1. Polimerni chiqishini aniqlang.
2. Polimerni dimetilformamid yoki tsiklogeksanondagi eritmasini tayyorlang va yelim sifatida ishlating.
3. Polimer eritmasidan quyish usulida qoplama oling.

## Adabiyotlar:

- 1.S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y..
2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.
3. Magrupov F.A. Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti. Toshkent 2007, (elektron variant).

## Laboratoriya ishi – 8

### Geksametilendiizotsianat va dietilenglikoldan eritmada poliuretan olish

Ushbu laboratoriya ishining maqsadi, polimerlarni geterogen sharoitda erituvchi muhitida polimerlanish texnologik jarayoni bilan talabalarni tanishtirishdan iborat.

Polimer hosil bo'lish reaktsiyasi quyidagicha ifodalanadi:

**Xom ashyo:** geksametilendiizotsianat – 50g; dietilenglikol – 16,9g (yoki etilenglikol – 10g); kaltsiy gidridi ustida quritilgan xlorbenzol – 330g; kaltsiy gidridi ustida quritilgan o – dixlorbenzol – 50g (380g xlorbenzol olish mumkin).

**Jihozlar:** 1000 ml.li uch bo'yinli zinch berkitiladigan aralashtirgich, kaltsiy xlorid naychali qaytar sovitgich va termometr bilan jihozlangan kolba (Rasm.1); farfor tog'oracha; isitish shkafi; bug' bilan erituvchini haydash jihozni.

Uch bo'yinli kolbaga aralashtirgichni ishlatib oldinma–ketin erituvchilar aralashmasi, geksametilendiizotsianat va dietilenglikollar solinadi. So'ngra qaytar sovitgich ishga tushirilib, doimiy aralashtirib turilgan holda reaktsiya muhitini qaynash haroratida 5–6 soat ushlab turiladi.

So'ngra reaktsion aralashma bug' bilan erituvchini haydash jihoziga solinadi va erituvchi haydab yuboriladi. Erituvchidan tozalangan polimer isitish shkafida  $80^{\circ}\text{S}$  da quritiladi.

### Topshiriq

- 1.Polimerni chiqishini aniqlang.
- 2.Polimerni dimetilformamid yoki tsiklogeksanondagi eritmasini tayyorlang va yelim sifatida ishlating.
- 3.Polimer eritmasidan quyish usulida qoplama oling.

### Adabiyotlar:

- 1.S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y..
- 2.А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.
3. Magrupov F.A. Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti. Toshkent 2007, (elektron variant).

## Laboratoriya ishi – 9 Emulsion polistioldan gaz bilan to'ldirilgan ko'pik polistirol olish

Ushbu ishda talaba toza polimerlarga gaz hosil qiluvchi moddalar aralashtirib, undan turli tuyulma zichlikka ega bo'lgan ko'pik polimer plastiklarini olish texnologik usuli bilan tanishadi.

**Xom ashyo:** emulsion polistirol; g'ovak hosil qiluvchi ammoniy karbonati yoki azo-bis-izomoy kislotasining dinitrili.

**Jihozlar:** laboratoriya sharli tegirmoni (keramikali hovonchani ishlatsa bo'ladi); zich berkitiladigan press – shakl; press; isitish shkafi; issiq suvli idish.

Kukun ko'rinishidagi emulsion polistirolni (MM – 130. 000 gacha) elakdan o'tkazilgan ammoniy karbonati bilan (polistirol massasiga nisbatan 4%) sharli tegirmonda 12 – 24s davomida aralashtiriladi. Agarda g'ovak xosil қiluvchi sifatida azo – bis – izomoy kislotasining dinitrili (porofor) ishlatsa uning miqdori polistirolga nisbatan 15%ni tashkil etishi kerak.

SHarli tegirmonda aralashtirilgan massa zich press – shaklga solinib, 10 – 15 MPa bosim va 150<sup>0</sup>S xaroratda, yarim mahsulotning 1mm qalinligiga 1,5 – 2 min. davomida presslanadi. Bunda g'ovak hosil qiluvchi parchalanib hosil bo'lgan gaz massa bo'yicha bir hilda taqsimlanadi. Presslash bosimi gazlar hosil qilgan bosimdan kamida 10 - 15% yuqori bo'lishi kerak.

Bosim ostida 40 – 50<sup>0</sup>S gacha sovitilgan yarim mahsulot press – shakldan olinib 130 – 1400S gacha qizdirilgan isitish shkafiga joylanadi. Bunda presslash jarayonida hosil bo'lgan gazlarni kengayishi hisobiga yarim mahsulot ko'piklanadi. (ammoniy karbonati parchalanganida SO<sub>2</sub> va NH<sub>3</sub> gazlari, porofor parchalanganida N<sub>2</sub> gazi ajraladi). Presslangan yarim mahsulotni 25 – 98<sup>0</sup>S gacha isitilgan suvga solib, ko'piklanish mumkin. Hosil bo'lgan ko'pik plastik namunasi suv ustiga suzib chiqadi.

Ko'piklanish vaqtini, presslangan yarim maxsulot qalinligidan bog'liqligi quyida keltirilgan:

Qalinligi, mm ..... 5 12 20 30

Ko'piklanish vaqt, min.....20 30 60 60

Ammoniy karbonati g'ovak hosil qiluvchi sifatida ishlatalganida olingan ko'pikplastikni hajmiy massasi quyidagicha o'zgaradi:

(NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub> SO<sub>3</sub> ning miqdori, % ..... 2 4 5

Hajmiy massa, kg/m<sup>3</sup> ..... 100 70 42

Porofordan 15% olinganida hajmiy massasi 60 kg/m<sup>3</sup> ga teng ko'pik plastik hosil bo'ladi.

Ko'piklanish jarayonida ko'pik polistirol namunasi qiyshayibroq chiqsa, uni 80<sup>0</sup>S va 0,5 MPa bosimda presslab to'g'rilab olish mumkin.

### Topshiriq

1. Hosil bo'lgan ko'pik polistirolni hajmiy massasini aniqlang.
2. Ko'pik polistirolni ko'pirish darajasini hisoblang.

### Adabiyotlar:

1.S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y.

2.А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.

3. Magrupov F.A. Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti. Toshkent 2007, (elektron variant

## Laboratoriya ishi – 10 Varaq viniplastni presslab olish

**Ishdan maqsad**, polimerlarga turli qo'shimchalar qo'shib, ulardan plastik massalar (yarim maxsulot) olish texnologik usullari bilan tanishish.

**Xom ashyo:** suspenzion yoki emulsion polivinilxlorid – 100g; melamin – 2g; stearin – 1g; trnsformator moyi – 2g.

**Jihozlar:** farfor xovoncha; sharli tegirmon; laboratoriya valtsi; laboratoriya kalandri; qaychi;laboratoriya pressi; shaffoflangan po'lat varaq.

Melamin, transformator moyi bilan farfor xovonchada bir xil ko'rinishdagi massa (pasta) hosil bo'lgunicha yaxshilab ezib aralashtiriladi. So'ngra polivinilxlorid kukuni, maydalangan stearin,

tayyorlangan pasta bilan birga sharli tegirmonga solinib, xona haroratida 3 soat davomida bir xil massa hosil bo'lgunicha aralashtiriladi.

Tayyorlangan massa friktiyasi 1,17ga teng laboratoriya valtsida oldingi val harorati  $170^{\circ}\text{S}$ , orqa val harorati  $165^{\circ}\text{S}$  da gomogen massa hosil bo'lgunicha valtslanadi. Plastifitsirlangan massani issiq holda kalandrga uzatiladi va u yerda ingichka bir xil qalinlikka ega bo'lgan plenka olinadi.

Kalandrdan chiqayotgan plenka qalinligi 0,5 – 1 mm bo'lishi kerak.

Kalandr vallari harorati yuqorigi valdan pastki valgacha sekin – asta ortib borishi kerak. Yuqoridagi val harorati  $160 - 165^{\circ}\text{S}$ , o'rtadagi valniki  $165 - 170^{\circ}\text{S}$  va pastdagisini  $170 - 175^{\circ}\text{S}$  bo'lishi kerak.

Kalandrdan chiqayotgan polivinilxlorid plenkasini sovitilganidan so'ng bir xil kattalikdagi varaqlarga qirqilib, paketlarga yig'iladi. Plenkani o'zidan standart namunalar qirqib olib, uzilishdagi baqquvatligi, nisbiy cho'zilish va kimyoviy ta'sirlarga chidamliligi o'rganiladi.

Olinishi lozim bo'lgan viniplast plitasi qalinligiga qarab paket plenkaning bir nechtasidan yifiladi. Buning uchun ish stoliga metal plita, so'ngra bir necha qavat flanel, shaffoflangan po'lat varag'i, tsellofan varag'i ustma – ust qo'yiladi. So'ngra bir necha viniplast varag'i qo'yilib, uning ustiga yana tsellofan, ingichka shaffoflangan po'lat varag'i, flanel va metall plitalari qo'yiladi.

Ushbu yo'l bilan yig'ilgan "paket" laboratoriya pressiga qo'yilib  $170 - 175^{\circ}\text{S}$  va  $2 - 3 \text{ MPa}$  da polivinilxlorid plitasi qalinligining 1 mm.iga ikki min. davomida presslanadi. Presslangan buyum press tagida  $50^{\circ}\text{S}$  haroratgacha sovitiladi va bosim tushirilgach tayyor plita chiqarib olinadi.

### Topshiriq

1. Viniplastni fizik – mexanik xossalari aniqlang.
2. Viniplastni kimyoviy ta'sirlarga chidamliligini aniqlang.

### Adabiyotlar:

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y.
2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.
3. Magrupov F.A., Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti.Toshkent 2007, (elektron variant)

## Laboratoriya ishi – 11 Fenolfurfurol oligomerini olish

Ushbu ishda talaba polikondensatlanish reaktsiyalari yordamida olinadigan va suvda erimaydigan termoreaktiv oligomerlarni ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan tanishadi.

Oligomer hosil bo'lish reaktsiyasi quyidagi sxema bo'yicha amalga oshadi:

**Xom ashyo:** fenol – 47g; yangi haydab olingan furfurol – 60g; bariy gidroksidi – 0.2% (fenol massasiga nisbatan); natriy gidroksidi – 0.75%, fenol massasiga nisbatan (20% li suvli eritma ko'rinishida).

**Jihozlar:** aralashtirgich, qaytar sovitgich va termometr bilan jihozlangan uch bo'yinli kolba Rasm.8; himoyalovchi idishli suvli nasos; farfor idish; tunuka bo'lakchasi; suv hammomi.

Fenol, furfurol va bariy gidroksidini kolbaga solib aralashtiriladi. Qaytar sovitgichni ishlatilgan holda, reaktsion aralashma suv hammomi yordamida qaynagunicha qizdiriladi va ushbu haroratda 1,5 soat ushlab turiladi. So'ngra qaytar sovitgich orqali natriy gidroksidining suvdagi eritmasi solinib, qizdirishni yana 1 – 1.5soat davom ettiriladi.

Reaktsiya tugagach kolbadagi massa farfor idishga solinib sekin –asta vakuum shkaf ichida burlantiriladi. Bug’lantirish, soviganida qattiq holdagi oligomer hosil bo’lgunicha (Ubbelode bo’yicha tomchi tushish harorati 97–110°S) davom ettiriladi.

Tayyor oligomer tunuka bo’lakchasiga quyib olinadi va havoda sovitiladi (havo so’rvuchi shkaf ichida)

### Topshiriq

1. Oligomerni fenol va furfurol miqdorlariga nisbatan chiqishini aniqlang.
2. Oligomerni 10% geksametilentetramin bilan 180°S da gel holigacha qotish tezligini aniqlang.

### Adabiyotlar:

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulalari birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma’ruzalar matni. Qarshi 2010 y.
2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.
3. Magrupov F.A., Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti.Toshkent 2007, (elektron variant)

### Laboratoriya ishi – 12

#### Karbamid – formaldegid oligomerini suvdagi eritmasini olish

Ushbu laboratoriya ishida talaba suvda eruvchi termoreaktiv oligomerlarni ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan tanishadi.

Mochevina – formaldegid oligomerining tuzilishi quyidagicha:

**Xom ashyo:** karbamid – 60g (1 mol); formaldegid – 130g (1,75 mol 37% li suvdagi eritmasi); urotropin – 3 – 4g; shavel kislotasi – 0,3g.

**Jihozlar:** qaytar sovitgich, aralashtirgich va termometr bilan jihozlangan uch bÿyinli kolba; rN – metr; 100 ml.li yassi taglik kolba; 100 ml.li sklyanka.

Uch bo’yinli kolbaga formalin solib qaytar sovitgich va aralashtirgich ishga tushiriladi, harorat 30 – 35°S gacha ko’tariladi. Ushbu haroratda aralashtirib turib urotropin qo’shiladi (20-30 % li suvdagi eritma ko’rinishida) va 5 min. dan so’ng muqitning rNi aniqlanadi. Muhitning rNini 7,4 – 8,2 qilib olingach asta – sekin aralashtirib turib karbamid solinadi. Harorat 30 – 35°S da ushlab turiladi. Karbamid erib bo’lgach, shavel kislotasi (20%li suvdagi eritmasi) qo’shiladi va rN = 7,4 – 8,0 da reaktsiya davom ettiriladi. Vaqt – vaqt bilan muhitdagi bo’sh formaldegid miqdori va rN aniqlab turiladi. Reaktsiya, oligomer eritmasi tarkibida bo’sh formaldegid miqdori 10 – 12%, rN = 5,5 – 6,0 bo’lganida to’xtatiladi.

Reaktsiya haroratini 35°S dan oshirib yuborish ekzotermik reaktsiyaga va uning natijasida gel hosil bo’lishiga olib keladi.

### Topshiriq

1. Reaktsion aralashmaning quruq qoldig’ini aniqlang.
2. Reaktsion aralashmani VZ – 4 bo’yicha qovushqoqligini aniqlang.

### Adabiyotlar:

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulalari birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma‘ruzalar matni. Qarshi 2010 y.
2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.
3. Magrupov F.A., Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti.Toshkent 2007, (elektron variant)

### **Laboratoriya ishi – 13**

#### **Ftal angidridi bilan etilenglikol asosida poliefir olish.**

**Ishdan maqsad,** termostatik xarakterga ega, yuqori elastiklik namoyon qiladigan murakkab poliefirlarni ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan tanishish.

Poliefir hosil bo’lishi quyidagicha reaktsiya asosida ketadi.

**Xom ashyo:** ftal angidridi – 37 g; etilenglikol-16 g

**Jihozlar:** 250 ml. li 3 og’izli kolba (Rasm.4); termometr; motorli aralashtirgich; qaytarma sovitgich; elektr plitka; Din-Stark tutqichi.

Kolbaga kerakli miqdorda ftal angidridi va etilenglikol solinadi. Qaytarma sovitgich, Din-Stark ushlagichi, va aralashtirgich kolbaga ýrnataladi va aralashmani  $130^{\circ}\text{S}$  haroratgachan qizdiriladi. Aralashtirgichning yuqori lappaklari haydalayotgan ftal angidridini reaktsiya muhitiga qaytarib turadi. 1-1,5 soatdan keyin aralashma sirop holatida, bir xil tiniq holga keladi. Shundan keyin haroratni asta sekin  $180^{\circ}\text{S}$  gacha ko’tariladi va  $180^{\circ}\text{S}$  da 4 soat ushlab turiladi. Polikondensatlanish reaktsiyasi natijasida ajralib chiqqan suv Din-Stark tutqichida yig’iladi.

Rasm.4. Suyuq holga o’tmasdan yengil haydaluvchi moddalarni polikondensatlash johozi

Reaktsiya tugashidan 1soat oldin kolbadan, shisha tayoqcha orqali namuna olinib, uni tunika ustiga solinadi. Olingan namuna sovishi natijasida qotsa, reaktsiyani tugadi deb hisoblasa bo’ladi. Kolbani qizdirishni to’xtatib, issiq holdagi smolani, temir tunika ustiga quyiladi.

Olingan smola sovishi natijasida qattiq holatga o’tadi. Olingan smola organik erituvchilarda yaxshi eriydi.

### **Topshiriq**

1. Smolani chiqish miqdori ( % ) va kislota sonini aniqlang.
2. Ubelode bo'yicha smolani tomchi tushish haroratini aniqlang ( $75 - 80^{\circ}\text{S}$ )
3. Olingan smola asosida lok tayyorlang.

### **Adabiyotlar:**

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulalari birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma‘ruzalar matni. Qarshi 2010 y.

2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.

3. Magrupov F.A., Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti. Toshkent 2007, (elektron variant)

### Laboratoriya ishi - 14

#### Distillangan yogli kislotalar bilan modifitsirlangan pentaftal poliefirini azeotrop usulda olish

**Ishdan maqsad,** qaytar polikondensatlanish reaktsiyalarida, jarayonni to'g'ri reaktsiya (polikondensatlanish) tomoniga siljitim texnologik usuli bilan tanishishdir.

**Xom ashyo:** glitserin – 19,8g; pentaeritrit – 10,2g; ftal angidridi – 40g; distillangan yog'li kislotalar – 30g; ksilol – xom ashylarga nisbatan 3%.

**Jihozlar:** Rasm.4 dagi jihoz; 250 ml.li kolba – 3ta; VZ-4 viskozimetri; iodometrik shkala; sekundomer.

Hamma xom ashyo kolbaga solinadi (ksilol ham) va aralashtirgichni ishlatib, inert gaz o'tkaziladi. Haroratni 200°С gacha ko'tarib, K.S. 10 dan ortiq bo'limgan poliefir hosil bo'lguncha polikondensatlanish reaktsiyasi o'tkaziladi.

### Topshiriq

1. Poliefirni toluoldagi 50%li lokini oling va uni qovushqoqligini aniqlang (125-200 sek. orasida bo'lishi kerak).

2. Lokdan qoplama oling va uni fizik – mexanik xossalari aniqlang.

### Adabiyotlar:

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y.

2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.

3. Magrupov F.A., Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti. Toshkent 2007, (elektron variant)

### Laboratoriya ishi – 15

#### Polietenglikol maleinatni olish

**Ushbu ishdan maqsad,** talabalarni to'yinmagan poliefirlar ishlab chikarishning o'ziga xos texnologik jarayoni bilan tanishtirish

Reaktsiya quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi:

Reaktsiya quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi:

**Xom ashyo:** malein angidridi – 46g (0,5 mol); etilenglikol – 51,7g (0,55 mol); stirol

**Jihozlar:** inert gaz muhitida polikondensatlanish o'tkazish jihizi (Rasm4); Vud qorishmali hammom; 3 ta 250ml.li kolbalar; 250 ml.li jilvirlangan qopqoqli banka.

To'rt bo'yinli kolbaga malein angidridi va etilenglikol solinadi. Inert gaz o'tkazib turib 150 – 160°С gacha qizdiriladi. So'ngra 3 – 4 soat ichida harorat sekin – asta 180 – 190°С gacha ko'tariladi (10°С

1 soatda). Ushbu haroratda poliefir kislota soni 32 – 34 mg KON/g bo’lgunicha reaktsiya davom ettiriladi. Kislota sonini aniqlash uchun harorat 180°S ga ko’tarilganidan so’ng, har bir soatda namuna olib turiladi.

Kislota sonini aniqlash uchun oligoefirni 0,3 – 0,5g namunasi metil spirtida eritib olinadi va 0,5N li ishqor bilan titrlanadi. Kerakli kislota soniga ega poliefir xosil bўlganidan sўng, xarorat 50 – 60°S gacha sovitoladi va aralashtirgichni ishlatib turib 30 – 35g stirolda eritiladi.

### Topshiriq

1. To’yinmagan poliefir smolasini to’yinmaganlik darajasini aniqlang.

2. To’yinmagan poliefir smolasiga metiletiketon peroksidi eritmasi va kobalt naftenati eritmalaridan poliefirga nisbatan mos ravishda 1,5 va 0,6% qo’shib 60°S va 120°S da qotish tezligini o’rganing.

### Adabiyotlar:

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoiy texnologiyasi» fanidan ma’ruzalar matni. Qarshi 2010 y.

2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.

3. Magrupov F.A., Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti.Toshkent 2007, (elektron variant)

### Laboratoriya ishi – 16

#### Furfurol asosida oligomer va plastik massa olish

Bunda quyidagi strukturaga ega oligomer xosil bo’ladi:

**Xom ashyo:** yangi xaydalgan furfurol – 40g; geksametilentetramin – 10g; tsink xloridi – 1g; kaolin – 25g; kaltsiy stearati – 1g.

**Jihozlar:** qaytar sovitgich, aralashtirgich va termometr bilan jihozlangan uch bo’yinli kolba; Libix sovitgichi; farfor likopchasi; yuqori xaroratda qaynaydigan suyuqlikli hammom.

Kolbaga furfurol bilan geksametilentetramin solib aralashtirgich ishlatiladi. Qaytar sovitgichni ishlatib reaktsion aralashma qaynash xaroratida 8 – 12 soat ushlab turiladi. Reaktsiya kolbadagi bo’sh furfurol miqdorini ýzgarmaydigan xolga kelganida to’xtatiladi. Shundan so’ng қaytar sovitgich to’g’ri sovitgichga almashtirilib, aralashtirgich to’xtatiladi va buf xarorati 110 – 115°S da yengil uchuvchilar haydar yuboriladi (kolbadagi massaning xarorati 160 – 180°S bўladi). Tayyor oligomerni farfor idishiga quyib olinadi.

Oligomer asosida press – kukun olish uchun, 20g oligomerni 1g kaltsiy stearati, 25g kaolin va 1g ZnCl<sub>2</sub> bilan valtsda aralashtiriladi. Oldingi valni xarorati 110 – 120°S, orqa valni xarorati 80 – 90°S bo’lishi kerak. Valtslangan materialni maydalab olinganidan so’ng 160 – 200°S da 40 min. qizdirib olinadi. Tayyor press-kukundan 180 – 250°S xaroratda 30 – 40 MPa bosimda xar bir mm. qalinligiga 1-2min. dan ushlab standart namuna presslab olish mumkin.

### Topshiriq

1. Oligomerni furfurolga nisbatan chiqishini aniqlang.

2. Oligomerni qotishini 5% malein angidridi ishtirokida  $120^{\circ}\text{S}$  da aniqlang.

### Adabiyotlar:

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimoviy texnologiyasi» fanidan ma‘ruzalar matni. Qarshi 2010 y.
2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Вис.шк. 1986.
3. Magrupov F.A., Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti.Toshkent 2007, (elektron variant)

### Laboratoriya ishi – 17

#### Furfurol va atseton asosida monomerlar aralashmasini olish (FA monomeri)

Ushbu ishda talaba manomer ko’rinishdagi reaktsion faol moddalarni ishlab chiqazish texnologik jarayoni bilan tanishadi.

Furfurol atseton bilan reaktsiyaga kirishib polifunktional birikmalar, mono- va difurfurilidenatsetonlar hosil qiladi.

Mono- va difurfurilidenatsetonlar, furfurol bilan atsetonni kuchsiz ishkoriy muxitda, spirt yoki suv muhitida reaktsiyaga kirishishi natijasida hosil bo’ladi

**Xom ashyo:** Furfurol - 97g (1 mol); atseton – 58g (1 mol); natriy gidroksidining 20%li suvdagi eritmasi – 5g; etil spirti - 4ml;  $\text{N}_2\text{SO}_4$  (30%li suvdagi eritmasi);

**Jihozlar:** Qaytar sovitgich, aralashtirgich, termometr va tomchilovchi voronka bilan jihozlangan 250 ml.li kolba (Rasm.4 kolba 4 bo’yinliga almashtiriladi); suv xammomi.

Kolbaga yangi haydab olingen furfurol va aralashtirib turib atseton, spirt solinadi. So’ngra qaytar sovitgich ishga tushirilib katalizator – o’yuvchi natriyning suvdagi 20 % li eritmasi tomchilovchi voronkadan sekin – asta tomchilab quyiladi. Reaktsiya natijasida katta miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Reaktsiya muhitida  $30 - 52^{\circ}\text{S}$  xaroratni soviq suvli hammom yordamida ushlab turiladi. Ekzotermik reaktsiya tugagach, (muxitdagi harorat pasaya boshlaganida) hammomga issiqlik suv quyilib, harorat  $86 - 96^{\circ}\text{S}$  gacha ko’tariladi. Ushbu haroratda 6 soat ushlab turilgach, isitish to’xtatiladi va reaktsiya muhitida  $25 - 30^{\circ}\text{S}$  gacha sovitiladi. Sovitilgan muhitga 30%li sulfat kislotasi qo’shib, muhit neytrallanadi. So’ngra reaktsiya massasi sokin holda ushlanadi ( $20 - 30\text{min}$ ) va buning natijasida u ikki qavatga ajraladi (FA monomeri pasda, suv tepada yifiladi). Tepadagi suvni dekontatsiya qilib (quyib) olinadi. Kolbada qolgan massadan (qaytar sovitgich to’g’risiga almashtiriladi) suv haydab yuborilgach, aralashtirib turib 1,5 -2 soat davomida  $150 - 160^{\circ}\text{S}$  da quritiladi. Tayyor monomer FA sovitilib, idishlarga quyib olinadi.

Uning tarkibi quyidagicha bo’ladi (%)

Monofurfurilidenatseton.....	65 – 70
Difurfurilidenatseton .....	20 – 25
Oligomer .....	2 – 5
Suv .....	0,5 – 1,5
Furfurol .....	1,3 gacha
Atseton .....	1,0 gacha

FA monomeri to’q jigarrang rangli suyuqlik bo’lib, atsetonda yaxshi eriydi (suvda erimaydi).

FAM monomeri 1,5 mol furfurol bilan 1mol atsetondan, monomer FAga o’xshatib olinadi. Ammo FAM monomeri tarkibida difurfurilidenatseton miqdori (65%) FA monomeridagidan ancha ko’p bo’ladi.

### Topshiriq

1. FA monomerini zichligini aniqlang.
2. Benzolsulfokislota katalizatori ishtirokida (1%) qotish tezligini aniqlang.

### **Adabiyotlar:**

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma‘ruzalar matni. Qarshi 2010 y.
2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Вис.шк. 1986.
3. Magrupov F.A.,Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti.Toshkent 2007, (elektron variant)

## **Laboratoriya ishi – 18**

### **Fenolfurfurol oligomeri asosida press – kukun olish**

**Ishdan maqsad,** termoreaktiv oligomerlar asosida turli qo’shimchalar qo’shib plastik massalar (yarim maxsulot) ishlab chiqarishni valtslash texnologik jarayoni jarayoni bilan tanishish.

**Xom ashyo:** fenolfurfurol oligomeri - 50g; yog’och uni – 50g; geksametilentetramin – 5g.

**Jihozlar:** laboratoriya sharli tegirmoni (farfor hovoncha maydalagich bilan); valts.

50g fenolfurfurol oligomeri sharli tegirmonda yoki farfor hovonchada yaxshilab maydalab olingach, 80 – 90°С gacha qizdirilgan valtsda yog’och uni va geksametilentetramin bilan bir necha minut davomida gomogenlab olinadi. So’ngra yana sharli tegirmon yoki farfor hovonchada maydalab olinadi. Hosil bo’lgan press – kukunni rangi qora bo’lganligi sabali bo’yoq qo’shilmaydi.

### **Topshiriq**

Press – kukunni oquvchanligini Rashig press – shaklida (Rasm.25) va qotuvchanligini Kanavets plastometrida (Rasm.30) aniqlang.

### **Adabiyotlar:**

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma‘ruzalar matni. Qarshi 2010 y.
2. Коршак В.В., "Технология поастических масс", М., "Химия", 1985.
3. Magrupov F.A.,Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti.Toshkent 2007, (elektron variant)

## **Laboratoriya ishi – 19**

### **Sulfat tsellyulozasi va mochevina – formaldegid oligomerlarining suvdagi eritmasi asosida aminoplast tayyorlash**

**Ushbu ishda talaba plastik massalarni eritmadi oligomerlar asosida ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan tanishadi.**

**Xom ashyo:** karbamid –formaldegid oligomerlarining suvdagi eritmasi (hisoblanganda quruq massasi) – 55 g; sulfat tsellyuloza – 45 g; litopon 0,5 g; rux stearati – 0,5 g; ftal angidridi – 0,5 g yoki shavel kislotasi – 0,4 g.

**Jihozlar:** ikki lappakli aralashsirgich; isitish shkafi; emallangan kyuveta; sharli tegirmon; press; termostat; presslash va tabletkalashga shakllar.

Karbamid – formaldegid oligomerlarining suvdagi eritmasi sekinlik bilan to’ldiruvchi, litopon (pigment) va rux stearat (yog’lovchi modda) aralashmasiga qo’shiladi. Aralashma mexanik ravishda 30 minut mobaynida gomogen holga kelguncha aralashdiriladi. Aralashdirish tugallanganidan so’ng mahsulot shisha yoki emallangan kyuvetada 70 – 75°S da termoshkafda qattiq holgacha quritiladi. (3,5 – 4 soat davomida). Press kukunning namligi 3%dan oshmasligi lozim. Quritish tugallangach material sharli tegirmonda 3 soat maydalanadi. So’ngra kukunga ftal angidridi (yoki shavel kislotasi) qo’shilib, yana 1 soat aralashdiriladi.

**Press kukun tarkibidagi namlikni aniqlash;**

Buning uchun press kukundan 1g olinib termostatda 30 minut mobaynida 105°S da ushlab turiladi. Yo’qolgan massa miqdori 5% dan ko’p bo’lmasligi lozim. Hisoblash quyidagi tenglama yordamida amalga oshiriladi:

$$W = \frac{(b - a) \times 100}{b}$$

Bu yerda: a – quritilgan kukun og’irligi,

b – kukunning quritishgacha og’irligi.

**Press kukun dastavval tabletkalanadi.** Tabletkalar soviq holda yoki 30 – 35°S gacha qizdirilgan tabletkalovchi mashinalarda yoki zarbiy presslarda olinadi. Tabletkalarni yuqori chastotali tok yordamida yoki termostatda qizdirib olinadi. So’ngra tabletkalar 135°S gacha qizdirilgan shakllarga solinib, avvaliga 10 MPa bosimda (bu bosim tezda tushiriladi), so’ngra 20,6 MPa bosimda kerakli vaqtida presslanadi. Pressda ushlab turish vaqt 30 sek/mm hisobida olinadi. Olingan mahsulot sifatli bo’lishi lozim.

**Topshiriq**

1. Press – kukun tarkibidagi namlikni aniqlang.
2. Press – kukundan presslab olingan namunalarni egilishdagi va zarbiy mustahkamligini xamda suv yutishini aniqlang.

**Adabiyotlar:**

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulalari birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma’ruzalar matni. Qarshi 2010 y.
2. А.П.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Вис.шк. 1986.
3. Magrupov F.A., Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti. Toshkent 2007, (elektron variant)

**Laboratoriya ishi - 20**

**Polivinil spirtini ishqor ishtirokida olish**

Ushbu laboratoriya ishini bajarishda talaba polimerlarni madifitsirlash reaktsiyalarida qatnashib yangi xil polimerlar olish texnologik jarayoni bilan tanishadi.

Reaktsiya quyidagi sxema bo'yicha amalga oshadi:

**Xom ashyo:** polivinilatsetat – 30g; kaliy gidroksidi – 22,5g; etil spirti – 280g.

**Jihozlar:** tomchilovchi voronka; aralashtirgich bilan jihozlangan uch bo'yinli kolba; Byuxner voronkasi; vakuum – eksikator.

Avvaliga 22,5g KON (yoki mollar miqdorida to'g'ri keladigan NaOH) 190g. spirtda eritib olinadi. Tayyor polivinilatsetat esa 90g spirtda eritilib, tomchilash voronkasiga solinadi.

Ishqorni spirtdagi eritmasi tubusli kolbaga solinib, aralashtirib turilgan holda tomchilab polivinilatsetatning spirtdagi eritmasi qo'shiladi. Sovunlanish reaktsiyasi xona haroratida 1,5 – 2 soat davom etadi.

Kolba tagiga cho'kkан polivinil spirtini ajratib olib Byuxner voronkasida yuvindi spirtning Ni neytral holga kelgunicha yuviladi va 40 -50°S da quritib olinadi.

### Topshiriq

1. Polimerni polivinilatsetatga nisbatan chiqishini aniqlang.
2. Polimerdagi atsetil yoki gidroksil guruxlari sonini aniqlang.

### Adabiyotlar:

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y.

2. A.P.Григорев, О.Я.Федотова «Лабораторный практикум по технологии пластических масс» Москва, Выс.шк. 1986.

3. Magrupov F.A.,Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti.Toshkent 2007, (elektron variant)

### Laboratoriya ishi – 21

#### Rezol oligomeri va polivinilbutiral asosida yelim olish (BF – yelimi)

Ushbu ishda talaba қандай usullardan foydalanib, zarbga chidamli polimer kompozitsiyalari olish usullari bilan tanishadi.

**Xom a'shyo:** rezol oligomerini spirtdagi yoki atsetondagi 50%li eritmasi – 20g; polivinilbutiralni spirt yoki atsetondagi 30%li eritmasi – 15g.

**Jixozlar:** uch bo'yinli kolba; Ford – Engler viskozimetri, yoki viskozimetr VZ – 4; 3x10x1mm.li metal plastinalari; yelimlash mustahkamligini aniqlash namunalari; termostat.

Uch bo'yinli kolbaga rezol loki solinadi va unga aralashtirib turib 25 – 30°S da 30 min. davomida tomchilovchi voronkadan polivinilbutiral loki qo'shiladi.(birinchi kolbaga 5 g, ikkinchi kolbaga 10 g, uchinchi kolbaga 15 g)

Aralashma lok – BF markali yelimlar turiga kiradi. Komponentlarni nisbatlariga qarab ular BF – 2, BF – 3, BF – 4, BF – 5, BF – 6 markalarida chiqariladi va turli materiallarni yelimlashda ishlatiladi.

### Topshiriq

1. Laboratoriya ishida olingan yelim bilan dyuralyumiyyili namunalarni yelimlab 145-160°S da qotiring va uzilishdagi mustahkamligini aniqlang.

### Adabiyotlar:

1. S.SH.Lutfullaev «Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fanidan ma'ruzalar matni. Qarshi 2010 y.

2. Сорокин М.Ф., Лялюшко К.А. Практикум по химии и технологии плёнкообразующих веществ."Химия", М., 1971.


3. Magrupov F.A. Polimerlar va plastik massalar texnologiyasidan laboratoriya amaliyoti.Toshkent 2007, (elektron variant).

## **2.5. Modul bo‘yicha keyslar to‘plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar, nazorat va test savollari va mustaqil ta’lim yuzasidan ko‘rsatmalar**


### **Modul bo‘yicha keyslar to‘plami**

**O‘quv predmeti: “Yuqori molekulalgi birikmalar kimyoiy texnologiyasi”**

#### **“FSMU” metodi**




#### **“Baliq skeleti” metodi**



**”Rezyume” metodi**

<b>Muammo</b>			
<b>1-usuli</b>		<b>2-usuli</b>	
<b>Afzalliklari</b>	<b>Kamchiliklari</b>	<b>Afzalliklari</b>	<b>Kamchiliklari</b>
<b>Xulosa:</b>			

**“Ven diagrammasi” metodi**



**“ASSESMENT” namunasi**

<b>Var.№1</b>	<b>“Yuqori molekulalı birikmalar kimyoviy texnologiyasi” fanini o’quv moduli boyicha ASSESMENT</b>		
<b>1.TEST</b>		<b>3.QIYOSIY TAHLIL</b>	
<b>2.SIMPTOM</b>		<b>4.AMALIY KO’NIKMA</b>	

**Tuzuvchi:**

**Lutfullayev S.Sh.**

## TEST SAVOLLARI

**1. «Sintetik va tabiiy yuqori molekulalı birikmalar kimyoviy texnologiyasi» fani nimani o‘rganadi?**

- A) Sintetik va tabiiy yuqori molekulyar birikmalarni kimyoviy ishlab chiqarish texnologiyalarini.
- B) Sintetik va tabiiy yuqori molekulyar birikmalarni qo‘llanilish sohalarini
- C) Sintetik va tabiiy yuqori molekulyar birikmalarni qayta ishlash usullarini
- D) Sintetik va tabiiy yuqori molekulyar birikmalar kimyoviy qonuniyatlarini.

**2. Polietilen necha xil usulda ishlab chiqariladi?**

- A) 2 xil
- B) 3 xil
- C) 4 xil
- D) 5 xil

**3. Polistirol birinchi marta qachon sintez qilingan?**

- A) 1890 yil
- B) 1861 yil
- C) 1878 yil
- D) 1891 yil

**4. Toza stirol oddiy sharoitda qanday modda?**

- A) Qattiq modda
- B) Gazsimon modda
- C) Rangsiz suyuqlik
- D) Amorf modda

**5. Kimyoviy tuzilishi bo‘yicha poliefirlar qatoriga kiradigan polimerni ko‘rsating.**

- A) kapron
- B) neylon
- C) nitron
- D) lavsan

**6. Polipropilen sintez qilishda qanday turdag'i katalizatorlar ishlatiladi?**

- A) Sigler va Natta
- B) Metall oksidlari
- C) Titan
- D) Ishqoriy yer metallari.

**7. Polipropilen qaysi moddada va qay sharoitda eriydi ?**

- A) Oddiy sharoitda va organik suyuqliklarda eriydi
- B) 80°C da benzol va toluolda eriydi
- C) Oddiy sharoitda benzinda eriydi
- D) Xona haroratida xloroformda eriydi.

**8. Polivinilxlorid ishlab chiqarishda qanday monomer ishlatiladi?**

- A) Etilen
- B) Atsetilen
- C) Vinilxlorid
- D) Vinilidenxlorid

**9. Politetraftoretilenning monomeri tetraftoretilen necha usul bilan olinadi?**

- A) 2 xil
- B) 3 xil
- C) 4 xil
- D) 5 xil

**10. Teflon nima?**

- A) Termoplast material
- B) Politetraftoretilen
- C) Monomer
- D) Katalizator

**11. Polivinilspirt qaysi moddadan sintez qilinadi?**

- A) Vinilxoriddan
- B) Vinil spirtidan
- C) Vinilatsetattdan
- D) Etilspirtidan

**12. Tabiiy tolalarni ko'rsating.**

- A) Paxta.
- B) Lavsan.
- C) Naylon.
- D) Kapron.

**13. Polimerlarning destruksiyasi nima?**

- A) Polimer zanjirining tashqi tasirlar natijasida uzilishi
- B) Polimer zanjirining o'sishi
- C) Polimer zanjirining «tikilishi»
- D) Polimer zanjirining tarmoqlanishi.

**14. Etilenni past bosimda, past xaroratda va yuqori tezlikda polietileniga aylanishini kim kashf qilgan?**

- A) Natta
- B) Zinin
- C) Sigler
- D) Mendeleyev

**15. Quyidagi reaksiya nimani anglatadi?  $(C_2H_5)_2Al(C_2H_4)n C_2H_5 TiCl_3 + 4C_3H_7OH \longrightarrow Al(OC_3H_7)_3 + Ti(OC_3H_7)Cl_2 + HCl 2C_2H_4 + H(C_2H_4)NC_2H_5$**

- A) Polimerlanishda ishtirok etuvchi monomerlarni
- B) Polimerlanish tezligini
- C) Polimerlanish jarayonini
- D) Katalitik kompleksning parchalanishini (dezaktivatsiya)

**16. Katalizatorning tarkibi, turi va sintez usuliga qarab yuqori zichlikli polietilennenig molekulyar massasi qanchagacha bo'lishi mumkin?**

- A) 1000 dan 10000 gacha
- B) 10000 dan 300000 gacha
- C) 350000 dan 400000 gacha
- D) 450000-500000 gacha

**17. Sintetik tolani ko'rsating.**

- A ) Paxta.
- B) Ipak.
- C) Kanop.
- D) Lavsan

**18. Yuqori molekulalni poliizobutilen olish uchun katalizator sifatida qanday katalizator qo'llaniladi?**

- A) Bor ftorid ( $BF_3$ )
- B) Temir oksidi
- C) Sigler-Natta
- D) Alyuminiy oksidi

**19. Polietilenni polimerlash qanday muhitda olib boriladi?**

- A) Gaz fazada
- B) Suyuq fazada
- C) Qattiq fazada
- D) Vakuumda

**20. Erituvchi yoki uning bug'lari bilan kontaktda bo'lgan polimer massasi va xajmini ortishi qanday xodisadir?**

- A) Erish.
- B) Bo'kish.

- C) Relaksatsiy.
- D) Deformatsiyalanish

**21. Polietilen siklogeksandan qaysi qurilmada ajratiladi?**

- A) Past bosimli separatorlarda
- B) Trimerda
- C) Reaktorda
- D) Avtoklavda

**22. Sopolimer deb ... deyiladi?**

- A) Bir xil monomerlarning birikishidan hosil bo‘lgan polimer
- B) Aralash moddalardan tashkil topgan polimer
- C) Har xil monomerning birikishidan hosil bo‘lgan polimer
- D) Tarmoqlangan tuzilishga ega bo‘lgan monomerlar.

**23. Polimerlanishni to‘xtatadigan moddani ayting**

- A) Vodorod
- B) Kislorod
- C) Azot
- D) Vodorod peroksid

**24. Nima uchun buten-1 ishlatiladi?**

- A) Katalizator sifatida
- B) Somonomer sifatida
- C) Reaksiyani to‘xtatish maqsadida
- D) Reaksiyani tezlashtirish maqsadida.

**25. Polietilenni polimerlash necha xil rejimda olib boriladi?**

- A) 2 xil
- B) 3 xil
- C) 4 xil
- D) 5 xil

**26. Sintetik yuqori molekulyar birikmalar qatorini aniqlang.**

- A) polietilen , lavsan tolasi, teflon, divinil kauchugi.
- B) viskoza tolasi, polipropilen, kapron tolasi, oqsil.
- C) polistirol, polietilen, teflon, atsetat tolasi.
- D) polilorxlorvinil , fenolformaldegid smolasi.

**27. Yuqori bosimda olingan polietilenning zichligi qancha bo‘ladi?**

- A) 920-930 kg/m<sup>3</sup>
- B) 820-850 kg/m<sup>3</sup>
- C) 865-885 kg/m<sup>3</sup>
- D) 880-910 kg/m<sup>3</sup>

**28. Yuqori molekulali birikmalar qanday reaksiyalar orqali olinadi?**

- A) Polimerlanish va polikondensatlanish reaksiyalar.
- B) O‘rinalmashinish reaksiyalar.
- C) Ion almashinish reaksiyalar.
- D) Kation almashinish reaksiyalar.

**29. Polimeranologik o‘zgarishlar nima?**

- A) Ikki yoki undan ortiq monomerlarni sopolimerlanishi.
- B) Ikki yoki undan ortiq monomerlarni sopolikondensatlanishi.
- C) Modifikatsiyalash orqali polimer xossalari kerakli tomonga o‘zgartirish.
- D) Plastifikator qo‘sib polimerni elastiklik xossalari oshirish.

**30. Polimerlanish reaksiyalarini uchun initiatorlarning ahamiyati nimada?**

- A) Osonlik bilan parchalanib, erkin radikal hosil qiladi, reaksiya tezligini oshiradi, aktiv markaz hosil qiladi.
- B) erkin radikal hosil qiladi, reaksiya tezligini oshiradi, tarmoqlangan zanjir hosil qiladi.
- C) Osonlik bilan parchalanib, erkin radikal hosil qiladi, reaksiyani to'xtatadi.
- D) Osonlik bilan parchalanib, qo'shimcha mahsulotlar hosil bo'lishini oldini oladi.

**31. Initsiatorlarga quyidagilarning qaysilari misol bo'ladi va u qancha miqdorda qo'shiladi?**

- A) Kislorod, benzoil peroksidi va vodorod peroksid; 0,1-0,03 % gacha.
- B) Metall oksidi, 0,1-0,03 % gacha.
- C) Ishqoriy yer metallari, 0,5-0,02 % gacha.
- D) Sigler-Natta katalizatori, 0,8-1,2 % gacha.

**32. Kation polimerlanishni past haroratda amalga oshirib, katalizatorni aktivlanish energiyasini kamaytirish uchun qanday turdag'i sokatalizatorlar ishlataladi?**

- A) Ishqorlar
- B) Suv va mineral kislotalar
- C) Metall oksidlari.
- D) Vodorod peroksidi.

**33. Anionli polimerlanish katalizatorlari sifatida qanday moddalar ishlataladi?**

- A) Ishqoriy metallar va ularning amidlari, metall-organik birikmalar, yuqori valentli metall oksidlari va elektronodonor xossaga ega moddalar.
- B) Ishqoriy metallar va ularning amidlari, ishqorlar.
- C) Ishqoriy metallar va ularning amidlari, kislotalar.
- D) Ishqoriy metallar va ularning amidlari, mineral jinslar.

**34. YUMB hosil bo'ladigan polikondensatlanish reaksiysi nima?**

- A) Har bosqich reaksiyadan so'ng faqat suv va spirt ajralib chiqishi bilan boradigan YUMB hosil bo'lish reaksiysi polikondensatlanish deyiladi.
- B) Har bosqich reaksiyadan so'ng faqat ammiak va vodorod xlorid ajralib chiqishi bilan boradigan YUMB hosil bo'lish reaksiysi polikondensatlanish deyiladi.
- C) Har bosqich reaksiyadan so'ng suv, spirt, ammiak, vodorod xlorid ajralib chiqishi bilan boradigan YUMB hosil bo'lish reaksiysi polikondensatlanish deyiladi.
- D) Har bosqich reaksiyadan so'ng suv, spirt, kislorod, cho'kmalar ajralib chiqishi bilan boradigan YUMB hosil bo'lish reaksiysi polikondensatlanish deyiladi.

**35. Texnikada polimerlarni sintez qilishning necha xil usuli bor?**

- A) Massada, erituvchi muhitida va emulsion polimerlanish usullari.
- B) Suspenzion polimerlanish usuli.
- C) Blok usuli.
- D) Vakuum muhitida.

**36. Emulsion polimerlanishning initsiatorlari sifatida qanday moddalar qo'llaniladi?**

- A) Metall oksidlari, vodorod peroksid.
- B) Kislorod, suvda eruvchan perborat
- C) Suvda eruvchan persulfat, suvda eruvchan perborat, vodorod peroksid.
- D) Ishqoriy yer metallar, vodorod peroksid.

**37. Sanoatda yuqori bosimli (YUBPE) polietilen qanday bosim ostida olinadi?**

- A) 110-140 MPa
- B) 310-350 MPa
- C) 360-380 MPa
- D) 150-300 MPa

**38. Sanoatda yuqori bosimli (YUBPE) polietilen ishlab chiqarish uchun qanday turdag'i reaktorlar qo'llaniladi?**

- A) Trubasimon reaktor, minorali reaktor.
- B) Vakuum-reaktor, aralashtirgichli avtoklav reaktor.
- C) Trubasimon reaktor, trimer reaktor, aralashtirgichli avtoklav reaktor.
- D) Trubasimon reaktor, aralashtirgichli avtoklav reaktor.

**39. (YUBPE) polietilenni aralashtirgichli avtoklavda olishda polimerlash initsiatorlari sifatida qanday moddalardan foydalaniladi?**

- A) Di-tret-butil peroksidi, lauril peroksidi, tret-butilperbenzoat peroksidlari.
- B) Di-tret-butil peroksidi, kislород.
- C) Tret-butilperbenzoat peroksidlari, vodorod.
- D) Di-tret-butil peroksidi, oltingugurt 4- oksidi.

**40. Past bosimli (PBPE) polietilen qanday bosim ostida olinadi?**

- A) 0,3-0,5 MPa.
- B) 0,6-0,8 MPa.
- C) 0,9-1,2 MPa.
- D) 1,3-1,5 MPa.

**41. SHo'rtangazkimyo majmuasida qo'llaniladigan Sigler-Natta katalizatorlari tarkibini ayting.**

- A) Uchetilalyuminiy, dietilqo'rg'oshin.
- B) Uchetilalyuminiy, trietilqo'rg'oshin.
- C) Uchetilalyuminiy, dietilalyuminiyxlorid, titanetetraxloridi.
- D) Uchetilalyuminiy, trinatriy sulfat.

**42. O'rta bosimli (O'BPE) polietilen qanday bosim ostida olinadi?**

- A) 10 -15 MPa.
- B) 3,5 - 4 MPa.
- C) 20 - 25 MPa.
- D) 6 - 8 MPa.

**43. Polietlenning erish sharoiti va haroratini ayting.**

- A) Oddiy sharoitda (xona haroratida) organik erituvchilarda eriydi.
- B) 70°C dan yuqorida konsentrangan azot kislotasida eriydi.
- C) 70°C dan yuqorida xlorli va aromatik erituvchilarda eriydi.
- D) 200°C dan yuqorida xlorli va aromatik erituvchilarda eriydi.

**44. Polipropilen olish uchun propilenni polimerlanishi qanday fazalarda amalga oshiriladi?**

- A) Suspenziya va emulsiyada, eritma va massada, gaz fazasida.
- B) Suspenziya va emulsiyada, geterofazali sistemalarda.
- C) Faqat suyuq fazada.
- D) Faqat gaz fazasida.

**45. Polipropilenni kristallik darajasini yuqori bo'lishi qanday faktorlarga bog'liq?**

- A) Katalizatorlarni faolligiga.
- B) Katalizatorlarni yuqori stereospetsifiklikka ega bo'lishlari.
- C) Katalizatorlarni zaharlanmasligiga.
- D) Katalizatorlarni miqdoriga.

**46. Polipropilenning erish sharoiti va haroratini ayting.**

- A) Xona haroratida organik erituvchilarda eriydi.
- B) 80°C dan yuqorida aromatik (benzol, toluol) va xlorli uglevodorodlarda eriydi.
- C) 80°C dan yuqorida konsentrangan xlorid kislotasida eriydi.

D) 150°C dan yuqorida aromatik (benzol, toluol) va xlorli uglevodorodlarda eriydi.

**47. Polistirol qanday moddalarda eriydi?**

- A) Benzin va solyarkada.
- B) Atsetonda.
- C) Siklogeksanda.
- D) Aromatik va xlorlangan uglevodorodlarda, oddiy va murakkab efirlarda.

**48. Polistirol olishning sanoat usullarini aytинг.**

- A) Blokda polimerlash (uzluksiz usul), suspenziyada polimerlash (uzlukli usul), blok-suspenziyada polimerlash (uzlukli usul).
- B) Massada polimerlash (uzlukli usul).
- C) Emulsiyada polimerlash (uzluksiz usul).
- D) Ionli polimerlash (uzluksiz usul).

**49. Polistirol necha gradusga qizdirilganda monomer holigacha depolimerlanadi?**

- A) 100-150 °C gacha qizdirilganda.
- B) 180-200 °C gacha qizdirilganda.
- C) 220-260 °C gacha qizdirilganda.
- D) 300-400 °C gacha qizdirilganda.

**50. Stirol quyidagi qaysi monomerlar bilan sopolimerlar hosil qiladi?**

- A) Metilmekrilat, butadiyen, akrilonitril, divinilbenzol, vinilkarbozol, viniltoluol.
- B) Butadiyenstirol, butadiyen.
- C) Trimetilstirol, divinilbenzol.
- D) Vinilbenzol, viniltoluol.

**51. Texnikada ko‘pik polistirol qanday usullarda olinadi?**

- A) Presslab va presslamasdan olinadi.
- B) Blokda olinadi.
- C) Emulsiyada olinadi.
- D) Suspenziyada olinadi.

**52. Ko‘pik polistirolni yonuvchanligini kamaytirish uchun uning tarkibiga qanday moddalar qo‘shiladi?**

- A) Termostabilizatorlar.
- B) Antipirenlar.
- C) Antistatiklar.
- D) Yog‘lovchi moddalar.

**53. Polivinilxloridni suspenziya usulida ishlab chiqarish uchun qanday hajmdagi reaktorlar qo‘llaniladi?**

- A) 5-10 m<sup>3</sup> hajmli.
- B) 12-15 m<sup>3</sup> hajmli.
- C) 20-200 m<sup>3</sup> hajmli.
- D) 210-250 m<sup>3</sup> hajmli.

**54. Reaktorlarning ish unumdorligini oshirish uchun qanday qo‘srimcha qurilmalardan foydalaniladi?**

- A) Ikki pog‘onali quvur-quritgich.
- B) Xom-ashyo bilan uzluksiz ta’minlab turuvchi qurilma.
- C) Reaktorlar sonini oshirish.
- D) Separatorlar.

**55. Polivinilxloridni suspenziya usulida ishlab chiqarishda suspenziya barqarorlovchisi sifatida qanday turdag'i moddalar ishlataladi?**

- A) Oksietilsellyuloza, murakkab efirlar.
- B) Oksietilsellyuloza, metilsellyuloza, vinil spirtini vinilatsetat bilan sopolimerlari.
- C) Vinil spirtini vinilatsetat bilan sopolimerlari, kislotalar.
- D) Tetilsellyuloza, ishqorlar.

**56. Polivinilxloridni suspenziya usulida ishlab chiqarishda initsiator sifatida qanday turdag'i moddalar ishlataladi?**

- A) Lauril va benzoil peroksidi.
- B) Kislorod
- C) Metall oksidlari.
- D) Vodorod.

**57. Polivinilxloridni suspenziya usulida ishlab chiqarishda muhitni doimiy ushlab turish maqsadida qanday bufer qo'shimchalar ishlataladi?**

- A) Suvda eruvchi karbonatlar, murakkab efirlar.
- B) Fosfatlar, plastifikatorlar.
- C) Gidroksidlar, spirtlar.
- D) Suvda eruvchi karbonatlar, fosfatlar, gidroksidlar.

**58. Politetraftoretilen ishlab chiqarishda emulgator sifatida qanday turdag'i moddalar ishlataladi?**

- A) Fosfatlar, gidroksidlar.
- B) Perftorkarbon va monogidroperftorkarbon kislota tuzlari.
- C) Metall oksidlari.
- D) Spirtlar.

**59. Politetraftoretilen ishlab chiqarishda initsiator sifatida qanday turdag'i moddalar ishlataladi?**

- A) Kislorod.
- B) Yantar kislotaning peroksidi.
- C) Lauril va benzoil peroksidi.
- D) Vodorod.

**60. Politetraftoretilen ishlab chiqarish jarayonida avtoklavdagi bosim miqdori qanchani tashkil etadi?**

- A) 0,34 - 2,45 MPa
- B) 2,95 – 3,44 MPa
- C) 3,80 – 4,24 MPa
- D) 5,3 – 5,60 MPa

**61. Politetraftoretilenning suyuqlanish haroratini aytинг.**

- A) 240 °C
- B) 305 °C
- C) 327°C
- D) 380 °C

**62. Quyidagi xossalarning qaysi biri politetraftoretilenga xos?**

- A) Yonmaydi, kimyoviy ta'sirlarga chidamli va yaxshi dielektriklik, -269 dan +260°C gacha chidamli, mexanik va ishqalanishga chidamliligi yuqori.
- B) Yonmaydi, kimyoviy ta'sirlarga chidamli, elektr tokini yaxshi o'tkazadi.
- C) Mexanik va ishqalanishga chidamliligi yuqori, yuqori elastik modda.
- D) Yonmaydi, kimyoviy ta'sirlarga chidamli va mexanik ishqalanishlarga chidamsiz.

**63. Gaz bilan to'ldirilgan fenoplastlarga misollar keltiring.**

- A) Ko‘pik plastlar.
- B) Butadiyen-stirol kauchugi.
- C) Polistirol.
- D) Polivinilxlorid.

**64. Rezollar asosidagi ko‘pikplastik olishda gaz hosil qiluvchi sifatida qanday turdag'i moddalar qo‘llaniladi?**

- A) N-pentan, spirtlar.
- B) N-pentan, natriy bikarbonat, freon.
- C) Freon, vodorod peroksid.
- D) Natriy bikarbonat, nordon kislotalar.

**65. Rezollar asosidagi ko‘pikplastiklarni qotirish katalizatorlari sifatida qanday turdag'i moddalar qo‘llaniladi?**

- A) Ishqorlar
- B) Asoslar
- C) Kislotalar.
- D) Metall oksidlari.

**66. Ko‘pikplastiklar sanoatda qanday ko‘rinishda ishlab chiqariladi?**

- A) Varaq va brus ko‘rinishida.
- B) Varaq, plita va turli shakldagi buyumlar ko‘rinishida.
- C) Varaq va tola ko‘rinishida.
- D) Plita va sharikchalar ko‘rinishida

**67. Aminoplastlar nima?**

- A) Karbamidformaldegid oligomerlari asosidagi press-kukunlar aminoplastlar deb ataladi.
- B) Tarkibida amin guruhlari tutgan monomerlar aminoplastlar deb ataladi.
- C) Tarkibida amin guruhlari tutgan oligomerlar aminoplastlar deb ataladi.
- D) Tarkibida amid guruhlari tutgan oligomerlar aminoplastlar deb ataladi.

**68. Quyida keltirilgan aminoplastlar olish texnologiyasida to‘g‘ri tanlangan texnologik jarayonlar ketma-ketliklarini aytинг?**

- A) Oligomerni suvdagi emulsiyasini olish, kompozitsiyani maydalash, presslash.
- B) Oligomerni suvdagi emulsiyasini olish, komponenntlarni aralashtirish, kompozitsiyani quritish, presslash.
- C) Oligomerni suvdagi emulsiyasini olish, komponenntlarni aralashtirish, kompozitsiyani quritish, kompozitsiyani maydalash, press-kukunni standartlash, presslash.
- D) Oligomerni suvdagi emulsiyasini olish, press-kukunni standartlash, presslash.

**69. Texnikada amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan termoplastik poliefirlarga qanday moddalar kiradi?**

- A) Polikarbonatlar, polietilen.
- B) Polikarbonatlar, polietilentereftalat, poliarilatlar.
- C) Polivinilxlorid.
- D) Polistirol.

**70. Polietilentereftalat sanoatda qanday bosim va haroratda olinadi?**

- A) 1,7 MPa bosim va 200<sup>0</sup>C da.
- B) 2,7 MPa bosim va 280<sup>0</sup>C da.
- C) 3,8 MPa bosim va 300<sup>0</sup>C da.
- D) 4,8 MPa bosim va 250<sup>0</sup>C da.

**71. Polietilentereftalatni suyuqlanish harorati qanchani tashkil etadi?**

- A) 265<sup>0</sup>C.

- B)  $190^{\circ}\text{C}$ .
- C)  $220^{\circ}\text{C}$ .
- D)  $320^{\circ}\text{C}$ .

**72. Quyida to‘g‘ri keltirilgan polietilentereftalat tolalarining nomini ayting.**

- A) Lavsan, kapron.
- B) Terilen, teflon.
- C) Dekron, kaprolaktam.
- D) Lavsan, terilen, dekron.

**73. Poliarilatlardan qanday turdagি materiallar olinadi?**

- A) O‘zoq vaqt moy surtilmasdan ishlashi mumkin bo‘lgan sirpanish va tebranish podshipniklari, yuqori elastiklikga ega bo‘lgan materiallar.
- B) O‘zoq vaqt moy surtilmasdan ishlashi mumkin bo‘lgan sirpanish va tebranish podshipniklari, to‘ldirilgan antifriksion materiallar, yuqori haroratda ( $250^{\circ}\text{C}$ ), vakuumda va ishqalanishga chidamli bo‘lgan materiallar.
- C) To‘ldirilgan antifriksion materiallar, aromatik xususiyatlarga ega bo‘lgan materiallar.
- D) Vakuumda va ishqalanishga chidamli bo‘lgan materiallar, oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash buyumlari.

**74. Malein va fumar kislotalari asosida olingan to‘yinmagan poliefirlar sanoatda birinchi marta qaysi yili olingan?**

- A) 1935 yil.
- B) 1940 yil.
- C) 1955 yil.
- D) 1963 yil.

**75. Nima uchun polivinil spirtini o‘z monomeridan sintez qilib bo‘lmaydi?**

- A) Vinil spirti o‘ta beqarorligi sababli.
- B) Monomer juda qimmatligi sababli.
- C) Reaksiya jarayonini boshqarish qiyinligi sababli.
- D) Vinil spirti uchuvchan bo‘lganligi sababli.

**76. Polivinil spirti sanoatda qanday usul bilan olinadi?**

- A) Polivinilatsetatni alifatik spirtlar muhitida va anorganik asos yoki kislotalar ishtirokida sovunlab olinadi, polivinilatsetatdan gidroliz usulida olinadi, polivinilatsetatni katalitik alkogolizi orqali olinadi.
- B) Polivinilatsetatdan gidroliz usulida va termik kataliz usulida olinadi,
- C) Polivinilatsetatni katalitik alkogolizi orqali va krekinglash orqali olinadi.
- D) Polivinilatsetatni alifatik spirtlar muhitida va anorganik asos yoki kislotalar ishtirokida sovunlab olinadi, polimerlash orqali olinadi.

**77. Polivinil spirti agregat holatiga ko‘ra qanday modda?**

- A) Suyuq modda.
- B) Tolali modda.
- C) Kristal polimer, oq rangli kukun, paxtasimon ko‘rinishdagi modda.
- D) Pastasimon ko‘rinishdagi modda.

**78. Quyida nomlari to‘g‘ri keltirilgan varaq ko‘rinishidagi to‘ldirgichlardan olingan press-materialarni ayting.**

- A) Getinaks, linoleum.
- B) Tekstolit, teflon, fenoplast.
- C) Asbotekstolit, ruberoid, qog‘oz.
- D) Getinaks, tekstolit, asbotekstolit, shishatekstolit, shisha tolali anizotrop material.

## **79. Tekstolitlar nima?**

- A) Rezol oligomerlari yoki ularni boshqa polimerlar bilan qo'shilgan aralashmalari shmdirilgan paxta matolarini qavatma-qavat taxlab, presslab olingan qatlam plastik.
- B) Organik erituvchilarda eritilan polimer shmdirilgan paxta matolarini qavatma-qavat taxlab, presslab olingan qatlam plastik.
- C) To'ldirgichlar bilan paxta matolarini aralashtirib, qavatma-qavat taxlab, presslab olingan material.
- D) Organik yog'lovchi moddalar bilan paxta matolarini aralashtirib, qavatma-qavat taxlab, presslab olingan material.

## **80. Getinakslar nima?**

- A) Mazut bilan shmdirilgan qog'ozlardan presslab olinadigan mahsulotlar.
- B) Organik shisha bilan shmdirilgan qog'ozlardan presslab olinadigan mahsulotlar.
- C) Murakkab efirlar bilan shmdirilgan qog'ozlardan presslab olinadigan mahsulotlar.
- D) Fenol, krezo va ksilenol-formaldegid oligomerlari bilan shmdirilgan qog'ozlardan presslab olinadigan mahsulotlar.

## **81. Asbotekstolitlar nima?**

- A) Rezol oligomerlarini suv-spiriti eritmasi bilan shmdirilgan qog'ozlardan presslab olinadigan mahsulotlar.
- B) Rezol oligomerlarini suv-spiriti eritmasi bilan shmdirilgan asbest matosini presslab olinadigan mahsulotlar.
- C) Rezol oligomerlari aralashmasi bilan qog'ozlardan presslab olinadigan mahsulotlar.
- D) Rezol oligomerlarini suv-spiriti eritmasi bilan shmdirilgan yog'ochni presslab olinadigan mahsulotlar.

## **82. Ko'pikplastlar nima?**

- A) Polimer xom-ashyosini ko'pirishi natijasida bir-biri bilan tutashmagan bo'shliqlarni gaz bilan to'ldirilishi natijasida hosil bo'lgan plastmassalar.
- B) Xom-ashyosini ko'pirishi natijasida bir-biri bilan tutashmagan bo'shliqlarni yuqori elastik holatdagi polimer bilan to'ldirilishi natijasida hosil bo'lgan plastmassalar.
- C) Yuqori elastik holatdagi polimerlar.
- D) Polimer xom-ashyosini ko'pirishi natijasida bir-biri bilan tutashmagan bo'shliqlarni to'ldirgichlar bilan to'ldirilishi natijasida hosil bo'lgan plastmassalar.

## **83. Novolak oligomerlaridan ko'pik plastik olish texnologiyasi ketma-ketligini ayting.**

- A) Komponentlar aralashmasini sharli tegirmonda tayyorlab olish, ko'pirtirish va qolipda qotirish.
- B) Komponentlar aralashmasini sharli tegirmonda tayyorlab olish, kompozitsiyani suyuqlanma holiga o'tkazish, qolipda qotirish.
- C) Komponentlar aralashmasini sharli tegirmonda tayyorlab olish, kompozitsiyani suyuqlanma holiga o'tkazish, ko'pirtirish va qolipda qotirish.
- D) Komponentlar aralashmasini sharli tegirmonda tayyorlab olish, kompozitsiyani suyuqlanma holiga o'tkazish va ko'pirtirish.

## **84. Rezol oligomerlari asosida olingan plastiklarning mo'rtlikni kamaytirish maqsadida kompozitsiya tarkibiga qanday turdag'i termoplastik polimerlar qo'shiladi?**

- A) Polivinilsetat emulsiyasi, polivinilxlorid emulsiyasi.
- B) Polivinilsetat emulsiyasi, polivinil spirti, polivinilbutiral.
- C) Polivinilbutiral, polibutadiyen.
- D) Polivinil spirti, poliglikollar.

## **85. Polipropilen olish jarayonlarining asosiy kamchiliklari nimalardan iborat?**

- A) Polimer tarkibida katalizatorlarni qolib ketishi, polipropilenden ataktik qismini ajratish, oqava suyuqlklarni tozalash, erituvchilarni regenirlash.
- B) Polimer tarkibida katalizatorlarni qolib ketishi, uchuvchan moddalarni ko'p bo'lishi.

C) Polimer tarkibida katalizatorlarni qolib ketishi, reaksiya jarayonida qo'shimcha moddalar hosil bo'lishi.

D) Polimer tarkibida katalizatorlarni qolib ketishi, ortiqcha elektr energiyasi sarflanishi.

**86. Etilenning sopolimeri hisoblangan sevilenning quyidagi qaysi xossalari polietilenden ustun turadi?**

A) Dielektriklik xususiyati.

B) Mexanik mustahkamligi.

C) Tiniqligi va elastikligi.

D) Qayta ishslash qulayligi.

**87. Poliamidlar konstruksion materiallar sifatida qanday xususiyatlarni namoyon qiladi?**

\*A) Yuqori mexanik xususiyatlar, antifriksion va elektr izolyatsiya xossalari, kimyoviy va korroziya ta'siriga chidamlilik.

B) Yuqori mexanik xususiyatlar, yuqori elastiklik va antifriksion xususiyatlar.

C) Yuqori mexanik xususiyatlar, antistatik xususiyatlar.

D) Yuqori mexanik xususiyatlar, issiq va sovuqqa bardoshlilik.

**88. Furan polimerlari quyidagi qaysi monomerlardan olinadi?**

A) Furfurol va etilen.

B) Furfurol, furfurlil spiriti, furfuriindenketon.

C) Furfurlil spiriti va butilen.

D) Furfuriindenketon va stirol.

**89. Ishlatilayotgan monomerlarga qarab nomlangan quyidagi furan polimerlarni qaysi biri to'g'ri?**

A) Furan polimerlari, furan oligomerlari.

B) Furfurolatseton asosidagi polimerlar va krezzollar.

C) Furan polimerlari, furfurlil spiriti va furfurolatseton asosidagi polimerlar, furfurol asosidagi polimerlar.

D) Furfurol asosidagi polimerlar va rezollar.

**90. Furfurolning suyuqlanuvchi oligomerlarini qanday birikmalar bilan olish mumkin?**

A) Geksametilentetramin, furfuramid va azotsaqllovchi birikmalar.

B) Spiritlar.

C) Ishqorlar.

D) To'yingan uglevodorodlar.

**91. Furfuril spiriti asosida termoreaktiv oligomerlar olish qanday texnologik jarayonlardan iborat?**

A) Furfuril spirtini ishqorlar ishtirokida polikondensatlash, neytrallash va quritish jarayonlaridan iborat.

B) Furfuril spirtini suv va malein angidridi ishtirokida polikondensatlash, neytrallash va quritish jarayonlaridan iborat.

C) Furfuril spirtini metall oksidlari ishtirokida polikondensatlash, neytrallash va quritish jarayonlaridan iborat.

D) Furfuril spirtini suv va spirt ishtirokida polikondensatlash, neytrallash va quritish jarayonlaridan iborat.

**92. Kremniyorganik press-kukunlar olishda qanday modda va to'ldirgichlardan foydalanildi?**

A) Tola va noorganik (bo'r, kaolin, talk) to'ldirgichlar qo'shiladi.

B) Yog'och uni va organik (slyuda, kvars unlari, ftoroplast) to'ldirgichlar qo'shiladi.

C) Maydalangan mineral va organik (slyuda, kvars unlari, ftoroplast) to'ldirgichlar qo'shiladi.

D) Maydalangan mineral va metall birikmalari qo'shiladi.

**93. Shishatekstolit olish texnologiyasi qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?**

- A) Shisha matosini tayyorlash, unga kremniyorganik polimer eritmasini shimdirish, presslash va tayyor mahsulotni pressdan keyin harorat ta'sirida ushslash.
- B) Shisha matosini tayyorlash, unga kremniyorganik polimer eritmasini shimdirish, quritish, paket yig'ish va presslash.
- C) Shisha matosini tayyorlash, unga kremniyorganik polimer eritmasini shimdirish, quritish, paket yig'ish, presslash va tayyor mahsulotni pressdan keyin harorat ta'sirida ushslash.
- D) Shisha matosini tayyorlash, unga kremniyorganik polimer eritmasini shimdirish, quritish, presslash.

**94. Monomerlar nima?**

- A) Polimerlarni sintez qilishda ishlatiladigan quyi molekulali birikmalar.
- B) Polimerlarni sintez qilishda ishlatiladigan qo'shimchalar.
- C) Polimerlarni sintez qilishda ishlatiladigan yuqori molekulali birikmalar
- D) Polimerlarni sintez qilishda ishlatiladigan minerallar.

**95. Plastmassalar qanday fizik holatlarda bo'lishi mumkin?**

- A) Shishasimon va yuqori elastik holat.
- B) Shishasimon, yuqori elastiklik va qovushqoq-oquvchanlik holat.
- C) Shishasimon, amorf va yuqori elastik holat.
- D) Qattiq, suyuq va qovushqoq-oquvchan holat.

**96. Polimerlarni fraksiyalashda qanday usullardan foydalilanadi?**

- A) Fraksiyalab cho'ktirish hamda fraksiyalab eritish.
- B) Fraksiyalarni bo'kishi orqali.
- C) Fraksiyalarni erish tezligi orqali.
- D) Fraksiyalarni filtrlash orqali.

**97. Polimerlarni bo'kishi nima?**

- A) Yuqori molekulali modda molekulasini quyi molekulali modda orasida diffuziyalanish jarayoni.
- B) Makromolekulalar orasidagi o'zaro tortishish kuchlarini quyi molekulali moddalar molekulalari ta'sirida o'zilish jarayoni.
- C) Quyi molekulali modda molekulasini polimer makromolekulalari orasida diffuziyalanish jarayoni.
- D) Yuqori molekulali modda molekulasini polimer makromolekulalari orasida diffuziyalanish jarayoni.

**98. Polimer mahsulotlarini plastifikatsiyalashdan maqsad nima?**

- A) Egiluvchanlik va bukiluvchanlikni oshirish, cho'ziluvchanlik va sovuqqa chidamlilikni oshirish.
- B) Egiluvchanlik va mexanik mustahkamlikni oshirish.
- C) Egiluvchanlik va dielektrik xususiyatlarni oshirish.
- D) Egiluvchanlik va termik barqarorlikni oshirish,

**99. Polimerlar destruksiyasining qanday turlarini bilasiz?**

- A) Kimyoviy, issiqlik ta'sirida, tabiiy.
- B) Kimyoviy, mexanik, issiqlik ta'sirida, fizikaviy, biologic, fotokimyoviy.
- C) Kimyoviy, biologic, diffuzion.
- D) Kimyoviy, mexanik, katalitik.

**100. Polimer xom-ashyolarini ishlab chiqarishda ingibitorlarning roli nimadan iborat?**

- A) Polimerlanish reaksiyasini qisman to'xtatuvchi.
- B) Polimerlanish reaksiyasini butunlay to'xtatuvchi.
- C) Polimerlanish reaksiyasini tezlashtiruvchi.
- D) Ingibitor miqdoriga qarab reaksiyani to'xtatadi yoki tezlashtiradi.

## FAN BO'YICHA UMUMIY SAVOLLAR

1. Fan tug'risida tushuncha.
2. Tsigler-Natta katalizatori va sokatalizatorlar
3. Buten-1 monomerining qo'llanilishi
4. Polietilen olish uchun qaysi monomer ishlatiladi va u nimadan olinadi?
5. Polietilen asosan qaysi kursatkichlar bilan tariflanadi?
6. Sklertek texnologiyasida necha xil reaktorlardan foydalilanadi?
7. Yuqori bosimli polietilen deb qaysi PE ni ataymiz?
8. LLDPE va HDPE deb qaysi polietilenlarga aytildi?
9. Yuqori zichlikli PE qanday ko'rsatkichga ega?
10. Past zichlikli chiziqsimon PE boshqa polietilenlardan qanday farqlanadi?
11. "UNIPOL" texnologiyasi boyicha qanday ko'rsatkichga ega bo'lgan polietilen sintez qilinadi?
12. Sklertek texnologiyasini afzalliklari nimalardan iborat?
13. Polietilen makromolekularining tuzilishi va ularni olish usulliga bog'liqligi?
14. Yuqori bosimda polietilen olish uchun asosiy texnologik rejimlarni aytilib bering?
15. Radikal polimerlanish nima va uni etilenning polimerga aylanishi misolida tushintirib bering.
16. Etilenni radikal polimerlash uchun qanday moddalar qo'llaniladi va qaysi usul bilan monomerga beriladi?
  17. Radikal polimerlash uchun qanday reagentlardan foydalilanadi?
  18. Nima uchun "qaytar etilen" iborasi qo'llaniladi?
  19. Polietilenni reaksiyaga kirishmagan etilendan qanday ajratiladi?
  20. Etilen – polietilen aralashmasini fazoviy xolatlarini tushuntirib bering?
  21. Past zichlikka ega bo'lgan polietilenni ta'riflab bering?
  22. Molekulyar massa taqsimoti nima va uni tariflab bering?
  23. Nima uchun yuqori bosimda olingan polietilenni dielektrik ko'rsatkichi yuqori?
  24. Past bosimda polietilen olish uchun qo'llaniladigan katalizatorlar va ularga qoyiladigan talablar?
  25. Past bosimda jarayonni olib borishning texnologik rejimlari?
  26. Texnologik sxemani asosiy bosqichlari.
  27. Nima uchun PB-PE olishda qo'llaniladigan katalizatorlarni kompleks yoki koordinatsion katalizator deb ataladi?
    28. Past bosimda polimerlanish jarayonini olib borishda qaysi suyuqliklardan foydalilanadi?
    29. Nima uchun ayrim adabiyotlarda PBPE olishni "suspenzion" usul deb ham ataladi?
    30. Katalizator qoldiqlarni qanday qilib polietilenda ajratib olinadi?
    31. Nima uchun o'rta bosimli polietilen deb ataladi?
    32. O'rta bosimli polietilen mshlab chiqarish texnologik sxemasini tushuntirib bering?
    33. YUNIPOL texnologik sxemasini tushuntirib bering.
    34. Kukun holatda qaysi usul bilan polietilen olish mumkin?
    35. O'B-PE olishda qaysi katalizatorlar qo'llaniladi?
    36. YuB-PE markalarini tushuntirib bering (konkret marka, masalan: 11503-070).
    37. PB-PE markasi 21008-075 qaysi ko'rsatkichlarga ega.
    38. Polietilenni xossalalariga uning molekulyar massasini, zichligini va kimyoviy tarkibini ta'sirini ko'rsatib bering.
    39. Polipropilenni ishlab chiqarish usuli polietilenni qaysi usuliga yaqin?
    40. Poliizobutilen olish texnologik sxemasini chizing.
    41. Sklertek texnologiyasi boyicha polietilen olish necha zonadan iborat?
    42. "FB-2", "RB" iboralari nimani anglatadi?
    43. Quyi qaynash va yuqori qaynash kolonnalarini vazifasi nimadan iborat?
    44. Faoliyti yo'qotuvchilar sifatida qanday birikmalar qo'llaniladi?
    45.  $\text{Al}_2\text{O}_3$  va silikagel nima uchun ishlatiladi va bu aralashmada aktivlangan  $\text{Al}_2\text{O}_3$  qanday funktsiyani bajaradi?
    46. Sklertek texnologiyasining afzallikni tushuntirib bering.
    47. Sklertek texnologiyasida qaysi turdag'i reaktorlar ishlatiladi va ular qanday ishlaydi?

48. "Xom ashyo" tarkibi nimadan iborat?
49. Vodorodni vazifasini nimadan iborat?
50. Nima uchun buten-1 ishlatiladi va u qanday sintez qilinadi?
51. Reaktor sistemasi va ularning ishlash rejimi: Reaktor №1 Reaktor 3+1 Reaktor 3 → 1.
52. Har xil reaktor sistemasida olinadigan polietilen sifati qanday ko'rsatkich orqali nazorat qilinadi?
53. Gibrild sistema deb qaysi rejimga aytildi?
54. Reaktor №1 ishlash sharoitlarini aytilib bering?
55. Katalizatorlar berish nuqtalarini ko'rsatib bering?
56. Trubasimon reaktor, avtoklav reaktorlar bir-biriga nisbatan qanday ishlash mumkin va u molekulyar massaviy taqsimotga qanday ta'sir ko'rsatadi?
57. Trimmer reaktorini vazifasini nimadan iborat?
58. "Kuchlanish o'rsatgichi" nimani anglatadi va u reaktor sistemasiga qarab qaysi raqam bilan belgilanadi.
59. Polietilenning zichligi nimaga bog'liq?
60. Tor, o'rta va keng molekula massaviy taqsimot qaysi sistema va rejimda olinadi?
61. Standart katalitik sistema tarkibi nimadan iborat?
62. Katalitik sistemasida iqtisodiy optimallashtirish deb nimani tushunasiz?
63. Geterogen yoki gomogen katalizatorlarni farqi nima?
64. Tsigler-Natta katalizatori asosan qaysi tarkibga ega?
65. Katalizatorlarni iqtisodiyot optimallashtirishga qanday ta'siri bor?
66. TIB va STD katalitik sistemalarni qaysi tarkibda ishlatiladi?
67. Sokatalizatorlar tarkibi va ularni roli?
68. Katalizatorlar ishtirokida polimerlanish reaktsiya mexanizmi yozib bering?
69. Qaytarish va alkillash reaktsiyalarini tushintirib bering.
70. Termik ishlov berilgan katalitik sistema tarkibi nimadan iborat?

### MUSTAQIL ISH VA REFERAT TOPSHIRIQLARI

<b>№</b>	<b>Mustaqil ish va topshiriqlarning nomi</b>	<b>Tavsiya etilgan adabiyotlar</b>
1	Poliolefinlar ishlab chiqarish texnologiyasi	Технология пластических масс. Под редакцией В.В. Коршака
2	Polistirol ishlab chiqarish texnologiyasi	Технология пластических масс. Николаев А.Ф.
3	Galogensaqlovchi polimerlar ishlab chiqarish texnologiyasi	Технология пластических масс. Под редакцией В.В. Коршака
4	Poliakril kislotosi hosilalari polimerlari va polivinilatsetat ishlab chiqarish texnologiyalari	Технология пластических масс. Николаев А.Ф.
5	Fenol-aldegid oligomerlari va polimerlari	Технология пластических масс. Николаев А.Ф.
6	Amino-aldegid polimerlari	Технология пластических масс. Под редакцией В.В. Коршака
7	Murakkab poliefirlar texnologiyasi	Технология пластических масс. Николаев А.Ф.
8	Epoksid va poliuretanlar texnologiyasi	<a href="http://www.nirhtu.ru/index_mxti">http://www.nirhtu.ru/index_mxti</a> . "Sintetik va tabiiy yuqori molekulalari birikmalar kimyoviy texnologiyasi" fanidan ma'ruza matni. Ma'rufov F.A., Ishmuxamedova M.
9	Furan polimerlari texnologiyasi	Технология пластических масс. Под редакцией В.В. Коршака, "Sintetik va tabiiy yuqori molekulalari birikmalar kimyoviy texnologiyasi" fanidan ma'ruza matni. Ma'rufov F.A., Ishmuxamedova M.
10	Poliamidlar texnologiyasi	<a href="http://www.chem.msu.su/rus/chair/vms/welcome.html">http://www.chem.msu.su/rus/chair/vms/welcome.html</a> МГУ
11	Polivinil spirti texnologiyasi.	Технология полимеров. Воробьев В.А., Андрианов Р.А.
12	Element organik polimerlar texnologiyasi.	Технология пластических масс. Николаев А.Ф.

## **FOYDALI MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR**

### **Talabalar bilim doirasini kengaytirish uchun qo‘yidagilarni bilishi lozim:**

1. Umumiy kimyo, organik kimyo va fizik kimyo fanlarining asosiy qonuniyatlari va reaksiyalarini.
2. YUMB ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan xom-ashyo va materiallar, hamda YUMB larni olish reaksiya turlari, reaksiya turlarini bir-biridan farqi, polimerlarga xos asosiy atamalar va ularni mazmunini.
3. Dunyodagi xozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan yuqori molekulali birikmalarни miqdorini
4. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikgacha bo‘lgan davrdagi polimerlar ishlab chiqarish xolatini
5. O‘zbekistonda polimerlar ishlab chiqarish uchun asosiy xom-ashyoning mavjudligi va miqdori.
6. O‘zbekistonda xozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan polimerlarni miqdori va turlari.
7. Yaqin 3-4 yil ichida polimerlar ishlab chiqarishni yuksaltirish istiqbollari.
8. Polimerlar ishlab chiqarish bo‘yicha barcha katta va kichik korxonalarining nomlari, joylashgan joyi va ishlab chiqarayotgan polimer turlarini.
9. O‘zbekistonda polimerlardan ishlab chiqarilayotgan tayyor maxsulotlar xili va ushbu maxsulotlarni ishlab chiqarayotgan korxonalarini.
10. Polimerlar va polimer maxsulotlari bo‘yicha O‘zbekistonning eksport imkoniyatlarini bilish lozim

## **FOYDALI MASLAHATLAR**

Ushbu "Sintetik va tabiiy yuqori molekululali birikmalar kimyoviy texnologiyasi" fanini talabalar to‘liq o‘zlashtirishlari uchun qo‘srimcha internet ma’lumotlaridan unumli foydalanishlari hamda o‘z ustida doimo ishlashlari kerak bo‘ladi. Shuning bilan birgalikda bitiruv oldi amaliyoti davrida ishlab chiqarish korxonalaridan amaliyotga rahbar etib tayinlangan mutaxassislar bilan birgalikda u yerdagi mavjud qurilmalarни ishlash prinsiplari, ularning tuzilishi, texnik va texnologik tavsiflarini chuqur o‘zlashtirib olishlari kerak. Nazariy tushunchalar zarurati bo‘lganda esa kafedra professor-o‘qituvchilar bilan bog‘lanib turishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Institut auditoriyasida nazariy manbalar asosida berilgan ishlab chiqarish korxonalarining texnologik sxemalari, jarayonlari, qurilmalarning texnik-texnologik tavsiflari, texnologik chiqindilarning hosil bo‘lish sabablari, ularni qayta ishlash usullari va boshqalarni amalda o‘z ko‘zi bilan ko‘rib taqqoslasa, farqi bormi yo‘qmi o‘rgansa yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Технология пластических масс. Под. ред. В.В. Коршака. М., «Химия», 1985, с.298-315.
2. Бессонов М.И. и др. Полиимида – класс термостойких полимеров., Л., "Наука", 1983 г., 308 с.
3. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi. T., O'zbekiston 2004 й.
4. Голосев А.П., Динцес А.И. Технология производства полиэтилена и полипропилена. М., «Химия», 1978, 263 с.
- 5.Андреева И.Н. и др. Сверх высокомолекулярный полиэтилен высокой плотности. Л., «Химия», 1982, 80 с.
- 6.Abdurashidov T.R., Magrakov F.A. Poliolefinlar texnologiyasi, T., ToshKTI nashriyoti , 2005 й. , 129 v.
- 7.Бакнелл К. Ударопрочные пластики. Пер. с англ. / Под.ред. И.С. Лишанконо, Л, «Химия», 1981, 236 с.
8. Минскер К.С. и др. Старение и стабилизация полимеров на основе винилхлорида. М., «Химия», 1982, 272 с.
9. Фторполимеры / Пер. с англ. Под ред. И.Л.Кнусянца и Б.А. Пономаренко. М., «Мир», 1975, 448 с.
10. Гудимов М.М., Петров Б.В. Органическое стекло. М., Химия, 1981, 260 с.
11. Розенберг М.Э. Полимеры на основе винилацетата, Л., Химия, 1983 г., 252 с.
12. Композиционные материалы на основе полиуретанов. Пер. с англ. Под ред. Ф.А. Шутова. М., Химия, 1982, 214 с.
- 13.Кузнецов Е.В. и др. Альбом технологических схем производства полимеров и пластических масс на их основе. Изд. 2-е. М., Химия, 1975, 74 с.
- 14.Кноп А., Шейб В. Фенольные смолы и материалы на их основе, М., Химия, 1983 г. 279 с.
- 15.Кисилев Б.А. Стеклопластики. М., химия, 1989, 246 с.
- 16.Куликов Е.В. и др. Технология клеевых материалов и плит. М., Лесная промышленность, 1987, 284 с.
- 17.Охрименко И.С. Верхоланцев В.В. Химия и технология пленкообразующих веществ , Л., Химия, 1978 г.
18. Вольф Л.А. Хайтин Б.Ш. Производство поликапроамида, Москва., Химия, 1976 г.
19. Нельсон У.Е. Технология пластмасс на основе полиамидов. Пер. с англ. / под редакцией А.Я.Малкина, Москва., Химия,1979г.212с.

## **INTERNET MANZILLARI**

1. <http://www.ziyonet.uz>.
2. <http://www.nirhtu.ru/index>. мхти.
3. [http://www.mgup.mogilev.by/kafedra\\_htvs.htm](http://www.mgup.mogilev.by/kafedra_htvs.htm).
4. <http://www.chem.msu.su/rus/chair/vms/welcome.html> МГУ
5. [http://www.nirhtu.ru/index.php?option=com\\_content&task=section&id=16&Itemid=22](http://www.nirhtu.ru/index.php?option=com_content&task=section&id=16&Itemid=22) мхти
6. <http://www.stroy-firms.ru.articles/153htm>
7. <http://urozhayna-gryadka.narod.ru>
8. <http://www.mineraltrading.ru/content/view/5/>
- 9.[http://himtrad.ru/kaliy\\_hloristiy\\_k40](http://himtrad.ru/kaliy_hloristiy_k40)
- 10.<http://www.google.ru>

## GLOSSARIY

**«Texnologiya»** - tushunchasi fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha «texnos»-hunar, san‘at, «logos»-fan, so‘zlaridan olingen bo‘lib, «hunar fani» ma’nosini anglatadi.

**Reologiya** – polimerlarni oquvchanligini urganadigan fandir.

**Kompozitsion materiallar** – ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topgan moddalar.

**Termoplast** – bir necha marta termik qayta ishlash imkoniyatini beradigan polimer materiallari.

**Elastomer** – elastiklik xususiyatlari yuqori bo‘lgan va qaytar deformatsiyaga ega bo‘lgan rezinalar.

**Polietyl, polipropilen, polivinilxlorid** – sintetik yuqori molekulali birikmalar.

**Kompozitsiya tarkibi** – kompozitsiyani tashkil qilgan komponentlar.

**To’ldiruvchi** – PVX kompozitsiyasi tarkibiga uning fizik va kimyoviy xossalari yaxshilash va asosiy xom ashyni iqtisod qilish uchun qo’shiladigan poroshoksimon moddalar.

**Plastifikator** – polimerlarni elastiklik xususiyatlarini oshiradigan moddalar

**Qotiruvchi** – polimerlarni qolipga tushgandan sung uni shaklini saqlab qolish maqsadida (masalan, ko’pikpolimerlar) tezda qotirish maqsadida qushiladigan moddalar.

**Stabilizatorlar** – polimer materiallarning mustahkamligi, termik barqarorligi, rangining barqarorligi va boshqa xususiyatlarini oshirish maqsadida qushiladigan moddalar.

**Aralashtirgich** - kompozitsion polimer materiallar tayyorlashda qo’llaniladigan har xil konstruktsion tuzilishga ega bo‘lgan aralashtirgich.

**Quritish** - polimer xom ashyo va materiallarining tarkibidan namlikni chiqarib yuborish uchun qo’llaniladigan texnologik jarayon.

**Eritish** – turli xil moddalarни maqsadli (qaerda va qanday eritib ishlatilishiga qarab) tayyorlab olishda qo’llaniladigan kimyoviy usullardan biri.

**Granullash** – polimer xom ashylarini ishlatishga qulay bo’lishi, yo’qolishlarning kam bo’lishi, atrof-muhitni ifloslantirmasligi (changlanmasligi), transportirovkaning oson bo’lishi uchun o’lchami 3-4 mm li qilib olinadi.

**Tabletkalash** – polimer xom ashylarini qayta ishlash qulay bo’lishi uchun tabletka holiga keltirib olish usulidir.

**Oldindan qizdirish** - polimer xom ashylarini qayta ishlashdan oldin uning tarkibidagi namlikni yo’qotish va destruktsiyani oldini olish uchun qilinadigan texnologik tadbirlar.

**Axborot texnologiyasi** - aholining ruhiyatini, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy, xuquqiy, maishiy, oilaviy odatlari haqida yangi axborot olib turishi va buni o’z ta’lim tarbiyaviy ishlarida foydalanishi axborot texnologiyasini vazifalaridan birdir. Bu yangicha mazmun – axborotlarni o’quvchilarga ma’lum vaqt chegarasida etkazish jarayonini tezlashtiruvchi omillardan birdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini yangi axborotlar bilan taminlash rivojlanadi.

Axborot texnologiyasining yana bir maqsadi insonparvarlik g’oyalarini targ’ib etish bilan birga umumiy emas, aniq bir shaxs tarbiyasiga qaratilgandir.

**Eksperiment** – so’zi lotincha «sinab ko’rish», «tajriba qilib ko’rish» ma’nosini anglatadi. Eksperimental – tajriba ishlari asosan ta’lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqiy jarayonlarini tekshirish aniqlash maqsadida o’tkaziladi.

**«Ekologiya»** - yunoncha so’z bo’lib, tirik mavjudodlarning yashash sharti va tevarak atrofdagi muhit bilan o’zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o’rganadigan fandir. «Ekologiya» atamasi 1866 yilda nemis zoolog olimi E.Gekkel tomonidan kashf etilgan.

**Ekologik ta’lim** - aholiga berilishi lozim bo‘lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

**Ekologik tarbiya** - insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta’lim-tarbiyadan bosh maqsad ham turli yoshdagи kishilarda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakkantirishdan iborat.

**Solishtirma hajm** - Material egallagan xajm uning massasiga nisbati solishtirma xajm deb ataladi.

**Hajmiy massa** - hajm birligiga to’fri kelgan massa hajmiy massa deb ataladi.

**Suv shimplanuvchanlik** - ma’lum haroratda va vaqt mobaynidagi suv ichida turgan biror namunaga shimdirligani suv miqdoridir.

**Polimerlarning oquvchanligi** - oquvchanlik materialning ma‘lum haroratda va bosim ostida oqib qolipni to’ldirish qobiliyatidir.

**Zichlanish koeffitsienti** - ma‘lum miqdordagi qoliplanadigan massani qoliplash vaqtida uning hajmining o’zgarishini xarakterlaydi.

**Issiqlikka chidamlilik** - polimer materiallarning yuk ta’sirida o’zining mexanik puxtaligini yo’qotadigan eng yuqori harorat tushuniladi. Bunda ularning strukturasida hech қандай kimyoviy o’zgarish ro’y bermaydi.

**Siqilishga sinash** - namunalarining sinib tushganga qadar siqulchi kuchlar ta’siriga qarshilik ko’rsata olishi qibiliyati plastmassalarning siqilishiga bo’lgan mustahkamlik chegarasi deb ataladi.

**Statik egilishga sinash** - materiallarning eguvchi nagruzka ta’siriga qarshilik ko’rsata olish qibiliyati statik egilishga mustahkamlik deb ataladi. Bu chegaradan o’tgandan so’ng namuna sinib ketadi.

**Elastiklik moduli (Ye)** - materialning deformatsiyaga qanday qarshilik ko’rsata olishini ifodalaydi.

**Plastmassalarning dielektrik xossalari** - solishtirma elektr qarshilik, solishtirma hajmiy elektr qarshilik, edektrik mustahkamlik (teshib o’tuvchi kuchlanish), dielektrik yo’qotishning tangens burchagi va dielektrik singdiruvchanlik kabi ko’rsatkichlar bilan xarakterlanadi.

**Solishtirma sirt elektr qarshilik (rs)** - elektr maydonidagi materialning  $1 \text{ sm}^2$  yuzidan o’tayotgan tokka qarshilik solishtirma sirt elektr qarshilik ( $r_s$ ) deb ataladi va u [Om] bilan o’lchanadi.

**Solishtirma hajmiy elektr qarshilik ( $r_u$ )** - elektr maydoniga joylashtirilgan materialning  $1 \text{ sm}^3$  hajmdagi o’tayotgan toki ko’rsatadigan qarshilikka aytildi va u [Om . sm] bilan o’lchanadi.

**Ekstruziyalash** - termoplastik polimerlarni har xil profilga ega bo’lgan teshiklar orqali uzlusiz siqib chiqarish va uni sovutish ekstruziyalash deb ataladi.

**Plastikatsiya** – polimer xom ashyosini tashqaridan beriladigan issiqlik yordamida yuqori elastik yoki qovushoq-oquvchan holatga o’tish jarayonidir.

**Intruziya** - rejimida suyuqlanma asta-sekin qolipga aylanib turgan shnek orqali uzatiladi va qolipni 70-80% to’ldirilgunga qadar shnek aylanma harakatda bo’lib turadi; qolgan qismi esa shnekni oldinga qarab harakati natijasida qolipga purkash yo’li bilan uzatiladi.

**Injektsiya** - rejimida esa shnekni aylanishi faqatgina material dozasini yigilish va uni plastikatsiya qilishi mashinaning injektsiya tsilindrda o’tkaziladi. Suyuqlanmani qolipga uzatish shnekni oldinga qarab harakatga kelishi hisobiga amalga oshiriladi.

**Shtampovka** - isitilmagan termoplstlardan mexanik kuch ta’siri ostida buyum hosil qilish texnologiyasi.

**Rotatsion shakllash** - ichi bo’sh buyumlar ishlab chiqarish usuliga kiradi.

**Puflash shakllanish** - termoplastlardan ekstruziyalash (yoki bosim ostida quyish) orqali «eng» formada zagotovka olib, uni puflash orqali ichi bo’sh buyum olish — puflash shakllanish deb ataladi.

**Obrazivlik xususiyat** – materiallarni biror bir truba ichida oqishi natijasida yoki aylanuvchi mexanizmlarni bir – biriga ishqalanib yemirilib ketish jarayoni.